



ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2021-yil, 6-son (130) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV	- O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV	- O'zFA akademigi
M. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV	- t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV	- t.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
J. Ya. YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
Sh. A. HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.M. MAXMUDOVA	- ped.f.d., professor (SamDU)
NAZIF SHAHRANY	- Indiana universiteti professori (AQSh)
MUSTAFA UGURLU	- профессор (Муғла университети, Туркия)
N.T.NURULLAXODJAYEVA	- professor (Moskva Davlat universiteti, Rossiya)
TAMIR KLEIN	- Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
HIROAKI HUZHE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun - 5583,
tashkilot, korxonalar uchun - 5584

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

FILOLOGIYA/PHILOLOGY

Yusupova O. S., Bekmuradova I.Z. O‘zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasini o‘rganish masalalari	4-8
Xudoyqulov B. Italyan tilidagi ayrim somatik iboralar va ularning semantik tahlili (“qo‘l”, “bosh”, “ko‘z” komponentli iboralar misolida)	9-12
Boynazarov Z.M. “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘rganilishi	13-17
Davlatova H. O‘zbek bolalarining xorijiy til o‘rganishida psixolingvistikaning o‘rni	18-26
Ablakulova I.K. O‘zbek romanlarining ingliz tiliga tarjimasida milliylik ruhining ifodalanishi	27-30
Jo‘rayev I.R. “Charog‘i Hidoyat” lug‘ati muallifi Alixon Orzuning so‘zlar izohida fonetik va orfografik munosabati	32-39
Najmiddinov M.G‘. Ko‘p tilli elektron lug‘atlarni yaratishning lingvistik tamoyillari	40-45
Muxammedova X. Viktorian ingliz adabiyotida adibalar nasri Elizabet Gaskell ijodi misolida	46-50
Muxammedova N. Toni Morrison ijodida mistik realizm elementlari	51-55
Qambarova M.M. O‘zbek tilida arxitektura terminlarining qo‘llanilishi	56-59
Sulaymonov I. I. “Boburnoma”da shaxsning ruhiy-psixologik holatlari tasviri	60-64
Tursunova F.G‘. Hajviy asarda xarakter, portret va o‘ziga xoslik (A.Qodiriy asarlari misolida)	65-68
Кадымова Д.Р. Круг «Западно-Восточной» проблематики в русской литературе	69-74
Misliddinova M. «Devon» yuzasidan ayrim tadqiqiy qarashlar	75-81
Усманова Н.К. Интерпритация образа Иисуса Христа в русской и мировой литературе	82-88
Кум С. Ф. Сложные предложения с семантикой присоединения в теоретическом аспекте	89-93
Xoliqulova G.Y. Boburiylar adabiy muhitida Humoyun Mirzoning tutgan o‘rni	94-98
Botirova Abduraxmonova S. S. Ommaviy axborot vositalarida soxta xabarlar	99-104

PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS

Tursunova M. Pedagogik innovatsion texnologiyalar va adabiy ta’limda muammoli ta’limning ahamiyati	105-109
Siddiqov I.B. Oliy o‘quv yurtlari akademik avtonomiyasini ta’minlashning zamonaviy ijtimoiy- pedagogik zaruriyati	110-118

<i>Quvandiqov O.K., Kurbaniyazov S.X., Kurbaniyazov A.S., Boltayev M.</i>	
Oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil o'quv faoliyatlarini yangi innovatsiya texnikalari asosida tashkil etish	119-124
<i>Турсунова Ш. Б.</i>	
Основные методические направления в обучении языков	125-129
<i>Jumazoda M.B.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari	130-136
<i>Baxriddinov N. B.</i>	
Modul-kredit ta'lim tizimi sharoitida talabalarning axborot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari	137-141
<i>Bekniyazova S.N.</i>	
Masofaviy ta'lim va masofaviy o'qitish turining ta'limdagi ahamiyati	142-147
<i>Jo'rayeva N. J.</i>	
Maktab ta'lim sifati tushunchasining mazmuni va umumiy o'rta ta'limdagi mohiyati	148-151
<i>Narziyeva Z.A.</i>	
"Musiqqa madaniyati" dasturining 5-7-sinf o'quvchilarini axloqiy shakllantirishga doir tarbiyaviy imkoniyatlari	152-157
<i>Nasimov S.X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabga moslashishining empirik tahlili	158-162
<i>Qosimov F.J.</i>	
Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish texnologiyasi	163-169
<i>Hayitov A.</i>	
Hozirgi sharoitda talaba – yoshlarning bo'sh vaqtdan foydalanishlarining asosiy yo'nalishlari	170-175
<i>Raxmonova Z.P.</i>	
Maktabgacha yoshidagi bolalarda tabiatga oid bilimlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning ahamiyati	176-179
<i>Berdikulova N.E.</i>	
Ijtimoiy pedagogika fanida innovatsiyaning mazmun mohiyati	180-183
<i>Abdiraxmanov A.</i>	
Amaliy mashg'ulotlar – bakalavr matematiklarni kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi omil	184-188

PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY

<i>Bobanov X.A.</i>	
Globallashtirish jarayonida maktab o'quvchilarining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda pedagogning roli	189-193

Mualliflarga

UDK: 494.3:8

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIY MATN LINGVOPOETIKASINI O‘RGANISH MASALALARI**Yusupova O. S., Bekmuradova I.Z.***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Tilimizning tasviriylik va ekspressivlik imkoniyatlari ko‘pincha badiiy matnlarda namoyon bo‘lganligidan, bu matnlarda til vositalarining ishtirokini stilistik va lingvopoetik aspektlarda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, o‘zbek tilshunosligida bu borada ko‘plab ishlar yaratilgan. Maqolada aynan shu sohada yaratilgan tadqiqotlar haqida fikr-mulohaza, ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar tili, badiiy asar tilini monografik tarzda o‘rganish, individual uslub, lingvopoetika, lingvopoetika muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyalar, monografiyalar.

В узбекском языкознании проблемы изучения лингвопоэтики художественного текста

Аннотация. В связи с тем, что художественные тексты часто раскрывают возможности образности и выразительности нашего языка, важно изучить участие языковых средств в этих текстах в стилистическом и лингвопоэтическом аспектах. Поэтому в узбекском языкознании был создан ряд работ. В статье приводятся отзывы об исследованиях, проведенных в этой области.

Ключевые слова: язык художественного произведения, монографическое изучение языка литературного произведения, индивидуальный стиль, лингвопоэтика, диссертации, посвященные изучению лингвопоэтических свойств, монографии.

In uzbek linguistics problems of studying a literary text’s linguopoetic

Abstract. Due to the fact that artistic texts often reveal the possibilities of the figurativeness and expressiveness of our language, it is important to study the participation of linguistic means in these texts in stylistic and linguopoetic aspects. Therefore, in Uzbek linguistics, a number of works have been created. The article provides feedback on the research conducted in this area.

Keywords: a language of artistic work, the monographic study of the language of a literary work, individual style, linguopoetics, dissertations devoted to the study of linguopoetic properties, monographs.

Kirish: Garchi o‘zbek filologiyasi ilmida lingvopoetika atamasi XX asrning oxirgi choragida qo‘llanila boshlagan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu tadqiqotlarning ko‘pchiligi mumtoz adabiyotimiz poetikasini o‘rganishga bag‘ishlangan kuzatishlar doirasida amalga oshirib kelingan. Ularning ayrim namunalarini Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida uchratamiz. Alisher Navoiy o‘z asarlarida o‘zbek adabiy poetik tilining tasviriy va uslubiy imkoniyatlari naqadar keng ekanligi va ularning bitmas-tuganmas badiiy-estetik salohiyati haqida so‘z yuritib, lingvopoetika nazariyasining poydevorini yaratib berganlar.

Asosiy qism: Tarixiy poetikada she‘riyat uch yo‘nalishda (ilmi aruz, ilmi bade‘, ilmi qofiya) o‘rganilgan va ularda badiiy asar lingvopoetikasiga oid fikrlar bildirilgan bo‘lsa-da, badiiy asar tilini o‘rganish masalasi o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlangan [8.84-90]. Fitrat va Cho‘lponning ayrim maqolalarida va shu yillarda e‘lon qilingan taqriz hamda ilmiy xarakterdagi boshqa maqolalarda badiiy asar tilini o‘rganishga e‘tibor qaratilgan [33.22-26]. Badiiy asarning lingvistik tadqiqi borasidagi dastlabki ishlar badiiy tilni adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish tamoyillarini belgilab bergan I.Sulton va A.G‘ulom nomi bilan bog‘liqdir [22; 34].

XX asrning 40-yillaridan boshlab o‘zbek olimlari badiiy asar tilini monografik tarzda maxsus o‘rganishga alohida e‘tibor qaratganlar. X.Nazarovning Hamza asarlarining, Sh.Shoabdurahmonovning «Ravshan» dostonining til xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan

nomzodlik dissertatsiyalari badiiy til muammolarini o'rganish borasidagi ana shunday jiddiy ishlardan sanaladi [27].

Keyinchalik ko'plab shoir va yozuvchilar asarlarini til aspektida o'rganishga bag'ishlangan monografik kuzatishlar, ko'plab ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi [4;9;12;33]. Bu kuzatishlarning aksariyat qismi til materialini lingvostilistik yo'nalishda o'rganishga, ijodkorlarning individual tili va uslubini tadqiq etishga bag'ishlangan.

S.Karimovning «Badiiy matnning uslubiy alomatlari» qo'llanmasida o'zbek tili tarixida badiiy uslubning shakllanishi va taraqqiyoti haqida fikr yuritilib, o'zbek klassik adabiyoti asosan poetik asarlar tarzida shakllanganligi, yuzaga kelgan janrlar taraqqiyoti ham poeziya rivoji bilan bog'liqligi, badiiy uslubning shakllanishida she'riy san'at va janrlarning xizmati alohida bo'lgani ta'kidlangan [14.6]. Asarda o'zbek adabiy tili va uning badiiy uslubining shakllanishida ma'lum o'rin egallagan ijodkorlar ijodi haqida bahs yuritilgan. Shu bilan birga, o'zbek badiiy uslubining rivojida boshqa omillarning ta'siri haqida ham so'z yuritilgan [14.15-39].

Bundan tashqari badiiy asar tili masalalari bo'yicha bahslar «Badiiy til muammolari» mavzusida «Sharq yulduzi» jurnalining 1985-yil 1-sonidan boshlab berildi [4].

O'zbek tilshunosligida XX asrning 70-80-yillaridan boshlab badiiy asar tilini lingvopoetik nuqtayi nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar maydonga kela boshladi. Jumladan, N.Mahmudovning «Oybek she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi» maqolasida Oybek lirikasiga xos individual o'xshatishlar misollar asosida tahlil qilingan [17.34-36]. Olim «Abdulla Qahhor hikoyalarning lingvopoetikasiga doir» maqolasida esa adibning bir qancha hikoyalari asosida yozuvchi uslubini aniqlashga muvaffaq bo'lgan [18.34-36]. Badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan qator maqolalarda badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari, yozuvchi individual uslubini hosil qilishda til birliklarining ishtiroki, yozuvchining tildan foydalanishdagi mahorati tahlil qilingan [29.16-20; 30.3-9].

Bundan tashqari, o'tgan asrning oxiri va asrimiz boshlarida lingvopoetika muammolari tadqiqiga bag'ishlangan qator dissertatsiyalar yoqlandi, monografiyalar e'lon qilindi. S.Karimovning «O'zbek tilining badiiy uslubi», I.Mirzayevning «She'riy matni lingvopoetik talqin qilish muammolari», M.Yoqubbekovanning «O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari», M.Yo'ldoshevning «Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi» nomli doktorlik dissertatsiyalari, M.Yo'ldoshevning «Cho'lponning badiiy til mahorati», G.Muhammadjonovanning «80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi», D.Shodiyevanning «Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi» nomli nomzodlik dissertatsiyalari, B.Yo'ldoshev, Z.Shodiyevlarning «Ufq» trilogiyasining lingvopoetik tadqiqi masalalari» monografiyalari shular jumlasidandir [15; 19; 5; 12; 10; 20; 28; 9].

O'zbek tilining badiiy uslubi monografik tarzda o'rganilgan S.Karimovning «O'zbek tilining badiiy uslubi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi nafaqat stilistik yo'nalishdagi, balki lingvopoetik masalalarni ham o'z ichiga olgan tadqiqotdir. Ishda badiiy uslubning fonetik, leksik-semantik, frazeologik, morfologik, sintaktik xususiyatlari atroflicha o'rganilgan [15].

I.Mirzayevning «She'riy matni lingvopoetik talqin qilish muammolari» nomli doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tilshunosligida mazkur yo'nalishdagi dastlabki yirik ishlardan biridir. Dissertatsiyadagi lingvopoetik kuzatishlarning markaziga she'riy nutq olinib, bu namunalar tilning barcha sathlari misolida lingvopoetik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. I.Mirzayevning ushbu dissertatsiyasida qofiya, uning leksik tuzilishi semantik tarkiblanishi bilan qiyosan o'rganilgan. Qofiyada so'zlararo semantik munosabatlar, turli so'z guruhlarining qofiya tarkibidagi o'rni, qofiyaning morfologik tuzilishi, so'z turkumlariga munosabati, sintaktik jihatlari kabi masalalar lingvopoetik aspektida yoritilgan. Ishda she'riy nutqning sintaktik tuzilishi unsurlari: misra ko'chishi, so'z birikmasi yoki gapning keyingi misraga ko'chgan holatlarda misra ko'chishining o'ziga xos ko'rinishlari tahlil qilingan. She'riy nutqda kiritmalarning qo'llanilish xususiyatlari uch aspektida – tarkibiy-sintaktik, mazmuniy-uslubiy, ritm-qofiya yasash aspektida o'rganilgan. Bundan tashqari ishda she'riyatda so'z tartibi, uning ikki asosiy turi (to'g'ri va teskari turi) tahlil qilinib, har ikkalasi usluban betaraf va funksional nuqtayi-nazardan teng qimmatlidir, degan xulosalar bayon qilingan [19].

Lingvopoetika tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning biri M.Yo'ldoshevning «Cho'lponning badiiy til mahorati» nomli nomzodlik dissertatsiyasi bo'lib, tadqiqot «Kecha va kunduz» romanining tadqiqiga bag'ishlangan. Ishda lingvopoetik tahlillar asosida ijodkor mahorati ochib

berilgan [10.10-17]. Shuningdek, olimning «Cho‘lpon so‘zining sirlari» nomli risolasida asardagi omonim, sinonim, antonim, paronim so‘zlar, iboralar, maqollarning lingvopoetik xususiyatlari yoritilgan [11]. M.Yo‘ldoshev o‘zbek tili o‘zining estetik vazifasini mukammal bajara olishini Cho‘lpon asarlari orqali ko‘rsatib bergan.

G.Muhammadjonovanning «80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o‘zbek she‘riyatining lingvopoetik o‘ziga xosligi tadqiqi» nomli nomzodlik dissertatsiyasida tadqiqotning maqsadi qilib qamrab olingan davrdagi o‘zbek badiiy nutqining kumulyativ, ekspressiv xususiyatlari ochib berilgan [20].

M.Yoqubbekovanning o‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik ishida xalq qo‘shiqlarida qo‘llangan ifoda tasvir vositalarining lingvopoetik tahlili amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqot xalq qo‘shiqlarini lisoniy va badiiy yaxlitlikda o‘rganib, badiiy asar tahlilida yangicha yo‘nalishning o‘rinlashuvi va takomillashuviga o‘z hissasini qo‘shgan ishlardan sanaladi [5].

M.Yo‘ldoshevning «Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi» nomli doktorlik dissertatsiyasida badiiy matnning lingvopoetik jihatdan tadqiq etishdagi muhim va o‘zak nuqtalar yoritilgan [12.38-98]. Ishda til sathiga oid vositalarning poetik aktuallashuvi alohida-alohida ko‘rib chiqilgan [12.99-260].

B.Yo‘ldoshev va Z.Shodiyevlarning «Ufq» trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari» monografiyasida Said Ahmad asarlari tili va uni o‘rganish muammolari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Muallif nutqi, personajlar nutqi, ularning farqi «Ufq» trilogiyasi misolida ochib berilgan. Trilogiyaning lingvopoetik xususiyatlaridan biri unda dialog va monologlarning mahorat bilan qo‘llanishi bo‘lib, monografiyada bu jihatlar misollar asosida tahlil qilingan [9.25-49].

D.Shodiyevanning «Muhammad Yusuf she‘riyati lingvopoetikasi» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida shoir she‘rlarining leksik-semantik xususiyatlari lingvopoetika bilan aloqadorlikda tahlil etilgan[28]. D.Jamoliddinovanning «Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari» nomli nomzodlik ishida badiiy nutqda axborotning to‘liqroq va badiiy-estetik ta’sirliroq tarzda ifodalanishiga yordam beradigan kiritmalarning lingvopoetik xususiyatlari nasriy asarlar asosida tadqiq etilgan [6].

M.Qosimovanning «Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari» deb nomlangan dissertatsiya ishi Tog‘ay Murod asarlari matni misolida badiiy nutqqa xos bo‘lgan va emotsional-ekspressivlikka xizmat qiladigan lingvistik vositalar tahliliga bag‘ishlangan[32].

Sh.Haydarovning «Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanilishi» nomli nomzodlik dissertatsiyasida badiiy matnning shakllanishi va asar badiiyatini ta‘minlashda parsellyativ qurilmalarning o‘rni o‘rganilgan, ularning lingvistik mohiyati ochib berilgan, ilova hamda boshqa sintaktik qurilmalardan farqli jihatlari izohlangan[35].

F.Ibragimovanning «Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida tejamkorlik tamoyilining sintaktik sathda voqelanishi, shuning natijasi o‘laroq ellipsis hodisasining yuzaga kelishi hamda ortiqchalik tamoyili natijasida hosil bo‘ladigan birliklar misollar bilan izohlangan. Ellipsis va unga yondosh hodisalar (jim qolish, zevgma), antiellipsis va unga yondosh hodisalar (pleonazm, tavnologiya) ishda tadqiq etilgan [7].

D.Andaniyozovanning tadqiqot ishida asarda qo‘llangan shaxs nomlari va joy nomlarining ijodkor maqsadi, asar g‘oyasi va mazmunini yoritishdagi xizmati badiiy matnlarda qo‘llaniladigan onomastik birliklarning lingvopoetikasi orqali yoritib berilgan bo‘lsa[2], D.Turdaliyevanning dissertatsiyasida o‘zbek xalq maqollarining badiiy matnda qo‘llanilish xususiyatlari tadqiq etilgan[24].

S.Umirovanning tadqiqot ishida takror va uning turlari, parallelizm, oksyumoron, epitet kabi lingvistik vositalarning aktuallashuvi orqali poetik individuallik hosil qilinishi Usmon Azim she‘riyati misolida o‘rganilgan. Shakl va mazmun dialektikasida mazmunning birlamchiligi tamoyili Usmon Azim she‘riyatida ham yetakchilik qilishi, takror turlari va parallelizm matn mazmunini butunlay o‘zgartirib yubora olmasligi konstruktiv vazifasi nuqtayi nazaridan yordamchi prinsip sifatida maydonga chiqishi va ular muhim bir poetik vazifaga – ekspressivlikka xizmat qilishi bir qancha misollar orqali izohlangan[25].

Lisoniy vositalarning poetik individuallikni ta‘minlashdagi o‘rni tadqiq etilgan ishlardan yana biri T.Butunboyevanning tadqiqot ishi bo‘lib, unda A‘zam O‘ktam va Minhujiddin Mirzo she‘riyati asosida nazmiy diskurs individualligini ta‘minlovchi fonetik, leksik birliklar, badiiy

tasvir vositalarining stilistik imkoniyatlari o'rganilgan. A'zam O'ktam va Minhojiddin Mirzo ijodiga xos lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlar aniqlangan[3].

Lingvopoetika sohasida yaratilgan dastlabki tadqiqot ishlarida asosiy e'tibor leksik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlariga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik grammatik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari ham yoritila boshlandi va har bir lisoniy birlikning badiiy matnda qo'llanilish xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti bo'la boshladi. Masalan, T.Allayorovning dissertatsiyasida badiiy matnda buyruq va so'roq konstruksiyalarning nutqni individuallashtiruvchi vosita sifatidagi imkoniyatlari ochib berilgan hamda ularning matni shakllantiruvchi xususiyati muallif nutqi va turli badiiy nutq ko'rinishlaridan olingan misollar asosida dalillangan[1]. A.Sobirovning «She'riyatda so'z tartibi» nomli dissertatsiyasida esa o'zbek tilida so'z tartibining turlari, ifoda imkoniyatlari, yondosh hodisalarga munosabati o'rganilgan. She'riyatda so'z tartibining to'g'ri, o'zgargan, kontakt, distant va aralash turlarining birlamchi va ikkilamchi vazifalari aniqlangan. Inversiyaning asosiy vazifalari hozirgi o'zbek she'riyati misolida tadqiq etilgan[21].

Bizga ma'lumki, emotsional-ekspressivlik, estetik jihatdan yuksak ifoda shakllariga ega badiiy nutqning shakllanishida har bir til birligi, har bir lingvistik hodisa o'ziga xos vazifa bajaradi. Nutqdagi tejamlilik va ortiqchalik hodisasi ham bu vazifadan xoli emas. Badiiy matnda tejamlilik va ortiqchalik hodisasining uchrashi, albatta, ma'lum bir lingvopoetik maqsad tufayli bo'ladi va ushbu masalani to'laqonli tahlil etish bir qancha tadqiqotlarni talab etadi. R.Yusubovanning «Tejamlilik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlari» mavzusidagi doktorlik ishi shu sohadagi tadqiqot ishlaridan biri sanaladi. Mazkur tadqiqotda metafora, metonimiya, kinoya asosidagi tejamlilikning badiiy-estetik xususiyatlari o'rganilgan. Poetik individuallikni ta'minlashda ijodkorlarning okkazonalizmlardan foydalanishi, okkazonallik asosidagi tejamlilikning lingvopoetik xususiyatlari S.Sayyid she'riyatidan olingan misollar orqali tahlil etilgan. Sintaktik sathdagi tejamlilikning lingvopoetik imkoniyatlari so'z-gaplar, tasdiq-inkor mazmunining semantik-sintaktik nomuvofiqligi hamda ellipsis turlarining badiiy kommunikatsiyada qo'llanish ko'lamidan kelib chiqib tahlil qilingan. Tadqiqotning e'tiborli tomoni unda mumtoz she'riyatda lisoniy ortiqchalikning lingvopoetik imkoniyatlari yoritib berilganligidir[31].

Xulosa: Xullas, o'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasida bajarilgan ushbu tadqiqotlar badiiy asar estetik qimmatini o'rganishda, sohaga tegishli bo'lgan qator muammolarning yechimida katta ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotlarning har biri lingvopoetikaning alohida fan turi sifatida shakllanganligidan, til estetikasi bilan shug'ullanish masalasi asta-sekinlik bilan filologik tadqiqotlarning tarkibiy qismiga aylanganligidan dalolat beradi. B.A.Larinning: «Ertadir-kechdir, menimcha, juda tez orada til estetikasi alohida fan sifatida tan olinadi»[16], –degan fikrlarining tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Аллаёров Т. Ўзбек тилида буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопозетик хусусиятлари: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф –Гулистон, 2020. – 58 б.
2. Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопозетикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2017.
3. Бутунбоева Т. Замонавий назмий дискурса индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўктам ва Минхожиддин Мирзо шеърияти мисолида): Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф –Самарқанд, 2021. – 49 б.
4. Дониёров Х. Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стиль. – Тошкент: Фан, 1988.
5. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопозетик хусусиятлари: Филол.фан д-ри... дисс.автореф. –Тошкент, 2005.
6. Жамолиддинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопозетик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2009.
7. Ибрагимова Ф. Бадий матнда эллипсис ва антиэллипсис. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011.
8. Исҳоқов Ё. Классик адабиёт поэтикасидан маълумотлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970. - №1. –Б.84-90.

9. Йўлдошев Б. Шодиев З. «Уфқ» трилогиясининг лингвопоэтик тадқиқи масалалари. – Самарқанд, 2006.
10. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол.фан. номз... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. –Б.26.
11. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
12. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2008.
13. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
14. Каримов С. Бадиий матннинг услубий аломатлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1992.
15. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол.фан.д-ри... дисс.автореф. – Тошкент,1993.
16. Ларин Б.А. Эстетика слова и языка писателя. – Л.: Художественная литература, 1974. – С.28.
17. Маҳмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўншатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. – №6. –Б.34-36.
18. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. – №4. –Б.34-36.
19. Мирзаев И.К. Шеърый матннинг лингвопоэтик таҳлили муаммолари: Филол.фан.д-ри... дисс.автореф. – Тошкент,1992.
20. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: филол. фанлари номз....дисс.автореф. –Тошкент, 2004.
21. Собиров А. Шеърятда сўз тартиби: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 47 б.
22. Султонов И. Бадиий асарнинг тили // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1939. -№5.
23. Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017.
24. Турдиалиева Д. Ўзбек халқ мақоллари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс. – Қарши, 2019.
25. Умирова С.Ўзбек шеърятда лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърят мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. – 48 б.
26. Умуркулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.
27. Шоабдурахмонов Ш. О художественном языке дастана «Равшан»: Автореф.дис. ...канд.филол.наук. –Тошкент, 1949.
28. Шодиева Д. М.Юсуф шеърят лингвопоэтикаси: Филол.фан. номз.... дисс.автореф. – Тошкент, 2007. –25 б.
29. Шукуров Н. Бадиий услуб ва бадиий тил // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. - №4. – Б.16-20.
30. Шукуров Н. Индивидуал услуб ва бадиий тил // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, №3. – Б.3-9.
31. Юсубова Р.Тежамлилик ва ортикчаликнинг лингвопоэтик хусусиятлари: филол.фан.доктори(ДSc)дисс.автореф. – Самарқанд, 2021. –76 б.
32. Қосимова М.Б. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол.фан. номз.... дисс.автореф. – Тошкент, 2007. –23 б.
33. Курбонов Т. Бадиий асар тили ва услуби масалалари. – Самарқанд, 2006. – Б.22-26.
34. Ғуломов А. Бадиий адабиётнинг тили ҳақида // Адабиёт ва санъат, 1941.– №1.
35. Хайдаров Ш. Бадиий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши: Филол.фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2011.–26 б.

UDK: 494.3:8

ITALYAN TILIDAGI AYRIM SOMATIK IBORALAR VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI (“QO‘L”, “BOSH”, “KO‘Z” KOMPONENTLI IBORALAR MISOLIDA)**B.Xudoyqulov***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
bekhzod338@gmail.com*

Annotatsiya. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Ushbu maqolada italyan tilidagi ayrim somatik iboralar tahliliga e‘tibor qaratilgan. Maqolada berilgan nazariy ma‘lumotlar misollar orqali asoslangan.

Kalit so‘zlar: Iboralar, tarjima, ekvivalent, asl tarjima.

**Семантический анализ итальянских фразеологизмов
содержащих соматический компонент «рука», «голова», «глаз»**

Аннотация. Во фразеобразовании огромную роль играет человеческий фактор, так как подавляющее большинство фразеологизмов связаны с разнообразными сферами человеческой деятельности. Данная статья посвящена анализу некоторых фразеологизмов на итальянском. Теоретическая информация об фразеологизмах основана на примерах.

Ключевые слова: *Фразеологизмы, перевод, эквивалент, оригинальный перевод.*

**Semantic analysis of Italia phraseological units with the somatic component
"hand", "head", "eye"**

Abstract. Phraseological units are set expressions and their phraseological stability distinguishes them from free phrases and compound words. The article focuses on the analysis of some phraseological units in Italian. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.

Keywords: Phraseological units, translation, equivalent, original translation.

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa yoshlarning jahon hamjamiyatida o‘ziga xos o‘rin egallashga intilayotganini ko‘rsatadi.

Chet tilini o‘rganishda, o‘rganilayotgan tilning milliy-madaniy semantikasini-frazeologizmlarini o‘rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Chunki ular avloddan avlodga tilning o‘ziga xos ichki tuzilmalarini, tabiati o‘ziga xosliklari, mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzilishi, san‘ati, urf-odatlarini hamda tarixini ham o‘zida mujassamlashtira oladi. Ularda turmush tarzi va ko‘plab boshqa milliy mentalitetga xos mavzular aks etgan bo‘ladi.

Tilshunoslikning frazeologiya sohasi so‘zga semantik jihatdan ekvivalent bo‘ladigan turg‘un so‘z birikmalari – ma‘no hamda struktura jihatidan bir butun gapga to‘g‘ri keladigan turg‘un iboralarni o‘rganish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tekshirish bilan shug‘ullanadi. Frazeologizmlar so‘zlar kabi tilning lug‘aviy birliklarini tashkil etuvchi, ko‘p uchraydigan, o‘tkir ma‘noli, nutqda tez-tez takrorlanib turadigan barqaror so‘z birikmalaridir. Bular o‘zlarining ifodalaydigan ma‘nolariga ko‘ra har doim tayyor holda qo‘llaniladigan va bir butun holda ayrim so‘zlarga to‘g‘ri keladigan barqaror so‘z birikmalari sanalsa ham, ba‘zan butun bir gapga to‘g‘ri kelishi ham mumkin. Frazeologiya tilda uzoq davrlardan buyon bir qolipga kelib qolgan, nutq jarayoniga xuddi so‘zlar kabi tayyor holda kiritiladigan barcha turg‘un so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun u yoki bu iborani frazeologiya tarkibiga kiritishda ularning so‘zga yoki gapga ekvivalent bo‘lishiga qarab emas, balki ular fikrlashda tayyor holda olinadimi yoki

nutq soʻzlanayotgan paytda hosil qilinadimi – masalaning ana shu tomoniga alohida eʼtibor berish kerak. Frazologik iboralarni turli tomondan oʻrganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish, umumlashtirish yangidan-yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

Bir tildagi iboralarni oʻzga bir tilga oʻgirish ularni muqobili yoki oʻxshash ekvivalentlarini topish qiyin. Chunki bular darrov kishining xayoliga kela qolmaydi. Masalan:

1. **Essereun tipo o una persona alla mano** - *doʻstona, koʻngli ochiq* va har qanday vaziyatga kirishib keta oladigan odamga nisbatan ishlatiladi.
2. **Essere a portata di mano** - bu ibora biror joyni juda yaqinda joylashganini ifodalashda ishlatiladi. Maʼnosi: *Juda yaqin, bir qadamda*.
3. Ikkinchi iboraning aksi – **fuori mano**; Maʼnolari: Uzoqda/ uzoqda joylashgan
4. **Mani in pasta** – Bu iboraning maʼnosi, qoʻlida ishi bor/ishi tayin
Qoʻl bilan ishlatiladigan iboralarning aksariyati doimo biror ichga hozirlik, sahiylik maʼnolarida ishlatiladi.
5. **Dare una mano** – yordam qoʻlini choʻzmoq/yordam bermoq.
6. **Alzare le mani** - qoʻl koʻtarmoq/urmoq. Lekin bu iborani – savolga javob berish uchun qoʻl koʻtarmoq maʼnosi ham mavjud.
7. **Mani in alto!** - Qimirlama!, Buyruq maʼnosini bildiradi
8. **Ha le mani bucate** – Qoʻli ochiq, sahiy;
9. **In buone mani** – Ishonchli qoʻllarda, himoyada boʻlmoq; Masalan: *Fidati di me, sei in buone mani* – Menga ishon, sen ishonchli qoʻllardasan.
10. **Mettersi una mano sulla coscienza** - Aql bilan/rahm – shavqat bilan munosabatda boʻlmoq/yordam bermoq.
11. **Mette le mani avanti** – *Oldini ol, himoyalana* – Biror salbiy holatni, hafagarchilikni oldini olishda ishlatiladi.
12. **A mano a mano** - Bu iboraning maʼnosi – *sekin-sekin, bosqichma-bosqich*.
13. **Capitare tra le mani** -(Biror imkoniyat) *qoʻlida boʻlmoq, koʻzlagan imkoniyati qoʻlida boʻlmoq*.
14. **Una notizia di prima mano** – *Birinchi marta aytilgan (hali tarqalmagan) yangilik* ga nisbatan ishlatiladi.
15. **Di seconda mano** - *Ishlatilgan, qoʻldan – qoʻlga oʻtgan narsa buyum (avtomobil)* ga nisbatan ham ishlatiladi.
16. **Mordersi le mani** – Oʻtkazib yuborilgan imkoniyat, vaziyatda - *gʻazablanish, gʻazabdan qoʻlini tishlash* maʼnolarida keladi.
17. **Chiedere la mano** - *Qoʻlini soʻramoq (qiz boladan turmushga chiqishini soʻramoq)* maʼnosida ishlatiladi.
18. **Prendere per mano** – *Yordam bermoq, toʻgʻri yoʻlni korsatmoq*.

Har qanday barkamol tarjima ilmiy umumlashtirishga ehtiyoj sezgani holda, sanʼatkorning asliyatga aloqador barcha manbalarni toʻla-toʻkis ilmiy idrok etishini hamda ularga asoslangan jami omillarni oʻz tilida ongli ravishda bekami-koʻst aks ettirishini nazarda tutadi [2 – 3b.].

Somatik frazeologizmlar inson tana aʼzolarining ramzi hisoblanadi hamda keng tarqalgan anʼanalardan guvohlik beradi. Chogʻishtirilayotgan tilda muqobil variantlariga ega boʻlmagan, tillararo taqqoslashda koʻp tomonlama madaniy tafovutlarni yuzaga keltiradigan bir qator madaniy oʻziga xosliklarga ega somatik frazeologizmlar bor.

Quyidagi misollarda italyan tilidagi ayrim somatik iboralarga toʻxtalib oʻtamiz:

19. **Prenderci la mano** - *Oʻrganib olmoq, qoʻli kelishib qolmoq*.
20. **Fatto a mano** – *Qoʻlda yasalgan, yasama*
21. **Ci si lavano le mani** – Maʼsuliyatsiz boʻlmoq - *biror maʼsuliyat olmaydigan kishiga nisbatan*.
22. **Avere le mani sporche** – *Aybдорlikni ifodalaydi. (soʻzma-soʻz tarjimada - kir qoʻllari boʻlmoq)*.
23. **Lavarsene le mani** – *Maʼsuliyatdan bosh tortish*
24. **Mettere la mano sul fuoco** - *Kafolat bermoq, aniqligini tasdiqlamoq*.
25. **Mani pulite** – *Toʻgʻri, xatoga yoʻl qoʻymagan*
26. **Stringere la mano** – *Yaxshi, muvaffaqiyatli kelishuvlar boʻlganda ishlatiladigan ibora*.

27. **Avere le mani lunghe** - Qo'li uzun bo'lmoq, yetarli qudrati bo'lmoq.

28. **Mettersi le mani nei capelli** (si fa così quando si è disperati) – *Umidsiz qolmoq ma'nosida.*

29. **Un pugno di mosche in mano** – *Hech narsaga erishmasdan, hech narsasiz qolmoq.*

Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarni, xususan, somatik frazemalarning semantik maydondagi struktur-semantik va kommunikativ pragmatik jihatdan voqelanishini ko'rsatish tendensiyasi ustivordir. Inson ta'na a'zolari nomlari bilan bog'liq somatik frazeologizmlarni alohida leksik-semantik guruh sifatida semantik-pragmatik va stilistik planda tadqiq etishni ham ana shu yo'nalishda amalga oshirish zarur. [3 – 5b.].

Tarjimaning maqsadi ma'no birlamchiligini hisobga olgan holda asl matnning grammatik shaklini emas, balki bu shakl orqali ifodalangan fikrni qayta tiklashdir. Bu jarayonda boshqa grammatik vositalar qo'llanilishi mumkin. Ayrim hollarda asl matndagi grammatik shaklining ba'zi xususiyatlari – masalan, shaklning qisqaligi, u yoki bu so'z turkumining qo'llanilishi, so'z birikmalari yoki gaplar tuzilishining bir xilligi – ma'lum bir stilistik vazifani bajarib kelishi mumkin. Bunday hollarda tarjimaning maqsadi ushbu xususiyatlarni to'g'ridan-to'g'ri tiklash bo'lmasa-da, bu xususiyatlar funksiyasini tarjima tilining o'xshash vositalari yordamida qayta tiklashdan iborat bo'ladi.

Bu boradagi misollarni quyidagi italyan tilidagi ayrim iboralar orqali ifodalashga harakat qilamiz:

Italyan tilidagi “bosh” komponentli somatik iboralar:

1. **Tagliar la testa al toro** - *Keskin qaror qabul qilmoq. (So'zma – so'z tarjimasi - Ho'kizning kallasini kesmoq)*
2. **Lavare la testa all'asino** - *(So'zma – so'z tarjimasi – Eshakning kallasini yuvmoq)- Ibora – Foydasiz ishni bajarmoq ma'nosida.*
3. **Dare una lavata di testa a qualcuno** – *Biror kishiga qattiq tahbeh bermoq.*
4. **Fasciarsi la testa prima d'essersela rotta** - *Biror narsa uchun oldindan (befoyda) tashvishlanmoq.*
5. **Essere una (gran) testa** – *Ma'nosi - Judda zukko, aqlli inson. (So'zma – so'z tarjimasi – kallasini bor).*
6. **Testa matta, stramba** – *O'zini hayratlanarli, g'alati tutadigan insonga nisbatan ishlatiladi.*
7. **Testa calda** – *G'ayrati/jahli tez odam ga nisbatan ishlatiladi.*
8. **Testa dura** – *O'jar/qat'iyatli odam ga nisbatan ishlatiladi.*
9. **Testa di legno, d'asino, di rapa** – *Aqli kech ishlaydigan odam ga nisbatan ishlatiladi.*
10. **Testa vuota** – *Kallasini bo'm-bo'sh, Javob bera olmaydigan, ma'suliyatsiz odam ga nisbatan ishlatiladi.*
11. **Testa quadra** – *Sekin tushunadigan yoki ijobiy tarzda oqilona, mantiqiy fikrlaydigan odam ga nisbatan ham ishlatiladi.*
12. **Fare un colpo di testa** – *O'ylamasdan, befarq ish bajaradigan odam ga nisbatan ishlatiladi.*
13. **Far girare la testa a qualcuno** – *(Boshini aylantirmoq) O'ziga rom qilmoq, sevdirmoq.*
14. **andare con la testa bassa** - *Boshi egik, uyaladigan odam ga nisbatan ishlatiladi.*
15. **Andare con la testa alta** – *(Boshi baland) Hijolatsiz, boshini tik tutib yura oladigan odam ga nisbatan ishlatiladi.*
16. **Andare a testa alta** – *Mag'rur odam ga nisbatan ishlatiladi -Mag'rur bo'lib yurmoq.*
17. **Agire senza testa, con la testa nel sacco** – *O'ylamasdan harakat qilmoq.*
18. **Perdere la testa** – *Hech narsani tushunmay qolish; Yoki o'ylamay sevib qolishga nisbatan ham ishlatiladi.*
19. **Camminare con la testa nelle nuvole** - *O'ngida orzu/hayol qilib yurmoq.*
20. **Dove hai la testa?** – *(Boshing qayerda) Kimdir, biror ishni o'ylamasdan bajarganda, aytiladi.*

Italyan tilidagi “ko'z” komponentli somatik iboralar:

1. **Chiudere un occhio** → *O'zini hech narsa bo'lmagandek tutmoq, biror narsaga ko'z yummoq.*
2. **Aprire gli occhi** → *Ko'zini ochmoq (to'g'ri yo'lni ko'stamoq.)*

3. **A occhi chiusi** → Osonlik bilan, katta ishonch bilan (biror ishni bajarmoq)
4. **Occhio e croce** → Chamasi, taxminan.
5. **A quattr'occhi** → *Ikki kishining yaqin, yuzma-yuz muloqoti da ishlatiladi – Ko 'z-ko 'zga tushib, yuzma – yuz ma 'nolarida.*
6. **Vedere di buon occhio** → *Xayrihoxligi bo 'lmoq (biror kishiga yoki vaziyatga nisbatan).*
7. **In un batter d'occhio** → *Tez orada, ko 'z yumib ochguncha.*
8. **Tenere d'occhio** → *Ko 'z-quloq bo 'lmoq, nazorat ostiga olmoq.*
9. **Dare nell'occhio** → *e 'tiborni tortmoq, nazarga tushmoq*
10. **A vista d'occhio** → *Tez sur 'atlar bilan o 'zgarib boradigan.*
11. **Avere gli occhi foderati di prosciutto** → *Eng aniq narsalarni ko 'rmay – e 'tibor bermay, yaxshi idrok qilmaydigan, kishiga nisbatan ishlatiladi.*
12. **Essere un pugno nell'occhio** → *Ko 'rimsiz bo 'lmoq. (masalan: ko 'rimsiz bino)*
13. **Guardare con la coda dell'occhio** → *Ko 'z qiri bilan (sezdirmasdan) qaramoq.*
14. **Essere nell'occhio del ciclone** → *Qiyin vaziyatga tushmoq.*

Frazeologik iboralar o'z ma'nodoshlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ularda obrazlilik yorqin tarzda aks etadi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat – holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalardir. Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta'minlashda betakror vositalardir. So'z san'atining ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalanadilar.

Tilshunoslikda frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyati, grammatik tuslanishi va turlanishi o'rganilgan bir paytda, frazeologizmlarning badiiy matnda qo'llanilishi bilan bog'liq ba'zi masalalar o'z yechimini kutmoqda. Birinchi navbatda, frazeologizmlarning asosiy vazifasi shundan iboratki, u badiiy asarning tiliga hamda so'zlashuv nutqiga jilo beradi, uni sayqallashtiruvchi ifodaviy tasvir vositalarining badiiy asarlar tilida namoyon etadi.

Tilshunoslikda frazeologizmlarni aniqlashda ularning tayyor holda nutqda qo'llanilishi, ifodaliligi, tarjima qilinmasligi kabi belgilariga asoslaniladi. Lekin bu belgilar frazeologik iboralarning ichki hamda tashqi sintaktik aloqa va munosabatlarini ko'rsatmaydi. Frazeologizmlarni aniqlashda uni til sistemasiga kirituvchi tashqi munosabatlar ham hisobga olinishi kerak. Bu munosabatda frazeologik ibora kontekstdagi boshqa erkin so'zlar bilan grammatik aloqaga kirishadi, ba'zan bu munosabat shu darajada bo'ladiki, sintaktik planda bu so'z frazeologik iboradan ajratilmay, uning qatorida olib qaraladi. Frazeologiya mustaqil fan bo'lib ajralib chiqqanidan buyon o'tgan nisbatan qisqa vaqt ichida frazeologik birliklar turli jihatlardan o'rganildi. Ularning semantikasiga, grammatik qurilishiga, sintaktik vazifasiga, stilistikasiga oid qator ilmiy izlanishlar yuzaga keldi.

Frazeologik iboralarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish bilan birga, ularning grammatik qurilishi, komponentlar tarkibi, ularning o'zaro bog'lanishi, gapdagi vazifasi, mavjud grammatik kategoriyalarga munosabatini aniqlash ham ularning umumiy xususiyatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Xojiev A. Lingvistik terminlarning izoxli lug'ati. Toshkent: 1985.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik.T.: 2005.
3. Rashidova Umida Mansurovnaning «O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida)» nomli nomzodlik dissertatsiyasi. Camarqand – 2018. 5b.
4. Il Kovalev. Dizionario russo-italiano, italiano-russo. Zanichelli 2007.
5. <http://parliamoitaliano.altervista.org/proverbi-e-modi-di-dire-sul-cuore/>.
6. <https://dizionario.internazionale.it/parola>.

UDK: 494.3:8

“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” ASARINING O‘RGANILISHI**Z.M.Boynazarov***Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Samarqand hududiy bo‘linmasi*

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari va uning ahamiyati, o‘rganilishi, professor Abdurauf Fitrat birinchi o‘zbek koshg‘ariyshunosi ekanligi, Samarqandda koshg‘ariyshunoslik maktabining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, SamDU olimlarining “Devonu lug‘ati-t-turk” asari bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlari, Samarqandda “Devonu lug‘ati-t-turk” asariga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanlar samarasi va kelgusidagi tadqiqotlarning zarurati haqida qisqacha fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Mahmud Koshg‘ariy, Abdurauf Fitrat, “Devonu lig‘ati-t-turk”, koshg‘ariyshunoslik, ilmiy izlanishlar, olimlar, ilmiy anjuman, monografiya, maqola.

Исследование «Девону лугати-т-турк»

Аннотация. В данной статье Махмуд Кашгари и “Devonu lug‘ati-t-turk” и его значения, исследовании профессор Абдурауф Фитрат был первым узбекским исследователем Кашгари, историей создания и развития школы Кашгарии в Самарканде и описал результаты своих научных исследований, результаты проведенных международных научных конференций в Самарканде по “Devonu lug‘ati-t-turk” и необходимость дальнейших исследований.

Ключевые слова: Махмуд Кашгари, Абдурауф Фитрат, “Devonu lig‘ati-t-turk”, Кашгаристика, научные исследования, ученые, научная конференция, монография, статья.

Study of "Devonu lug‘ati-t-turk"

Abstract. In this article the study and significance of the work of Mahmud Kashgari and “Devonu lug‘ati-t-turk”, the fact that Professor Abdurauf Fitrat was the first Uzbek Kashgari scholar, the history of the establishment and development of the school of Kashgari studies in Samarkand, as well as briefly described the results of scientific researches, the results of international scientific conferences held in Samarkand on the work “Devonu lug‘ati-t-turk” and the need for further research.

Keywords: Mahmud Kashgari, Abdurauf Fitrat, “Devonu lug‘ati-t-turk”, Kashgar studies, scientific researches, scholars, scientific conference, monograph, article.

O‘zbek tili va madaniyati tarixini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining alohida o‘rni mavjud. Ushbu lingvoqomusiy manba, nafaqat, o‘zbek yoki turkiy olam, balki butun dunyo olimlarining qiziqish doirasida bo‘lgan va bo‘lib kelmoqda. “Devon”ning yuzaga chiqishida o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy muhiti muhim rol o‘ynagan. Ushbu “Devon” madaniy-adabiy evrilishlar davrida ona tili bo‘lgan – turkiy tilni saqlab qolish, avaylab-asrash, bu tilning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, targ‘ib qilish va rivojlantirish maqsadida yaratilgan. XI asrgacha (balki undan keyin ham) yaratilgan lug‘atlardan Mahmud Koshg‘ariy “Devon”i bir necha xususiyatlari bilan farqlanadi. Boshqa lug‘atlar manbalar, asosan, diniy-adabiy kitoblar asosida yozilgan bo‘lsa, “Devonu lug‘ati-t-turk” jonli xalq tilidan terib olib yozilgan, tahlil va qiyoslashlar orqali mukammallashtirilgan. Xalq jonli nutqi materiallari asosida yozilgan dunyodagi ilk manba – turkiy xalq tarixidagi birinchi lug‘at hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu qadimiy yozma obida dunyo turkologlarining doimiy diqqat markazidir. *Noyob lingvoqomusiy yozma obida birinchi turkiy lug‘at bo‘lganligi, har bir so‘z va konsept zamirida yotgan mazmunning rang-barangligi uni qayta-qayta o‘rganish ehtiyojini oshiradi va bu tadqiqotlar orqali Mahmud*

Koshg'ariy yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy-adabiy shart-sharoitlarini o'rganish, ular bilan tanishish hamda mukammal tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi. Ushbu kichik tadqiqotimizda "Devonu lug'ati-t-turk" asarining samarqandlik olimlar tomonidan o'rganish tarixiga ahamiyat qaratishga harakat qilamiz.

Bizga ma'lumki, Samarqand qadimdan ilm-u fan markazi bo'lib kelgan. Yurtimizdagi ilk madrasa ham aynan Samarqandda qurilgan. Ulug'bek madrasayi oliyasining davomchisi hisoblangan Samarqand davlat universiteti O'zbekistonning ilk ilmiy markazlaridan biri hisoblanadi. Bu oliy dargohda yurtimiz fanida o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lgan tilshunoslik va adabiyotshunoslik maktablari shakllangan va hozir ham o'z faoliyatini olib bormoqda. Birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat Samarqand davlat universitetida o'z ilmiy-pedagogik faoliyatini olib borgan olimlardan hisoblanadi. Ma'lumki, Fitrat filologiya tizimidagi deyarli barcha fanlar zamonaviy ilmiy yo'nalishlarning asoschisi bo'lishi bilan birga Mahmud Koshg'ariy va uning "Devoni lug'ati-t-turk" asari haqida ilk ma'lumot bergan va ilmiy ishlarni olib borgan tadqiqotchidir. Bu haqidagi ma'lumotlar 1927-yil Moskvadan Samarqandga qaytganidan so'ng e'lon qilingan "Eng eski turk adabiyoti namunalari (matn, tadqiqot, izohlar)" asarida o'z aksini topgan edi. Tilimiz va madaniyatimiz tarixida yuksak mavqega ega bo'lgan ushbu asar 1914-yilda Turkiyada topilgan, Istanbulda o'qib, aloqalarni saqlab qolgan Fitrat 3 jildlik shaklda nashr qilinganligi va uni o'qib-o'rganish beqiyos ahamiyat kasb etishi borasida o'z fikrlarini bayon qiladi: "...biz o'zbek adabiyotining tarixi uchun materiallar izlar ekan(miz), chig'atoychag'a borib to'xtalmaymiz. Chig'atoychanning onasi bo'lg'an haligi shevaga (xoqoniy turkchasi) borishg'a majburmiz. Bu shevaning eng eski namunalari bizga "Devoni lug'ati-t-turk" kitobi beradi. ...Mashhur tilshunoslardan pro'fessor Samolovich uning ilmiy xizmatig'a qimmat berish uchun "Mahmud o'z zamonasining Radlovidir. Radlovda o'z zamonasining Mahmudidir" deydi" [6, 118-119] deya uning ilmiy faoliyatiga yuksak baho beradi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Abdurauf Fitrat "Devoni lug'ati-t-turk" asarining ilk tarjimoni bo'lib, "Devon"dagi she'riy parchalarni o'zbek tiliga o'g'irgan va o'z darligida e'lon qilgan.

Shundan so'ng o'zbek ilm-u fanida Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'ati-t-turk" asari muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylanib boradi. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillarida Solih Mutallibov tomonidan asarning o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilganidan keyin ketma-ket ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Samarqandda ham koshg'ariyshunoslik aynan shu davrda yuksalib bordi. Ulug' Tursunov, Botirxon Valixojayev, Hamdam Berdiyev, Rahmatulla Qo'ng'irov, Xudoyberdi Doniyorov, Jo'raboy Hamdamov, Nosir Abdurahmonov, Bozorboy Orinboyev, Nazar Rajabov, Usmon Sanaqulov kabi o'nlab olimlarning turli ko'rinishdagi ilmiy ishlarida "Devon" va uning muallifi haqida o'nlab tadqiqotlar e'lon qilindi. Turli-tuman xarakterdagi bu tadqiqotlarda Koshg'ariyning hayoti va faoliyati, asarning topilishi va nashrlari, yaratilish tarixi va ahamiyati, ichki tuzilishi, muallifning tilshunos, adabiyotshunos, etnograf, shevashunos, geograf, tarixchi, madaniyatshunos va sayohatchi sifatidagi yuksak iqtidori va ilmiy qobiliyati tahlil etilgan. SamDU professori Hamdam Berdiyevning "Devonu lug'ati-t-turk" asari yozilganligiga 900 yil to'lishi munosabati bilan Farg'onada o'tkazilgan ilmiy anjuman taassurotlari o'rin olgan maqolasida ancha qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Garchi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarining qo'lyozma nusxasi tasodifan topilib, ilm ahliga taqdim etilgan bo'lsa-da, bu asarning yozilganligi haqida ma'lumotlar avvaldan mavjud edi. XIV asrda yashab ijod etgan qoshg'arlik olim ibn Muhammadning "Toj ul saodat va unvon-ul-sayodat" kitobida, shuningdek, andaluslik arab va turk tillarining bilimdoni Abu Xayyonning "Kitob ul-idrok" asarining bir qancha joyida "Devonu lug'ati-t-turk"dan aynan ko'chirilgan misralar va havolalar uchraydi. XV asrda yashagan misrlik olim Badriddin Ayniy o'zining "Ittiljumon fitarixi ahli zamon" nomli kitobining "Turk qavmlari qissasi" bobida: "Men bularni Mahmud-ul Koshg'ariyning "Devon"ida ko'rdim", - degan havolasi bor. Bundan tashqari, ayni shu maqolada 1904-yil Vengriya fanlar akademiyasi til bo'limi nashr etgan to'planning adabiyotlar ro'yxatida "Devonu lug'ati-t-turk" asari qayd etilgani haqida ma'lumot beriladi.

Ana shuning uchun ham biz *“Turkiyshunoslik ilmining pahlavoni”* laqabini olgan bobokolonimiz Mahmud Koshg‘ariy bilan haqli ravishda faxrlanamiz [10; 8-10].

Mustaqillik davrida barcha sohalar kabi ilmiy tadqiqotlarda ham milliy o‘zlikni anglash, millatimiz tarixini asl manbalar asosida o‘rganish hissi yuqori bo‘ldi. Bu hol koshg‘ariyshunoslikda ham kuzatilgani sir emas. Akademik Botirxon Valixo‘jayevning *“O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi”* darsligida Koshg‘ariyning adabiyot va adabiyotshunoslikka oid tushuncha va terminlari izohi [11], Abdurashid Abdurahmonovning *“Alp Er Tunga yoki Afrosiyob jangnomasi [8]”, “Alp Er To‘nga (Afrosiyob) abadiyati [7]”, “Alp Er To‘nga shaxsiyati va adabiyot”, “Alp Er To‘nga va fors-tojik adabiyoti”* nomli tadqiqotlarida turkiy xalqlarning afsonaviy qahramoni darajasiga ko‘tarilgan Madi - Alp Er To‘nga haqida *“Devonu lug‘ati-t-turk”* asarida keltirilgan tarixiy ma‘lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, tilshunos olimlar – Ulug‘ Tursunov, Bozorboy O‘rinboyev hamda Usmon Sanaqulovlarning turli yillarda *“O‘zbek adabiy tili tarixi”* va *“O‘zbek tili tarixi”* nomlari bilan nashr qilingan darslik va o‘quv qo‘llanmalarida o‘zbek tili va tilshunosligi tarixidan tutgan o‘rni va ahamiyati ilmiy tahlil va tadqiq qilingan. *“Devonu lug‘ati-t-turk” faqat tilshunoslik asari bo‘lib qolmasdan o‘z davrining ensiklopediyasi hamdir. Chunki unda turli xalqlarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odati, geografiyasi, tabiiy sharoiti, etnografiyasi hamda adabiyoti haqida qimmatli materiallar bor [15;36]*. Etnolingvistik hamda dialektologik tadqiqotlar olib borgan professor Xudoyberdi Doniyorov ham Koshg‘ariyning *“Devon”*ni qimmatli manba sifatida yuksak e‘tirof etadi. Ustozning bu boradagi kuzatishlari *“O‘zbek xalqining shajara va shevalari”* deb nomlangan risolasidan o‘rin olgan. Ushbu qimmatli monografiya 1968-yilda [13] chop etilgan bo‘lib, 2017-yil [12] yana qayta nashr qilindi. Tilshunos olim Nazar Rajabovning ham ilmiy faoliyatida Mahmud Koshg‘ariyning *“Devon”*i muhim o‘rin egallaydi. *“Devonu lug‘atit turk”* va Abdurauf Fitrat [2] risolasida asarning ahamiyati, o‘rganilish tarixi va bu borada Abdurauf Fitratning xizmatlariga baho berilgan. Shuningdek, professor Usmon Sanaqulovning hamkorlikda hamda yakka mualliflikda nashr qilingan ishlarida Koshg‘ariyning *“Devon”*i atroflicha tadqiq qilingan. *“O‘zbek adabiy tili tarixi”* [14], *“O‘zbek adabiy til tarixining ilk davrlari (V-XIV asrlar)”* [4], *“O‘zbek xalqi va tilining ildizlari haqida tarixiy manbalar talqini”* [3] kabi darslik, o‘quv qo‘llanmasi va monografiyalari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, *“Devonu lug‘ati-t-turk”* asarida adabiy til tarmoqlarining yuzaga kelishi haqida”, *“Devonu lug‘ati-t-turk”* asarida Mahmud Koshg‘ariyning tilshunoslik sohasi bo‘yicha nazariy fikrlarini o‘rganish masalasi kabi o‘nlab maqolalarida ham qimmatli fikrlar bayon qilingan. Yana shuningdek, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, tarix, etnologiya, termin va terminologiya, manbashunoslik kabi fan sohalar bo‘yicha himoya qilingan dissertatsiyalarda Koshg‘ariy va uning asari tahlilga tortilgan va bevosita, tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qilgan. Professor M.Abdiyevning soha terminologiyasiga bag‘ishlangan dissertatsiyasi hamda *“Soha leksikasining sistem tahlili”* [5], *“Kasb-korni ifodalovchi shaxs nomlarining yasali asoslari”* nomli monografiyalari shular jumlasidandir. Shuningdek, X.Berdiyevning o‘tovsozlik terminlariga bag‘ishlangan PhD dissertatsiyasida [9] ham tadqiq obyektlaridan biri *“Devonu lug‘ati-t-turk”* hisoblanadi.

Samarqandda koshg‘ariyshunoslikning rivojlanishida 2002- va 2019-yillarda o‘tkazilgan ilmiy anjumanlarning alohida muhim o‘rni mavjud. Ushbu xalqaro ilmiy konferensiyalarda Koshg‘ariy va uning qomusiy asari tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ma‘ruzalar taqdim etilib, *“Devonu lug‘ati-t-turk”*ning dunyoviy ahamiyati haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Asarning yozila boshlanganligining 930 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan *“Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni”* nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plamida turli fan tarmoqlarida faoliyat yuritadigan yuzlab xorijiy va respublikamiz olimlari, jumladan, samarqandlik tadqiqotchilarning ham ilmiy ishlari e‘lon qilingan. Turkiy tillarning grammatik qurilishi masalalariga oid Nosir Abdurahmonov, Zarif Aliqulov, Suyun

Karimov, Alisher G'afforov, Zafar Pardayev; turkiy tillar leksikologiyasi masalalari bo'yicha Bozorboy O'rinboyev, Jo'raboy Hamdamov, Murodqosim Abdiyev, Saodat Boymirzayeva, Azamat Pardayev, Shavkat Maxmadiyev; areal lingvistika masalalariga oid Bekmurod Yo'ldoshev, Qarshiboy Usmonov, Abdurahmon Nurmuhammedov, Jo'liboy Eltazarov, Tohir Qurbonov; adabiyotshunoslik masalalari bo'yicha Botirxon Valixo'jayev, Rahmonqul Orzibekov, Muslihiddin Muhiddinov, Dilorom Salohiy, Shavkat Xasanov, Qobuljon Tohirov, Hamid Absamiyev, Abdurashid Abdurahmonov; manaviyat, tarix va etnografiya masalalariga oid A.Tilovov, F.Nabiyev, R.Yusupov, X.Mamarahimov kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlari bilan ishtirok etishgan. O'zbek, rus, ingliz tillarida o'tkazilgan ushbu anjuman M.Koshg'ariy shaxsi va "Devonu lug'ati-t-turk" asariga bo'lgan 60-70-yillardagi ilmiy qiziqishni qayta tiklashga, uni rivojlantirishga muhim hissa qo'shdi. Bundan tashqari, ushbu ilmiy konferensiya orqali Mahmud Koshg'ariyning nafaqat tilshunos olim sifatidagi mahorati, balki, adabiyot, folklor, dialektologiya, tarix, etnolog, sotsiologiya, geografiya kabi o'nlab fanlar bo'yicha sinchkov tadqiqotchi ekanligi e'tirof etilgan. 2019-yil noyabr oyida otkazilgan navbatdagi xalqaro ilmiy anjuman "Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariy va Alisher Navoiyning lingvistik merosi hamda uning turkiy tillarni o'rganishdagi o'rni" deb nomlangan bo'lib, 30 ga yaqin tezislari Koshg'ariyning tilshunoslik mahoratiga bag'ishlangan. Usmon Sanaqulov, Suyun Karimov, Jo'liboy Eltazarov, Murodqosim Abdiyev, Azamat Pardayev, Faxriddin Shodiyev, Shavkat Maxmadiyev, Sherzod Normo'minov, Laylo Mirzohidovalarning ilmiy ishlari ushbu anjumanda e'lon qilingan.

Umuman, koshg'ariyshunoslik rivojiga katta hissa qo'shgan ushbu xalqaro ilmiy anjuman haqida gap ketganda, turkolog olim, filologiya fanlari doktori, professor Eltazarov Jo'liboy Danabayevichning nomini alohida tilga olib o'tish lozim. Har ikkala konferensiyaning tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida ustozning xizmatlari beqiyos.

Anjuman mavzusi dolzarb. Tadbirning dasturini tuzishda ustozning o'zlari bosh-qosh bo'lgan. Qatnashuvchilarni qabul qilish, joylashtirish va kuzatish masalalari ham domla tomonidan rejalashtirilgan. Anjuman dasturi va materiallarini chop etish katta mehnat talab etsa-da, sinchkovlik bilan tayyorladilar. Dunyo turkolog olimlarni anjumanga jamul-jam qilishning o'zi bo'lmaydi. Ilm ahlini jalb qilish orqali yosh tadqiqotchilarda ilmga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsad qilingan. Ilmiy tadbirda dunyo ilm-u fani yutuqlari bilan yoshlarni yaqindan tanishtirish uchun qilgan xatti-harakat tahsinga sazovordir. Ustozning butun ilmiy faoliyatida M.Koshg'ariy va uning "Devon"i alohida o'rin egallaydi. So'z turkumlari, ularning turkumlanishi va nazariyasi, tilda qisqaruv hodisasi, dialektologiya, o'zbek va turkiy tillar hamda shevalar areallingvistikasi, tilimizning dunyoda tutgan o'rni va mavqeyini oshirish borasidagi tadqiqotlarida – bir necha tillarda nashr qilingan dissertatsiya va monografiyalarida [17,18,19], ilmiy maqola va ma'ruzalarida ushbu asarning beqiyos ahamiyati haqidagi fikrlari o'rin olgan. "Devonu lug'atit turk" turkiy tillar morfologiyasiga bag'ishlangan dastlabki asar" [16], "Mahmud Koshg'ary's Mar of turkic Wolrd and modern geopolitical position of turkic peoples" [1] kabi o'nlab ilmiy ishlarida ushbu tarixiy obidani tadqiq va tahlil qilgan. Bu yo'nalishdagi faoliyatini hozir ham davom ettirmoqda. Shu sababli ustoz – Jo'liboy Eltazarovni "Devonu lug'ati-t-turk" asarining tadqiqotchisi va targ'ibotchisi, deb atash mumkin.

Umuman olganda, ilm-u ma'rifat o'chog'i bo'lmish Samarqand va uning olim-u fuzalolari M.Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarini atroflicha tadqiq qilishgan. "Devon"da hali tahlil qilinadigan, ilmiy tadqiqotlar olib borish lozim bo'lgan jihatlari talaygina, nazarimizda. Asar yaratilishining tarixiy-ijtimoiy mohiyati o'tganish va targ'ib qilish nihoyatda muhim. Shuningdek, har bir yo'nalish va tematik guruhlariga oid so'z va iboralarni alohida tadqiq qilish va bugungi kun zamonaviy o'zbek tili terminologiyasiga tatbiq

etish kerak. O'zbek tilining tarixiy konseptosferasida "Devonu lug'ati-t-turk" asari muhim ahamiyat kasb etganligi uchun uning tarixiy o'tnini ilmiy asos belgilab berish lozim. Bundan tashqari, adabiyotshunoslik va folkloristika bo'yicha ham qayta o'rganilishi kerak bo'lgan jihatlar ham mavjud. Jumladan, islom va islomgacha bo'lgan davr adabiy-badiiy namunalarni boshqa davr manbalari bilan qiyosan tadqiq qilish zarurati mavjud. Turkiy xalqlarning nodir durdonasi hisoblanmish "Devonu lug'ati-t-turk" asari hali ko'p tahlil qilinadi, mushohada yuritiladi. Negaki, ushbu "Lug'at" kitobi tadqiqotga boy manba hisoblanadi. Asar yaratilganiga ming yilga yaqin vaqt o'tganiga qaramay hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Eltazarov J. Mahmud Koshgariy's Mar of turkic Wolrd and moder ngeopolitical position of turkic peoples//Махмуд Кошғарийнинг "Девону луғатит турк" асари ва унинг туркий халқлар маданияти жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Конференция материаллар тўплами. Самарқанд, 2002.
2. Rajabov N., Rajabova D. "Devonu lug'atit turk" va Abdurauf Fitrat. Samarqand, 2002.
3. Sanaqulov U. "O'zbek xalqi va tilining ildizlari haqida tarixiy manbalar talqini" (Monografiya, I qism). –Toshkent: Navro'z, 2015, -190 b.
4. Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari (V-XIV asrlar). – T., 2004.
5. Abдиеv M. Soha leksikasining sistem tahlili muammolari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
6. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. VI jild. Toshkent. Ma'naviyat, 2006.
7. Abdurahmonov A. Alp Er To'nga (Afrosiyob) abadiyati. – Samarqand: Sug'diyon, 1999. -56 b.
8. Abdurahmonov A. Alp Er To'nga yoki Afrosiyob jangnomasi. – Toshkent: Cho'iron, 1995. -32 b.
9. Berdiev X. O'zbek tilining o'tovsozlik leksikasi. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. 2017, 47 b.
10. Berdiyov H. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit turk" asari haqida//O'zbek tilshunosligi masalari. Samarqand: -SamDU. 2012.
11. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston. 1993, – 191 b.
12. Doniyorov X. "O'zbek xalqining shajara va shevalari" (risolasining qayta nashri). Monografiya. -T.: Navro'z, 2017, 136 b.
13. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – T., 1968.
14. Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. -T., Fan. 2001, 289 b.
15. Tursunov U., O'rinboev B. O'zbek adabiy tili tarixi. – T., 1982.
16. Eltazarov J. «Devonu lug'atit turk» - turkiy tillar morfologiyasiga bag'ishlangan dastlabki asar. O'zbek sharqshunosligida ilmiy til muammolari: Ilmiy anjuman materiallari (1995 yil, 27 dekabr). – Toshkent, 1995.
17. Eltazarov J. So'z turkumlari haqidagi lingvistik nazariyalar. Samarqand: SamDU, 1996.
18. Eltazarov J. Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. Samarqand: SamDU nashr., 2004.
19. Eltazarov J. O'zbek tili so'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa va ko'chish hollari. - Toshkent: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2006.

UDK: 811.111

**O‘ZBEK BOLALARINING XORIJIY TIL O‘RGANISHIDA
PSIXOLINGVISTIKANING O‘RNI****H.Davlatova**

Andijon davlat universiteti

dhulkaroy@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixolingvistikaning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, xorijiy til o‘rganishda psixolingvistikaning o‘rni va roli haqida fikr yuritiladi. Psixolingvistika haqida g‘arb va sharq olimlarining qarashlari bayon etilgan. Psixolingvistika nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish, ona tili va chet tilini o‘zlashtirish jarayonlariga murojat qiladi. Til tafakkur singari ijodiy jarayon bo‘lib, til paydo bo‘lishining eng birinchi sababi insonni ichki ehtiyoji, ya‘ni olam va boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishishidir. Ilk maktab yoshidagi o‘quvchilarning idroki, xatti-harakatlar, o‘yinli harakatlar, mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi chet tili, xususan, ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘qituvchi ko‘rsatmalarini hamda darslik, multimediya vositalaridan berilgan rang-barang tasvirli materiallar orqali til o‘rganishni amalga oshirib boradi.

Kalit so‘zlar: Psixolingvistika, xorijiy til, ona tili, nutq hosil qilish, o‘quvchilar idroki, til o‘rganish.

Роль психолингвистики в обучении иностранных языков узбекских детей

Аннотация. В статье исследуются становление психолингвистики как науки, этапы развития, роль психолингвистики в изучении иностранного языка. Обсуждаются взгляды западных и восточных ученых на психолингвистику. Психолингвистика относится к процессам формирования речи, восприятия речи, овладения родным и иностранным языком. Язык, как и мышление, - это творческий процесс, и первая причина появления языка - это внутренняя потребность человека, то есть его взаимодействие с вселенной и другими существами. Он напрямую связан с восприятием, поведением, игровыми действиями и трудовой деятельностью школьников младшего школьного возраста. В процессе изучения иностранного языка, в частности английского, ученик начальной школы изучает язык по инструкциям учителя и красочным иллюстрированным материалам, предоставленным из учебников и мультимедийных средств.

Ключевые слова: психолингвистика, иностранный язык, родной язык, формирование речи, восприятие учащимися, изучение языка.

The role of psycholinguistics in the learning of foreign languages by uzbek children

Abstract. The article examines the formation of psycholinguistics as a science, stages of development, and the role of psycholinguistics in the study of a foreign language. The views of Western and Eastern scientists on psycholinguistics are discussed. Psycholinguistics refers to the processes of speech formation, speech perception, and mastery of native and foreign languages. Language, like thinking, is a creative process, and the first reason for the appearance of language is the inner need of a person, that is, his interaction with the universe and other creatures. It is directly related to the perception, behavior, play actions and work activity of primary schoolchildren. In the process of learning a foreign language, in particular English, an elementary school student learns the language according to the teacher's instructions and colorful illustrated materials provided from textbooks and multimedia tools.

Keywords: psycholinguistics, foreign language, mother tongue, speech formation, student perception, language learning.

Ma'lumki, istiqlol bergan ne'matlar sirasira xorijiy tillarni o'rganish, chet ellarga chiqish va xorijiy yurtlarda o'sha elning ona tilida so'zlashish imkoniyati ham kiradi. Mustaqillik yillariga kelib yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga e'tibor kuchaydi. Bu sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, yoshlarimiz orasida chet elliklar bilan muloqot qila oladiganlar ko'p. [20] XX asrning oxiri XXI asrning boshlaridan boshlab xorijiy tillar, xususan, ingliz tilini o'rganish, yurtimizdagi umumiy o'rta ta'lim, maktablaridagi o'quvchilarning sevimli mashg'ulotlaridan biriga aylanib ulgurgan edi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti xorijiy tillarni o'rganishning dolzarbligi va ahamiyatini quyidagicha tushuntirganlar: "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimizga xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir.[2:44]

Kelajak avlodning vorislari bo'lmish yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan intilishlarini inobatga olib, bu jarayon davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori bilan mustahkamlandi. Bu qarorga binoan, chet tillarni o'rganishdan asosiy maqsad zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, deb belgilangan.[3]

Uning ijrosiga ko'ra 2013/2014 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida chet tillarini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanishi belgilab qo'yildi.

Mazkur qarordan so'ng, chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini maktabgacha ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridan boshlab o'qitish yo'lga qo'yildi. Maktablarda boshlang'ich sinfdan boshlab xorijiy tilni o'rganish o'quvchilarning til o'rganish imkoniyati, yodda saqlash qobiliyati qanday bo'lmasin, o'quvchilar uchun har taraflama foydalidir. Shuningdek, chet tilini maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sinfdan boshlab samarali o'qitish bugungi kunda chet tili o'qitishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Chet tilini o'rganishni ta'limning ilk bosqichidan boshlab joriy etish esa bolalarda chet tili kommunikativ kompetensiyalarini yaxshiroq rivojlantirishga xizmat qiladi.

Psixologiya fanlari doktori, professor E.G'oziyev kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sezgi, idrok, tafakkur kabi bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari quyidagicha izohlaydi. Ilk maktab yoshidagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi o'quvchilardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. [14:120]

Bizga ma'lumki, bog'cha yoshidagi, ilk maktab yoshidagi bolalarda til qonuniyatlarini o'rganishdan ko'ra, yodlash qobiliyati yuqori bo'ladi. Bog'cha yoshidagi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va ingliz tilida muloqot qilishlari biri biridan keskin farq qiladi. O'zbek tilida muloqot qilish uchun o'quvchilard tabiiy muhit yetarli, chunki bog'chada, maktabda, sinfdagi darslarda, o'rtoqlari bilan muloqot jarayonida, uydagi holatda ham bevosita so'zlashuv jarayoni ona tilida amalga oshiriladi, ota-onasi, bobo-buvisi, hattoki televideniyalardagi ko'rsatuvlarning deyarli hammasini ona tilida ko'radi. Ona tili o'zbek o'quvchilarining kundalik hayotiga singib ketgan. Ingliz tili o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari uchun bunday imkoniyat mavjud emas. Ular ingliz tili darslaridagina ingliz tilida

muloqot qilishlari mumkin. Ingliz tili darslarida ham o'quvchilarga muloqotni o'rgatish maqsadida sun'iy nutqiy vaziyatlarni vujudga keltirish zarur. O'quvchilar tevarak-atrofni o'z ona tilisida idrok etib tushunishadi, bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar.

Xorijiy til bolaning o'rganish jarayonlari xotira, diqqat, tafakkur, xayol va idrokning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda o'qituvchi, yakka tartibda, juftliklarda, jamoa bo'lib va guruhlarda ishlasa, yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bolalar bir-birlarining nutqiga taqlid qilgan holda, o'z tengdoshlaridan xorijiy tilni tez va oson o'rganadilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil oluvchi o'quvchilar uchun yaratilgan darsliklarida, maktabning 1-sinf o'quvchisi o'quv yilini tamomlaganda ingliz tili fanidan 150 ta ingliz tilidagi so'zni o'zlashtirishi kerak bo'ladi, lekin 1-sinf o'quvchilari til o'rganish me'yorlarini to'liq o'zlashtira olishmayapti. Buning asosiy sababi, ingliz va o'zbek tillari bir til oilasiga mansub emas. Til o'rganish jarayonida o'zbek o'quvchilari fonetik, leksik, grammatik jihatdan turli qiyinchiliklarga duch kelishyapti. Ayniqsa, ingliz tilidagi so'zlarni talaffuzida qiyinchiliklar sezilarli darajada, buning asosiy sababi, ingliz tili alifbosidagi harflarning ayrimlari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yo'qligidir. Ingliz tili tovushlarini talaffuz qilishda o'zbek tilidagi tovushlar aytilishidek talaffuz qilishadi. Masalan, **“school, note-book, blackboard, little, number, game, table”** bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tili o'qituvchisi tomonidan, o'tiladigan mavzu haqida o'quvchilarning ona tilisida tushuncha hosil qilinishi kerak. Masalan, 1-sinf darsligida berilgan **“Robot jump”** mavzusining asosiy maqsadi, sport mashg'ulotlari harakatlarini o'yin orqali o'rgatish bilan birgalikda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish va ingliz tilida gapirish ko'nikmasini hosil qilish hamda so'z boyligini oshirishdir. [6:50] Bizga ma'lumki, bir guruhdagi yoki bir sinfdagi o'quvchilarning til o'rganish va o'zlashtirish qobiliyatlari bir xil emas, lekin o'yin orqali o'rgatilayotgan ingliz tili darslarida o'quvchilar til o'rganishga qiziqmasalarda, yuqoridagi aytib o'tilgan darsda **“Robot swim, Robot go, Robot climb, Robot run, Robor fly, Robot dance”**ning xatti harakatlariga qiziqib va do'stlariga taqlid qilib tilni o'rgana boshlaydilar. **“I have a ball”** mavzisining oxirida o'quvchilarning gapirish nutqini o'stirish, o'yinchoqlar nomlari va ularning ranglarini aytish orqali, yangi so'zlardagi [o] unli tovushining to'g'ri talaffuzini o'rgatish, o'quvchilarning ingliz tili nutqini to'g'ri shakllantirish.[6:38] Masalan: **“I have a ball, ball, ball”, “I have a doll, doll, doll”** so'zlarini qayta-qayta takrorlatish orqali, til oldi qisqa [o] tovushini to'g'ri talaffuz qildirishga erishish. O'qituvchi ingliz tili darslari davomida turli rasmlardan, ko'rgazmali vositalar, ovozli yozuvlardan va o'quvchilarning yoshiga mos video roliklardan foydalanish orqali va tevarak atrofni idrok ettiruvchi ma'lumotlar, hayvonlar tasviri ifodalangan ko'rgazmali qurollar bilan yanada o'quvchilarning ingliz tilidagi nutqini, talaffuzini to'g'ri shakllantirishni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, yangi mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinsa, ularning idrok qilish qobiliyatlari va ingliz tilidagi nutqi, talaffuzi yanada rivojlanadi: **«What is it?», «What colour is it?», «Do you like it?»**.

Bizga ma'lumki, maktablardagi darslar 45 minutlik. Bu vaqt orasida o'qituvchi o'tilgan mavzu bo'yicha uyga vazifani so'raydi, yangi darsni tushuntiradi va mashqlar bajartirishga ulgurishi kerak, tabiiy holatki, maktablardagi ingliz tili fani o'qituvchilari bu mashqlarning hammasiga ham ulgurmaydi. Buning asosiy sababi, ingliz va o'zbek tillari boshqa til oilalariga mansubligi, xorijiy til o'rganish uchun tabiiy muhitning yo'qligidir. Maktablarda ingliz tili bilan birgalikda rus tili fani ham maktab darsliklaridan o'rin olgan. Rus tili ham o'zbek o'quvchilari uchun chet tili hisoblanadi, lekin o'zbek o'quvchilari ingliz tiliga qaraganda rus tilini oson o'zlashtiradilar. O'zbekiston hududida rus tilida faoliyot yurituvchi bog'chalar yetarlicha. Rus tilini farzandiga o'rgatmoqchi bo'lgan ota-onalar farzandlarini rus tili bog'chasiga beradilar va ularning bo'sh vaqtlarida o'zlarida o'zlari ham rus tilida og'zaki muloqotni olib boradilar va shu orqali rus tilidagi nutqini o'stiradilar. Natijada, bolalar rus

tilini tez fursatda o'zlashtira boshlaydilar. Rus tilida erkin muloqot qilishlari va nutqini ravon bo'lishi uchun ota-onalar farzandlarini bog'chadan so'ng rusiyzabon maktabga berishadi. Maktablardagi darslar va mashg'ulotlar rus tilida olib boriladi va bolalar tez fursatda rus tilida erkin gaplasha oladilar. Ingliz tilini o'rganish jarayonidagi muhit rus tilinikidan biroz farq qiladi, ingliz tilidagi muloqot faqat maktabda o'qituvchi rahbarligida bo'ladi. Bog'chadan va maktabdan qaytgan o'quvchining uydagi bo'sh vaqtida faqat ona tilida muloqot amalga oshiriladi. Shu sababli ingliz tilini o'rganish bo'yicha o'zbek o'quvchilari biroz ortda qolmoqdalar.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansubligi tufayli, til o'rganuvchilarda fonetik va grammatik jihatdan qiyinchiliklar vujudga kelyapti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan chet tillarni, xususan, ingliz tilini bog'cha yoshidan boshlab o'rgatilishiga katta e'tibor qaratilyapti, lekin shunga qaramay, ingliz tilini o'rganishda bir qator qiyinchiliklar sezilyapti. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun maxsus o'quv qo'llanma, darsliklar ishlab chiqilgani yo'q. Ingliz tili o'qituvchilari bog'cha tarbiyalanuvchilarining qiziqishlariga qarab mavzu tanlashadi va 25-30 minut davomida dars o'tishadi. Darslarda asosan, mevalar, sabzavotlar, hayvonlar (yovvoyi va uy hayvonlari), ranglar, oila a'zolari va qisqa she'rlarni va qo'shiqlarni o'rgatishadi.[27]

Bog'cha tarbiyalanuvchilariga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni, ya'ni bolalarning idrokiga, sezgi-tuyg'ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga mos bo'lgan darsliklar ishlab chiqish zarur. Maktab yoshiga yetgan bog'cha tarbiyalanuvchilarining (6 yosh) aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvi hamda yodda saqlash qobiliyatlari ancha shakllangan bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda, bog'chadagi guruhlarda olib borilayotgan ingliz tili mashg'ulotlarida ularning bilishga qiziqishlarini yanada orttiradi, ularning ko'pchiligi predmetlarni va rasmlarni ko'rib, ushlab o'rganish va harakatli o'yinlar, taqlid qilish orqali tilni oson o'zlashtiradilar va shu tilda nutqi tez rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi hamda mahsuldorligi ortib boradi va, nihoyat, idrok qilish orqali aqliy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlari shakllanib boradi.

Maqolaning asosiy qismida psixolingvistikaning tarixiga nazar solishni maqsadga muvofiq deb topdik. Chunki, xorijiy til o'rganishda psixolingvistikaning qanday o'rni va roli borligi ko'pchilikning qiziqtirishi tabiiy hol. Ilk marta "Psixolingvistika" atamasi amerikalik psixolog J.R.Kantor tomonidan 1936 yilda "Ob'ektivnaya psixologiya grammatiki" asarida qo'llangan bo'lib,[25] keyinchalik tilshunoslar e'tiboriga tushishi va keng ko'lamda qo'llanilishi 1946-yilda uning shogirdi N.G. Pronko "Yazik i psixolingvistika" nomli maqolasini chop etgandan so'ng ommalashdi. Tilshunoslikda ilmiy foydalanishga kirib kelishi 1953-yilda ro'y berdi.[26:43]

Psixolingvistika fani XIX va XX asrlar mobaynida bir guruh olimlar: tilshunoslar, psixologlarning bahs-munozaralarining asosiy mavzusidagi fanlardan biri bo'ldi. Tilshunoslikning rivojlanishiga va psixolingvistikaning shakllanishiga hissa qo'shgan olimlardan biri Boduen de Kurtenedir. U tilni har xil guruhlardan tarkib topgan murakkab psixosotsial mohiyat sifatida talqin qildi. Uning fikricha, til muayyan bir jamiyatni tashkil qilgan individlar ongida, individlar psixikasida, individlar tili sifatida yashaydi. Boduen de Kurtene o'z tadqiqotlarida individlar nutqiga asosiy e'tiborni qaratdi. "Inson tilining mohiyati faqat psixikdir. Tilning mavjudligi va uning rivojlanishi sof psixik qonuniyatlar bilan bog'langan. Inson nutqida yoki tilida birorta ham psixik bo'lmagan hodisa mavjud emas va mavjud bo'lishi ham mumkin emas", deb aytgan.[24] Psixolingvistika fanining paydo bo'lishiga tamal toshini qo'ygan va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda, bu fanning faoliyati nutq bilan bog'liqligiga amin bo'ldik.

Pixolingvistika ikki fanning: lingvistika va psixologiya fanlarining birlashuvidan paydo bo'lganligi va unga ko'ra, lingvistika nutq tuzilishini til qonuniyatlariga ko'ra o'rgansa, psixologiya esa bevosita insonlarning xotira, tafakkur va fikrlashning yoshga bog'liq xususiyatlarining tadqiqi bilan shug'ullanadi. Psixolingvistika esa nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish, shuningdek ona tili va chet tilini o'rganish jarayonlariga murojaat qiladi. Psixolingvistika tilshunoslikning nutq jarayonini, nutq akti va so'zlovchi, axborotni yuzaga keltiruvchi shaxsning maqsadi va mazmuni orasidagi munosabat nuqtayi nazaridan o'rganuvchi sohasidir. Tilshunoslikda esa so'zlovchining ijtimoiy ongi, ijtimoiy hayoti va tilning mazmun tomoni orasidagi aloqalarini o'rganuvchi bo'limidir. "Psixolingvistika" atamasiga olim E.R.Daybold tomonidan quydagicha ta'rif berilgan, "inson tili va verbal hulqning muayyan aspektlariga nazariy va eksperimental yondashuvlarning ayrim aralashmasini anglatadi"[15]. Til jismoniy, psixik komponentni birlashtirish mobaynida, insonning muloqoti va faoliyatini amalga oshiruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Til jismoniy, psixik komponentni birlashtirish mobaynida, insonning muloqoti va faoliyatini amalga oshiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Bu sohada sermahsul ijod qilgan va birinchi o'rinni egallagan lingvistika nisbiyligi nazariyasi asoschisi Sepir-Uorf bo'lib, u til va fikrlashning o'zaro aloqadorligini tadqiq etgan.[13:101] Mazkur fanning asosiy ikkinchi manbasi asoschisi amerikalik strukturalistlar bo'lib, ular N. Xomskiyning aynan til orqali fikrlarni bayon etish va to'g'ri talaffuz qilish nazariyasini ilgari surganlar.[16:34] Fanning uchinchi manbasi - L.S. Vigotskiyning belgilangan faoliyatni amalga oshirish uchun nutq zaruriyati xususidagi fikrlari, bu fanning oxirgi manbasi hisoblanadi.[17:126] Bugungi kunda psixolingvistika fanining asosiy vazifalaridan biri, nutqning paydo bo'lishi va amalga oshirilish mexanizmlarini o'rganish asosida nutqiy xabarlarini tavsiflash, jamiyatda nutqiy faoliyat funksiyalarini, muloqot qatnashchilari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishdan iboratdir. Inson nutq faoliyatini o'rganish mazkur fanning ob'ekti hisoblanadi. Rus psixolingvistikasining ko'zga ko'ringan vakili A.A.Leontevning fikriga ko'ra, "psixolingvistikaning obyekti nutqiy hodisalar yoki nutqiy voqealarning o'zaro hamohangligidir.[18:16] Psixolingvistikani tadqiq etishda boshqa nutqiy fanlarga oid bo'lgan usullardan keng foydalaniladi. A.A. Leontev ularni uchta katta guruhga bo'lgan: umumiy metodologiya; maxsus(aniq-ilmiy) metodologiya; maxsus(aniq-ilmiy) tadqiqot metodlari. Umumiy metodologiya falsafa bo'lib, psixolingvistika falsafada fikrning ilmiy haqiqat tomon yo'li sifatida baholanadi. Har bir tadqiqotchi ilmiy bilish sohasida u yoki bu falsafiy konsepsiyani tanlaydi. Psixolingvistikada falsafiy yondashuv, asosan, dialektik falsafa yo'nalishida olib boriladi. Aksariyat holatlarda nutqiy faoliyat o'zgarib turuvchi ichki aloqalar bilan bog'liqdir.[13:480]

Kurrai zamindagi millatlarning madaniyatini dunyo bo'ylab tarqalishida tilning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun, Iohann Volfrang Gyote "Azalda kalomulloh bor edi" oyatini sharhlashda juda qiynalgan.[17:6] Qur'oni Karimda "Xalaqal insona allamahul bayon", ya'ni "Insonni yaratdi va bayonni o'rgatdi" oyati mavjud (55-sura).[17:5] Qur'on nozil qilinayotganida, insonni yaratgan Olloh taolo unga kalomni in'om etdi va shu bilan birga o'zi unga fikrlash va ushbu fikrni ifodalash qobiliyatini ham hadya etdi. Shu sababdan, odamzot nafaqat fikrni ifodalashda lisoniy qobiliyatga murojaat qiladi, balki ushbu qobiliyatni shakllantiruvchi vosita-til haqida fikr yuritishni ham unutmaydi. Bobil voqeasi, ya'ni tillar aralashtirib va ajratilib yuborilganidan buyon tillarni qiyoslash, ularning o'xshash va noo'xshash xususiyatlarini aniqlash ehtiyoji mavjud.[17:5] Johanna Nikolsning fikricha, tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganish metodi bundan 8 ming yil oldingi lisoniy muhit haqida ma'lumot berish kuchiga ega.[17:5] V. fon Gumbold esa "til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi ular bajaradigan vazifalar xamohangligida ko'radi". Til ham xuddi tafakkur singari

ijodiy jarayondir. Uning fikricha, til paydo bo'lishining eng birinchi sababi insonning ichki ehtiyoji, ya'ni olam va boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishishidir.[9] O'zbek allomasi Abdulla Avloniy esa inson aqliy barkamolligi borasida fikr yuritib, quyidagilarni bayon etadi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur".[7:23] Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: "Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".[7:22]

Hozirgi vaqtda Yevropada chet tillarni boshlang'ich maktabdan boshlab o'qitishga bizning yurtimizday e'tibor berilmayotgan bo'lsa-da, xorijiy tillarni o'rganish muhim jarayon hisoblanadi. Xorijiy tillarni o'rganish Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich maktab dasturiga chet tili fanini joriy qilishda(5-6 yoshdan) o'qituvchilar Yevropa Ittifoqining maxsus loyihasi asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarga amal qiladilar, buning natijasida erta yoshda chet tilini o'qitish bo'yicha Yevropa davlatlari ko'zga ko'rinarli natijalarga erishdilar.[20:74] Xorijiy tilni ilk maktab yoshidagi o'quvchilarga o'rgatish ularning ongiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Psixolingvistika nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish ona tili va chet tilini o'zlashtirish jarayonlariga murojat qiladi. Chet tilni bilish turlari uchta - aktiv, passiv va aralash holda bo'ladi.[19:78] Aktiv bilish jarayoni chet tilni o'rganishdagi barcha nutq faoliyati turlarini o'z ona tilisi kabi mukammal egallash bilan amalga oshiriladi. Xorijiy tilni passiv bilish og'zaki va yozma matnlarning ma'nosini tushuna olish hamda aralash bilish til materiallari (talaffuz, grammatika, leksika, orfografiya)ning ba'zisini faol, ayrimlarini esa passiv tarzda egallashdan iborat. Reseptiv nutq turida tinglab tushunish va o'qish nutq faoliyati turi orqali axborot olinadi yoki inglizabon mamlakat vakilining nutqini idrok qilish bilan amalga oshiriladi. Reproduktiv nutqda esa o'quvchilar gapirish va yozma nutq faoliyati turi orqali ma'lumot oladi. Oldin nutq shifrlanadi, so'ng bayon qilinadi.[13:101] Professor Jamol Jalolov o'quvchilarga tillarni o'rgatish mobaynida psixik jarayonlarning muhimligini, bilim, malaka ko'nikma tushunchalarning ahamiyatini inobatga olish taklifini kiritdi. Chunki psixologiyada boshlang'ich sinflarda chet tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarning ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Aynan chet til o'rgatish metodikasi ushbu malaka va ko'nikmalarni hosil qilish bilan shug'ullanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda professor bular xususida maxsus ta'rif keltirdi. Ko'nikma ongli holda bajariladigan faoliyatning avtomatlashgan tarkibiy qismidir. Ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat -malaka, bilim tushunchasi esa chet tildagi nutqda leksika, grammatika va talaffuzni o'zlashtirish va ularga oid sodda qoidalarni bilishni ifodalaydi.[12:137]

Boshlang'ich sinf o'quvchisi har qanday obyekt, subyekt va voqelikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi.[18] Biroq ta'limning ilk bosqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko'zga tashlanadi. Ushbu salbiy xususiyatlar obyektlarni bir-biridan farqlash hamda ingliz tilini o'rganish jarayonida so'zlarni talaffuz qilishni chalkashtirish, ayrim tovushlarning o'qilishi, ya'ni transkripsiyaga e'tibor bermaslik va chet tildagi ismlarni esdan chiqarish kabilar shular jumlasidandir. O'quvchi idrokini takomillashtirish bevosita o'qituvchi yordamida amalga oshiriladi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarga ingliz tilidagi materiallarni diqqat bilan o'rganish, kuzatish, tahlil qilishni o'rgatib boradi. Bularni turli o'yinli texnologiyalar, og'zaki nutq darslari shaklida hamda turli jismoniy harakatlar bilan amalga oshirish idrokni o'stiradigan muhim vositalardir. Ilk maktab

yoshidagi o'quvchilarning idroki, xatti-harakatlar, o'yinli harakatlar, mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi chet tili, xususan, ingliz tilini o'rganish jarayonida o'qituvchi ko'rsatmalarini hamda darslik, multimediya vositalaridan berilgan rang-barang tasvirli materiallar orqali til o'rganishni amalga oshirib boradi. Shuning uchun, darslik materiallarining aynan yorqin ranglar, yaqqol tasvirlar bilan ifodalanishi bu yoshdagi o'quvchi idrokining rivojlanishiga asosiy omil bo'la oladi.[22:42] Biroq, mashhur psixolog va fiziolog olimlar E.N.Boyko, E.N.Sokolov va Z.Freydlarning ta'kidlashicha, o'quvchining e'tiborini tortadigan me'yoridan ko'p bo'lgan yorqin tasvirlar, ular uchun belgilangan bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.[21:77] Shu boisdan, darslik materiallarining juda ko'p tasvirlar, suratlar bilan bezatilishi ham maqsadga muvofiq emas. 2-sinfda ingliz tilini amaliy o'rganishga qo'yiladigan talablarga binoan, o'quvchining asosiy e'tibori tinglab tushunish va gapirish maqsadi, o'qish va yozuv og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi maqomida berilishi kerak.[23:37] Bugungi kunga qadar kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga chet tilini o'qitish sohasiga oid ko'plab ma'lumotlar to'plangan. Psixologiya va pedagogika sohalarida bolalarning psixolingvistik va fiziologik xususiyatlarini ochib berishga doir qator tadqiqot ishlari mavjud.[23:14] Chet tilini kichik maktab yoshidan boshlab o'qitish bolalarda nafaqat umumiy nutq qobiliyatini shakllantiradi, balki ularning kelajakda hech qanday to'siqlarga uchramay chet tilda mulqotga kirisha olishlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Lekin ko'pgina otanalarning fikricha, chet tilini chuqur o'rganish o'rta maktab davridan, ya'ni o'quvchilar matnlarni mustaqil o'qish va tarjima qilish, ularni aytib berish va mavzularni o'rganishni boshlagan davrdan boshlanadi.

Bog'cha yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun ingliz tilining tabiiy muhitini yaratish imkonini yo'lga qo'yish orqali bolalarning ingliz tilidagi nutqini shakllantirishga va nutqini ravon bo'lishiga erishiladi. Buning uchun bog'cha murabbiylari bolalarni ertalab otanasidan qabul qilib olayotgandayoq, ingliz tilida salom berishni, "Good morning, hello, hi", ahvollarini so'rash va minnatdorchilik bildirishni ("How are you?", "Thank you") aytishga o'rgatish orqali ingliz tili nutqini o'stirishga muvaffaq bo'ladilar. Bolalar ingliz tilidagi nutqini o'stirishda, so'zlarni talaffuz qilishda qiyinchilikka duch kelishlari tabiiy hol, bunday vaziyatda ingliz tili murabbiyi bolalarga, "bilganingcha ingliz tilida gapir" deyishi va bu vaziyatda bolalar ingliz tilidagi nutqi ravon bo'lmasligi mumkin: masalan, "men apple ni yaxshi ko'raman", "men apple yeyman", "menda qizil ball bor" kabi gaplarni ayta olishadi. Ushbu holatda ingliz tili o'qituvchisi bola "men apple yeyman" gapini aytganda "yemoq" so'zini aytishi va bolaga takrorlashni so'rashi kerak. Birozdan keyin bola "ovqat yeyman" gapini aytmoqchi bo'lganida "yeyman-eat" so'zini aytmaydi. "yeyman-eat" so'zini qanday talaffuz bilan aytish bolani yodida turibdi, lekin u so'z "apple" ga tegishli deb o'ylaydi. O'qituvchi tomonidan yuqoridagi so'zni bir necha bor aytishni yodiga tushirilishi kerak, chunki bola hali til birliklarini paradigmaga solishni bilmaydi. O'qituvchi tomonidan bunday holat 3-4 marta takrorlangandan so'ng, keyin holatlarda qiynalmay gaplarda qo'llashi mumkin. Agar tarbiyachi-murabbiy bunday vaziyatda bolalarga gaplardagi so'zlarni barchasini ingliz tilida aytasan deb majbur qilsa, ularni ingliz tilidagi nutqida to'htalish bo'lishi mumkin. Aksincha tarbiyachi, ingliz tili o'qituvchisi bolalarni psixikasiga ta'sir qilish orqali (bugun gapda faqat bitta so'zni ingliz tilida aytding, juda yaxshi talaffuz qilding, ertaga yana bir so'z qo'shasan) ularni ingliz tilidagi nutqini asta-sekin o'stira boshlaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar ingliz tilida gap tuzishdan ko'ra, so'z yodlashda faol bo'ladilar. Bolalar ingliz tilidagi gap tuzilish strukturasi mos kelmaydigan tarzda gapirsalar ham, ularni gap tuzishdagi kamchiliklarini to'g'rilagan holda, o'qituvchi ular bilan yonma-yon

birgalikda xatolarini to'g'rilash orqali, bolalarni ingliz tili nutqini shakllantirsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar oilaviy muhitda ingliz tilida muloqot bo'lganida edi, bolalar o'tanasiga qarab avtomatik (ongli emas) tarzda ingliz tili muloqotini o'zlashtirgan bo'lar edilar. O'zbek olimlaridan F.S.Ubaeva, A.R.Sayfullaeva, Sh.R.Sayfullaev, R.R.Sayfullaevlar bir tilda so'zlashuvchi va ikki tilda bemalol muloqot qila oladigan bolalarning ikkinchi va uchinchi til o'rganish imkoniyatlari ustida tajriba o'tkazdilar, amaliyot natijasiga ko'ra, ikki tilda so'zlashuvchi bolalar uchinchi tilni osonlik bilan o'zlashtirishlarini sinovdan o'tkazdilar.[28:23,24] Shu o'rinda M.Irisqulovning quyidagi fikrini keltirishni o'rinli deb bildik. "chet tilini o'rganish - murakkab lingvopsixologik hodisa. Chet tilini o'rganish jarayonida o'rganuvchi ongida ona tili va xorijiy til sistemalari to'qnashadi. O'rganuvchining o'z ona tilisi yangi til sistemasini o'zlashtirishni osonlashtiradi yoki uning yo'liga to'siq bo'ladi".[29:173] Bolalarga ingliz tilini o'rgatish va ularni ingliz tili nutqini o'stirish bo'yicha shaxsiy tajribalarimizdan namuna sifatida Elyorbek va Nurislomlarning nutqini misol tariqasida keltiramiz. Ikkala o'quvchining ham til o'rganish darajasi teng, ijtimoiy jihatidan ziyoli oiladan kelib chiqqan, lekin ularni orasidagi asosiy farq, Elyorbek Andijon shahridagi 1-umumta'lim maktabining rus sinfida tahsil oladi, Nurislom esa Asaka tumanidagi 55-umumta'lim maktabining o'zbek sinfida o'qiydi. Ingliz tilini o'rganish va og'zaki nutqini rivojlantirish bo'yicha Elyorbek, Nurislomga qaraganda ingliz tilini tez o'zlashtirdi va uning ingliz tilidagi og'zaki nutqi, ingliz alifbosidagi harflarni talaffuzida xuddi inglizlardek talaffuz qildi. Buning asosiy sababi, Elyorbek rus tilini ham bilganligi uchun unda ingliz tilini o'rganishda baza mustahkamroq. Rus tili Hind-Evropa tillar oilasiga kiradi, xuddi ingliz tili kabi, ingliz tili bilan rus tilida gap tuzilish strukturasi bir xil bo'lganligi uchun Elyorbekda qiyinchilik bo'lmadi, u ingliz tilini ham ona tili va rus tiliga qiyoslab tez o'rgandi, ingliz tili harflarini talaffuzida qiyinchilik sezilmadi, ayniqsa rus tilidagi tekstlarni ingliz tiliga tarjima qilishda deyarli muammoga duch kelmadi. Nurislomning ingliz tilini o'rganishi qiyinroq kechayotganligining sabablaridan biri, u faqat o'zbek tilini biladi xolos, bizga ma'lumki, o'zbek tili turkiy tillar guruhiga kiradi, shuning uchun Nurislomning ingliz tilini o'rganishi biroz sustroq. Uning til o'rganishdagi asosiy kamchiliklaridan biri ingliz tili alifbosidagi harflarni talaffuzida biroz qiyinchilikka duch kelishi bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktablardagi boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, 1-, 2-sinflarda tashkil qilingan ingliz tili darslarida harakatli o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar, ertaklar, qiziqarli hikoyalar, multfilmlar va rasmlar orqali o'quvchilarni ingliz tilidagi nutqini o'stirishga e'tibor qaratilgan. Buning natijasida, darslar shovqinli, bahs-munozaraga boy bo'ladi va ingliz tili xonasini yaqinida dars o'tayotgan boshqa fan o'qituvchilaridan, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'ribosaridan ko'p shikoyat bo'ladi. Ingliz tili o'qituvchilari dars o'tmasdan, dars vaqtida o'quvchilarga o'yin o'ynatib, multfilm tomosha qildirib darsni o'tkazib yuborishadi, deyishadi. Bu esa o'z navbatida dars jarayonini emas, ko'proq vaqtichog'likni eslatadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitish o'qituvchidan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Jamiyatda kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishga bo'lgan talabning o'sayotganligi, o'qituvchilarning ham chet tilini erta o'qitishning maxsus metodlari, boshlang'ich maktabdagi dars jarayonini tashkillashtirish texnologiyalari, darsni to'g'ri boshqarish va uni rejalashtirish kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi: Millatlararo do'stlik va hamjihatlik - xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim

- omilidir // Xalq soʻzi online. - 2017.- 25yanv.- [Elektron resurs]. URL:[http://xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/9335-millatlararo doʻstlik va hamjihatlik xalqimiz tinchliligi va farovonligining muhim omilidir](http://xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/9335-millatlararo_doʻstlik_va_hamjihatlik_xalqimiz_tinchligi_va_farovonligining_muhim_omilidir).
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.:Oʻzbekiston, 1998, 8-9, 44 b. 296 bet.
 3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 10 dekabr-dagi "Chet tillarni Oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-1875-sonli qarori.
 4. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. - Toshkent, Oʻqituvchi, 1992. - 22-23betlar. 97 b.
 5. Axmanova O.S. Slovar lingvistikeskix terminov. - M.,2004. 571 bet.
 6. A. Irisqulov. Kids English 1. Student book. 38,50 бетлар. 118 bet.
 7. Фон Гумболдт В. Избранные труд по языкознанию.- М., 1984 400 бет.
 8. Розентал Д.Е, Теленкова М.А. Словар-справочник лингвистических терминов. - М., 1976. 480 ст.
 9. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - T.: "Sangzor" nashriyoti, 2006. 92 b.
 10. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi //Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Safo Ochil. - Toshkent, Oʻqituvchi, 1995. - 137-bet.
 11. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Pedagogika va psixologiya bakalavriyat taʼlim yoʻnalishi talabalari uchun darslik. – T.: «Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2008. -101-480-b.
 12. Gʻoziev E.H. Psixologiya. - T.: "Oʻqituvchi", 1994. -120-215-b. 238 bet.
 13. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. - T.,1985 158 bet.
 14. Leontov A. A. Osnovi psixolingvistiki: -M.: Smisl, 1999 287 st.
 15. TATYANA BUSHUY, SHAHRIYOR SAFAROV "Til qurilishi: taxlili metodlari va metodologiyasi" Toshkent: Oʻzbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyoti 2007 5 b 274 bet.
 16. Mashraboy Vahidovna Halimova "Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar psixologiyasi" (uslubiy qoʻllanma) ANDIJON -2014 380 bet.
 17. Jalolov J.J. Chet til oʻqitish metodikasi. Foreign language teaching methodology. - T.: "Oʻqituvchi", 2012. -28-b. 333 bet.
 18. Ruzmetova M.Sh "Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga chet tili oʻrgatishning psixologik xususiyatlari" ТАЪЛИМ PSIXOLOGIYASI / PEDAGOGICHESKAYA PSIXOLOGIYA. 2015, 9 bet.
 19. Sh.T.Xalilova "Boshlangʻich sinflarda chet tili oʻqitishning psixologik asoslari va samarali.
 1. texnologiyalari." Ilmiy metodik qoʻllanma. Toshkent-2015 125 bet.
 20. https://en.wikipedia.org/wiki/Jan_Baudouin_de_Courtenay
[https://www.researchgate.net > profile > publication > links HISTORY AND THEORIES OF THE MIND – ResearchGate.](https://www.researchgate.net/profile/publication/links/HISTORY_AND_THEORIES_OF_THE_MIND-ResearchGate)
 21. Pronko N.H. Language and Psycholinguistics // Psychological Buletin. V. 43. 1946) 239 st
 22. Abdukamol Abduljalilov. "Bolajonlar uchun ingliz tili". Sano-standart nashriyoti. ISBN: 978-9943-4999-2-8. 2017 yil, 128 bet.
 23. Убаева Ф.С., Сайфуллаева А.Р., Сайфуллаев Ш.Р., Сайфуллаева Р.Р. Би-трилингвистический эффект имени А.Р.Сайфуллаева – относительное ускорение умственно-логического развития детей и сравнительное опережение интеллектуально-логического развития мышления взрослых. 99 st.
 24. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – .173 bet.

UDK: 494.1

O'ZBEK ROMANLARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA MILLIYLIK RUHINING IFODALANISHI**I.K.Ablakulova***"Ipak yo'li" turizm va madaniy me'ros xalqaro universiteti*

Annotatsiya. Zamonaviy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda roman janri muammosi dolzarb bo'lishi barobarida uni tadqiq-u talqin qilish hamda tarjima qilish muhim ahamiyat kasb etishi inkor etib bo'lmaydigan hodisa sanaladi. Jahon adabiyotida kuzatilgani kabi o'zbek adabiyotida ham roman janri bugungi kunda eng ommabop janr bo'lib, ko'plab o'zbek romanlari turli tillarga tarjima qilinyapti. Maqolada o'zbek romanlarining ingliz tiliga tarjimasida milliylik ruhining ifodalanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: roman, o'zbek romanlari, ingliz tili, tarjima, o'zbek milliy asarlari, milliylik ruhi

Выражение национального духа в переводе узбекских романов на английский язык

Аннотация. В современном литературоведении и переводоведении бесспорно, что проблема жанра романа столь же важна, как и его исследование и интерпретация, а также его перевод. Как и в мировой литературе, в узбекской литературе сегодня самым популярным жанром является роман, и многие узбекские романы переведены на разные языки. В статье рассматривается выражение национального духа в переводе узбекских романов на английский язык.

Ключевые слова: роман, узбекские романы, английский язык, перевод, узбекские народные произведения, национальный дух.

Expression of the national spirit in the translation of Uzbek novels into English

Abstract. In modern literature and translation studies, it is undeniable that the problem of the novel genre is as important as its research and interpretation, as well as its translation. As in the world literature, the novel genre is the most popular genre in Uzbek literature today, and many Uzbek novels are translated into different languages. The article discusses the expression of national spirit in the translation of Uzbek novels into English.

Keywords: Novel, Uzbek novels, English, translation, Uzbek national works, national spirit

Roman (fr. roman – olingan bo'lib, "lotin tilida emas, roman tillaridan birida yozilgan" ma'nosida) – zamonaviy adabiyotda epik turning yirik hajmli janri. Romanga ta'rif berilganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi; murakkab ko'p chiziqli sujetga ega bo'lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi. Lug'atda keltirilgan roman janriga berilgan yuqoridagi ta'rifda shunday deyish mumkinki, roman janri dastlab Yevropa adabiyotida roman tillarda yozilgan epik turga tegishli nasriy asarlar sifatida paydo bo'lgan. Romanda asosan qahramon hayoti ijtimoiy muhitda yoritiladi va boshqa qahramonlar bilan bog'liq ravishda ma'lum g'oya va mavzuda rivoj topadi. Romanga xos jihat – ko'p chiziqlilik, ya'ni turli voqealar orqali boshqa qahramonlar hayoti, xuddi obyektiv reallikdagidek tasvirlanadi. O'zbek romanchilik maktabi ko'pgina badiiy asarlarning yaratilishiga o'zbek adabiyoti namunalarining ingliz tiliga tarjima qilinishiga nazar tashlash mobaynida shu narsaga ishonch hosil qilish mumkinki, ham mumtoz, ham zamonaviy ma'noda, o'zbek adabiyoti sermazmun, zalvorli asarlarga boydir. Uni keng targ'ib etish, nafaqat ingliz, balki jahonning boshqa tillariga ham tarjima qilish hamisha dolzarb muammolardan bo'lib

qolaveradi. Yangi asr avlodi nashriyotida 2016-yilda chop etilib, bugungi kunda bu asarning inglizcha variantini nafaqat poligrafik shaklda, shuningdek elektron ko‘rinishda “Kitobxon bilimlar xazinaboni” nomli dasturida (prilojeniye) o‘qish imkoniyati mavjud. Bu inglizxon kitobxon uchun qulaylik kasb etadi, shuningdek, tarjima qilingan asarning yosh avlod uchun zamonaviy elektron ko‘rinishda bo‘lganligi sababli qiziqish uyg‘otadi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasining, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjima qilinishi ham diqqatga sazovor ish bo‘lganligini ta‘kidlash lozim. Xuddi shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, “O‘tkan kunlar” romanining tarjimasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2012-2014 yillarda "O‘zbek adabiyoti antologiyasini ingliz tiliga tarjima qilish va adabiyotlararo muloqot" mavzuidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida oshirilgan. Mazkur loyiha doirasida o‘zbek adabiyotining sara namunalaridan 18 tasi o‘zbek tilidan bevosita ingliz tiliga tarjima qilingan. Ular orasida Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" asari ham bo‘lgan. Asarlarni tanlashda avvalo, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda tarjimon olimlardan Ibrohim G‘afurov, Omon Mo‘minov va Nosir Qambarovlarning tavsiyalariga tayanilgan. Tarjima jarayonida asarni asliyat shaklida saqlashga, o‘zbek mentalitetiga xos milliy-madaniy urf-odat, tarixiy, an‘ana hamda marosimlarda ishlatiladigan so‘z va iboralarni saqlab qolishga harakat qilingan. Qaysi asar qanday xalqaro, xorijiy tilga o‘girilgan? Agar o‘girilgan bo‘lsa, bevosita yoki vositachi til orqali o‘girilganmi? Qanday tarjimon va muharrirlar bu asarlarni o‘girishga muvaffaq bo‘lgan? Tarjimalar sifati va saviyasi o‘rganilganmi? – degan savollar bugungi kun adabiyotshunos va tarjimashunoslarning eng dolzarb masalasi bo‘lib kelmoqda[2].

Insonni, uning ma‘naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san‘ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb ta‘riflanishi bejiz emas, albatta. Xalqimiz orasidan mana shu g‘oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste‘dodini bag‘ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagan o‘lmas asarlar yaratgan buyuk so‘z san‘atkorlari bor. Adabiyot, so‘z san‘ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma‘naviyatimizning g‘oyat muhim va uzviy qismi bo‘lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar o‘z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko‘lami jihatidan janrlar nuqtai nazaridan ham rang-barang bo‘lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo‘layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi. Bularning barchasi milliy tiklanish jarayonlari qalam axlining ijodiy izlanishlari uchun qanday katta ufqlar ochib berganini yana bir bor ko‘rsatadi. Fan, texnika, adabiyot va san‘at tez sur‘at bilan rivojlanayotgan, jahon xalqlari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar tobora kengayib borayotgan hozirgi davrda ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va badiiy asarlar tarjimasiga e‘tibor kuchaymoqda. Keyingi paytlarda tarjimonlar ijodini o‘rganib ular haqida maqola, monografiyalar yozish, kandidatlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlash, ayniqsa, keng yo‘lga qoyildi va bu sohada salmoqli ishlar ham qilindi. J.Sharipovning – Ogahiy, Mulla Murodxo‘ja, Abdullo Avloniy, Oybek, Mirtemirning tarjimonlik mahoratiga bag‘ishlangan ishlari va boshqalar bunga misol bo‘la oladi. Badiiy tarjima saviyasi har bir xalqning madaniy ravnaqini o‘lchaydigan me‘zonlardan biridir, malum bir xalqqa tegishli afsonalar-u dostonalrni chet tillarga qayta qayta tarjima qilinishiga ijtimoiy-ma‘naviy ehtiyoj sabab bo‘ladi [3]. Lekin asos, asl nusxa matni turg‘un bo‘lgani bilan bu tarjimalar matni o‘zgaruvchan. Chunki tarjimada tarjima amalga oshirilayotgan davrga xos estetik prinsiplar, shuningdek tarjimonning badiiy tafakkuri, dunyo qarashi tabiiy ravishda aks etadi.

Ba‘zan tarjima asarlariga jumla g‘alizligi, so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatilmasligi va shu kabi xatoliklarga duch kelamiz. Bunday hollar ko‘pincha rus tili vozitasida bajarilgan tajrimalarda qo‘llamaslik o‘zbek qonuniyalarining buzilishi, milliy o‘ziga xoslikning saqlanmasligi va shu kabi xatolar tarjimalarda uchraydi. Chunki bitta asar ikki tarjimon qo‘lidan o‘tadi va keyingi tarjimon o‘zi yo‘l qo‘ygan kamchiliklar bilan bir qatorda oldingisi

yo'l qo'yg'an xatoliklarni ham takrorlaydi. Biroq tarjima vositalimi yoki bevositami, bundan qat'iy nazar, haqiqiy tarjimon –san'atkor faqat shaklga va tashqi jihatlarigagina qul bo'lib qolmasligi aksari hollarda tarjimonning mahorati, sezgirligi g'olib kelishi kerak. Bundan tashqari tarjimon tarjima qilinadigan asar yoki xalq og'zaki ijodi qaysi davlatga tegishli ekanini bilgan holda, o'sha davlat urf-odatlarini, turmush tarzini, madaniyatini bilgan taqdirdagina, qo'lidagi asarni tarjima qilsa, uning ishi samarali bo'ladi. Chunki har bir xalq o'z tarixiga va o'z individual madaniyatiga ega. Agar tarjimon bundan bexabar holda ish boshlasa, uning ishi asl matn yoritadigan fikrdan yiroq bo'ladi. Tarjimon asarning unda tasvir etilgan voqealarning ichiga kirib borishi, qahramonlar bilan birga yig'lashi, birga kulishi, birga o'ylab, his etib, birga harakat etishi, xullas, qahramonlar orasiga qo'shilib ketishi zarur. Ana o'shanda har bir so'z va jumlaning asl ma'nosi, badiiy jilosi, ma'lum personajning u yoki bu vaziyatdagi so'zlash uslubi, yozuvchining maqsadi, boringki, butun mohiyat, asarning badiiy-estetik qimmatini tarjimada ham ro'yobga chiqishi shubhasiz[4].

Tarjima san'ati haqida gap yuritar ekanmiz, uning maqsadi va vazifalariga to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Tarjimaning maqsadi xorijiy til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiali asosida qayta yaratishdan iborat. Buning uchun tarjimon, birinchi navbatda, asl nusxani to'la-to'kis idrok etishi, so'ngra uni o'z tilida bekamu-ko'st qayta ifodalashi darkor. Xuddi shunday hol o'zbek xalq afsonalarini tarjima qilayotgan ingliz zabon tarjimonlarga ham taalluqlidir. Avvalambor, ular tarjimoni to'g'ri yo'l orqali amalga oshirilganiga emas, bizning milliy urf-odatlarimizni o'rganib, tariximizga va an'analimizga ko'z tashlab, so'ngra esa afsonalarimizning tarjimalariga bel bog'lashlari darkor. Chunki bizning xalqimizning afsonalari milliyligimizning o'zgacha iforini tarqatibgina qolmay, butun xalqimizning naqadar chuqur qalb egalari ekanligi haqida ham darak beradi, buni oddiygina "so'zma-so'z" tarjima orqali anglab yetib bo'lmaydi, albatta. Bu tarjima turida asliyat lisoniy vositalari matniy ma'nolari va uslubiy vazifalari umumxalq tili grammatik qoidalari bilan hamohanglikda qayta yaratiladi. Lisoniy vositalarning milliy-tarixiy, ijtimoiy va obrazli xissiy xususiyatlarning asliyatga xos va mos tarzda talqin etiladi. Asar sahifalarida muayyan uslubiy maqsadlar uchun qo'llanilgan fonetik-orfoepik hamda leksik-grammatik nutqiy chekinishlar o'z vazifalariga muvofiq muqobil lisoniy vositalar yordamida tiklanadi. Bularning barchasi muallif maqsadining kitobxonga yetib borishi uchun imkon yaratadi.

Oybekning "Navoiy" romani mutafakkir hayoti va ijodini tarannum etuvchi asar bo'lganligi uchun, yozuvchi unda shoirona uslubda so'zlarni tanlab, har birini o'ziga xos tarzda bezashga va kitobxonga Navoiy ijodiga yaqin til boyliklarini yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Asarning to'qqizinchi bob birinchi qismida mutafakkir ijodi jarayoni badiiy vositalarga boy, ohangdorlik va bo'yoqdorlik bilan tasvirlangan. Buni quyida berilgan illyustrativ misolda ko'rishimiz mumkin: "Ijod dardini (metaphor) tug'uliq dardi bilan qiyos etadilar (simile). Ijod dardi – qalbning qa'rida uyg'onib (personification), butun vujudni larzaga solgan og'riq Navoiy uchun eng shirin lazzat (contextual antithesis), ona allasi kabi yupantiruvchi, quyosh kabi hayot va quvonch bag'ishlovchi (simile) bir kuch edi. Shuning uchun u samimiy, tabiiy (epithet) bir shavq bilan yengil yoza olar edi. U chinakkam so'z sehrbozi (metaphor)! U har qanday o'jar (epithet) fikrni, ruhning eng ingichka, eng tutqich bermas (epithet) jilvalarini (metaphor), yurakdagi hislarning mavjlarini (metaphor) so'z orqali yorqin tajassumlantirar, qatrad daryolarni mavjlantirar (hyperbole), uchqunda quyoshlarni aylantirar (hyperbole), ishqdan hayot yasar (hyperbole), oddiy hayotdan esa ulug', tiyran afsonalar (hyperbole) to'qur...(aposiopesis) U minglarcha yilgi madaniyatni asrlarning fikr boyligini qamragan shoir edi. Uning she'riy dahosi arab, eron va turkiy xalqlarning san'at xazinasiga (metaphor), fikr zaminiga chuqur ildiz otib (metaphor), uning adabiy kuchidan gullagan (metaphor) edi (sustained metaphor)" Asliyatdagi gap mohiyatan tarjimada o'z aksini topgan. Biroq asliyatdagi "tajassumlantirar, mavjlantirar, aylantirar, yasar, to'qur" kabi fe'llar orqali sanab o'tilgan iboralarning bir qismi tarjimada inversiya orqali berilgan. Ingliz tilida gap ikkiga bo'linib, stilistik vositalarning o'zgarishiga sabab bo'lgan. Tarjimada inversiya sintaktik stilistik vositasi yaratilgan. Asliyatdagi giperbola stilistik vositasi tarjimada

metafora shaklida o'z aksini topgan. Bir stilistik vosita boshqasiga o'zgartirilgan. "Qatrad daryolarni mavjlantirar" giperbolasi ingliz tilida "he could show the waves of the sea with his words", ya'ni "dengiz to'lqinlarini so'zlarda ko'rsata olgan" deb tarjima qilgan. Asliyatdagi bo'yoqdorlik tarjimada kuchini yo'qotgan. "Uchqunda quyoshlarni aylantirar, ishqdan hayot yasar, oddiy hayotdan esa ulug', tiyan afsonalar to'qur" giperbola qo'llanilgan birikmalar tarjimada "with a spark he could kindle a lot of light from everyday life and create sublime, deep legends" shakliga qisqartirilib, "oddiy hayotdan uchqunda yorug'lik chaqnatib, buyuk, tiyan afsonalar yaratadi" degan ma'noda metafora qo'llaydi. "Navoiy" romanining stilistik va tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan qilingan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarjimon aksariyat hollarda stilistik birliklarni saqlab qolishga uringan. Biroq tarjimada ayrim nomutanosib, ya'ni asliyat va o'girilgan tilda bir-biriga mos tushmaydigan holatlar ham mavjud. Bu asosan tilning stilistik sathida ro'y bergan hodisalar bo'lib, tarjimada tushirib qoldirishlar, stilistik vositalarning o'zgartirilishi, stilistik transformatsiyalarda o'z aksini topgan. Natijada tarjima jarayonida tilning turli jihatlari, so'zning nozik ma'no ottenkalari siqiq ifoda orqali namoyon bo'la olmagan. Uslubiy vositalarning transformatsiyasiga sabab o'zbek o'quvchisining fikrlash tarzini e'tiborga olish va o'zbek tilidagi so'z birliklarining ingliz tilida kollokativ birika olmaslik jihati sabab bo'lgan. Ayrim hollarda esa tarjima yuqori sifat darajasida amalga oshirilmaganligini kuzatish mumkin. Shu bilan bir qatorda, Oybekning "Navoiy" romanining ingliz tilidagi tarjimasida mutarjim mahoratini ham kuzatish mumkin. Bu borada Ilhom To'xtasinov Navoiy ijodiga bag'ishlangan parchalarni yuksak mahorat bilan tarjima qilganiga guvoh bo'lish mumkin. Stilistik vositalar va ular zamiridagi obrazlar o'zbek kitobxonlari uchun qay tarzda ifodalangan bo'lsa, xuddi shu ko'rinishda tarjimada ham qayta yaratilgan. Bu tarjimonning yuksak mahorati belgisi, degan xulosaga keldik [7].

Shunday qilib, ikki til lisoniy vositalarining bir-birlariga barcha ma'no va vazifalari jihatidan o'zaro mos ekvivalentlar bo'lish hollari kamdan kam uchraydi. Binobarin, ko'pchilik lisoniy vositalarning tarjima tilidagi lug'aviy ekvivalentlariga nisbatan nutqda ko'proq yoki kamroq ishlatishlari ikki til ekvivalentlarining barcha matniy vaziyatlarda bir-birlarini almashtiraverishlariga yo'l qoymaydi. Bunday paytda muammo, matniy muvofiq variant qidirib topish hisobiga hal etiladi. Asliyatda erkin ma'nodagi so'zlar birikuv yordamida bayon etilgan fikr goho sinonimik qator tashkil etadigan ikki xil imkoniy variantlar orqali o'girilishi mumkinki, ulardan biri asliyatdagi ifodaga moddiy jihatdan o'xshasa, ikkinchisi undan leksik tarkib jihatidan farq qiladi. Tarjimada keyingi variant foydalanish maqsadga muvofiq, zero u tarjima tili uchun an'anaviy hisoblanadi [8].

Tarjima jarayonida til birliklarining sinonimik holatini hisobga olish ham lisoniy vositalarni to'g'ri tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'no belgi hamda uslubiy vazifalari jihatlaridan farq qiladigan idiografik hamda uslubiy sinonimlar orasidan asliy monandini topib ishlatish, tarjimaning adekvatligini yuzaga keltirsa barcha matniy holatlarda sinonimik hukmron so'zdan foydalanaverish ko'p hollarda asliyatda aks etgan ma'no belgisi va uslubiy vazifalarning so'nib, tarjima tilining kambag'allashib, nursizlanib qolishiga olib keladi.

Asliyatda mantiqiy-erkin ma'nodagi so'zlar yordamida bayon etilgan fikr tarjima tilida har xil lug'aviy ma'noga ega lisoniy vositalar- asliyatdagi vositaga moddiy jihatdan yaqin hamda undan leksik tarkibi farq qiladigan birliklari yordamida ifoda etiladi. Kontekstual sinonimik qator tashkil etadigan bunday variantlarning moddiy jihatdan asliyatdagi birlikka yaqini ko'proq o'zga tillar tasirida hosil qilingan bo'ladi. Uning nutqda, aniqrog'i, tarjimada uchrashi, so'zlarning o'zaro mantiqiy asosda birikuv, fikrning me'yor doirasida ifoda etilishi nuqtayi nazardan, hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Undan leksik tarkib jihatidan farq qiladigan birikma esa asosan tarjima tilining azaldan o'ziniki hisoblanadi. Tarjimada aynan shu variantga murojaat qilish tarjima tilining tabiiyligini yuzaga keltiradi. Chunki bu yo'l nafaqat fikrning to'g'ri talqin etilishini, balki ifodaning sof o'zbekona jarangdorligini ham ta'min etadi.

Asliyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asosan quyidagicha namoyon bo'ladi: Ekvivalentlikning birinchi turida tarjimalarning asliyatga uyg'unligi ko'z ilg'amas

darajada namoyon bo'ladi. Mazkur tarjima turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabatlar asosan ushbu ko'rinishlariga ega bo'ladi: a) leksik tarkib va sintaktik ko'rinishidagi nomuvofiqlik; b) ikki holatda ham bir xil fikr bayon etilayotganligiga qaramasdan asliyat va tarjimada ifoda etilgan axborot o'rtasida bevosita mazmuniy yoki mantiqiy bog'lanishning ko'zga tashlanmasligi; v) asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasida umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past. Bosh ustiga, vositachi til orqali o'girilgan asarlar tarjimasida ko'zga tashlanadigan xato va kamchiliklarning ko'pchiligi vositachi tarjimalar gunohi bilan sodir bo'lmoqda.

Asliyatda ifoda etilgan fikrni yuzaga keltirgan so'zlarni beasos lug'aviy –aniq aks ettirishga urinish umuman tarjima amaliyoti uchun xavfli bo'lsa, bu usul milliy tushunchalarni aks ettiradigan lisoniy vositalarni o'girishda yanada ko'proq xatarlidir. Bunday xollarda tarjimaning asliyatda mazmuniy vazifaviy va an'anaviy mos kelish imkoniyati deyarli istisno etiladi. Bu, ayniqsa, tarjima tili sohiblariga yaqin tushunchalarining asl nusxadagi tavsilotli tasvirini tarjimada aniq saqlashga harakat qilganda ko'zga yaqqol tashlanadi: bunday paytlarda bayon etilgan fikr g'ayritabiiy ravishda mufassallik kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, tarjimada shakl va mazmun munosabatini bejirim talqin etish zarurati san'atkor oldiga asarning badiiy nafosati va milliy xususiyatini yuzaga keltiruvchi barcha lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarini ijodiy aks ettira oladigan muqobil til va nutq birlilari tanlash vazifasini qo'yadi. Chunonchi, muallif tomonidan foydalanilgan har bir bayon va tafsilot har qanday so'z va ibora asosiy g'oyaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadiki, asarning tarkibiy qismini tashkil etadigan bunday badiiy-tasviriy vositalarning to'lato'kis idrok etilishi va tarjimada ijodiy qayta yaratilishigina muloqot maqsadiga erishish imkoniyatini yaratadi. Asarning g'oyasi uning uslubiy jihati bilan chambarchas bog'liq bo'lib tarjimada muallifning o'ziga xos ijodiy uslubini, asliyatning badiiy-estetik xususiyatini va u yaratilgan davr bo'yog'ini tarjimonlar nutqidagi tafovutli jihatlarni ijodiy qayta yaratish uchun tarjimon nafaqat zaruriy iste'dod va boy tajriba sohibi bo'lishi, balki badiiy tarjima amaliyoti dalilari asosida vujudga kelgan nazariy bilimlar bilan puxta qurollangan filolog olim sifatida faoliyat ko'rsata bilishi ham lozim. Asliyat va tarjima tillari badiiy-uslubiy vositalarini chuqur matniy va lisoniy tahlil qilish asosida qiyosiy o'rganishgina san'atkorni tarjima amaliyotida uchrab turadigan qator illatlardan saqlab qolgani holda, unga asliyat lisoniy-uslubiy xodisalari vazifalarini ijodiy tiklash imkonini beradi. Zero, mohir va bilimdon san'atkorlar tomonidan amalga oshirilgan mukammal tarjimalar asosida yuzaga kelgan xolisona nazariy umumlashmalar, ilmiy xulosalar shu soha amaliyati rivoji va istiqbolini ta'minlaydigan yetakchi omillardandir.

Adabiyotlar

1. Бакаева М.К. Англия, АҚШ адабиётидан ўзбек тилига шеърлий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. Филол.фан.доктори диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2004. – Б. 50.
2. Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). — М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. 224 с.
3. Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. М: Издательство Московского университета, 1978. –172 с.
4. Владимирова Н. В.. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. – Ташкент : Фан, 2011. – 334.
5. Qudrat Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan. .2005.
6. Jo'rayev T. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1978.
7. Peterson Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. Toshkent. Qatortol- Kamolot, 2000.
8. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
9. Masterstvo perevoda. – Moskva, Sov.pisatel. 1971.

UDK: 494.1

“CHAROG‘I HIDOYAT” LUG‘ATI MUALLIFI ALIXON ORZUNING SO‘ZLAR IZOHIDA FONETIK VA ORFOGRAFIK MUNOSABATI**I.R.Jo‘rayev***Samarqand davlat universiteti*jorayevilyos1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslik tarixida tillarning lug‘aviy birligini o‘rganishda muhim manba bo‘lgan lug‘atlarda so‘zlarning fonetik, orfoepik va orfografik jihatdan akslantirilishi Alixon Orzuning “Charog‘i hidoyat” izohli lug‘ati misolida tadqiq etilgan hamda “Charog‘i hidoyat” lug‘atida so‘zlarning fonetik jihatdan akslantirilishi, lug‘at maqolalarda so‘zlik talaffuz va imlosining berilishi, leksikografning fonetikaga doir qarashlari, jumladan, lug‘atnavis tomonidan ilk marta qo‘llangan terminlar hamda lug‘atda berilgan ayrim fonetik terminlar xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, orfografiya, orfoepiya, so‘zlik, omograf, abjad, alifbo, harf.

Фонетико-орфографическая духовная связь между световым словарем "Чароги Хидоят" Алихан Орзу

Аннотация. В данной статье рассматриваются фонетические, орфоэпические и орфографические отражения слов в словарях, которые являются важным источником в изучении лексического единства языков в истории языкознания. Фонетическое отражение слов в словаре, лексическое произношение и правописание в словарные статьи, взгляды лексикографа на фонетику, включая термины, впервые использованные лексикографом, и некоторые фонетические термины в рассматриваемом словаре.

Ключевые слова: лексикография, орфография, ортоэпия, словарь, омограф, алфавит, абджад, буква.

Phonetic and orthographical attitude of alikhan orzu in “Charogi Hidoyat” dictionary

Abstract. This article examines the phonetic, orthoepic and orthographic representation of words in dictionaries, which is an important source in the study of lexical unity of languages in the history of linguistics. Phonetic reflection of words in the dictionary, lexical pronunciation and spelling in dictionary articles, lexicographer's views on phonetics, including terms first used by the lexicographer and some phonetic terms in the dictionary considered.

Keywords: lexicography, spelling, orthoepy, dictionary, homograph, alphabet, abjad, letter.

Ma‘lumki, tilshunoslik tarixida tillarning lug‘aviy boyligni o‘rganishda asosiy manba bo‘lgan lug‘atlar so‘zlarni etimologik, fonetik, orfoepik va orfografik jihatdan o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu shundan dalolat beradiki, lug‘at tuzuvchilar o‘z davridagi lingvistik va lingvopoetik ilmlarni mukammal egallagan lug‘aviy birliklarni ma‘noviy izohlash bilan birga, so‘zlar talaffuzi va imlosi haqida ham ma‘lumot berishni o‘z oldiga maqsad qilgan[4;36]. Shuningdek, shoirlarning ijod namunalarida so‘zlarning ma‘no va fonetik jihatdan qo‘llanishini izohlagan, hatto ayrimlari o‘z davrining mashhur shoiri bo‘lib, lug‘at maqolalardagi misollarda o‘z ijod namunalaridan ham foydalangan[2,26].

Lug‘atnavislikda so‘zlarni fonetik izohlash vaqtlar o‘tishi bilan ma‘lum bir qolip shakliga kelib qolgan, ya‘ni lug‘atnavislar til qoidalarga amal qilgan va, o‘z navbatida, leksikografiyaning umumiy qoidalarni yaratgan. Ayrim lug‘atlarda (“Devonu lug‘ati-t-turk”, “Farhangi jahongiri”) til hodisalari keng muqaddimada yoritilgan bo‘lsa, deyarli barcha mumtoz lug‘atlarning lug‘at maqolasida grammatik izoh, til hodisalari, dialektik xususiyat,

tillarga xos belgilar, imlo, etimologiya, ma'no ko'chish hodisasi aks ettirilganligini kuzatishimiz mumkin: HAYO حيا – arabiy so'zdir, uyat ma'nosida. Bilginki, har bir forsiy yo arabiy so'z kim, oxiri alif(o) bilan tugasa, izofa yoki sifatlanganda yo(i) tovushi orttiriladi, baraka dengizi(دریای فیض) va qiyomat sahrosi(صحرای قیامت) kabi. Boshqa kitobda yozganimdek, bu vovi ma'ruf(u) va majhul(o') uchun ham umumiy qoidadir...[5,86]; LEKIN لیکن – zidlov bog'lovchisi(istidrok), arabcha lokinning imolasikim, (yo bilan yozadilar va alif deb o'qiydilar)[5,189]. Jumladan, tadqiqotimizning obyekt bo'lgan Alixon Orzu o'zining “Charog'i hidoyat” (keyingi o'rinlarda ChH) izohli lug'atida so'zlarning fonetik jihatdan akslantirishga muhim e'tibor qaratgan.

Biz ushbu maqolada ChHda so'zlar talaffuz va imlosiga doir berilgan ma'lumotlarni o'rganishni maqsad qilib qo'yganmiz. Harflar imlosini oydinlashtirishda o'rta asrlar leksikograflari, jumladan, ChH asari muallifi harflarni bir qancha jihatdan tasnif qilgan hamda ularning ayrim xususiyatlarini hisobga olib ma'lum atamalar bilan nomlagan[7,61].

Mazkur lug'at alifbo tartibida boblarga bo'lingan bo'lib, so'zliklar berilishida birinchi va ikkinchi harfning tartibiy ketma-ketligiga amal qilingan hamda boblar alifbo harflari bilan quyidagicha nomlangan: “Bobul alif”-ا, “Bobul bo-ut-toziyat”-ت, “Bobul bo-ut-forsiyyat”-پ, “Bobul to-ut-favqoniyat”-ت, “Bobul so-ut-musallasa”-ث, “Bobul jimi toziy”-ج, “Bobul jim-ul-forsiyyat”-چ, “Bobul ho-ul-muhmalat”-ح, “Bobulxo-ul-mu'jama”-خ, “Bobuddoli muhmala”-د, “Bobuzzol-ul-mu'jama”-ذ, “Boburroi muhmala”-ر, “Bobuzzo-ul-mu'jama”-ز, “Bobussin-ul-muhmalat”-س, “Bobushshin-ul-mu'jama”-ش, “Bobussod-ul-muhmalat”-ص, “Bobuzzod-ul-mu'jama”-ض, “Bobutto-ul-muhmalat”-ط, “Bobulayn-ul-muhmalat”-ع, “Bobulg'ayn-ul-mu'jama”-غ, “Bobulfo”-ف, “Bobul qof”-ق, “Bobul kof”-ک, “Bobulkof-ul-forsiya”-گ, “Bobullom”-ل, “Bobulmim”-م, “Bobunnun”-ن, “Bobulvov”-و, “Bobulho”-ه, “Bobulyo-ut-tahtoni”-ی.

Lug'at tahlilidan alifbo harflarining quyidagi jihatlari e'tiborga olinib tasniflangani kuzatiladi: Birinchidan, harflar nuqtali va nuqtasizga ajratilgan. Nuqtali harflarni ifodalashda “mu'jama”, “mantuqa” va “nuqtador”, nuqtasiz harflarga esa “muhmala”, “g'ayrimu'jama” va “benuqta” istilohlari qo'llangan: “...Сурат (joy nomi) ба сини муҳмала(с) аст, ин лафзро форсиёни мутааххир аз роҳи тасарруф ё ғалат сод(с) нависанд [5,44], аyni muhmala, doli muhmala[5,141] kabi”. Agar so'zda ikkita “muhmala” yoki “mu'jama” harf qo'llangan bo'lsa “muhmalatayn” “mu'jamatayn” deyiladi[5,62]. Professor M.Qosimovning ta'kidlashicha “...mu'jama(nuqtali) harflar 17 ta, ف, غ, ظ, ض, ش, ز, ژ, ش, ض, ظ, غ, ف, ی (yo) harfi ham so'zning boshi va o'rtasida kelsa mu'jama harf sifatida qabul qilinadi (ChHning biror bir o'rnida “yoi mu'jama” istilohini uchratmadik) va mu'jama harflar soni 18 tani tashkil etadi [8,51]”. Ikkinchidan, arabiy yoki ajamiy harf ekanliga ko'ra: ma'lumki, arab alifbosi 28 harfdan iborat bolib, forslar o'z tovush tizimiga xos bo'lgan maxsus tovushlarni ifodalash uchun quyidagi 4 ta harfni kiritganlar: ژ - j, چ - ch, پ - p, گ - g[1,33]. Mazkur harflarga ajamiy va forsiy deb nomlangan va bu harflarning yasalişiga zamin bo'lgan ز(z), ج(jim), ب(bo), ك(kof) harflari bilan bir qatorda, ayrim hollarda fors tilining tovush tizimida uchramaydigan 8 ta harf(ث ح ذ ص ض ط ظ ع)ga nisbatan arabiy(toziy) termini qo'llangan. CHHda va boshqa lug'atlarda ham “jimi forsi” atamasi ژ, چ harflariga barobar qo'llangan bo'lib, bunga ژ tovushining ج tovushiga fonetik o'xshashligi asos qilib olingan bo'lsa, چ harfining ج harfiga ham shakily ham fonetik o'xshashlik asos qilib olingan. Ayrim lug'atlarda ژ “zoi forsi[4,45]”, “zoi forsi[3,78,9;490]” istilohi bilan nomlangan bo'lib, ChHda ز harfining fors tilidagi ژ tovushiga grafitik o'xshashligi va “zoi forsi”ning yasalişiga asos bo'lganligi sabab “zoi toziy[5,44]” atamasi qo'llangan.

Lug'atda harflar quyidagicha arabiy va ajamiyga bo'lingan:

Arabiy(toziy) – bo - ب, to - ط(to forsiyda yo'q; u(fors)larning so'zlashuvida yo'q[5,149-164]; kof5] - ک, jim - ج, zo, - ز [5,44].

Forsiy (ajamiy) – boi forsiy5] - پ,50], kof - گ, jim – چ [5,155], ro5] - ج,24], qof - ق. Ma'lumki, tillardagi tovushlarning ayrim o'ziga xosligi mavjud, jumladan, fors tilidagi q tovushi o'zbek va arab tilidagi q tovushidan butunlay farq qiladi[1,80], bu farqlanish lug'atda “qofi forsiy” hamda “qofi turkiy” shaklida o'z ifodasini topgan, shuningdek, fors tilidagi r tovushi ham arab va hind tilidagi r tovushidan farqli ekanligini mazkur tillarga oid qo'lanmalaridan bilib olishimiz mumkin.

Shuni ham unutmaslik kerakki, Alixon Orzu salafalaridan farqli ravishda tovushlarni “hindiy” deb tasnif qilganki, bu o'sha harflarning fonetikasi haqida to'laroq tashavvur qilish hamda so'zni to'g'ri talaffuz qilish uchun muhim ma'lumot bo'lib xizmat qiladi, ya'ni bu tovushlarni faqat yozuv bilan farqlab bo'lmaydi.

Hindiy – roi hindiy - 5]ر,27], doli hindiy – 5]د,120-186], to, toi hindii rasida - hindchadan boshqalarning bu tovushni talaffuz qilishi qiyin5] - ت,15-72-111-182]. Bundan tashqari bir qancha hindcha so'zlarda qorishiq(maxlututtalaffuz) tovushlar tavsiflangan bo'lib, bu tovushlarnig talaffuzi haqida tasavvur uyg'otishga hamda aslida ikki harf bilan yozilishiga qaramay hind tiliga xos bitta qorishiq undosh ekanligini anglatishga xizmat qilgan. Bular quyidagi tovushlardir: boi muvahhadai maxlututtalaffuz ba ho – bhattiy[5,72], bhaji(bh)[5,169]; kofi maxlututtalaffuz ba ho – (gh)singh[5,27], (kh)khichri[5,169]; jimi maxlututtalaffuz ba ho(jh) - jharu, jharha[5,27],(chh)uchchhu[5,11], chhit[5,82], khichri[5,169]; yoi maxlututtalaffuz ba ho(faqat hind tiliga xosdir) – karyhasut – کریهسوت [5,179].

Mo'lthon, thon[5,197] so'zlaridan bilish mumkinki, qorishiq th tovushi ham mavjud, shuningdek, lug'atda keltirilgan “toi hindi rasida[5,15]” ham “toi omexta ba toi muallaf”-qorishiq (تط) ekanligi aytilgan[7,69].

Turkiy – qof (qof forsiyda yo'q(33); asl qof fors tilida yo'q(73). Jumladan ko'pgina so'zlarning etimologiyasini ko'rsarishda tarkibida q tovushining mavjud ekanligi ham asos qilingan: najoq, qirmiz, qayqoj, qizilola/qizilala so'zliklarida.

Ma'lumki, arab alifbosi asosan 16 ta belgidan iborat bo'lib, ulardan bir nechasing ost yoki ustiga bir, ikki va uch nuqta qo'yib yangi harflar yasalgan. Lug'atda harflar nuqta qo'yilish o'rniga ko'ra: tahtoniyy – ostida nuqtasi bor harf, favqoniyy – ustida nuqtasi bor harflar. Bu istilohdan asosan yo va to harfini ifodalashda ishlatilgan. Ma'lumki, yo(ی) va to(ت) harflari so'z boshi va o'rtasida kelganda nuqtalarning o'rnidagina bir-biridan farqlanadi, shu sababli lug'atda bu harflar “yoi tahtoni” va “toi favqoniyy” bilan bir qatorda, asosan qisqartirilib “favqoniyy” (ت) va “tahtoniyy” (ی) shaklida qo'llangan: “Lekin bobat(بابت) arabchada toi favqoniyy bilan yoziladi[5,30];” “...tozon(تازان) favqoniyy bilan[5,32];” “TORAM||TORUM – lekin to(ط) forschada yo'q, favqoniyy(ت) bilan torim(تارم)ning muarrabidir[5,149]; nimkosa (نیم) yoi tahtoniyni tushirib - نیم کاسه - didani kardan(دیدی کردن) birikmasida tahtoni(ی) ortiqchadir - دیدن کردن [5,108].

Chhda harflarga nuqtalarining soniga nisbatan ham maxsus atamalar qo'llangan bo'lib, bunda asosan ب - “boi muvahhada”(bir nuqtali bo) va ث - “soi musallasa” (uch nuqtali so)ni ifodalashini kuzatamiz: boalam(boi muvahhada bilan)[5,51]; BOYLIY – ov hayvonlari bilan boshqa jonvorlarni ovlash. B'azilar bovlining o'zgarganidir deydi. Negaki vov boi muvahhada va yoi tahtoniyy bilan o'rin almashadi[5,33]; KAYUMARS(کیومرث) – Ajam podshohlaridan birinchisining nomi. Ma'lumki, bu keyingi(muaxxir)larning tasarrufida kofi forsi va soi musallasa bilan mashur bo'lgan. Holbuki, soi musallasa(ث) asl fors tilida yo'q. Muhaqqiqlarning ijmosi va haqiqat fathali forsiy kof va tahtoniyy to'liq vov bilan va fathali mim, sokin nuqtasiz ro, vaqfli favqoniyy(فاتخی کوفی форсей ва тахтонӣ ба вови расида ва мими мафтӯх ва рои мухмалаи сокин ва фавқонии мавкуф) bilan (ya'ni Gayumart - گایومارت)ir. Firdavsiy aytadi, bayt:

Нахустин хидеве, ки кишвар кушуд,

Сари подшоҳон Гаюмарт буд.

(Dastlabki sultonkim, mamlakat ochdi,

Podshohlarning boshi Gayumart edi). Va buning tafsili qadimiy lug'atlarda bitilgan. Faqir Orzuning nazdida haqiqat shulkim, gayu(گويو) go'y(گوي)ning tovush almashishi(epiteza) dir, so'zlovchi(گوينده) manosida hamda mart mard(erkak)ning tovush o'zgarishidir, notiq erkak(مرد گويو) ma'nosida. Zohiran, ushbu podshosh shirinso'z va notiq edi, shu sabab ushbu nom berildi va bu uning laqabidir. Va qizig'i shundaki, Muhsin ta'sirkim Eronning mashhur shoiridir, "nuqtasiz ron"ni harakat bilan qo'llagan. Va bu xatodir, yoinki tursh (turush) kabi tushungan, ro sukun va harakat bilan birdek qo'llanadi. Lekin lug'atlarda bu holda ko'rilmadi. Aytish mumkinki, bu qodirsuxan shoirlarning tasarrufidirkim, ularga ojizlik emas, aksincha, qudrat va mashhurlik sabab sukun, harakat, taxfif va tashdid joizdir, buni boshqa joylarda ham yozganman...[5,177]. Keltirilgan lug'at maqolalarda nafaqat so'zlar izohlangan, balki ko'rib o'tganimizdek so'zlik haqida atroflicha ma'lumot berilgan, hatto ayrim lug'at maqolalar bu jihatdan qomusiy lug'atlarga o'xshab ketadi.

Bizga ma'lumki, arab alifbosidagi harflar ma'nodan xoli bo'lgan, ya'ni hech qanday ma'noga ega bo'lmagan 8 ta so'z(ضطغ، ثخذ، قرشت، سعفص، كلمن، حطى، هوز، ابجد)ga jamlangan bo'lib, har bir harf son qiymatiga ega. Harflarning son qiymati ushbu birikmalarning birinchisi bo'lgan "abjad" deb nomlanadi. Lug'atda ayrim harflarni ifodalashda mazkur birikmalardan ham foydalanilgan. Jumladan, hoi havvaz - ه, hoi hutti - ح, toi qarashat - ت, toi hutti - ط istilohi abjad hisobi bilan bog'liq. Misol keltiramiz: "DUMOG'A – tumoq, lochin va burgutning boshidagi yopinchig'i(qalpog'i). Va tumog'a(toi qarashat bilan) mashhurdir. Zohiran turkiy so'zdir...[5,105]"; "...tor (toi qarashat bilan) - Hindda o'sadigan mashhur daraxt...[5,122]"; "...tayyor (toi qarashat bilan) arabcha sakrovchi ma'nosida. Bu holda toi mutabbaqa(ط) bilan to'g'ri emas, toi qarashat bilan yozganda to'g'ri bo'ladi[5,15]"; "Tosni...arab tilini biladigan folklar toi hutti(ط) bilan yozganlar va bu ommalashgan[5,149]". Shuningdek, toi mutabbaqa(ط)ning "toi dastador" kabi nomlanishi ham borligini "DASTAI TO" so'zligida ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ط, ظni to va zoi muallaf, itqi va izg'i kabi nomlari ham mavjud[7,64].

Shuni ham qayd etish kerakki, fors alifbosida qisqa unlilar mavjud emas. Ularni ifodalash uchun harakatlardan - grafik belgilardan foydalaniladi, lekin bu belgilar har doim ham qo'llanmaydi. Lug'atlarda ushbu harakatlar ham harflar bilan birga qo'llangan va bu so'zlarning o'qilishida muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib harflar harakatlar bilan qo'llanishiga ko'ra, harfdan so'ng "a" kelsa – maftuh, harfdan so'ng "i" yoki "e" tovushi kelsa – maksur, harfdan so'ng "u" tovushi kelsa – mazmum, harf sukun bilan o'qilsa – maskun, harfda to'xtalsa(tugasa) – mavquf, agar o'sha harf ikkilantirilsa mushaddad(tashdid) istilohi qo'llangan. Bu o'rinda shuni unutmaslik kerakki, sukun(maskun) harflardan so'ng unli bo'lmaydi, ya'ni yopiq bo'g'inli undosh harfdir. Misollarda ko'rib o'tamiz: "aslida abo'zinnadir (alif hamda tashdidli nun bilan)"; "baangez(ba fathi alif va sukuni nun va kofi forsiy va yoi majhul va zoim mu'jama)".

Mazkur lug'atda harflarning alohida xususiyatiga ko'ra nomlanishini ham kuzatishimiz mumkin. Hoi havvazning undosh yoki unli tarzida talaffuz etilishi "hoi muxtafiy"(muxtafiy so'zi "yashiringan", "ko'rinmas" degani) va "hoi malfuz" terminlari bilan ifodalangan. Agar so'z oxiridagi hoi havvaz "a" yoki "e" unlisini ifodalagan bo'lsa - hoi muxtafiy, aksincha, "h" undoshini ifodalagan bo'lsa hoi malfuz atamasi qo'llangan: "AXM... axmazada (orttirilgan hoi muxtafiy bilan, y'ani اخمزده va اخمه زده)[5,19]; тоба(تابه)... тоб(تاب) (бидуни ҳои мухтафи низ омада)[5,58] Xamirasandal[5,94]; ...bilib qo'yki, rono(hind rojasi) hoi muxtafiy va alif – har ikkisi bilan to'g'ridir(رانمرانا), xora(خاره) va xoro(خارا) kabi[5,110]; Bu ikki atama to'g'risida "na"(inkor so'z)i izohidan[5,211] shunday xulosa qilishimiz mumkin: na(نه) hoi muxtafiy, nah(نه) – hoi malfuz. Lug'atda ayrim o'rinda hoi muxtafiy "ho" deb ketilgan: Bilginki, darbasta aslida darbastdir, oxirida "ho" orttirilgan[5,99]. Harflarning to'liq, aniq talaffuz etilishi ham inobatga olingan va buni ifodalash uchun "rasida" termini qo'llangan: yoi rasida, vovi rasida, boi rasida(rishboli [5,15], toi rasida, toi hindii rasida shular jumlasidandir.

Shuningdek yo, vov va alif harflari ham bir necha atamalar bilan nomlanganki, bu ushbu harflarni to'g'ri talafuzi uchun muhimdir, bu unilarni bir biridan farqlash uchun alohida atamalar qo'llash oldingi leksikograflarning ham diqqat markazida turgan. Jumladan, "Farhangi Jaxongiriy"ning beshinchi oyini "Дар зикрї тафрика миѐни хруф ва аломати ҳарфе" (Harflar va alomatlar orasidagi farqlar bayonida) bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz: "Ва "вов"-е, ки дар "худ" ва "суд" ва "ѐ"-е, ки дар "нил" ва "занчабил" ва амсоли он бошад, "вов" ва "ѐ"-и маъруф навиштам ва "вов"-е, ки дар "рӯз" ва "сӯз" ва "юӯз" ва "ѐ"-е, ки дар "сер" ва "дер" ва "парер" ба монанди он буд, "вов" ва "ѐ"-и маҷхул марқум намудам ва "вов"-е, ки мактуб мешаваду ба талаффуз дарнамеояд, монанди *خواجه* ва *جوارزم* ва *جواب* *вови* маъдула навиштам – Xud(o'z) va sud(foйда) so'zidagi "vov" va nil va zanjabilga o'xshagan so'zlardagi "yo"ni ma'ruf "vov" va "yo" yozdim, "ro'z", "so'z va "yo'z" so'zidagi "o" hamda "ser", "der" va "parer"(kechadan oldingi kun) so'zidagi "yo"ni majhul "vov" va "yo" yozdim hamda *خواجه*, *جوارزم* ва *جواب* kabi yozlib, ammo talaffuz qilinmaydigan "و"ni ma'dula deb yozdim[6,10]" – deydi. Ma'lumki, yo harfi ham "iy", "i", "ye" va "e" tovushlarini ifoda etadi.

Chhda "e" harfini ifoda etish uchun "yo'yi majhul" qo'llaniladi: "...некӯ(نيكو), ки дар хинди никав(نيكو) "ба нун ва ёи маъруф ва ва вови сокин; ва дар форсї ба ёи маҷхул ва вови маҷхул аст, ya'ni forscha neko'(ezgu, yaxshi) so'zi yoi majhul "e", vovi majhul "o" bilan talaffuz etiladi. Aytish "I" va "iy" tovushini ifodalash uchun yo, yoi ma'ruf, yoi rasida va tahtoniy terminlari qo'llangan: интизорї(انتظاری) - arbiy masdardir, (fors tilida) unga yo orttirganlar...[5,25].

Yoi ma'ruf – i tovushini ifodalagan: Mullo Tug'ro yoi ma'ruf bilan keltirgan, paysa – pisa[5,54]; ДАРБАЧА – mayda eshik, daricha (yoi ma'ruf bilan)(دریچه) ham deytilar...[5,107];

Yoi rasida – "iy" kabi cho'ziq va yumshoq talaffuz etiladigan i unlisi: magni(مگنی)ба фатҳи мим сукуни кофи форсї ва нун ба ёи расида5:[88]; Va tika(طیکه) (toi hindiy, yoi rasida va fathali kofi toziy bilan) taqinchq, peshonaga taqadilar[5,88]; САҚИФАСОЗЎЙ(ساقیفة) - saqifa (ba qof, yoi rasida va fo bilan) yolg'on to'qimoq[5,131]; hundi-y-مندی[5,217]. Keltirilgan misol va uning transliteratsiyasidan bilishimiz mumkinki, yoi rasida yoi marufga nisbatan cho'ziq va yumshoqroq talaffuz etiladi.

Yoi tahtoniy – i tovushining nuqtasi o'rniga qarab nomlanishi: mirzo میرزا (ba hafzi tahtoniy مرزا shaklida keltirish xato, lekin ustozlar kalomida uchraydi[5,201]. Bundan tashqari yo harfining nomlanishida uning grammatik vazifalariga ham e'tibor berilgan va bu atamalar hozirgi zamonaviy fors tili grammatikasida ham uchraydi.

Yoi nisbat. Fors tilidagi ی-і qo'shimchasini qo'shish orqali ulardan nisbiy sifat yasaladi. Bu ی fors grammatikasida yo-ye nisbat – یای نسبت deyiladi[1,109]: "YODGOR – Va yodgori (yoi nisbat bilan) ham shu ma'noda[5,218].

Yoi tankir. Fors tilida biror predmet yoki shaxsning birlik va noaniqligini(vahdat va nakare – J.I.) ko'rsatish uchun ularga birlik va noaniqlik belgisi ی qo'shilib, "i" deb talaffuz qilinadi[1,147]. Chhda bu qo'shimchaga "yoi tankir" istilohi qo'llangan. DAVOIY – دوائی [5,107].

Yoi masdariy fors tili darsliklarida shunday izohlangan; "Sifat, ot va boshqa turkumdagi so'zlarnind oxiriga urg'uli bir ی-і qo'shish orqali abstrakt ma'noni bildiruvchi ot hosil qilinadi. Bu ی-yo fors grammatikasida یای مصدری yoye masdari deyiladi[5,219]: "ЧУМЛАГЎЙ(چمگئی) – barcha, hamma ma'nosida. Sir emas -gi qo'shimchasi masdar bo'lib, hoi muxtafiy bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi va bu holda hoi muxtafiy(ء-a) ortiqchadir[5,73], ya'ni o harfi tushirib qoldiriladi, agar undosh bilan tugagan bo'lsa "yoi masdari" qo'shiladi: "Ёи масдарї изофа карда меҳмонї хонанд, ya'ni yoi masdari qo'shilib

mehmoni(مهمنى) shaklida o'qiydilar. Yuqorida keltirilgan yo harfining yoi ma'ruf, yoi majhul, yoi rasida va yoi tahtoniy kabi farqlanishi sof fonetik(orfoepik va orfografik) hodisa bo'lsa, yoi nisbat, yoi tankir va yoi masdari terminlari fonetik va morfologok hodisadir. Ma'lumki, fors tilida “o”, “u” unlisi hamda “v” undoshini ifoda etish uchun vov, alifi mazmum(و) va zamma harfidan foydalaniladi, lug'atda bu unlilar ham alohoda atama bilan nomlangan.

Vovi majhul – “o”: “Hindhada po'riy(پورى) o'qiydilar (majhul vov bilan)[5,88]”; “ЗЕХИ ПИРОХАН – jiyakdir, va hindhada (hindiy mazmum dol va majhul vov bilan) do'riy(دورى)”, shuningdek, tojik tilidagi transliteratsiyada “vovi rasida” bir o'rinda “u” bilan (учуху- boshi zamma va ikkilangan qorishiq jim va vovi rasida bilan – 5]أچھو,11], bir o'rinda “o” unlisi bilan yozilgan: SARBATO'YI سربتوئى – hiylagarlik va tovlamachilik. Va aslida to' (favqoniy(ت) va vovi rasida(و) bilan) o'rta ma'nosidadir...Fors tili qo'llanmalaridan bizga ma'lumki, o'rta ma'nosidagi تو so'zi “tu” shaklida transkripsiya qilingan. Bizningcha, “vovi rasida” ham u tovushini ifoda etgan.

Ma'lumki, fors alifbosida a va o harflarini ifoda etish uchun bitta grafik belgidan foydalaniladi, faqatgina so'z boshida o unlisini ifodalash uchun alifning yuqorisiga madda belgisi qo'yiladi. Shuning uchun lug'atda a harfini alif va “hamza” atamasi ifodalagan, o harfi esa alif “mad”, “alifi kashida” va “alifi mamduda” atamaları bilan ifodalangan. Bundan tashqari, so'z boshidagi qisqa unlilarni ifodalash uchun ham hamza atamasi qo'llangan: hamzai maftuh –a (قزل اله), hamzai mazmum –u (أچھو) kabi.

ChHda so'zlarining fonetik izohlanishida quyidagicha holatni kuzatishimiz mumkin: So'zlikka to'liq fonetik sharhlangan va lug'aviy birliklarni bu shaklda izohlash shu davr lug'atnavisligida qat'iy qoida bo'lib, o'ziga xos transkripsiya vazifasini bajargan[4,71]. Bunda ikki holat kuzatiladi. Birinchi, so'zlik harfma harf to'liq izohlanadi: Kayumars, lo'layin kabi.

Ikkinchi holatda lug'at maqola tarkibidagi muqobil so'z yoki misollarda uchragan biror imlo yoki fonetikasi izohtalab so'z izohlanadi: RASANBOZ – dorboz... Va hindhada uni nat (nun fathasi hindiy to bilan نَط) deydilar.

Ba'zi so'zliklarga fonetik izoh berilmagan bo'lsa-da, lug'at maqoladagi misollardagi bir necha so'zga fonetik izoh berilgan. Buni “navcha” so'zligi misolida ko'ramiz: Navcha – o'spirin. Tug'rodan, bayt:

Навча гар Чисмир меояд ба гулзори бихишт,
Аз назокат чой ҳар ду дидаи зебо кунад.

Va Jismir (kasr ِ va zam ُ bilan va sukunli nuqtasiz sin va mim to'liq talaffuz etiladigan yo va nuqtasiz ro bilan – جسمير) Jilsmirning o'zgargan va qisqarganidir. Sindning poytaxti Thatha va Hinddagi Morvor o'rtasidagi mulkdir. Va bu tovush almashishi va tushishi (taxfif va tabdil) mug'ul(boburiy)larning tasarrufidir, negaki Siravnjni(nuqtasiz sin kasrasi va nuqtasiz ro fathasi sukunli vov va g'unnali nun va toziy jim bilan) Hinddagi shahar nomi, boburiylar nuqtasiz sin zammasi, nuqtasiz ro fathasi va g'unnali nun bilan (Suravnj) o'qiydilar, go'yoki tafrisdur[5,211].

Alixon Orzu nun harfi tavsifida tajvid qoidalariga doir g'unna terminini qo'llagan: GIRANDA//GIRONDA –ma'ruf yo va muhmala ro, cho'ziq alif(ل) va g'unnali nun hamda fathali dol bilan”. Funna termini lug'atlarda: “g'unna (tilshunoslik) – hosil bo'lishida burun ham ishtirok etadigan tovush”, “burun tovush”- deb berilgan[7,63].Lug'atda hatto so'zlarning omograf shakllari ham berilgan va izohlangan: Bach(ch)a, ug'-ug'//ug'g'-ug'g', utu//uttu – (favqoniy tashdid va taxfif bilan, ikkalasi ham qo'llanadi) – utuk[So'zlikka qarang].

ChHda 1751 ta so'z birikmasi, idioma va frazeologizmlar berilgan bo'lib, ayrim hollarda so'z birikmasi yo iboradagi bir so'zga fonetik izoh berilgan. Misol uchun: ШИКАМ

A3 A3O BAPOBAPDAH – azo (nuqtasiz ayn hamda nuqtali zo bilan عزا) och faqirning qorin to'qlashiga kinoyadir... [5,141].

So'zlikdagi so'z yoki birikmaning ayrim tovush yoki harfiga fonetik izoh berilgan: Tosi chilkalid كليل (چهل چل) – ho tovushi tushib qolgan holda ham qollanadi... arab tilini biladigan forslar toi hutti bilan yozganlar va bu rivoj topgan[5,149]; ZOT ذات - arabiy lafzdir, narsaning asli ma'nosida; qavm manosida ham kelgan. Bu xatodir, zeroki bu ma'noda hindcha jotdir(jim bilan)...[5,109].

So'zlikning ayrim harakatlari berilgan: OBI DAST آب دست – arabchada vazo'(وَبَضُو) o'qiydilar(vov fathasi bilan)[5,10]; DAM(fatha bilan) دَم – nafas(tin) va vaqt ma'nosida ham. Va ko'pincha buning qo'llanishi subh so'zi tarkibida ko'rildi, gohida shom bilan ham...[5,105]; SALAVOT صلوات – salotning ko'pligi, arabchadir. Va forslar ikkinchi sukun bilan (salvat)zulmot kabi qo'llaydilar[5,146].

ChHda ayrim so'zlar talaffuzida lug'atnavislar o'rtasidagi farqli talqinlar ham, bu holat “alo ixtiloful qavlayn” shaklida aynan ta'kidlangan: tunukat// tunuka//tanuka, kishitii langargir//kashtii langargir, tobai nuql//tobai naql – (bir nuqtali bo va zamma yoki fathali nun bilan, farqli talaffuzlar bilan) [7,66] kabi.

Malumki, lug'atnavislar so'z izohida o'zlarining tilshunoslikka oid ilmlari, ulardan oldin yaratilgan lug'atlardagi ko'rsatmalar hamda ma'lum til vakillari va til ilmini biladiganlar(muhoviradonon)dan so'rab-surush tirish yo'lini tutganlar, lekin hech kim biror tilning to'liq lug'aviy, fonetik va orfoepik tarkibini bilmaydi. Bu holatda Alixon Orzu “ba e'robi majhul”(noma'lum harakat bilan) istilohini qo'llagan: Lak-u lunj لک و لنج - (noma'lum e'rob bilan)[7,66].

Harakatlar izohlanishda sukun, tashdid, tahrik va fakki izofat kabi fonetika oid hodisalar ham nazarda tutilgan. Alixon Orzu so'zarni fonetik: opfografik va orfoepik izohlashda kuzatganimiz kabi asosan tavsifiy usulidan va ba'zida qiyosiy usuldan foydalangan[7,69] hamd so'zlik bilan vazndosh, qofiyadosh so'z berilib u bilan qiyoslaganda so'zning talaffuzini aniqash osonroq bo'lgan, bu qiyoslangan so'zni paronim so'zlarga o'xshatish mumkin: TUNDA – gunda vaznida; o'sha tund(tez, chopqir, chaqqon), balki xon va xona kabi tund so'zning mazid(orttirilgani)dir[5,65], Sabil – (fail vaznida) yo'l[7,67], salvot||zulmot kabi.

Professor M. Xodjaevaning ta'kidlashicha mazkur lug'atda boshqa lug'atlarda uchramagan “muhannad”(hindcha talaffuzga moslashgan so'z) hamda “hamzai mulayyina” termini uchraydi. Lo'layin (لَوْلَيْن) so'zi izohida va bu atama shunday izohlangan: “oina va surma kabi so'zlardan izofa va tavsif hosil qilinganda izofa hamzai mulayyinaga o'zgaradi va bu to'g'ri qoidadir[5,211]”, Nuqrai(نقرا) – qovun turi; hoi muxtafiy(a) bilan tugagan so'zga yoi nisbat yozmaydilar, balki hamzai mulayyina keltiradilar va bu rang olgan ma'nosida asliy suratdir[5,209]. “Farhangi buzurgi forsiy”ning muallifi ushbu termin izohida Shams Qaysi Roziydan “eski” ishorasi bilan shunday iqtibos keltiradi: “hamza va yo orasidagi tovushni ifodalovchi atama: don ova bino ... izofa qilinganda hamza(a) va yo(i)ga o'xshash kasrali tovush hosil bo'ladi, shu sabab hamzai mulayyina deganman”[7,64].

So'zning fonetik varianti bilan bir qatorda shu so'zning to'g'ri shakli berilgan: SHAFQAT//SHAFQAT شفقت – har ikkisi forslar iste'molida. Va arabchada qo'rquv va vahima ma'nosida kelgan. Ammo forslar qofni ikkilantirgan holda ham rahmdillik, achinish, rahm-shafqat(Ғамхорӣ) manosida keltiradilar. Voiz Qazviniiy aytadi, bayt:

Сарбаландӣ орзу дори шафаққат пеша кун,

К-ин алампo резиши борони эҳсон парчам аст.

Tarjimasi: Muzaffarlik istasang, shafqat kasb etkim,

Bu tug'ning bayrog'i ehson yomg'iridan erur[5,141].

Bu yerda soʻz oʻrtasida “a” unlisining orttirilishini muallif tahrik termini bilan ifodalagan. Oʻrni kelganda shuni ham taʼkidlash kerakki, mazkur soʻz oʻzbek tilida ham “rahmdillik, achinish va mehribonlik” maʼnosida qoʻllanadi, yaʼni birlamchi(qoʻrquv va vahima) maʼnosida umuman qoʻllanmaydi, aksincha, bu soʻz oʻrnida aslida “hayronlik va hayratda qolish” kabi maʼnolarni ifodalovchi “dahshat” soʻzi qoʻllanadi.

Ayrim qoʻshimchalarning imlosi berilgan, buni yoyi nisbat, yoi tankir va yoi masdari kabi birliklar izohida koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari, muarrab, muhammad(bu atamani ilk marta Alixon Orzu qoʻllagan), mufarras(tafris): mubaddal, taxfif, hafs, mazid, mazidun ilayh, funna, layyina, vaqf(mavquf), muxtafiy, malfuz, fakki izofat va boshqa koʻpgina terminlar qoʻllanganki, bu tilning fonetik oʻziga xosligini tushunish uchun juda muhimdir. ChH asarining fonetik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin: Alixon Orzu soʻzlarni fonetik, opfografik va orfoepik izohlashda asosan tavsifiy usuldan va baʼzida qiyosiy usuldan foydalangan.

Alixon Orzu birinchilardan boʻlib fors lugʻatnavisligida hindcha soʻzlar fonetikasini tavsifiy usulda bergan va lugatnavislikka oid (muhammad; jim, ho, kof, qof, yoi maxlututtalaffuz) terminlarni ilk marotaba qoʻllagan. Ayrim soʻzlarning lugʻatga kiritilishida asosan fonetik jihatdan izoh berish maqsad qilingan, yaʼni soʻz haqida faqat fonetik izoh berilgan.

Chhda soʻzliklar bilan bir qatorda lugʻat maqolada keltirilgan sinonim, antonim soʻz, muqobil soʻzlar, sheʼriy misollardagi soʻzlarga ham orfoepik va orfografik maʼlumot berilgan. Lugʻatlardagi fonetik masalalarni oʻrganish asl shakli nomaʼlum soʻzlarning kelib chiqishi va genezisini oʻrganish uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur lugʻatdagi fonetik hodisalarni oʻrganish mumtoz fors-tojik lugʻatlarining fonetik strukturasi oʻrganish va tasavvur hosil qilishda asosiy amaliy va nazariy manba boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Abdusamatov M. Fors tili. – T.: “Sharq” 2007. 446 b
2. Бахриддин Дарвеш «Чароғи ҳидоят»-и Орзу ва забони тоҷикии форсӣ. – Душанбе. 1992. –288с
3. Отахонова А. "Фарҳангнома"-и Хусайн Вафой. Душанбе: “Дониш”, 1986, – 124 с.
4. Раупов Ҳ. "Фарҳанги Чаҳонгирӣ" ҳамчун сарчашмаи лексикографияи тоҷику форс. - Душанбе: "ДОНИШ". 1973. –210с.
5. Сирочуддин Алихони Орзу. Чароғи ҳидоят /А.О.Сирочуддин. –Душанбе. Ирфон, 1992. –288 с.
6. Ходжаев Д. Манбаҳои шаклгирӣ ва рушди таърихи афкори забоншиносии тоҷик// ЗАБОН–РУКНИ ТОАТ Маҷалаи илмӣ - назариявӣ. Китоби нуҳум. – Душанбе: Пойтахт, 2017. –264 с.
7. Хоҷаев М. Инъикоси масоили фонетикӣ дар “Чароғи ҳидоят”-и Орзу//Номаи донишгоҳ. Хӯҷанд. 2014. –208 с.
8. Қосимова М.Н. Мухтасар оид ба забоншиносии пешинаи тоҷик. Қисми 1. - Душанбе. 2003. –220 с.
9. محمد خلف بن تبریزی. برهان قانع. باهتمام محمد معین, تهران، 1357 جلد

UDK: 494.1

KO'P TILLI ELEKTRON LUG'ATLARNI YARATISHNING LINGVISTIK TAMOYILLARI**M.G'.Najmiddinov***Andijon davlat universiteti*m_najmiddinov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'p tilli lug'atlarda atamalar izohlanishining leksikorafik usullari hamda bu jarayonda duch kelinadigan muammolarga atroflicha yechim topishga shu bilan birga lug'at yaratishning lingvistik tamoyillari va metodikasiga bag'ishlangan. Bundan tashqari, bu sohada oldida turgan masalalar va ularning ahamiyatiga haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Leksikografiya, korpus lingvistikasi, terminlar banki, terminologik standart, bir so'zli lug'atlar, ikki so'zli lug'atlar, batafsil lug'atlar, alifbo bir so'zli lug'atlar, leksik-lug'at, ideografik so'zlar.

Лингвистические принципы создания многоязычных электронных словарей

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется лексикографическим методам интерпретации терминов в многоязычных словарях, а также комплексным решениям проблем, возникающих в процессе, а также лингвистическим принципам и методам создания словарей. В нем также обсуждаются проблемы, стоящие перед отраслью.

Ключевые слова: лексикография, корпусная лингвистика, терминологический банк, терминологический стандарт, однословные словари, двусловные словари, подробные словари, алфавитные однословные словари, лексический словарь, идеографические слова

Linguistic principles of creation of multilingual electronic dictionaries

Annotation. This article focuses on lexicographic methods of interpreting terms in multilingual dictionaries, as well as complex solutions to problems that arise in the process, as well as linguistic principles and methods for creating dictionaries. It also discusses the challenges facing the industry..


Keywords: Lexicography, corpus linguistics, terminological banks, terminological standards, monolingual dictionaries, bilingual dictionaries, multilingual dictionaries, alphabet-cell dictionaries, ideographic dictionaries, alphabet-relational dictionaries.

Ko'p tilli terminologik lug'atlar tuzish tajribalarini kuzatar ekanmiz, T.Yu.Polyakova, A.N.Remensov, I.A.Tishkovalar tomonidan tuzilgan "Uchebnogo russko-vetnamsko-angliyskiy terminologicheskii slovar-minimum "Avtomobilnye dorogi" lug'atini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar diqqatimizni tortdi. Ushbu lug'atni ishlab chiqish tamoyillari va jarayoni yoritilgan maqolada mualliflar shunday yozishadi: "Soha terminologiyasi va tilni o'rgatish maqsadida tuzilgan bu lug'at atamani ma'lum bir bilim /faoliyat sohasi konsepsiyasini bildiruvchi so'z yoki ibora sifatida keng ma'noda tushunishga asoslanildi va polisemiya moyillik xususiyatlariga ega atamani izohlashda uning izchilligi, ta'rifi, uslubiy betarafligiga alohida e'tibor qaratildi".

Lug'at minimumiga nafaqat bir so'zdan iborat sodda atamalar, balki iboralardan tashkil topgan terminologik birliklar kiritilgan, chunki, birinchidan, bunday atamalar rus va ingliz tilidagi maxsus texnik matnlarda keng tarqalgan bo'lsa, boshqa tomondan, umumiste'mol so'z sifatida o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi [1,17].

Lug‘at minimumining ruscha-vetnamcha-inglizcha alifbo tartibida rus tilida tanlangan atamalar, ularning vietnam va ingliz tilidagi ekvivalentlari, shuningdek, atamalarning tematik qismdagi joylashuvi bo‘yicha havolalar mavjud. Havolalarning mavjudligi ta‘rifni, atama va illyustratsiyaning sinonimlarini tezroq topishga imkon beradi. Lug‘at minimumining vietnamcha-ruscha-inglizcha alifbo qismi, o‘z navbatida, alifbo tartibida vietnamcha tanlangan atamalar, ularning rus va ingliz tilidagi ekvivalentlarini o‘z ichiga oladi. Har bir lug‘at maqolasida tematik qismdagi atamalarga havola ham mavjud (Qarang: 1-chizma).

1-chizma



Ko‘p tilli lug‘atlarning lug‘at maqolasiga xos bo‘lgan 1-chizmada ko‘rsatilgan tuzilishdan o‘zbek tili ko‘p tilli lug‘atlarini shakllantirishda foydalanish mumkin.

O‘zbek tilida birinchi marta nashr etilgan tilshunoslik atamalari lug‘atining muallifi bu lug‘atga bo‘lgan ehtiyojni quyidagicha izohlaydi: “... har bir sohaga oid terminlarni iloji boricha to‘la qamrab oladigan, hodisaning mohiyatini to‘g‘ri, to‘la va aniq aks ettiradigan terminlarni belgilaydigan izohli terminologik lug‘atlarni yaratish shu sohalar mutaxassislarining eng birinchi galdagi vazifalaridandir. Xuddi shu maqsadda birinchi marta o‘zbek tili lingvistik terminlarining izohli lug‘ati tuzilib, “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan 1985 yilda chop etildi”. Ushbu lug‘atning qayta nashri haqida muallif shunday deydi: “Lekin qator sabab va talablar shu lug‘atni qayta ishlab nashr etishni kun tartibiga qo‘ydi. Ularning eng asosiysi – o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishidir”. Muallif o‘zi ta’kidlaganidek, yuqorida ko‘rsatilgan lingvistik terminlar izohli lug‘atini qayta ishlab – to‘ldirib, nomaqbul terminlarni chiqarib, ruscha, ruscha-baynalmilal terminlarni, imkon darajasida bo‘lsa-da, qo‘llanishda bo‘lgan yoki yangidan yaratilgan o‘zbekcha terminlar bilan almashtirib, qayta nashr ettirdi. A.Hojiyev lug‘atning keyingi nashrida ruscha-baynalmilal tilshunoslik terminlarining tarkibida shunday so‘zlar bo‘lgan birikma terminlarning deyarli uchdan bir qismi butunlay o‘zbekchallashtirilganligini ta’kidlaydi [2,95].

Muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, lug‘at tilshunoslikka oid barcha terminlarni qamrab olmagan. Lug‘atga eng ko‘p qo‘llanadigan terminlar kiritilgan bo‘lib, maktab, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun nashr etilgan darslik, turli qo‘llanmalarda ishlatilgan terminlar qamrab olingan. Shuningdek, tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda tez-tez uchraydigan terminlar ham lug‘atga kiritilgan.

Muallif lug‘at so‘zligini belgilashda, ya’ni u yoki bu terminni lug‘atga kiritish-kiritmaslikda uning o‘zbek tiliga oid adabiyotlarda, tilshunoslik kurslari bo‘yicha o‘qish-o‘qitish ishlari jarayonida qo‘llanish-qo‘llanmasligiga, qo‘llanish darajasiga e’tibor berganligini ta’kidlaydi. Aniqroq aytganda, o‘zbek tilida mavjud, shu tilga xos hodisalar hamda barcha tillar uchun umumiy hodisalarni ifodalovchi atamalargina lug‘atga kiritilgan. Shu sababli biz lug‘at so‘zligini shakllantirishda bu atamalar tarkibini tahlil qilishimizga hojat qolmaydi. Balki biz bu atamalarning elektron platformaning bazasida berilishi hamda elektron platformada foydalanuvchiga qulay, tushunarli tarzda ifodalanishi masalasiga e’tibor beramiz. Bundan tashqari ko‘p tilli elektron platforma o‘zbek tilidagi atamaning rus va ingliz tilidagi ekvivalentini topish muammosini yechish ham ushbu tadqiqot vazifalari doirasiga kiradi. Lug‘atning so‘zboshida yozilganidek, boshqa tillarga oid bo‘lgan hodisalarni ifodalovchi terminlar lug‘atga kiritilmagan. Masalan, o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan hodisalarni bildiruvchi *ablaut*, *artikl*, *aorist* kabi terminlar lug‘atga kiritilmagan.

O‘zbek-ingliz-rus tilshunoslik terminlari elektron platformasi bazasi tarjima-terminologik lug‘at bo‘lganligi sababli lug‘at so‘zligiga asos bo‘luvchi tilni aniqlab olishni talab qiladi. Tabiiyki, ushbu platformaning so‘zligi o‘zbek tilidagi tilshunoslik atamalari tarkibidan shakllantiriladi. Chunki ushbu lug‘atning asosiy foydalanuvchilari o‘zbek tili

vakillari bo'lishadi. Kompyuter leksikografiyasining an'anaviy leksikografiyadan farqli va ustun tomoni shundaki, an'anaviy lug'atda atamalar lug'atga qanday joylashtirilsa, o'quvchining lug'atdan faqat bir tomonlama (masalan, o'zbekcha-inglizcha), agar ikki tomonlama tartib bo'lsa, (masalan, o'zbekcha-inglizcha yoki inglizcha-o'zbekcha) ikki tomonlama qidirish imkoni bo'ladi. Ammo ko'p tilli lug'atlarning aksariyati bir tomonlama qidiruv imkonini beradi, xolos: asliyat tildan tarjima tilga yo'nalishida qidirish mumkin. Elektron lug'at va platformalarda bu turdagi funksiyalarda ustunlik tomonlari talaygina. Masalan, loyihalashtirilayotgan o'zbek-ingliz-rus tili atamalarning elektron platformasida garchi lug'at so'zligi o'zbek tilidagi tilshunoslik atamaları asosida shakllantirilgan bo'lsa-da, qidiruvni quyidagi keng spektrda amalga oshirish mumkin bo'ladi:

- 1) o'zbek-ingliz;
- 2) o'zbek-rus;
- 3) o'zbek-ingliz-rus;
- 4) rus-o'zbek;
- 5) ingliz-o'zbek;
- 6) rus-ingliz-o'zbek.

A.Hojiyev muallifligidagi lug'atda ayrim hodisalarning o'zbek tilida ma'lum belgilari bo'lsa yoki shu hodisaning bor-yo'qligi haqida bir fikrga kelinmagan bo'lsa, ularni atovchi terminlar lug'atga kiritilgan; ularga ma'lum izoh, tushuntirishlar berilgan. Masalan, *jins, tus* terminlari shunday terminlar sirasiga kiradi. Lug'at 1700 ga yaqin terminni o'z ichiga olgan. Terminlar lug'atda alifbo tartibida berildi [3,107].

Ushbu platforma ma'lumotlar omborining asosiy tili so'zligi uchun dastlabki bosqichda 1700 atama kiritiladi. Platforma dinamik xarakter kasb etib, keyinchalik uning ma'lumotlar omborini yangi atamalar bilan to'ldirishi mumkin bo'ladi.

Elektron platformaning ma'lumotlar omborida atama, uning ikki: ingliz, rus tilidagi ekvivalenti va har bir tilda o'z izohi keltiriladi. Quyida o'zbek tili qismi uchun atamalar izohini tilshunoslik terminlari lug'atidagi lug'at maqolasi asosida to'ldirish imkoniyatlarini ochamiz.

Tilshunoslik atamalari lug'atida har bir lug'at maqolasi bosh so'z sifatida liigvistik terminni keltirish bilan boshlangan. Masalan:

MIQDOR URG'USI

MIQDOR SONLAR

Agar termin o'zbek tiliga boshqa tildan o'zlashgan bo'lsa, qavs ichida qaysi tildan, qanday so'z yoki til unsurlari asosida o'zlashganligi ko'rsatilgan:

LEKSIKOGRAFIYA (*yun. lexico – lug'at; grafo – yozaman*).

Elektron platformada esa atamalarning barchasi lug'at so'zligi sifatida alohida ustunga joylashtiriladi, agar atama o'zlashma bo'lsa, uning o'zlashmaligi haqidagi axborot alohida ustunda, ayni o'sha atamaning qatoridan joy oladi.

Lug'at maqolasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – terminga beriladigan izoh. Har bir termin ma'lum lingvistik tushunchani bildirib, ma'lum bir ma'noga (ayrimlari birdan ortiq ma'noga) ega bo'ladi. Lug'at maqolasida terminning ana shu ma'nosi, ko'p ma'noli bo'lsa, barcha ma'nolari izohlanadi. Masalan:

Sheva. Mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik jihatdan umumiylikka ega bo'lgan, bir yoki bir necha qishloqni o'z ichiga oladigan qismi. Mas., o'zbek tilining Qorabuloq shevasi, o'zbek tilining Niyozboshi shevasi.

LEKSIKA (*yun. lexico – so'zga oid, lug'aviy*).

1. Tilning lug'at tarkibi: *O'zbek tilining leksikasi*.
2. Lug'at tarkibining qo'llanish sohasi, uslubiy belgisi, kelib chiqishi kabi turli jihatdan yondashib ajratiladigan guruhlari: *Og'zaki nutq leksikasi. Ijtimoiy-siyosiy leksika. Kasb-hunar leksikasi. Ekspressiv leksika. O'zbek asarlari leksikasi* va b.

Bu kabi izohlar uchun alohida ustunlar ajratiladi, har bir atamaga oid izoh uning satrida alohida ustunda joylashadi.

Ayni bir til hodisasi uchun ba'zan birdan ortiq atama qo'llanish holati uchraydi. Bunday atamalar ham tilshunoslik terminlari lug'atiga kiritilgan. Ma'lumotlar bazasiga bunday atamalar shu terminlarning sinonimi sifatida bir satr, ammo boshqa ustundan joy oladi.[4,56] Lug'atda izoh shulardan qaysi biri asosiy deb hisoblansa, ana shu terminga berilgan. Masalan., *tasviriy so'z*, *mimema*, *taqlidiy so'z*, *taqlid so'z* terminlaridan faqat *taqlid so'z* terminiga izoh berilib, qolganlari *q.* (qarang), *ayn.* (aynan) kabi belgilar bilan *taqlid so'z* terminiga havola etilgan. *q.* (qarang), *ayn.* (aynan) kabi belgilar bilan havolaga ega bo'lgan atamalar an'anaviy lug'atlarda alohida birlik sifatida ko'rsatiladi. Lingvistik platformada bunday birliklarga nisbatan boshqacha yo'l tutish maqsadga muvofiq. Bu so'zlarni ham sinonim atamalarni joylashtirilganidek, havola etilgan so'z satriga, ammo boshqa ustunga joylashtiriladi. Ammo bular alohida atama ekanligini bildiruvchi belgi qo'yiladi. Natijada, bu atamalar ham sanoqqa kiradi. Yaxshi tomoni shundaki, bitta atama qidiruvga berilganda, uning sinonimi, aynan ma'noga ega bo'lgan ekvivalenti ham bir oynada ko'rinadi. Ma'lumotlar bazasida taxminan quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

№	Atama	sinonimi	Kelib chiqishiga oid ma'lumot	izohi	Aynan yoki bir hodisani atab kelgan varianti
1	tasviriy shakl				ayn. Analitik shakl.
2	abzats		nem. abzats – surmoq, nari surmoq	Matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi: ikki abzatsni tashlab o'qimoq.	ayn. Xat boshi.
3	absolyut zamon	q. Mutlaq zamon			
	abstrakt ot	q. Mavhum ot.	lot. abstractus – uzoqlashgan, mavhum		
	abbreviatura	q. Qisqartma so'zlar.	ital. abbreviatura <lot. abbevio – qisqartaman		
	avtosemantik gap	q. Mustaqil gap		Ergash gapli qo'shma gaplardagi mustaqil qo'llana oladigan bosh gap: <i>Bahor kelgach, gullar ochildi.</i>	

Bunday atamalarning berilishini muallif quyidagicha izohlaydi: “Lekin shuni qayd etish kerakki, bu lug'atda izoh asosan shunday terminlarning o'zbekchasiga berildi, ruscha, ruscha-baynalmilal muqobillari esa ularning o'zbekchasiga havola etildn. Mas., 1985 yilda

nashr etilgan lugʻatimizda bir hodisani (bir tushunchani) ifodalovchi *aktiv konstruksiya*, *aniq konstruksiya*, *aniq oborot* terminlarining uchalasi berilib, faqat *aktiv konstruksiya* termini izohlangan, qolganlari unga havola etilgan edi. Bu lugʻatda ham mazkur terminlar berildi. Lekin ularning har biri (hozir oʻzbekchalashtirilgan maʼqul deb topilgan va izohi berilgan) faol tuzilma terminga havola etilgan. Bu narsa yuqorida koʻrilgan terminlardan faol tuzilma termini asosiy termin ekanini qayd etadi. Bu termin oʻzlashib (ommalashib) ketgach, keyingi lugʻatlarda *aktiv konstruksiya*, *aktiv oborot* terminlarini berishga ehtiyoj qolmaydi”.

A.Hojiyev aytganidek, oʻzlashib ketgan atamani ham maʼlumotlar bazasiga kiritish mumkin. Chunki maʼlumotlar bazasida hajmga chegara qoʻyilmaydi hamda maʼlum bir atamaning izohi, sinononimi, kelib chiqishiga oid maʼlumotlar qanchalik koʻp va aniq boʻlsa, foydalanuvchiga shuncha qulaylik tugʻdiradi. Maʼlumotlar omboriga bunday maʼlumotlarni kiritish esa, biroz vaqt talab etadi, xolos. Shu sababli ushbu platformaga oʻzbek tilida mavjud barcha lingvistik atamalarni qamrab olish maqsadga muvofiq.

Lugʻat maqolasidagi tarkibiy qismlardan yana biri atamaga berilgan izohni tasdiqlovchi misol sanaladi, lekin izohni isbotlovchi misol barcha lugʻat maqolalarida boʻlavermaydi, balki maʼlum terminlar uchun tuziladigan lugʻat maqolalarigina misol talab etadi.[5,138] Mas., *lingvistika*, *umumiy tilshunoslik* terminlarining izohi hech qanday misol talab etmaydi. *Joʻnalish kelishigi*, *ergash gap* terminlarining izohidan soʻng esa tasdiqlovchi misol berilishi shart. Shunga koʻra, lugʻatda faqat zarur hollardagina tasdiqlovchi misollar berilgan.

Bu pozitsiyani elektron platformada oʻzgartirish mumkin, chunki bu platformada misollarni avtomatik yigʻib olish funksiyasi shakllantirilsa, bosh soʻz sifatida berilgan har bir atamaga misolni internet va til korpuslardan avtomatik olish va natija sifatida koʻrsatish imkoni boʻladi. Buning uchun faqatgina misollar ustuniga algoritm (formula) qoʻyish kifoya. Shunday bot/dasturlar mavjudki, ular maʼlum soʻz (atama) uchragan kontekstni istalgan matndan ajratib olib beradi. Tegishli ustunga nechtagacha misol olish belgilansa, shuncha misol olinishi mumkin boʻladi. Albatta, bu muammo dasturiy taʼminot ishlab chiqish vaqtida amalga oshiriladi.

Bazi atamalarning maʼnosi keng boʻlib, jins tushunchasini ifodalaydi; ayrimlarining maʼnosi tor boʻlib, tur tushunchasini ifodalaydi. Jins tushunchasini ifodalovchi termin uchun tuzilgan lugʻat maqolasi ichida tur tushunchasini ifodalovchi terminlar ham keltirilgan. Lekin ular bu lugʻat maqolasida izohlanmagan. Ularning har biri alifbo tartibiga koʻra oʻz oʻrnida berilgan va har biri uchun alohida lugʻat maqolasi tuzilgan. Masalan:

URGʻU. Turli fopetik vositalar orqali tovush, boʻgʻin yoki soʻzni ajratish, shu ajratishga xos kuchli talaffuz. Ajratish obʻektiga koʻra urgʻuning ikki turi farqlanadi: 1) soʻz urgʻusi (q.), 2) fraza urgʻusi (q.). Akustik-artikulyatsion xossa-xususiyatiga koʻra urgʻuning ikki turi farqlanadi: 1) ekspirator urgʻu (q.), 2) musiqiy urgʻu (q.). Ayrim terminlar mazmuni yoki qandaydir bir xususiyati bilan boshqa terminga aloqador boʻlishi mumkin. Bunday aloqadorlikni koʻrsatish shu terminlar bildiradigan lingvistik tushunchalarning mohiyatini aniq va oson tushunishga yordam beradi. Lugʻatda terminlarning ana shunday aloqadorligi maxsus belgilar bilan koʻrsatilgan. Bular quyidagilar: *ayn. (aynan)*, *q. (qarang)*, *qiyos. (qiyoslang)*, *zid. (ziddi)*. Bunday tartib elektron platformaning maʼlumotlar omborida ham amal qilishi mumkin.

Ayn. belgisi atamaning havola qilinayotgan (*ayn.* belgisidan soʻng kelayotgan) termin bilan *aynan* bir xil maʼnoli ekanini bildiradi va shu terminning asosiy varianti emasligini, asosiysi *ayn.* belgisidan keyingi termin ekanligini koʻrsatadi. *makromaqolasiga* qarashga undaydi. Bu terminlar uchun tuzilgan lugʻat maqolasiga qarash bilan izohlanayotgan terminning mazmunini, u bildiradigan lingvistik tushunchaning mohiyatini oson, aniq va toʻla tushunish imkoni tugʻiladi.

Yuqoridagi jadvalda koʻrsatilganidek, *ayn.* Belgisiga ega soʻz bir satrda boʻladi. *Q.* belgili soʻzga havola (giperssilka) qoʻyiladi, natijalar oynasida *Q.* havolasi koʻrinadi hamda u giperhavola ekanligi koʻrinib turadi. Agar foydalanuvchi shu atama haqida koʻproq

ma'lumotga ega bo'lmoqchi bo'lsa, giperhavolani ishga tushiradi, natija *Q.* belgisi havola qilingan atama haqidagi axborot natijalar oynasiga kelib tushadi.

O'zaro antonim bo'lgan atamalar ma'nosini bir-biriga qiyoslab ko'rish ham har bir termin ifodalaydigan til hodisasining mohiyatini to'g'ri va aniq tushunishga yordam beradi. Shu sababli atamalar lug'atida o'zaro antonim bo'lgan atamalarning har biri uchun tuzilgan lug'at maqolasida *zid.* belgisi bilan uning antonimi keltirilgan. Masalan:

BIRLIK SON. Son kategoriyasining bir turdagi predmetlardan birini (yakkalikni) bildiruvchi shakli. Birlik sonning maxsus yasovchi affiksi yo'q. Mas., kitob, o'quvchi, uy va b. *zid.* Ko'plik son.

Bu axborot ham giperhavola orqali asosiy atamaga birlashtirilishi maqsadga muvofiq.

Bazi lingvistik atamalar o'zaro farqlansa-da, lekin ma'lum umumiylikka ega bo'lgan lingvistik tushunchalarning atamasi bo'ladi. Bunday atamalarni lug'atda berish, izohlash bilan birga, ularni bir-biriga qiyoslashni tavsiya etish har birining mazmun-mohiyatini to'g'ri va oson tushunishga yordam beradi.[6,105] Xuddi shu maqsadda, qiyoslashga undash uchun lug'atda *qiyos.* belgisi ishlatilgan. Masalan: LINGVISTIK LUG'AT va QOMUSIY LUG'AT atamalari uchun tuzilgan lug'at maqolalari shunday tartib asosida shakllantirilgan. *qiyos.* belgili satr ham giperhavola xarakteriga ega bo'ladi, ikki qiyoslanayotgan lug'at maqolasi qidiruv natijasi oynasida ko'rinadi.

Demak, lug'atda *q., ayn., zid., qiyos.* kabi belgilarga ega atamalar ma'lumotlar omborida giperhavolali lug'at maqolasi sifatida shakllantiriladi.

Biz axborot banki sifatida tanlagan ushbu atamalar lug'atining yana bir afzalligi bor: lug'at oxirida ko'rsatkich keltirilgan bo'lib, unda o'zbek tilidagi atamaning rus tiliga tarjimasini ham berilgan. Bu esa bizga bir atamaning boshqa tilga tarjimasini hamda rus tilidagi lug'at so'zligini shakllantirishga yordam beradi. Masalan:

Agglutinativ tillar – агглютинативные языки

Agentiv ma'no – агентивное значение

Adabiy me'yor – литературная норма

Adabiy til – литературный язык

O'zbek tilida lingvistik atamalar izohi keltirilgan yana bir terminologik lug'at mavjud. N.Mahkamov, I.Ermatov hammuallifligida tartib berilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" umumta'lim maktablari hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun nashr etilgan bo'lib, ma'lumotlar omboriga ma'lumot olishda ayrim ma'lumotlarni shu ikki lug'at maqolalarini solishtirgan holda shakllantirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Полякова Т.Ю., Ременцов А.Н., Тишкова И.А. Трёхязычный терминологический словарь-минимум по специальности "Автомобильные дороги" // <https://cyberleninka.ru/article/n/trehyazychnyy-terminologicheskiy-slovar-minimum-po-spetsialnosti-avtomobilnye-dorogi>.
2. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1985.
3. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 158 б.
4. Абрамова Н.Н., Глобус Е.И. Формирование многоязычных словарей и их использование при кросс-языковом поиске информации // <https://elar.urfu.ru/handle/10995/1386>.
5. Levin R. Tools for Multilingual Communication.-Multilingual Computing&Technology, № 70, Volume 16, Issue 2.
6. Дубичинский В.В. Теоретическая и практическая лексикография. – Вена-Харков, 1998. – 160 с. – С. 91.

UDK: 494.3

**VIKTORIAN INGLIZ ADABIYOTIDA ADIBALAR NASRI ELIZABET GASKELL
IJODI MISOLIDA****X.Muxammedova***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz adabiyoti viktorian davri adibasi Elizabet Gaskell ijodi misolida ijtimoiy psixologik roman xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: viktorian davri, ingliz adabiyoti, roman janri, ijtimoiy psixologik roman, tip, xususiyat

**Женская проза викторианской литературы на примере творчества Элизабет
Гаскелл**

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности социального психологического романа в творчестве английской писательницы викторианской эпохи Элизабет Гаскелл.

Ключевые слова: викторианская эпоха, английская литература, жанр, роман, социальный психологический роман, тип, особенности.

Women prose of victorian literature: Elizabeth Gaskell's novels

Abstract. This article focuses on the Victorian period in English literature, the development and origins of the socio psychological novel's types in Elizabeth Gaskell's works.

Keywords: Victorian period, English literature, novel genre, socio psychological novel, type, features.

Ingliz adabiyoti viktorian davrda ijod qilgan Elizabet Gaskell (1810-1865) jahon adabiyotini boyitishga hissa qo'shgan adibalardan biridir. Elizabet Gaskellning tugallanmay qolgan romani "Rafiqalar va qizlar– Wives and Daughters" 1865-yilda "Kornxill" jurnalida nashr etiladi [9,156]. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, 1864-yilning avgustidan boshlab 1866-yilning avgustigacha roman jurnalda nashr etilgan. Adiba asarni tugatishga ulguradi. Shuning uchun ham adibadan olgan xatlarida romanning asosiy sujetidan xabardor bo'lgan jurnalist va adabiyotshunos F.Grinvud asarni yakuniga yetkazdi. U buni katta ma'suliyat bilan bajardi: *"ozgina mehnat qilgan bo'lsam-da, mashhur adibaning asosiga ko'ra romanni yakunladim va aytishim mumkinki, roman yakuniga yetishiga ozgina qolgandi – I had worked a little and I have an idea about what she was planning to write, unfortunately I completed the remaining story, by the way there was a little work till the end of the story"*[2,360].

"Krenford" romanida adiba o'tgan davrning sanoatlashgan qishlog'iga murojaat qilgandi. O'tgan davrning sanoatlashgan vaqti sanoat bilan parrallel tarzda zamonaviylik orqali adiba kichik hikoyadan katta dunyoni tasvirlay oldi. "Rafiqalar va qizlar" romanida Elizabet Gaskell to'laligicha Angliyaning 30-40 yillaridagi qishloq hayotini tasvirlashga harakat qildi. "Rafiqalar va qizlar" adibaning oldingi romanlaridan farqi shunda bo'ldiki, adiba bu safar sanoat mavzusiga murojaat qilmadi. Tadqiqotchi Kozin Filz adiba mazkur asarida shahar ya'ni London manzarasiga urg'u bermaganligining sababi asar qahramoni Molli Xollingfordda yashaganligi sabab bo'lganligini ta'kidlab o'tadi"[7,128]. .

"Rafiqalar va qizlar" romanida Elizabet Gaskell to'laligicha Angliyaning 30-40 yillaridagi qishloq hayotini tasvirlashga harakat qildi. Gaskellshunos Reymond Vilyam o'z tadqiqotida aynan Gaskell qishloq va shahardagi o'zgarishlarni chuqur o'rgangan adiba ekanligini e'tirof etadi [8,209].

Romandagi voqealar xronologiyasi asar qahramoni bo‘lgan Molli o‘n ikki yoshida boshlanadi. Ingliz adabiyotshunosi E.Isson “Rafiqalar va qizlar” asariga to‘xtalib, asardagi asosiy voqea 1828 yildan boshlanganini qayd etadi [1,187]. Adibaning o‘zi ham asarning birinchi bobida vaqt haqida aniqroq ma’lumot beradi: *“bundan qirq besh yil oldin kichkina qishloqda bolalik quvonchi juda oddiy edi, o‘n ikki yoshli Molli hayotida hali biror marta muhim hodisa sodir bo‘lmagandi- five and forty years ago children’s pleasures in a country town were very simple and Molly had lived for twelve long years without occurrence of any event so great as that which was now impending”* [2,8].

O‘tmish romanda sirlilik kasb etadi. Ayniqsa, bahs ajdodlarga yoxud qishloqning taniqli oilalariga borib taqalsa: *“Xemli bu Xemlilar bo‘lib, bu erda rimliklar kelguniga qadar bo‘lishgan. – dedi missis Brauning. Vikariy esa bu fikrni ma’qullagan vaqtda bahsga missis Gudinaf hayratomuz isbot bilan qo‘shildi va - men yoshligimda Xemlilar bu Xemli bo‘lib, bu erda tilshunoslar paydo bo‘lguniga qadar bo‘lganligini eshitganman – dedi bamaylixotir. U eski shaharchaning obro‘li va yoshi ulug‘ yashovchilaridan biri edi – I have heard that there were Hamleys of Hamley before the Romans, said Miss Browning. I have always heard that there was Hamley afore of time of the pagan. The Hamleys were well-educated and very old family of the city.”* [2,49]. Romanda vaqt qishloq hayoti bilan uzviylikda tasvirlanadi. Vaqt Xolingford qonun-qoidalariga rioya qilgan holda yashaydi. O‘sha vaqtlarda bunday eski odob qoidalari hali unutilib ketmagandi. Eskilik epiteti romanda o‘tmish haqida gap ketganda nafaqat taomillar balki, qishloq xonimlarining hayot tarzini ham o‘zida aks ettiradi. Bunday eskilikda urf odatlar va yozilmagan qonun qoidalar ham o‘z aksini topgan. Bu tor doiradagi dunyoda har qanday mayda chuyda o‘z ahamiyatiga egadir. Romanda tasvirlangan Xolingford xuddi Krenford kabi o‘ziga xos urf odatlar va ana’nalarga ega edi. Agarda “Krenford” bu turmushga chiqib oilasini tashlab ketgan Natsford tasviri bo‘lsa, unda Xollingford hayot tajribasiga ega bo‘lgan holda qaytib keladigan makondir. Ingliz tadqiqotchisi V.Gerin adibaning “Rafiqalar va qizlar” romaniga oddiy madh etilgan qishloq hayotidir, deya baho beradi [3,281]. Shaharchaning hayot tarzi yuz yillardan beri o‘zgarmagan bo‘lib, bunda Xollingford xonimlarining xizmatlari kattadir. Ularning eng sevimli mashg‘uloti bu g‘iybatlarni eshitish va bir-biriga etkazish hisoblanadi. Har bir yangilikda axloq normalariga rioya qilgan holda shaxsiy mulohazalar mavjud edi: *“Ota-onaning roziligisiz his tuyg‘uga boy munosabatda bo‘lishni oddiy sharmandagarchilik deb o‘ylayman. Bilaman bunday munosabatga bo‘lgan qarashlar o‘zgargan, biroq, baxtsiz Gratsiya janob Birliga turmushga chiqqan vaqtda, otamga xat yozgandi. O‘sha xatda janob Birli Gratsiya haqida bironta iliq so‘z aytmagandi–I consider, if they enter on a love affair without the proper sanction of parents. I know ‘public opinion has changed on the subject; but when poor Gratia was married to Mr Byerley, he wrote to my father without ever having so much as paid her a compliment”* [2,687].

Xollingford xonimlari siyosat haqida emas, balki sevimli ishlari haqida tez-tez suhbatlashishardi. Ularning ko‘pchiligi turmushga chiqmagan qari qizlar edi. Bu guruhga mansub ayollar mahalliy jamiyatning asosiy qatlamini tashkil qilardi. Qisman ularning nikoh haqidagi fikrlari xuddi Krenford xonimlariniki kabi edi. Xollingford aholisi bir-birini yaxshi taniydigan kichik makonda yashashardi. V.Gerin Krenfordga qaraganda Xollingford aholisi ancha rivojlanganligini ta’kidlab o‘tadi. Adiba “Shimol va Janub” asarida Margaretning devordagi gulqog‘ozlari haqidagi didi muhokama etilsa, xuddi shunga o‘xshash manzara “Rafiqalar va qizlar” asarida ham Molli Gibson tomonidan mulohaza etiladi. O‘gay onasi missis Gibson Mollining xonasi tubdan o‘zgartirib yuboradi. Bu Molliga umuman yoqmaydi: *“Men xonamni o‘zgarishini hoxlamayman. Uning oldingi xolati menga ko‘proq yoqardi. Iltimos hech narsani o‘zgartirmang - I don’t want it to look different. I like it as it is. Pray don’t do anything to it”* [2,249].

“Rafiqalar va qizlar” romanida psixologik usullardan foydalanilgan. Molli o‘gay onasining harakatini Gibsonlar xonadonining o‘tmishini o‘chirib tashlashga urinishi deb tushunadi va unga g‘amxo‘r rafiqqa, adolatli ona, harakatchan uy bekasi sifatida qaraydi. Elizabet Gaskellning bunday yondashishidan uning o‘zi ham hayotida yaxshi uy bekasi bo‘lganligini tushunish mumkin. Bu haqida Gaskellshunos olim E.Lenglend Gaskellni uy mahoratli uy bekasi sifatida ko‘rish mumkin. Foksga yozgan ilk xatlarida u uyidan bahra olayotganligini va, afsuski, bundan hamma ham bahramand bo‘la olmasligini aytib o‘tadi. Xo‘jalik ishlarini olib borish uning yana bir iste‘dodi edi. Uning adabiyotdagi iste‘dodi kashf qilinayotgan buloqdek edi. Adiba xatlari maishiy hayotdan olingan ikir-chikirlarga boydir[4,21]. Hikoyachilik xuddi “Krenford” romanidagi kabi bosh obraz tilidan emas, balki muallif tomonidan hikoya qilinadi. Romandagi xarakterlarni tasvirlashda ularning o‘ziga xos psixologik tasvirlari bizning diqqatimizni tortadi. Mana shu romanda ham adiba ijtimoiy muammolarning biri bo‘lgan ta‘lim-tarbiya muammosiga alohida e‘tibor qaratadi. Voyaga yetayotganlarning tarbiya masalasi olti farzandning onasi bo‘lgan adibaning o‘ziga ham tegishlidir. Adiba farzandlarini tarbiyalashda, xo‘jalik ishlarini kundaligiga qayd etib borardi. Uning kundaligini o‘rgangan A.Isson mazkur kundalikda Gaskell qizi Mariannaning go‘daklik chog‘laridan boshlab, mayda-chuyda detalgacha tasvirlagan. Mana shu jarayonlarda shakllangan qizining xarakterini qayd etib borganligini aytib o‘tadi. Ulg‘ayotgan qizlarini kuzatib, ulardan namuna olgan adiba romanlarida ayollar obrazini yaratdi. “Meri Barton”, “Ruf”, “Rafiqalar va qizlar” romanlarida o‘n yetti yoshlardagi o‘smir qizlar hayoti tasvirlangan. “Rafiqalar va qizlar” asarida Molli Gibson hamma qizlarga qaraganda eng yoshi kichiklardan hisoblanadi. Roman boshida u o‘n ikki yoshda bo‘lib, onasiz voyaga yetadi. Aynan yetimlik adibaning ko‘p asarlarida uchraydigan motiv deb hisoblash mumkin.

Asar qahramoni bo‘lgan Molliga dastlab Betti, miss Eyr, keyinchalik esa qachonlardir guvernantka, keyin esa “omadsiz maktab direktori” bo‘lgan o‘gay onasi missis Gibson ta‘lim beradi. Kichkina Molli hushyor ajdar qiyofasidagi enaga Betti himoyasida bo‘lib, enaga uning har xil xarxashalariga har doim ham toqat qilmasdi, ayniqsa, gap xonimlar haqida ketsa yoki qo‘shni bolalarning uni kuzatayotganini sezib qolsa, sabr kosasi to‘lib ketardi. Enaga Betti oddiy xizmatkor bo‘lib, uning ma‘lumoti ham yo‘q bo‘lsa-da, Mollini atrof-muhit bilan tanishtirar va unga yaxshi qarashga harakat qilardi. Missis Gibson esa Molliga aniq fanlarga aloqasi bo‘lmagan o‘z saboqlarini berardi. Guvernantka majburiyatini Kamnorov uyida o‘rgangan missis Gibson saboqlari nozik adoqlar va oqsuyaklarga xos bo‘lgan muomala madaniyatini o‘rgatishdan iborat edi. O‘sha vaqtlarda uning vazifasiga saboq berish emas, aksincha, darslarni kuzatgan holda o‘quvchiga saboq berish va berilgan vazifalarni sidqidildan qilishga undash edi. Yaxshilab nazar solinsa, uning yengil harakatlari darsga jiddiy yondashmasligini yaqqol ko‘rsatib turardi. Bundan tashqari Kler, ya‘ni bo‘lajak missis Gibson shaxsiy o‘tmishi uncha chuqur emas. Mullif Kler xatti-harakatlarni kesatig‘ bilan tasvirlaydi. Missis Gibson o‘gay ona sifatida har tomonlama Molliga mos keladi. Bundan tashqari unda aristokratlarga xos bo‘lgan ziyraklik bor edi. Uning mubolag‘a bilan faktlarni bo‘rttirishi, mohirlik bilan so‘zlarni chertib gapirishi uning shaxsiy tajribasi va ko‘p kuzatishlari oqibatida shakllangandi. Personaj nutqida uning yetarlicha bilimiga ega ekanligi ko‘rinib turadi. Romanda personaj nutqi voqealar rivojida rivojlanib, nutq shakli maqsad yo‘lida rivojlantirilgan.

Asarda Molli dunyoqarashi garchand bir qancha guvernantkalar sabog‘ini olgan bo‘lsa-da, mustaqil tarzda shakllanadi. Har bir voqea ta‘sirida rivojlanib boradi. Asarda biz dunyoni uning ko‘zlari bilan ko‘ramiz. Molli har tomonlama uydagi hayot tarzi natijasida haniqroq namoyon bo‘la boshlaydi. Molli o‘qishni xohlardi. U Rojer Xemli tavsiya qilgan kitoblarni o‘qir va natijada Rojer tom ma‘noda uning o‘qituvchisiga aylanadi.

Ta‘lim-tarbiya masalasiga muallif obyektiv tarzda yondashadi. Romanda hech qanday pand-nasihatlar uchramaydi. Psixologik romanda o‘z qahramonining fe‘l-atvori, qolaversa, ichki dunyosini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mollining otasi janob Gibson ayollarni ta'lim olish haqidagi qat'iy fikrlaridan Elizabet Gaskell viktorian jamiyatga uy farishtalari bo'lgan ayollarning qiyofalarini ko'rsatib beradi.

Janob Gibson qiyofasida namoyon bo'lgan sifatlar kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi. U yilda bir marta bo'lsa ham sayohat qilishni o'ylab ko'rmasdi. U yashayotgan graflikda u kabi yaxshi tajribaga ega bo'lgan doktorlar ko'p emasdi. U katta va kichik demay aytilgan joyga borardi. Tanishlari orasidan katta nufuzga ega bo'lgan odamlar ham uchrab turardi. U mahoratli doktor edi. Shu bilan birga qizini jonidan ortiq ko'rardi. Roman sahifalarida biz tushlik qilish uchun bir soatdan ortiq otda uyga qaytgan janob Gibson uyga kelgachgina Mollini Tauerdan qaytmaganligini ko'ramiz. Uydan tashqarida hattoki bir necha ming mil narida bemor ko'rishga borsa ham, uyda qolgan qizi haqida qayg'urardi. Shuning uchun ham daraxtga chiqib kitob o'qish Mollining sevimli mashg'ulotiga aylangandi. Molli Gibsonning xatlar yozish, rasm, fransuz tili, raqs bilan mashg'ul bo'lishi viktorian jamiyatdagi uy ta'limi shaklini namoyon etadi. Elizabet Gaskellning o'zi dastlab Uorikda joylashgan Eyvonbenk maktabida, keyinchalik esa Stradfor Eyvonda guvurnantka bo'lgan opa-singil Bayerlilar qo'lida saboq oladi. Bu yerda asosiy darslar bilan birga qo'shimcha tarzda raqs, rasm, italyan, fransuz tillari va musiqa o'rgatilardi. Keyinchalik bu maktab adiba asarlarida "Miledi Ladlou" nomi bilan ataldi.

Adiba Mollini shinam uydagi sokinlikda tasvirlaydi. Garchand Mollini o'qish qayg'usi bilan band bo'lganligini ko'rsak-da, uydagi sokin hayot tarzi ta'lim bilan uyg'unlashib ketganligini ko'rish mumkin. Gaskell mazkur asarda bosh obrazning chuqur psixologiyasini atrofda o'rab turgan xarakterlar yordamida ochib berishga harakat qiladi. Romanda tasvirlangan ayol obrazlari an'anaviy tarzda asarning asosiy personajlariga aylanadi. Hattoki ayollarning ismlari romandan romanga ko'chadi. "Rafiqalar va qizlar" romanining bosh obrazi Molli bu Merining erkali aytilgan shaklidir. Ismning bunday almashinishi balki tasodif bo'lgan bo'lishi ham mumkindir. Mazkur asar ayollar obraziga juda boy hisoblanadi. Asar sarlavhasining o'zi ham bunga bevosita ishora qiladi. Har bir obrazning o'ziga xos fe'l-atvorini o'rganar ekanmiz Gaskellning xarakter psixologiyasini yaratishda etarlicha bilim va mahoratga ega bo'lganligini ta'kidlash zarurdir. Gaskell personajlar xarakterini ochib berar ekan, ijtimoiy aspektlarni ikkinchi planga tushiradi. Albatta, romanda siyosiy, diniy, jamiyatdagi muammolar haqida bahs boradi, ammo yozuvchi mana shu muammolarga o'ziga xos tarzda yondashgan personajlar xarakterini ochib berishga ko'proq urg'u beradi. Romanda personajlar o'rtasidagi qarama-qarshilik ijtimoiy muammolar tufayli yuzaga kelmaydi. Bu ziddiyat romanda turli hayotiy hodisalar tufayli xosil bo'ladi. Shuning uchun ham "Rafiqalar va qizlar" bizga yangi psixolog ruhshunos Elizabet Gaskellni ko'rsatadi. Psixologizm roman voqealari rivojida personaj xarakterida bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Adiba "Meri Barton", "Shimol va Janub", "Ruf" kabi romanlarida ham inson psixologiyasiga murojaat qiladi, ammo "Rafiqalar va qizlar" romanidagidek personaj psixologiyasiga chuqurroq kirib bormaydi.

Romanda Zolushka taqdiridek Molli Gibson hayoti ro'y bermaydi. Gaskell pafosida tasvirlangan sujet chizig'i oldindan yakunni aytish imkonini bermaydi. Mana shu tarzda stereotip adabiyotda paydo bo'ladi. "Rafiqalar va qizlar" romanida Molli Gibson sevimli insoni dvoryanlar oilasi Xemlilarning o'g'li Rojerga turmushga chiqadi. Rojer akasi Osborndan ikki yoshga kichik bo'lib, otasiga qaraganda ancha bosiq va jiddiy yigit edi. O'qituvchilarining aytishicha, maktabda yaxshi bola edi-yu, biroq unchalik ham uquvli emasdi. Rojerni ko'proq aniq fanlar o'ziga tortardi. Mollining badiiy asarlar va she'rlarga bo'lgan qiziqishini so'ndirib, ko'proq jidiylikni talab qiladigan aniq fanlarga qiziqish uyg'ota oldi. Rojer Mollini tabiat dunyosiga olib kirdi. U otasiga qarashli yerda yetmish to'rtta ari turini tutib, ulardan kolleksiya yaratgandi.

Mazkur romanda adibaning psixologizm borasida mahoratli ekanligini tan olmoq zarurdir. U hayotiy va jonli xarakterlar yaratishning uddasidan chiqqan. A.Isson “Rafiqalar va qizlar” romanini inson tuyg‘ularining rivojlantirish bosqichlarini o‘ziga xos tarzda ochib bergan roman, deya baholaydi. Mazkur romanda tasvirlangan Xollingford shaharchasi yirik ijtimoiy muammolardan xoli tarzda ifoda etilgan. Adibaning asosiy e’tibori personajlar psixologiyasini turli hayotiy voqealar rivojida ochib berishga qaratilgan. Ijtimoiy munosabatlar esa kelin va kuyov, o‘gay ona va o‘gay qizlar, o‘gay opa-singillar o‘rtasida kuzatiladi.

Molli va Rojer o‘rtasidagi munosabatida shakllangan muhabbat bir qancha bosqichlarni bosib o‘tadi. Roman yakunida Elizabet Gaskell Xollingforddagi oilaviy guruhlar o‘rtasidagi munosabatni dramatik kolliziya bilan tasvirlamaydi.

Mazkur asarida muallif “Meri Barton”, “Shimol va Janub” asarlaridagi kabi ijtimoiy masalani ochib bermadi. Ingliz tadqiqotchisi E.Malkolm romanda Xollingford aholisining quvonchli va qayg‘uli kunlarini ayollar obrazi orqali, qolaversa, ulg‘ayotgan yosh qizning hayoti misolida ochib berishga qaratilgan maishiy-hayotiy voqea tasvirlanganligini aytib o‘tadi[6,3].

S.Mollman “Rafiqalar va qizlar” romanidagi hodisalarning ko‘pchiligi adibaning otasi U.Stivensonning esselaridan olinganligini va Gaskell mana shu hodisalarni kengaytirib uni boyitgan holda tasvirlab berishning uddasidan chiqqanligini qayd etadi[5,88]. XIX asrning so‘nggi realizmi inson qalbining nozik tuyg‘ularigacha tahlil qilishni romanlar misolida ko‘rsatib berdi. Gaskell ijodining so‘nggi romani bunga yaqqol isbotdir.

Romanda personajlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ijtimoiy muammolar tufayli yuzaga kelmaydi. Bu ziddiyat romanda turli hayotiy hodisalar tufayli xosil bo‘ladi. Shuning uchun ham “Rafiqalar va qizlar” bizga yangi psixolog ruhshunos Elizabet Gaskellni ko‘rsatadi. Inson psixologiyasining nozik pardalarigacha ochib berishga uringan adibaning mazkur asari bugungi kunda ham kitobxonlar tomonidan klassik namuna sifatida e’tirof etilishi bejiz emasdir.

Adabiyotlar

1. Easson A. Elizabeth Gaskell. London etc: Routledge & Kegan Paul, 1979–P. 250.
2. Gaskell E. Wives and Daughters. Freeeditorial.com –P. 797.
3. Gerin W. Elizabeth Gaskell. Oxford: Clarendon Press 1976 –P. 468.
4. Langland E. Women’s writing and the domestic sphere. Women and literature in Britain 1800-1900. Cambridge University press. 2001. –P. 280.
5. Mollmann S. Observing Observation: The Ethical Investigator in Elizabeth Gaskell’s Wives and Daughters// The Gaskell Journal. 2013. Vol.27.-P. 340.
6. Malcolm E. Wives and Daughters. URL.
<http://victorianweb.org/authors/Gaskell/Malcolm/6.html>.
7. Philis C. Wives and Daughters Modernity. London: Hodder and Stoughton 1990. –P. 450.
8. Raymond W. The country and the City. Oxford: Oxford University Press.1973. –p. 250.
9. Sanders V. Women Fiction and The Marketplace. Women and Literature in Britain 1800-1900 by Joanna Shattock. Cambridge university press., 2001.-P. 231.
10. Uglow J. Elizabeth Gaskell: A habit of stories. London: Faber & Faber 1993. – P. 230.

UDK: 494.1

TONI MORRISON IJODIDA MISTIK REALIZM ELEMENTLARI**N.Muxammedova***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Annotatsiya. Mazkur maqola XX asr Amerika adabiyotining taniqli adibasi Toni Morrison romani misolida mistik realizm elementlarini tahlil qiladi. Mistik realizm metodi elementlari yozuvchining “Moviy ko‘zlar” asari misolida o‘rganilgan va tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: mistik realizm, roman, afroamerika adabiyoti, metod

Элементы мистического реализма в творчестве Тони Моррисон

Аннотация. Статья анализирует элементы магического реализма в романах американской писательницы XX века Тони Моррисон. В статье автор рассматривает истоки магического реализма, анализируя их отражение в произведениях писателя. В романе “Самые голубые глаза” Тони Моррисон использует уникальные элементы магического реализма для описания афроамериканской культуры.

Ключевые слова: магический реализм, роман, афроамериканская литература, метод.

Elements of magical realism in the novels OF Toni Morrison

Abstract. The article deals with the analysis of the elements of magical realism in the novels of American writer of the XX century Toni Morrison. In the article the author focuses on the origins of magical realism by analyzing how it was reflected in the works of the writer. Toni Morrison’s “The Blue Eyes” is analysed to present the unique elements of magical realism.

Keywords: magical realism, novel, Afro-American literature, method.

Jahon adabiyotida realizm keng tarqalgan metodlardan biri hisoblanadi. XIX asrda realizmning tanqidiy realizm metodi rivojlandi, XX asrga kelib esa mazkur metodning yangi noan‘anaviy elementlarga asoslangan mistik realizm metodi vujudga keldi. Ushbu yangi metod jahon adabiyotida magic realism/magical realism/mystic realism terminlari bilan nomlandi [10, 188]. “Mistik realizm” termini XX asrning 20 yillarida san‘at asarlariga nisbatan qo‘llanila boshlandi, uzoq vaqt mobaynida lotin amerikalik yozuvchilar ijodi bilan bog‘liq tarzda o‘rganildi. XX asr ikkinchi yarmiga kelib mazkur termindan keng foydalanilsa-da, adabiyotshunoslar o‘rtasida haligacha munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

“Mistik realizm” termini ilk bor nemis san‘atshunosi Frans Roning 1925 yilda nashr etilgan “Postekspressionizm (mistik realizm): Yangi Yevropa san‘atining muammosi” nomli monografiyasida qo‘llanilgan [1, 26]. Adabiyotda mistik realizm badiiy vosita sifatida tushuniladi. Kundalik hayotni tasvirlashda fantastika va mifga xos bo‘lgan yondashuv kuzatiladi. Mistik realizmda odatiy voqealar ajablantira boshlaydi, sehr esa oddiy hodisaga aylanadi.

Afroamerikalik yozuvchilar ijodida o‘zlikni izlash muammosi har taraflama o‘z aksini topdi. Mistik realizm metodi esa etnik shaxsiyatni, g‘arb dunyosining dominant ta‘siriga qarshi tura olishni va madaniyatining o‘ziga xosligini saqlab qolishni ifodalashning keng tarqalgan usuliga aylandi. Afroamerikalik yozuvchilarning takrorlanmas mistik realizmi Afrika qit‘asining mistik reallikga asoslangan noyob madaniy-tarixiy tajribasida, dunyoqarashining o‘ziga xosligi sehr va mifga bo‘lgan ajralmas iymonida ko‘rindi. Ularning

xalq ogʻzaki ijodi anʼanaliriga yoʻnaltirilgan asarlarida afrika ertaklarining motivlari, olamning ibtidoiy mifologik idroki izlari kuzatiladi.

Mistik realizm metodini oʻz ijodida samarali foydalangan amerikalik yozuvchilardan biri Toni Morrisonidir. Mazkur yozuvchi AQSH adabiyotining yorqin namoyondasi, XX asr ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida samarali ijod qilgan adibadir. Toni Morrison koʻplab milliy mukofotlar sohibasi va 1993 yilda adabiyot boʻyicha Nobel mukofotiga sazovor boʻlgan yozuvchidir. Uning ijodida romanlar bilan birga esse, publitsistika va dramaturgiyaga oid asarlarga ham guvoh boʻlamiz. Toni Morrison ijodining oʻziga xosligi adibaning afroamerika ayolining milliy urf-odat va anʼanalarni avlodlarga etkazish vazifasini olgan va zamonaviy jamiyatda oʻz oʻrnini anglagan shaxs sifatida tasvirlanishida, asarlarida folklor anʼanalarning aks etilishida va jamiyatda ijtimoiy va madaniy hodisalarga keskin munosabatida koʻrinadi.

Afroamerika adabiyotining taniqli adibalaridan hisoblangan Toni Morrison (1931-2019) qora tanlilarning etnik ildizlari haqida fikr bildirar ekan, ularning oʻziga xos xususiyatlarini sirli hodisalarni hayot bilan bogʻlay olishga boʻlgan eʼtiqodida koʻradi va quyidagicha izohlaydi: “Biz amaliyotga ishonamiz, biz jiddiyimiz va oqilona fikrlaymiz. Biroq, donishmandligimizdan tashqari, bizda sehr deb atash mumkin boʻlgan yana bir nima bor. Bu olamni anglashning oʻzgacha usulidir” [2, 59]. Amerikalik adabiyotshunos F. Ayrel oʻzining “Afroamerika adabiyotining tarixi” nomli kitobida mistik realizm bilan mifga asoslangan zamonaviy roman oʻrtasida uzviylik mavjudligini taqdiqlaydi: “ogʻzaki ijod anʼanalarida tasavvur hikoya qiluvchining olamni anglashdagi ajralmas shartidir. “Mistik realizm” uning fikrlash tarzida katta ahamiyatga egadir. Uni afrika ogʻzaki ijodining yashirin usuli deb ham hisoblash mumkin” [3, 28].

Taʼkidlash joizki, afroamerikalik yozuvchilarning oʻziga xos mistik realizm xususiyatlari ingliz adabiyotshunosi B. Bellning kitobida quyidagicha ifodalangan: “Afroamerika romanining anʼanalari xristian diniy hikoyalari, muqaddas Bibliya kitobining ajoyib kuchlari va afrika xudolari, donishmandlari, kohinlari oʻrtasidagi nizoni tasvirlaydi. Afrika dinlarida saqlanib qolgan sehrga, mifga va marosimlarga boʻlgan ishonch gʻarbning iudeo-xristian ongini toʻldiradi va shu bilan unga qarshi tura oladi” [4, 89].

Toni Morrisonning maʼnaviy, tarixiy va madaniy merosga boʻlgan qiziqishi, millatining etnik ongini tiklashga olib keldi. Folklor va mifologiya elementlari esa adibaning “Moviy koʻzlar” (The Bluest Eye, 1970), “Solomon qoʻshigʻi” (The Song of Solomon, 1977), va “Suyukli” (Beloved, 1987) romanlarida millatining maʼnaviy tarixini ifodaladi. Afroamerikaliklarning madaniy-tarixiy tajribasini, dunyoqarashining ajralmas qismi hisoblangan sehr va mifga boʻlgan ishonchning oʻziga xosligini oʻz asarlarida taʼkidladi [8, 155]. Adiba romanlarida kundalik hayotni tasvirlashda ogʻzaki ijod anʼanalariga, folklor motivning turli shakllariga, mif va ertaklarga, fantastik elementlarga murojaat qiladi, ularni uygʻunlashtirish orqali afroamerikaliklarning ijtimoiy muammolarini ochib beradi.

Mistik realizm elementlari Toni Morrisonning “Moviy koʻzlar” (The Bluest Eye, 1970) romanida yaqqol koʻzga tashlanadi. Mazkur asar tahlili ijtimoiy-madaniy, tizimli yondashuv tamoyillari asosida amalga oshirildi. Shu bilan birga badiiy asar, gender va intertekstual tahlil metodlariga ham murojaat qilingan.

1970-1980 yillarda afroamerika adabiyotida rivojlangan yangi tendensiyalar bir qator adibalar nomi bilan bogʻliqdir. Asarlarining markazida qora tanli ayolning muammolari, oʻziga xosligi va jamiyatda oʻrnini topishga boʻlgan intilishi tasvirlandi. Ayol shaxsi, uning ichki olami va mistik realizm metodi adibalar ijodini birlashtirib turadi. Afroamerikalik yozuvchi F. Sheynj 1982 yilda nashr etgan “Sassafrase, Saypress & Indigo” romanini quyidagicha boshlaydi: “Qaerda ayol boʻlsa, oʻsha erda sehr, jodu boʻladi. Ayol

ruhlarining hamrohidir” [5, 3]. *Asarning bunday tarzda boshlanishi adibalarning mistik realizm elementlaridan turli shakllarda foydalana olganidan dalolat beradi.*

XX asr Amerika adabiyotining taniqli adibalaridan hisoblangan Toni Morrison ijodida mistik realizm elementlarini kuzatishimiz mumkin. Yozuvchi 1970 yilda kitobxonlarga taqdim etgan “Moviy ko‘zlar” (The Bluest Eye) romanida mistik realizmga xos bo‘lgan elementlardan keng foydalanadi. Mazkur roman 1960 yillarning ikkinchi yarmida AQSHda vujudga kelgan “Qora tanlilar hukumati” harakatining avjga chiqqan vaqtiga nashrdan chiqdi va ma‘lum ma‘noda adibaning o‘z irqidan g‘ururlanish tuyg‘usini ifodalaydigan “qora tanli bo‘lish ajoyib” ma‘nosini aks ettirgan shiorga nisbatan munosabatini anglatdi. YOzuvchining fikricha mazkur shior “oq tanlilarning talablari maxlum ma‘noga bildirgani kabi, jismoniy go‘zallikga bo‘lgan intilish ham o‘z ma‘nosiga ega” ekanligini taqdiqladi [6, 40]. Roman markazida moviy ko‘zlarni orzu qilgan qora tanli qizaloqning fojeali taqdirini tasvirlagan Toni Morrison o‘zi uchun muhim sanalgan “qanchalik uzoq davom etgan oq tanlilar madaniyati davrida qora tanli amerikaliklarning ongida o‘z irqiga bo‘lgan nafrat chuqur?” kabi savolga murojaat qiladi. Adiba romanni 1930-60 yillarning mashhur “Dik va Jeyn” bolalar darsligidan olingan parchadan boshlaydi: “Bu uy. U yashil va oq. Uning eshigi qizil. U juda chiroyli. Bu oila. Oyisi, dadasi, Dik va Jeyn oq yashil rangli uyda yashashadi. Ular juda baxtli” [7, 3]. Ong oqimi uslubi, jummalarni tinish belgilarisiz va so‘zlarni bir biriga yopishtirgan holda yozish texnikasidan foydalangan adiba sodda jummalarni takrorlaydi, ularni tartibsiz holda bir biriga bog‘laydi. Achchiq kinoyada amerikanacha orzu mifini grafik tarzda tasvirlaydi: “Buuyuyashilvaquyningeshigi qizilujudachiroyli”.

Romanning birinchi planiga Dik va Jeynning ideal olamiga qarshi baxtsizlik, kambag‘allik va zo‘ravonlikni ifodalovchi Bridlav oilasining fojeali ko‘rinishidagina chiqadi. Roman kompozitsiya strukturasi tashkil qilgan fragmentatsiya vositasi asosiy tamoyil hisoblanadi. Asar yil fasllari taomiliga binoat to‘rt bobdan, kuz, qish, bahor va yozdan iborat. Romanning bunday tuzilishga ega bo‘lishi voqealarning davriyligini va umrboqiyiligini anglatadi. Asarda ikkita olam kuzatiladi: qashshoq qora tanli oilaning hayotidan olingan qo‘rqinchli manzaralar Dik va Jeynning hayotidan keltirilgan tarqoq hodisalar bilan birga tasvirlanadi. Bunday tuzilish esa asarda amerikanacha orzuning Dik va Jeyn mifi orqali mifologik obrazi va achchiq haqiqat o‘rtasidagi kontrastga e‘tibor qaratadi.

*Roman bosh qahramoni Pekola Bridlav –ota-ona mehridan va tengdoshlari e‘tiboridan mahrum bo‘lgan baxtsiz o‘n bir yoshli qizaloq. Uning fikricha, barcha azob-uqubatlarining asosiy sababi bu uning ko‘zlaridir. Chunki ko‘zlari barcha baxtsiz onlarga guvoh bo‘lgan va xotirada saqlaydi. Agar ko‘zlari chiroyli ko‘zlarga aylansa, atrofdagilar uni yaxshi ko‘rib qolishar, ota va onasi esa o‘zgarishgan bo‘lishardi. Bridlav (ingliz tilida *to breed love -mehr uyg‘otish, mehr berish ma‘nosini anglatadi*) familiyasida ham bu kinoyaning ifodalanishi bekorga emas. Har kuni kechasi Pekola Xudodan unga moviy ko‘zlar in‘om etishini so‘raydi. Pekola va boshqa personajlarning o‘z erksizligini, kamchiligini anglashi uzoq vaqt davom etib kelayotgan irqchilik, gender tengsizlik va sinfiy xulosalar bilan bog‘liq. Oq tanlilarning ustunligi amerikaliklarning hayotida turlicha aks etgan. Jumladan, madaniyatda aktrisa Shirli Templ va Jin Xarlou qiyofasida, ta‘lim sohasida bolalar adabiyoti personajlari obrazida, dinda esa Xudoning odatiy – “uzun oq sochli, oppoq soqolli va moviy ko‘zli yoqimli qiyofaga ega keksa kishi”[7, 106] ko‘rinishida tasvirlangan.*

Roman xronotopini yozuvchi aniq tasvirlaydi: Ogayo shtatidagi kichik Loreyn shaharchasi, voqealar AQSHning ikkinchi jahon urushiga kirishidan bir yil oldingi davrni qamrab olgan. Muallif asar makonini ham o‘zga yurtlarda sodir bo‘layotgan voqealarni tasvirlash orqali kengaytiradi. Asardagi voqealar vaqti ramziy ma‘noga ega, chunki

Pekolaning fojeasi ham aynan shu davrda, ya'ni AQSHning fashizmga qarshi urushda ishtirok etishga tayyorgarlik jarayonlariga to'g'ri keladi.

Ilk asaridayoq Toni Morrison afroamerikaliklarning ma'naviy hayoti, ularning o'zgacha tarzidagi dunyoqarashi, mistik marosimlarga bo'lgan ishonchiga bog'liq bo'lgan mistik elementlarga murojaat qiladi. Mazkur romanda muallifning mistik realizmning ilk belgilari hisoblanmish kohinlik va tabib obrazlari motivlaridan samarali foydalanganligi kuzatiladi. Mana shunday "g'aroyib" personajlardan biri doya kampir va kohin obrazidir. Doya kampir o'rmon yaqinidagi kulbada yashaydi, unga shaharcha aholisi agar kasallik tibbiyot yordamida tuzalmaydigan kasallik uchrashsagina murojaat qiladi. Muallif personajga tashqi ko'rinishini g'ayritabiiyligidan dalolat beruvchi chizgilar bilan tasvirleydi, ya'ni doya kampir ko'rinishida kohinligini anglatuvchi belgilarni ko'ramiz. Uning baland bo'yi kichik Chollida doyaga nisbatan hurmat ko'rsatishni anglatardi: "Bo'yining balandligi olti futdan ko'p edi. To'rtta katta kulrang soch uyumi esa uning mehrli qora yuziga g'ayritabiiy kuch ma'nosini bag'ishlardi. U gavdasini kesovday tik tutar, va qo'lidagi hassasi go'yoki tayanch uchun emas, balki ma'lumot uzatish uchun kerakday edi".[7, 136].Hassa bilan urish doya kampirni ruhoniyy Vudu bilan yaqinlashtiradi, bu esa shubhasiz afroamerikaliklarning qadimgi mistik masrosimlarga bo'lgan ishonchidan dalolat beradi. SHu tariqa, noma'lum kasallikdan azob chekayotgan Jimmi xola, doyaning maslahatlariga rioya qilar ekan, tuzala boshlaydi. "SHifokorining maslahatiga" binoan Jimmi xola faqat bo'tqa eydi va tuz kunda shaftolili pirogni ta'tigan holda vafot etadi.

Yana bir mistik elementlardan biri –qora tanli aholining cherkov ruhoniysining g'ayritabiiy qobiliyatiga bo'lgan ishonchning tasviridir. Ruhoniyni aholi tushlarni talqin qila oladigan, o'tmishni va kelajakni ko'ra oladigan qobiliyatiga so'zsiz ishonadilar va tez tez murojaat qiladilar. Romanda mazkur ruhoniyy obrazi Xudo va insonlar o'rtasidagi aloqachi vazifasini o'taydi va mana shu ruhoniyyga asar qahramoni Pekola ham moviyy ko'zlar in'om etishini so'rab murojaat qiladi. Darveshona hayot kechiradigan bu ruhoniyy biror bir g'ayritabiiy qobiliyatga ega bo'lmasada, muallif uni atrofdagilarni o'z kuchiga ishonтира oladigan qobiliyat bilan siylaydi va natijada odamlarga unga ishonishadi. Uning diniy tajribasi xristian va an'anaviy afrika e'tiqodlari sinteziga asoslanadi. Mazkur e'tiqod inson ruhini so'rib olgan eski buyumlarga bo'lgan e'tiqodni anglatadi. Bu esa o'z navbatida afrika dinining ilk shakllaridan bo'lgan jon va ruhlar borligiga ishonch o'rtasidagi parallel mavjudligidan dalolat beradi. Romanda muallif tabiat olami va buyumlarning ahamiyatini bir necha bor tasdiqlaydi [9, 502]. Tabiat va inson yaxlit universum sifatida mavjud, ikkalasi ham o'zaro bog'liqdir. Jonsiz buyumlar Pekola uchun dunyoni anglatuvchi belgilarga aylanadi. Ularning har biri qizaloq uchun mazmun-mohiyatga ega: "qoqilib ketgan teshik uniki edi, o'tgan kuzda oppoq boshlarini puflagan momoqaymoqlar va bu yil tomosha qilgan qoqi o'tning sariq gullari ham uniki edi" [7, 48]. Muallifning bunday tasvirlari atrof muhitning va qahramonning ichki "meni" o'rtasidagi bo'linmas birlikni, yaxlitlikni ko'rsatadi. Mazkur vosita adibaning tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro g'ayritabiiy bog'liqlik mavjudligiga ishonchidan dalolat beradi. Toni Morrison asar boblarini ham yil fasllari, tabiatning uyg'onishi va uyquga ketishi davrlariga binoan ajratadi va shu tariqa asar qahramonlari hayotidagi voqealarning paradoksal mos kelmasligiga ishora qiladi. Jumladan, bahorda tabiatning uyg'onish davrida Pekola homilador bo'ladi, kuzda esa hosilni yig'ish davrida Pekola farzandidan ajraladi. Bundan tashqari, tabiat qonunlarining jiddiy ravishda buzilishi go'dakning tug'ilgan va vafot etgan yilda tirnoqgul urug'larining sirli tarzidagi o'limida o'z aksini topadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, Toni Morrison romanidagi g'ayrioddiy tabiiy hodisalar mistik realizmning o'ziga xos xususiyatlaridan dalolat beradi. Bundan tashqari quyidagi epizodda, afroamerikaliklarning kohinlikka bo'lgan e'tiqod motivi yana bir bor

takrorlanadi. Jumladan, Klodiya va Fridaning to‘g‘ri aytilgan afsun, duo va urug‘ ekish marosimiga xatosiz rioya qilish go‘dakning baxtli hayotini ta‘minlashiga ishonchi komil. Biroq, adiba bunday mistik elementni rivojlantirmaydi, realizm doirasida go‘dakning fojeali taqdiri sababi deb jamiyatning o‘zi ekanligini tan oladi. “Ayb tuproqning o‘zida, shahrimiz joylashgan yerda va u o‘z xohishiga ko‘ra go‘dakni o‘ldirar ekan, biz chekinamiz va qurbonlar yashashga haqqi yo‘q, – degan fikrga qo‘shilamiz” [2, 60].

Mistik realizm an‘analari Toni Morrison ijodining muhim jihati hisoblanadi. “Moviy ko‘zlar” romani adibaning yetuk iste‘dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Asardagi mistik realizm elementlari esa afroamerika madaniyatining o‘ziga xosligini ifodalaydi. Roman qahramoni Pekolaning fojeali taqdiri mistik realizm metodi orqali ishonchli tasvirlangan. Mazkur metod yozuvchining nafaqat o‘ziga xos uslubini o‘rganishga, balki mistik realizmning badiiy adabiyotda o‘zgacha tarzda ifodalanishini tadqiq qilishda asos bo‘la oladi.

Adabiyotlar

1. Roh, Franz. “Magic Realism: Post-Expressionism.” Trans. Wendy B. Faris. Zamora and Faris p.15-31.
2. Morrison, T. Rootedness: The Ancestor as Foundation / T. Morrison // What Moves at the Margin: Selected Nonfiction. - Jackson: Univ. Press of Mississippi, 2008.-P. 56-64.
3. Irele, F. A. Sounds of a Tradition: the Souls of Black Folk / F. A. Irele // The Cambridge History of African American Literature. - Cambridge Univ. Press, 2011.-P. 21-38.
4. Bell, B. W. The Contemporary African American Novel: its folk roots and modern literary/ B.W. Bell. - Amherst: Univ. of Massachusetts Pr., 2004. - 490 p. 89 bet
5. Shange, N. Sassafrass, Cypress & Indigo / N. Shange // N.Y.: St. Martin's Press, 1982.-224 p.
6. Morrison, T. Rediscovering Black History. T. Morrison / T. Morrison // What Moves at the Margin: Selected Nonfiction. - Jackson: Univ. Press of Mississippi, 2008. - P. 39-55. 40 bet
7. Morrison, T. The Bluest Eye / T. Morrison. - N.Y.: Holt, Rinehart and Winston, 1970.- 164 p.
8. Turner, D. T. Theme, Characterization and Style in the Works of Toni Morrison / D. T. Turner // Black Women Writers. - London: Pluto Press, 1983. -P. 361-369.
9. Sundquist, E. J. To Wake the Nations: Race in the Making of American Literature / E. J. Sundquist. - Cambridge: Harvard Univ. Press, 1994. - 705 p.
10. Takolander, M. Catching butterflies: Bringing Magical Realism to Ground / M. Takolander. - Bern: Peter Lang, 2007 - 265 p.

UDK:801.8

O‘ZBEK TILIDA ARXITEKTURA TERMINLARINING QO‘LLANILISHI

M.M. Qambarova*Toshkent arxitektura-qurilish instituti**muhayyo.kambarova@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada terminologiya tilshunoslikning asos sohasi ekanligi, terminlar ma’lum ma’nodagi, shu sohaning taraqqiyot darajasini belgilashi xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi yozma manbalarda qayd etilgan, og‘zaki nutqda qo‘llanayotgan arxitektura terminologiyasining asosiy predmeti, ularning lug‘aviy-ma’noviy guruhlarini, arxitektura terminlarining leksik boyilshini shakllantirish va taraqqiyot yo‘llarini aniqlash hamda ularning adabiy tildagi o‘rnini belgilashga aloqador tahlillar ham beriladi.

Kalit so‘zlar: termin, terminologiya, sinonimiya, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, arxitektura, qurilish, uysozlik, shaharsozlik.

Использование архитектурных терминов на узбекском языке

Аннотация. В статье утверждается, что терминология является основной областью лингвистики, термины в определенном смысле определяют уровень развития этой области. Также основным предметом архитектурной терминологии, используемой в устной речи, упоминается в письменных источниках на узбекском языке, их лексические и духовные группы, формирование лексического богатства архитектурных терминов и способов их развития, а также их роль в литературный язык, также даны анализы, связанные с определением лексика.

Ключевые слова: терминология, синонимия, собственный слой, освоенный слой, архитектура, строительство, жилищное строительство, градостроительство.

Using architectural terms in uzbek language

Abstract. The article argues that terminology is the main area of linguistics, terms in a certain sense determine the level of development of this area. Also, the main subject of architectural terminology used in oral speech is mentioned in written sources in the Uzbek language, their lexical and spiritual groups, the formation of the lexical richness of architectural terms and ways of their development, as well as their role in the literary language, analyzes related to the definition vocabulary.

Keywords: terminology, synonymy, own layer, developed layer, architecture, construction, housing construction, urban planning.

Ilm fan taraqqiyoti, shubhasiz, o‘rganilayotgan obyektning ifodalashi uchun maxsus so‘zlarning paydo bo‘lishini taqozo etadi. Istiqbol yillarida tilning qo‘llanish doirasi amalda nihoyatda kengayganligini, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Terminologiya tilshunoslikning asos sohasi hisoblanadi. Terminlar ma’lum ma’nodagi, shu sohaning taraqqiyot darajasini belgilaydi. Fanning mazmun- mohiyati asosiy tushunchalari terminlarda namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, terminologiyaga oid har qanday masala dolzarb muammo sifatida qaraladi. O‘zbek terminologiyasi o‘z taraqqiyot bosqichiga ega.

Tilshunoslikka doir terminlarning dastlabki namunalari Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida uchraydi. Bu davr terminologiyasi tarkibining asosini arab tiliga oid leksik birliklar tashkil etadi. XX asrga kelib o‘zbek tilshunosligida baynalmilal terminlar qo‘llana boshladi. Shunga qaramasdan, jadidchilar tilning sofligini saqlash barobarida turkiy terminlarning keng qo‘llashga e’tibor qaratishdi

(“Chig‘atoy gurungi “dagi munozaralar, Elbekning “kesim” termini haqidagi fikrlari). Termin avvalo so‘zdir. Shu bois lug‘at qatlamiga mansub, lug‘aviy birlik sifatida terminlarda ham muayyan tarixiy davr, ijtimoiy o‘zgarishlar ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Termin til birligi sifatida lug‘aviy birlikka xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Sinonimiya–lingvistik va terminologik hodisa sifatida O‘zbek tilining terminologik sistemalari o‘rganilgan ishlarning ko‘pchiligida shu sistemadagi xato va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish masalalari ham tahlil etilgan. Bunday chalkashliklar soha terminologiyasida ham mavjud bo‘lib, ulardan biri sinonimiya hodisasidir.[2] (102 бeр)Mazkur masala o‘rganilgan ayrim ishlarda leksika doirasidagi hamda grammatika doirasidagi shakli xilma-xil lekin ma‘nosi bir xil lug‘aviy birliklarning barchasi (variantdoshlik farqlanmasdan) sinonim deb atalib kelinavergan. Bizningcha, variantdoshlik va sinonimiya hodisalari bir-biridan farqlanib turadi. Shu sababli, barcha ilmiy ishlarda sinonimiya va variantdorlik masalalari alohida alohida o‘rganilgan. Sinonimiya haqida gap borar ekan, “sinonim terminlar” bilan umumadabiy tildagi sinonimiya tushunchasi o‘rtasidagi katta farq borligini eslatib o‘tish joiz. Sinonimiya nutqning badiiy, publisistik uslublari uchun juda qo‘l keladi, yozma va og‘zaki nutqni bir xil takrollardan ozod qiladi. Biroq bunday sinonimiya ilmiy uslub, xususan, terminologiya uchun ortiqcha holatdir. Sinonim terminlar, birinchidan, kishi xotirasiga ortiqcha yuk bo‘lib tushadi, chunki ko‘plab tushunchalarni o‘zlashtirish bilan birga, ularani anglatuvchi bir necha terminlarni eslab qolishga to‘g‘ri keladi; ikkinchidan, ularning mavjudligi natijasida ma‘no jihatidan bir-biridan farqlanish havfi tug‘iladi.

O‘zbek tilshunosligida adabiy til leksikasi sohalarining terminologik sistemalari, xalq so‘zlashuv nutqi va shevalari lug‘at boyligini o‘rganish bo‘yicha talay tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq, o‘zbek tili lug‘aviy boyligi butun bir sistema deyilsa, butunning bir qismi sifatida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan qator leksik qatlamlar o‘z yechimini kutmoqda. Hozirgi globallashuv jarayonida ilg‘or sanoatga aylangan, xalqning qurilish sohasiga, uy jihozlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi sohada qo‘llaniladigan arxitektura terminologiyasi shunday qatlamlardan biridir. Ayrim ishlar tarkibida arxitekturaga oid terminlar haqida ba‘zi ma‘lumotlar berib ketilgan. Lekin o‘zbek tilining arxitektura leksikasi hanuzgacha yaxlit bir terminologik sistema sifatida tadqiq etilgan emas.

Arxitekturani inson amaliy faoliyatining boshqa turlaridan, shu jumladan, qurilishdan farqi shundaki, u foydalilik masalalaridan tashqari, muayyan tarixiy va ijtimoiy-ma‘naviy muhit hamda davr ehtiyojlarini qondiruvchi mafkuraviy va badiiy estetik vazifalarni ham bajaradi. Arxitekturaning hozirgacha qabul qilingan ta‘rifi shunday: arxitektura — inson va jamiyat faoliyati, insonning maishiy turmushi, mehnati, umuman hayoti uchun fazoviy muhit yaratish san‘atidir. Bu yerda «fazoviy» deyilganda kosmosni emas, balki yer sathi ustida quriladigan obyektlar joylarni nazarda tutiladi.

Asosiy qism. *Arxitektura san‘atining bir turi sifatida*, arxitektura leksik sistemasi deyilganda, san‘atning eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, u diniy va jamoat binolarida ma‘lum bir tarixiy davrda odamlarning dunyoqarashini, ma‘lum bir badiiy uslubni, inson hayoti uchun badiiy tashkil etilgan muhitni ifoda etadi. Atrof-muhit, funksional ma‘noga ega bo‘lgan yangi voqelikni yaratish, odamga foyda keltirish va estetik zavq bag‘ishlash. Bu atama strukturaning tashqi qismini loyihalashni o‘z ichiga oladi, ichki makonni tashkil qilish; tashqi va ichki foydalanish uchun materiallarni tanlash, tabiiy va sun‘iy yoritish tizimlarini, shuningdek muhandislik qo‘llab-quvvatlash tizimlarini loyihalash; elektr va suv ta‘minoti; dekorativ dizayn har bir inshootning o‘ziga xos maqsadi bor: hayot yoki ish, dam olish yoki o‘qish, savdo yoki transport. Ularning barchasi bardoshli, qulay va odamlar uchun zarur, bu ularning asosiy xususiyatlari.[5]

Arxitektorlik juda qadimiy kasb-hunar turi bo‘lib, ilg‘or fan-texnikaning rivojlanishi ushbu tarmoqqa ham ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi va XX asrning 50-yillaridan boshlab bu soha mexanizatsiyalashgan sanoat sohasiga aylanib bordi. Uning tarkibida *uysozlik, binosozlik, shaharsozlik*, kabi sohalar mavjud. Ko‘rsatilgan har bir soha o‘zining maxsus leksik birliklariga ega. Shuningdek, bu sohalarida faqat qurilish va binolarga ishlov berilganligi sababli, hamma sohalar uchun umumiy bo‘lgan terminlardan ham foydalaniladi. O‘zbek tilining arxitektura terminologiyasi hozirga qadar maxsus tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganilmagan. Aniqrog‘i, terminologiya tarkibiga kirgan lug‘aviy qatlam to‘planib, lingvistik nuqtayi nazardan taxlil etilmagan. Bular maqolamiz mavzusining dolzarb ekanligidan dalolat beradi. O‘zbek tilidagi yozma manbalarda qayd etilgan, og‘zaki nutqda qo‘llanayotgan arxitektura terminologiyasining asosiy predmeti, ularning lug‘aviy-ma‘naviy guruhlarini, arxitektura terminlarining leksik boyilshini shakllantirish va taraqqiyot yo‘llarini aniqlash hamda adabiy tilda o‘rnini belgilash

kabilardan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun maqolada quyidagi masalalarni hal etish ko'zda tutildi:

a) hozirgi va qadimgi o'zbek adabiy tilida, aniqroq qilib aytganda, adabiy-tarixiy asarlarda, arxitektura sohasiga oid darslik va qo'llanmalar, gazeta va jurnallar materiallarida, lug'atlarda o'z ifodasini topgan arxitekturaga aloqador leksik birliklarni yig'ish, ularni tartibga solish va sistemalashtirish, sharxlash;[4.14]

b) arxitektura terminlarining mavzuiy guruhlarini aniqlash, ular o'rtasidagi mushtarak va nomushtarak xususiyatlarni o'rganish;

c) arxitektura terminlarining umumtil tarkibidagi o'rni belgilab, yaxlit bir sistema shaklida tahlil qilish;

d) arxitektura terminologiyasi tarkibidagi lug'aviy birliklarning tarixiy-etimologik qatlamlarini aniqlash;

d) arxitektura sohasiga oid terminlarning yasaliş usullarini o'rganish, boshqa sistemalardagidan farqli jihatlarini yoritish;

e) arxitektura terminologiyasidagi sinonimiyani o'rganish va bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan fikr yuritish, muayyan tavsiyalar berish;

f) arxitektura terminologiyasidagi variantdorlikni aniqlab, ularning optimal variantlarini qo'llash uchun tavsiya etish;

g) lug'atlarda arxitektura terminlari talqinidagi xilma-xilliklarni aniqlash va ularni tartibga keltirish bo'yicha fikr-mulohazalar bildirish;

h) mavjud lug'atlarda aks ettirilmagan arxitektura terminlarining izohli lug'atini tuzish va ilova qilish.

Maqolamizning ilmiy yangiligi. Maqolaning ilmiy-nazariy yangiligini quyidagilar bilan belgilash mumkin:

- arxitektura terminologiyasi o'zbek tilshunosligida ilk bor yaxlit bir sistema sifatida monografik planda tadqiq etildi;
- evolyutsiyasiga urg'u berilgan holda ayrim terminlarning tarixan tarkib topishiga e'tibor qaratildi, ya'ni genetik qatlamlari aniqlandi;
- arxitekturaga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar aniqlanib, ularning jamuljami yaxlit leksik qatlam sifatida arxitektura terminologiyasini tashkil etishi isbotlandi;
- arxitekturaga oid terminlarning yasaliş usullari, o'ziga xos nomlanish xususiyatlari, morfologik tarkibi tadqiq qilindi;
- arxitektura terminologiyasining o'z va o'zlashma qatlami aniqlandi;
- arxitektura terminologiyasidagi sinonimiya haqida so'z yuritilib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tildi;
- arxitektura terminologiyasidagi variantdorlik aniqlandi hamda ularning optimal variantini qo'llash yuzasidan aniq takliflar kiritildi;
- ayrim lug'atlarda o'z ifodasini topgan arxitektura terminlari talqinidagi xilma-xilliklar aniqlanib, ularni tuzatish yuzasidan mulohazalar bildirildi;

Maqolamiz davomida arxitektura terminologiyasida mavjud ayrim noaniqliklar ham aniqlanib, ularni bartaraf etish masalalariga e'tibor berildi.

Tadqiqotni amalga oshirishda, asosan, kuzatish va qiyoslash, leksikani, xususan, terminologiyani sistema sifatida tadqiq etish, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, genetik tahlil qilish usullari qo'l kelishi aniqlandi. Arxitektura terminologiyasidagi lug'aviy birliklarning genetik tarkibini belgilash, bu sistemada terminlar miqdori haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish kabi maqsadlarda tadqiq etishning statistik tamoyillaridan ham foydalanildi. Quyida arxitektura sohasiga oid terminlardan misollar keltiramiz.

Avj-1) gumbaz, ravoqning eng baland nuqtasi; 2) naqqoshlikda rangning nixoyatda yorqin, ochiq darajada berilishi. Naqshda qizilning avji.

Avrs-binoning tashqi bezagi. Peshtoq avra libosi koshinkori

Ayvon-uch tomoni devor bilan o'ralgan oldi ochiq xona. Tuzilishi jixatdan ayvonning uch xil turi uchraydi: daxliz-ayvon, ustunli ayvon, ravoqli ayvon.

Aylanma islimi-doira, aylanma shakllar asosida to'zilgan o'simliksimon naqsh turi. **Alanga, targ'il-**naqqoshlikda gullar ichini to'ldirishda ishlatiladigan gulxan alangansini eslatuvchi shakl.

Amal-ko'pincha eski imoratlarda me'mor yoki ustaning dastxati shu so'z bilan boshlanadi: Amoli

...usto» kabi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilishimiz mumkin. O'zbek tilshunosligida arxitektura terminlariga oid masalalar yetarlicha tadqiq qilinmagan. Tilshunoslikda arxitektura terminlariga oid ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, mazkur masala o'zining yetarlicha tasdig'ini topgan deya olmaymiz.

*Terminologiya masalalariga bag'ishlangan barcha ishlarda sinonimiya terminologiyaning jiddiy nuqsoni deb qaralgan.

*Har bir sohada qo'llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda albatta chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar yuzaga kelaveradi. [12.114]

*Terminlar masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami juda kata bo'lib, ularda termin va terminologiyaning turli nazariy va amaliy masalalari atroflicha o'rganilgan. Bunday masalarga termin bilan umumadabiy til o'rtasidagi munosabatlar, terminlarning shakllanishi, taraqqiyoti, diterminologizasiya, terminlar tarjimasini kabilar kiradi.

*Tadqiqotlarda terminologiya so'zi quyidagi ikki ma'noda qo'llaniladi: A. Terminologiya bu maxsus ma'noni ifodalovchi so'z va so'z birikmalarning yig'indisi, majmui hisoblanadi.

B. Terminologiya bu terminlar, ularning grammatik tuzilishi va tilda amal qilishi bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik fanining bir bo'limidir.

*Sinonimiya nutqning badiiy, publisistik uslublari uchun juda qo'l keladi, yozma va og'zaki nutqni bir xil takrollardan ozod qiladi. Biroq bunday sinonimiya ilmiy uslub, xususan, terminologiya uchun ortiqcha holatdir.

Adabiyotlar

1. X.T.Omonov, M.V.Xattaboev "Pedagogik texnologiya va texnologik maxorat" Toshkent 2002 y 43-45 bet
2. Semantik usul bilan hosil bo'lgan ayrim texnikaviy terminlar xususida // O'zbek tili va adabiyoti, 2009. - B. 101-103.
3. Заимствованные транстермины из западных языков и его семантика в узбекской терминологической системе // Научный мир Казахстана. 2009, №6. 29-32.
4. Terminlarning leksik-semantik xususiyatlari // Filologik tadqiqotlar. Buxoro, 2009. - B. 14-17.
5. Концептуальный анализ транстерминологизации в узбекском языке // Алтаистика и тюркология. Кокчетая, 2010, №1-2. - С. 114-119.
6. Funktsiyadoshlik asosida hosil bo'lgan omonimlar // Xabarshy (Vestnik). 2010, №2. - B. 99-100.
7. The Role of Arise Term via Semantically Way in Forming Terminological Systems of the Uzbek Language // International Journal of Central Asian Studies. Seoul, Korea. Volume 14, 2010. - P. 13-31.
8. Транстерминологизация и модели транстерминов в узбекском языке // Modern Turkluk Arashtirmalan Dergisi. Ankara, Turkiye. Sayi 3. 2010. - S. 86-103.
9. Soha terminologik tizimlarida zoologik terminlarning trans-terminlashuvi // Adabiy matn tadqiqi masalalari. - Toshkent, 2009. - B. 95-98.
10. Fan sohalarining o'zaro termin almashinuvi va ularda omonimiya // Til tizimi sathlari: Semantik-funksional va struktur asoslari (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). Samarqand, 2009. - B. 92-94.
11. Анатомические названия как один из источников обогащения терминологических систем // Формирования казахской государственности и историко-культурные ценности тюркского мира (материалы международной научно-практической конференции). - Казахстан, 2009. - С. 195-196.
12. Metafora - terminologiyani boyituvchi asosiy vositalardan biri // Til tizimi va nutqiy faoliyat (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). - Samarqand, 2010. - B. 114-116.

UDK: 494.3

“BOBURNOMA”DA SHAXSNING RUHIY-PSIXOLOGIK HOLATLARI TASVIRI**I.I.Sulaymonov***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada Boburning jang va kurash maydonlari tasvirida shaxslarning xarakteri, ichki olami, ruhiy-psixologik holatlari, ularning ruhiyatida sodir boʻladigan oʻzgarishlarni tasvirlashda muallif mahorati kabi masalalar gʻoliblik va magʻlublik prizmasi orqali tahlil qilingan.

Kalt soʻzlar: Bobur, muallif dunyoqarashi, Sulton Ibrohim, hind jangchilari tasviri, ruhiy holat, “gʻoliblik” va “magʻlublik”.

Описание психического и психологического состояния человека в «Бабурнаме»

Аннотация. В статье проведен анализ мировоззрения Бабура, его взглядов на общественно-политическую ситуацию того времени, мастерство поэта в использовании слов и выражений, его возможности раскрыть общественно-политическую обстановку того периода через психологию победителя и побежденного через призму его способностей в качестве историка, политика и беспристрастного эксперта.

Ключевые слова: Бабур, мировоззрение автора, Султан Ибрахим, изображение индийских воинов, психологическое состояние, «победа» и «поражение».

Description of the mental and psychological state of a person in “Boburnoma”

Abstract. In this article the analysis of Babur’s overview, his points on social-political situation of that time, being master of poet in using words and expressions, his abilities to reveal social-political situation of that time through psychology of winner and being winner by prisms of his abilities in terms of historian, politic and impartially expert are given.

Keywords: Babur, overview of author, Sultan Ibrakhim, image of Indian warriors, psychological condition, “victory” and “defeat”

«Boburnoma»ning Hindiston tasviriga bagʻishlangan oʻrinlarida, xususan, jang va kurash maydonlarining tasvirida Boburning xarakter xususiyatlari, ichki olami va ruhiy oʻzgarishlarini ifodalovchi lavhalarga koʻp duch kelamiz. Muallif asarida bunday lahzalarni tasvirlashda beixtiyor tarixiy, esdalik asar uslubidan tabiiy ravishda chekinib, badiiy asar yaratayotgan adibga aylanib qolishini oʻzi ham sezmagan koʻrinadi. Gʻoliblik sururi boʻlmasi, Boburning lirik shoir, hayotni chindan sevuvchi, umrni oʻtkinchiligini va uni xush oʻtkazishni qayta-qayta nazmiy asarlarida qayd etgan adib, bunda ham tasvirlarda oʻzini erkin sezib, voqea-hodisalarni qalamga olishda uni badiiy ifodalashga harakat qiladi.

Tarixiy shaxslar – bek va aʼyonlar, sarkardalar va oddiy askar tasvirida biz «Boburnoma» muallifining badiiy tasvirlarga boy satrlarini koʻramizki, muallif bu paytda yaxshi kayfiyatda boʻlgan chogʻida, raqiblar ustidan gʻolib kelib, gʻoliblik nashidasi taʼsiri ostida ifoda etilgan tasvirlarda bu hol yanada yaqqol koʻzga tashlanadi.

Boburning Hindistondagi gʻalabasi unga shon-shuhrat keltirishi tabiiy hol edi, albatta. Bu gʻoliblikni saqlab qolish uchun u shiddat bilan ish olib boradi, Hindistonni mayda rojalik va kichik feodallar davlatidan bir mustaqil, mustahkam davlatga aylantiradi.

Shu bois Hindistonning birinchi prezidenti Javoharlarl Neru oʻzining «Hindistonning kashf etilishi» va «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Boburning Hindiston tarixida tutgan oʻrni haqida ancha ibratli soʻzlarni yozib qoldirgan: «Bobur shu paytgacha oʻtgan madaniyatli va jozibador insonlar orasida eng etuklaridan bir edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutassiblikdan yiroq edi» [1; 7].

«Boburnoma»da uning hindistonlik raqiblarini o'ziga bo'ysundirish, mag'lubligini isbot etishining o'ziga xos badiiy tasviri berilgan. Bir o'rinda Bobur G'ozixon nomli hind lashkarboshisini tasvirlar ekan, uning ichki olami, ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishni shu darajada badiiy ifodalaydiki, bu jarayon mag'lub G'ozixonning g'olib Bobur bilan mulqotida o'z aksini topgan. Bobur G'ozixonning ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tasvirlash uchun munosib so'z va iboralarni tanlab ishlatadi: «Buyurdimkim, o'shal ikki qilichkim, bizning bila urush uchun belga bog'lab edi, bo'ynig'a ostilar. Mundoq rustoyi va loda mardak bo'lg'aymukin, ishi bu erga etib, hanuz taallul qiladur. Ilgarrak kelturdilar. Buyurdumkim, qilichlarni bo'ynidin oldilar. Ko'rushur vaqt yukunmakta ta'xir qiladur. Buyurdumkim, oyog'ini tortib yukundurdilar. Ilgari o'lturg'uzub, bir hindustoniyy bilur kishiga buyurdimkim, bu so'zlarni biror-biror anga xotir nishon qila aytkil. ...O'zungni va o'g'lonlaringni, balujlarning darbadarliqlaridin qutqordim. Xaylxonalarigiz va haramlaringizni Ibrohimning bandixonasidin xalos qildim. Uch karo'r Tatarxonning viloyatini sanga inoyat qildim. Sening haqqingda yomon bordimmukim, to'shung bila belingga ikki qilich bog'lab, cherik tortib, bizning viloyatlarning ustiga kelib, mundoq sho'r va fitna solursen. Qari mabhut mardak bir-ikki so'z og'zida-o'q puypadi, so'zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so'zlarga ne deya ham olg'ay edi» [1; 188].

Yuqoridagi matnda Bobur bo'layotgan suhbatning ta'sirini oshirish uchun G'ozixonning ruhiy holatini tasvirlashda, badiiy sayqal berishda uning ruhiy holatidagi o'zgarishga e'tibor qaratib, «qari mabhut mardak bir-ikki so'z og'zida-o'q puypadi, so'zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so'zlarga ne deya ham olg'ay edi», deydi. Bunda Boburning so'z tanlashiga qoyil qolish kerak. U G'ozixonga aytgan ta'sirli, kishiga qattiq tegadigan so'zlarni «muskat» so'zi bilan umumiy tarzda ifodalaydiki, bu so'z achchiq, hazm qilib bo'lmaydigan ma'nosida kelib, mag'lub G'ozixonning o'sha paytdagi holati, ruhiyati va nochor ahvolda qolganligini ifodalab kelgan, ayni paytda Boburning so'z tanlash mahorati, uni o'rnida ishlata bilishidan ham darak beradi.

Bobur Hindiston sultoni Ibrohim Lo'diy bilan jangga kirishar ekan, Panipat shahri uchun bo'lgan urush oldidan ancha hayajonga tushganligi, noma'lum shahar, joy o'zi ta'kidlaganidek, «vatandin ikki-uch oychilik yo'l kelilib edi. G'arib qavme bila elning ishi tushib edi. Ne biz alarni tillarini bilur edik, ne alar bizning tilimizni» bois ma'lum darajada vahimaga tushadi. Shunda ham Boburning jasurligi, vazminlik bilan bir qarorga kelishi va sharoitni ob'ektiv baholay olishi qo'l kelib, vaziyatni o'nglab oladi. Ana shu lahzada ham g'olib Boburning shiddati, uning fikr mantiqi, juda qisqa muddatda o'zini tutib olishiga, ruhiy holatida o'zgarish sodir bo'lsa ham atrofdagilarga sezdirmasdan, to'g'ri qarorga kelishiga sabab bo'ladi. Aslida bu «g'arib qavme» bilan bir marta ham muomala qilishga to'g'ri kelmasdan, bundan keyin ular bilan bir muhitda yashashga majburligimuammosi Boburning ko'ngliga g'ulg'ula solsa-da, mag'rur holda shunday xulosaga keladi: «Cherik eli ba'zi xeyle mutaraddid va mutavahhim edilar. Taraddud va tavahhum betaqribdur. Nekim azalda Tengri taqdir qilibtur, andin o'zga bo'lmas. Agarchi alarni ham ayb qilib bo'lmas, haq alar jonibi edi. Ne uchunkim, vatandin ikki-uch oychiliq yo'l kelilib edi. G'arib qavme bila elning ishi tushub edi. Ne biz alarning tillarini bilur eduk, ne alar bizning tilimizni» [1; 192].

«Boburnoma»da g'olib Bobur bilan mag'lub Ibrohim Lo'diyning yakkama-yakka uchrashuvi jang maydonida bo'lib o'tadi, bu lashkarboshilar faqat bir marta kurash maydonida o'zaro yuzma-yuz duch keladilar. Bobur Ibrohim Lo'diyning ruhiy holatini juda jonli, hayotiy tasvirini beradi. Bunda mag'lubligini his etgan Hind sultoni jang maydonida Boburningqorasi ko'rinishi bilanoq, unda sarosimalik boshlanadi, o'z harakatini nazorat qilolmay qoladi. Ibrohimning bunday holatini badiiy tasvirlagan muallif jang maydonidagi g'olib Bobur va mag'lublikni his etayotgan Ibrohimning ichki olamini juda jonli tasvirini

bera olgan: «Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko'rundi, hech erda darang qilmay, tez-o'q keladur edi. Ilgarrak kela bizning qoramizkim, alarg'a ko'rundi, bu tartib va yasolnikim, mulohaza qildilar, hasr bo'lub, turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib, ne tura oldi, ne burung'idek bedarang kela oldi» [1; 193].

Boburning yuqoridgi tasviriga e'tibor bersak, Sulton Ibrohimning jang maydonidagi bu harakati muallif tomonidan shunchalik jonli ifodasini topganki, «Boburnoma»dagi shunga o'xshash tasvirlarasarni tarixiy asardan ko'ra ko'proq badiiy asar sirasiga kiritishga asos bo'ladi. Ibrohim Lo'diy ruhiy holatida Boburning jang maydonida qorasi ko'ringunga qadar bo'lgan paytdan uning nazari tushishi bilan shunchalik tez o'zgarish sodir bo'ladiki, bu o'zgarish Bobur shuhratini eshitganu uning o'zini ko'rmagan Hind lashkarboshisi uchun dahshat bo'lib ko'rinadi. Ibrohim Lo'diyning bu sarosimali harakatida biz g'olib Boburning shiddati, o'z raqibiga nisbatan ustun kelgan, jang maydonini boshqarib turuvchi g'olib sarkardani ko'ramiz. Boburning «Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko'rindi, hech erda darang qilmay, tez-o'q keladur edi», «bizning qoramizkim, alarg'a ko'rundi», «turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib», «ne tura oldi», «ne burung'idek bedarang kela oldi», degan jumllarida nihoyatda hayotiy tasvir o'z aksini topgan. Bu tasvirda Sulton Ibrohimning xayolidan nima o'tganligi Boburga ma'lum emasku, ammo bu harakat orqali u raqibining avval bezovta bo'lgani, keyinroq esa, voqiea shiddatli tus olib, dinamizm oshgan sari Hind lashkarboshisining harakatida sarosimalik, jang maydonini aniq tasavvur qila olmaslik, raqibi Boburning vahimasi bosganligini «Boburnoma»ning zukko o'quvchisi teran angalay oladi. Chunki, Sulton Ibrohimharakatidagi bu o'zgarishlar, tashvish va iztirobli holatlar muallif tomonidan yuksak badiiyat bilan ifodalagan.

«Boburnoma»da muallifning Ibrohim Lo'diy ustidan g'alaba qozongandan keyingi faxriya tarzida bayon qilingan «ichki nutqi» mavjud bo'lib, unda g'olib Boburning bu yurtida qo'lga kiritgan yutuqlari, kurashlar natijasida chekkan azoblari, bu zahmatlar evaziga qo'lga kiritgan mulklari, shon-sharafi va g'oliblikdan shodlanib, bildirgan ichki nidosi quyidagicha beriladi: «... Bhiradin Biharg'acha afg'on tasarrufida edi, podshohi Sulton Ibrohim edi. Viloyat hisobi bila besh lak cheriki bo'lmoq kerak edi. Ul fursatta yurub, umarosi muxolafat maqomida edilar. ...Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik va vase' mulkluk podshoh bila ro'baro' bo'lduk. Tavakkulimizga yarasha Tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoyi' qilmay, mundoq zo'r g'animni mag'lub qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o'zumizning zo'r va quvvatidin ko'rmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni o'zumuzning sa'y va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur» [1; 195].

Bu o'rinda, garchi Bobur kamtarlik bilan, komil musulmon sifatida barcha g'alabalarining bosh sababchisi Oллоh ekanligini qayta-qayta takrorlasa ham, agar uning o'zida bu g'oliblikka azm bo'lmasa, shijoat va g'ayrat bo'lmasa, murodiga etishi mushkil edi. Boburning bu nidosini biz aslicha qabul qilib, uning qalbida Oллоhga bo'lgan yuksak e'tiqod mustahkam o'rnashgani, bierzum bo'lsa ham aslo kam bo'lmaganligi, o'zining muvaffaqiyatlarini ana shu e'tiqod tufayli ishonch va sadoqat bilan izhor qilganligi ham unga maqsadiga ershish baxtini nasib etgan edi.

«Boburnoma»da hind askarlarining orasida Bobur tomonidan tasvirlangan haqiqiy fidoiylar ham borki, ular o'z mamlakatlari, yurtlarini Bobur lashkarlaridan mardonavor himoya qilganlar. Shu bilan birga, Bobur lashkarlari orasida vahimaga tushish, dushman harbiy kuchini aslidan ko'p, deb gap tarqatadiganlar ham bo'lgan. Bobur bu kabi jangchilariga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lgan, ularni jang maydonida ruhiy tetikligini saqlash, dushman hiylasiga berilmaslik borasida jiddiy ish olib borgan: «Qarovulliqqa borg'onlar xabar etkura olmaslar, balki qo'rg'ong'a ham kira olmaslar.

Qo'rg'on eli qo'rg'ondin yiroqroq va besurfaroq chiqarlar. Yog'iy zo'rroq kelib, bularni durbatur. Sangarxon janjuha anda shahid bo'ldi. Bu g'avg'oda Kattabek jibasiz-o'q chopib chiqar. Bir kofirni yayoqlatib olur mahalda Kattabekning bir navkarining qilichini olib, Kattabekning kitfig'a-o'q chopar. G'alaba tashvishlar tortti. Raana Sangaaning g'azosid kela olmadi. Necha mahaldin so'ng yaxshiroq bo'ldi. Vale ma'yubroq bo'lubtur. Qismtoy va Shoh Mansur barlos va har kimki, Bayanadin keldi, bilmon qo'rqqonlarimu edi, yo elni qo'rqtqonlarimu edi: Kofirning cherikini jald va jarrorliq bila asru ko'p sitoyish va ta'rif qildilar» [1; 219].

Bunda Bobur lashkarlarining ruhiy holatiga alohida e'tibor berib, bu tushkunlikni bartaraf etish uchun kurashganini bayon etish bilan birga, lashkarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari haqida ham ma'lumot bermoqda. Albatta, Boburning o'zi ta'kidlaganidek, lashkariga ham oson emasdi. Begona yurt, nomuvofiq ob-havo, begona til kishilarining ruhiy holatiga ta'sir etmasdan qolmasdi. Shunga qaramasdan, Boburning rostbayonligi ustun kelib muxolifat askarining payt poylab, «Kattabekning bir navkarining qilichini olib» Boburning bir layoqatli bekiga zarba berishi, hatto uni «g'azo» kabi o'sha davrda juda muhim bo'lgan jangdan quruq qoldirganini tasvirini bergan muallif asarida realistik tasvirga keng o'rin bergan, mazkur voqeaga badiiy tus berib, raqib askari shijoatini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan asarning shu o'rnida lashkarlarining dushman qo'shinlarini aslidan ko'p deb gap tarqatgan, lashkar orasiga tahlika solishga harakat qilgan o'z safdoshlarining kamchiligini ham ochib beradiki, bu muallifning asarda rostbayonlikni shior qilishining yana bir namunasidir.

Boburning Hindistondagi faoliyatida, asosan uning g'oliblik davri ko'zga tashlanadi. Amir Temur tasarrufiga kirgan erlarga egalik qilish, buyuk bobosi saltanatini bor bo'y-basti bilan qaytadan tiklash asl maqsadi bo'lgan Bobur, butun harbiy salohiyatini ana shu maqsadga sarflaydi, bu yo'lida to'g'anoq bo'lgan raqiblariga, hatto temuriy shahzodalarga qarshi ayovsiz kurash olib borishiga ham to'g'ri keladi. Hindistonda Chanderiy viloyati uchun olib borilgan jangning tasviri «Boburnoma»dagi eng jonli, realistik lahzalardan iborat bo'lib, unda muallif yuksak badiiy mahoratini namoyon etgan. Bu tasvir, eng avvalo, hind xalqining o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, unga sodiqligi, ushbu yo'lda hech narsadan qaytmasligi kabi jihatlarini yuksak badiiyat bilan tasvirlab bergan. Ikkinchi tomondan, bunday epizodlar asarda anchagina bo'lib, Boburning tarixiy voqealarni qanday bo'lsa boricha aks ettirish, ahd qilgan rostbayonligiga sodiq qolish, agarda bunday tasvirlar uning jang maydonidagi harakatlarining g'oyasiga ma'lum darajada zid bo'lsa ham, dushmanlarining ruhiy tetikligi, tug'ilgan yurtiga muhabbati bois Bobur lashkarlariga asir tushgandan ko'ra o'limni afzal ko'rishlarini hayotiy tasvirlab berishi katta jasorat sirasiga kiradi. Bunday lahzalar «Boburnoma»ning shuhratin yanada oshirgan, muallifning badiiy mahoratini yaqqol ko'rsatib bergan.

Bunda Bobur raqib tomoni bo'lgan hindlarning ruhiy holati, jang maydonida murakkab sharoitda ham o'zlarini tuta bilishlari, o'limga mardonavor borishlari, o'zlari emas, xotinlari, farzandlarini ham g'olib Bobur lashkarlariga asir tushishidan ixtiyoriy o'limni afzal ko'rganliklari juda jonli, hayotiy ifodasini topgan. Ushbu satrlar g'olib Boburning shu lahzadagi g'alabasini ko'rsatsa ham, ma'naviy g'oliblik hind xalqi tomonida ekanligini, hind xalqi uchun begona yurtlarga kirib kelgan lashkarlarga munosabatini bildirgan. Ikkinchi tomoni, Boburning bu tasviri go'yo tarixiy asarni emas, yuksak badiiy nasr namunasini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Muallif hind lashkarlarining ruhiy holatini, o'limga tik boqib, uni qahramonlarcha qabul qilib, ruhiyatlarida hech qanday o'zgarish zohir bo'lmaganini «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», degan jumlar orqali tasvirlaydi. Matndagi

«oldururlarini jazm qilib, xotunlarini chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, "yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», «ushbu havolida aksar bir-birlarini o'lturubtur», «aksar bu dastur bila do'zaxqa bordi», kabi jumllarda esa hind lashkarining ruhiy holati, ichki kechinmalari o'ta hayotiy ifodasini topgan: «Andak fursattin so'ngra kofirlar tamom yalang'och bo'lub kelib, urusha kirishtilar. G'alaba elni qochurub, fasildin uchurdilar. Bir necha kishini chopqulab, zoyi' qildilar. Fasilning ustidin bot borg'onlarining jihati bu ekindurkim, oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturtub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kelmishlar. Oxir to'sh-to'shdin zo'r qilib, fasil ustidin qochurdilar. Ikki yuz-uch yuz kofir Mediniy Ravning havolisig'a kirdi. Ushbu havolida aksar bir-birlarini o'lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzotib turubtur. Aksar bu dastur bila do'zaxqa bordi» [1; 235].

Bobur yuqoridagi matnda hind lashkari bilan sodir bo'lgan, kishi tasavvur qilishi mushkil ruhiy holatni keltiradi. Bunda adib hind lashkarining ruhiy holatini yuksak darajada tabiiy, hayotiy tasvirlab beradiki, unda vatan himoyasi yo'lida jonini ham ayamaydigan kishilarning umulashma obrazi yaratilgan. Mantiqan qaraganda, o'limga jon-jahdi bilan tik boruvchi shaxs bo'lmasa kerak. Bobur hindlarning vatanparvarligini ko'rsatish uchun ularning «rag'bat» bilan o'limni qarshi olishlarini tasvirlamoqda. Bu so'z hindlarning ichki olami, o'limni pisand qilmasligi, ruhiy holatida sodir bo'lgan bu o'zgarishlarni taqdiri azalning hukmi sifatida qabul qilganligini so'z ta'siri orqali ifodalaganki, uning badiiy mahoratidan darak beradi: «Aksar bir-birlarni o'lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzotib turubtur», «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», jumllarida Bobur gapda qator kelgan so'zlar orqali so'z mantiqini kuchaytirmoqda. Har bir so'z oldin kelgan so'zning ta'sir kuchini oshirib, bu urush dahshatini o'quvchiga real hayotda sodir bo'lganidek ta'sirli va ishonarli ifodalab bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, «Ona yeridan ta'qib ostida ajrab, Hind yerida qo'nim topgan Bobur ijodiga ko'chgan ruhiy kechinmalarida davrning beshafqat qonunlari o'z kuchida qolaverdi. Balki xuddi shu sabablardandir, Bobur boshida toji, ostida taxti bo'la turib «noraso dunyo», adolatsiz «taqdiri azal»ning nayranglariyu jamiyatning noshudliklariga befarq qarolmay, u ham hamma taraqqiyparvar ijodkorlar singari o'z zamoniga sig'madi» [4; 107].

Adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. Toshkent. Sharq. 2002. – 335.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi. Toshkent.: Sharq. 2014. – 744.
3. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. Vahob Rahmonov va Yanglish Egamova tarjimasini. Sharq nashriyot-matbaa Bosh tahririyati. Toshkent, 2010.
4. Nizomiddinov N.G'. Buyuk boburiylar tarixi (XVI-XIX asr). Monografiya. Toshkent.: Fan va texnologiya, 2012 yil. – 516.
5. Qayumov A. Asarlar. 5-jild. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti. T.: Mumtoz so'z, 2009. – 303 b.
6. Quadratullaev H. Bobur armoni. T.: «Sharq», 2009.

UDK: 494

HAJVIIY ASARDA XARAKTER, PORTRET VA O‘ZIGA XOSLIK (A.QODIRIY ASARLARI MISOLIDA)**F.G‘. Tursunova***Farg‘ona politexnika instituti*

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qodiriyning hajviy asarda xarakter, portret yaratishdagi mahorati ochib berilgan. Hajviy qahramon nutqi va tashqi qiyofasidagi o‘ziga xoslik misollar yordamida tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: qahramon xarakteri, portret, portretning o‘ziga xosligi, individuallik, tashqi qiyofa, ruhiy holat.

**Характер, портрет и оригинальность в сатире
(на примере работа А.Кадири)**

Аннотация. В статье раскрывается мастерство Абдуллы Кадири в создании персонажа и портрета в комической пьесе. На примерах проанализирована оригинальность речи и внешности комического главного героя.

Ключевые слова: героический характер, портрет, оригинальность портретов, индивидуальность, внешность, настроение.

**Character, portrait and originality in the satire
(on the example of works of A.Qadiri)**

Abstract. The article reveals the skill of Abdulla Qadiri in creating a character and portrait in a comic play. Using examples, the author analyzes the originality of the speech and appearance of the comic protagonist.

Keywords: heroic character, portraits, originality of portraits, individuality, appearance, mood.

Har qanday yozuvchi ijodiy kamolotga erishgan, milliy g‘oya va qadriyatlariga qanchalik sadoqati kuchli bo‘lsa, o‘z asarlarini yuksak badiiy ruhda yarata oladi. Shunda u milliy ruh va tafakkurning mohir ifodachisi sifatida kitobxonlar e‘tiborini qozonadi. Har bir ijodkor hayotni har tomonlama chuqur o‘rganib, ko‘rgan-kechirganlarini yuksak badiiy shaklda aks ettirishga harakat qiladi. Bu haqida buyuk iste‘dod sohibi Abdulla Qodiriy: “Har bir asarimning yozilishiga turmushda uchragan biror voqea sabab bo‘ladi”. “Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo‘lgan narsam haqidagi materiallarni puxta o‘rganib chiqaman. Biror joy to‘g‘risida asar yozmoqchi bo‘lsam, o‘sha joyni necha martaba ko‘rgan esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o‘rganib kelaman”. “Yozuvchi turmushni har taraflama o‘rganishi, buning uchun uning har sohalaridan xabardor bo‘lishi kerak. Qisman boshimdan kechirganlarim mening yozuvchi bo‘lishimda katta rol o‘ynagan. Haqiqiy yozuvchi bo‘lishni istagan yoshlarimiz ham dastlab shu turmush ichiga kirishlari, uni bilishlari kerak”[1],- deb yozadi “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1935-yil 14-mart sonida e‘lon qilingan “Yozuvchi o‘z ishi to‘g‘risida” maqolasida.

Hajviy xarakter yaratish o‘ta mushkul ish. “Xarakter – badiiy asarda mazmunning shaklidir,– deydi adabiyotshunos Izzat Sulton. – Chunki o‘quvchi mazmunni dastavval va butunicha xarakterlar orqali biladi va hazm etadi. Shu sababli ham o‘quvchi yodida butun boshli xarakterlar qoladi”[2]. L.I.Timofeyev fikricha, “xarakter – bu insonning jamiyatda o‘zini namoyon qilishidagi ma‘lum tip. Bu shaxs aynan jamiyatda fikr, kechinma va xatti-harakat yetakchiligi bilan ajralib turadi. Insonning konkret, betakror qiyofada namoyon bo‘lishi mana shu tarixiy sharoitda yuzaga chiqadi”[3].

Julqunboy hajviyalarida xarakter haqida gap ketganda, beixtiyor kitobxon ko‘z o‘ngida Kalvak maxzum, Toshpo‘lat tajanglar gavdalanadi. Bu qahramonlar asarda muallif

aralashuviz o'zlari harakatlanadi, kutilmagan sarguzashtlari, hayotning o'ta murakkab sinovlarini boshidan kechiradi. Ular sarson-sargardonlikda syujet markazi bo'ylab ko'rgan-kechirganlarini o'zlari hikoya qilib boraveradi, turli xatti-harakatlari bilan o'quvchida kulgi qo'zg'otadi. Kitobxon ushbu asarlarni mutolaa qilar ekan, o'zini asar qahramonlari bilan yonma-yon turgandek, u bilan dildan suhbatlashayotgandek bo'ladi, ular bilan birga kuladi, ayrim holatlariga yurakdan achinadi. Qodiriy kulgining darajasini ko'tarish bilan ijtimoiylikni ham ta'minlaydi, shuningdek, qahramon xarakterini mukammal yaratishga erishadi. Adib qahramon xarakteriga mos o'tkir so'zlarni, iboralarni, hayotiy detallarni ustalik bilan qo'llab, qahramonlari ichida, qalbida kechayotgan tuyg'ularni his etadi va personajlar ichki dunyosidagi ziddiyatlar, tangliklar, azob-og'riqlar, og'ir kechinmalarni o'z boshidan o'tkazgandek qilib chizadi. Hajviyalarda personaj xarakterini ochishda qahramonning yuz-ko'z ifodasi, mimika, imo-ishora, gavda holati, tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari, ko'nglida kechayotgan hislarini o'z so'zlari orqali ochib beradi. Badiiy tasvirni aniq, ixcham, individual, xolis berish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yozuvchi bu ulkan vazifani hal etish jarayonida qahramon monologi orqali o'z-o'zini fosh etish yo'lini tanlaydi. Adibning "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" va "Toshpo'lat tajang nima deydir?" hajviyalarida qahramon nutqida qo'llanilgan rus tilidan o'zlashgan so'zlar Kalvak va Toshpo'lat nutqida turli o'zgarishlarga uchrashi bilan ularning xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, Toshpo'lat nutqida qo'llangan so'zlar aksar hollarda oliftagarchilik, mensimaslik, chapnilik, qo'rslik holatini ko'rsatish niyatida ishlatilgan bo'lsa, Kalvak nutqida qo'llangan so'zlar maqtanchoqlik, kaltabinlik, o'sha davr uchun yangilik bo'lgan biron bir voqelikka qahramonning munosabatini ko'rsatish maqsadida qo'llangan. Toshpo'lat nutqida: bunisa (militiya), kanasirt (konsert), izboshka (izvosh), sersunnayin (sherstennoy), go'zimat (gazeta), simint (siyu minutu), kamasiya (komissiya), pajaliska (pojaluysta), bapirja turdi (birja truda), tromboy (tramvay), po'ristoy (prostoy), salapo'y (slepoy), kamhez (komxoz-kommunal xo'jalik tashkiloti), zimlamirskaya (zemlemerlar tashkiloti), sapsem (sovsem), santalakat (sindikata), povrikan (fabrika), gataba (gotova), do'mavoy (davlat dumasi), papiriska (papiros) kabi ruscha so'zlar qo'llangan. Kalvak nutqida ham yuqorida keltirilgan so'zlardan gazeta, miliya, duma kabi o'sha davr uchun yangilik bo'lgan so'zlar qo'llangan. Undan tashqari pravoy qog'oz, ispolkovni, idraska, kuda Injil, toporish? (Qur'on qayerda, o'rtoq?), pristuf (pristav), akrajnayni (okrujnoy-Okrug sudi) kabi ruscha so'zlar uchraydi. Toshpo'lat tajang gazetani go'zimat, miliyaning bunisa deb qo'llasa, Kalvak maxzum gaznit, miliska deb ishlatadi.

Hajviy xarakter yaratishda A. Qodiriy o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlardan juda o'rinli foydalangan. Kalvak maxzum nutqida qo'llangan o'zlashma qatlamni tashkil qiluvchi forsiy izofalar: xaloyiqi beparhez, oshiqi zor, volidai mushfiqaga shammoi izhor (mushfiq onamga ozgina arz), husni jamol, haddi kamol, ilmi irfon, zamoni beamon, jadidi maktab, peshvoyi shariat, aqli ko'toh, alfozi qabiha, angushti tahayyur (hayrat-ko'rsatkich barmoq), dandoni tafakkur (aql tishi) kabi birikmalarni bugungi kun kitobxonni lug'atsiz tushinishi qiyin. Bunday so'z va iboralarni qo'llaganda yozuvchi ma'lum bir maqsadni ko'zlagani aniq. Chunki voqelikni obrazli qilib, bo'rttirib ko'rsatish uchun yuqoridagi iboralar qo'l kelgan. O'zbek tilida "Hayratdan barmog'ini tishladi" degan ibora mavjud. Adib o'zbekcha iboralarning o'rnida forsiy izofani qo'llash orqali Kalvak maxzumning besh yil madrasada olgan bilimga ega ekanligi, madrasa "xurofoti bilan miyasi g'ovdalanligi", hayotni faqat madrasadan iborat deb bilishini ko'rsatadi. Uning madrasada o'rgangan arabcha va forsha so'zlarni aralastirib so'zlashidan o'ta maqtanchoqligi ko'rinib turibdi: "Bidon, as'ada kollohu fid-dorayn, ki kalimoti arab bar se qism ast: ism ast, fe'l ast, harf ast. Ism hamchun "rajul", fe'l hamchun "zaraba", harf hamchun "min", "an", "ila"...

Zaraba-moziy; zad yak mard dar zamoni guzashta..."

Yozuvchi qahramon xarakterini yoritishda xalq maqollaridan va iboralardan ham unumli foydalanadi. Masalan, "Qul o'lmas, rizqi kamimas", "Jannatda ko'rish boru, yeyish yo'q", "Echki ham o'z oyog'idan, qo'y ham o'z oyog'idan osiladi", "Ko'z ko'rib, quloq

eshitmagan”, “Og‘zim oshqa yetmasdan, boshim toshqa tegdi”, “Zar qadrini zargar bilar, chilangar neni bilar”, “Oziqli ot horimas, “Yomonning yaxshisi bo‘lib, yurg‘ondan yaxshining yomoni bo‘l”, “Tirikchilik toshdan qattiq” (maqollar) “boshi yostiqqa tegmoq”, “qo‘lni yuvib qo‘ltiqqa urmoq”, “ko‘ngildan chiqarib”, “boshini ikki qilish”, “peshonam ochilib”, “tumshuqlarini mahalla-ko‘yning qozoniga ham tiqa boshladi”, “ammamning buzoqlari”, “pix yorg‘on tullak”, “ta‘bhasini bir tirriqcha qilib qo‘y-chi”, “chayna mag‘zini”, “shaytonga hay berib”, “kosasi sira oqarmay”, “hasratni qildim”, “orqasiga oftob tegar”, “mushkulini oson qilmoq”, “igna birlan quduq qazish”, “yer yorilmadi, yerga kirsar” kabi (iboralar)ni personaj nutqida qo‘llash orqali hajviy qahramonini individuallashtirgan, shaxslantirishgan, tipiklashtirgan. Qodiriy yuqoridagi hajviyalarida asarning hayotiyligi va badiiyligi darajasini oshirib, hayotda o‘zini qiynayotgan, yuragi qatlarida yashirinib yotgan armonlarini ochib tashlaydi. Masalan, Xabaring yo‘q hali, Mahkam polvon, kecha ispolqo‘midagi hezimkashlarning “kanasirti”ga borub qolubman... Sanga yolg‘on, xudoga chin, nuqul hez, nuqul tolmacha... Voy o‘lay-qutulay debman... Bitta hezalak, oliptasumol o‘zi, bitta otinchag‘a osilg‘an bo‘ladir... (326-bet)

Keltirilgan parchada ijroiya qo‘mita tomonidan qo‘yilgan konsertlarning sifatsizligi, sahnada ayollar rolini erkaklar ijro etayotganligi kulgili kinoya yo‘li bilan berilib, bildirilgan munosabatdan Toshpo‘lat xarakteriga xos bo‘lgan xususiyat ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari asarda Toshpo‘lat tajang tilida kekirdagingni cho‘zma, tumshug‘ingga yel tushkur, pul qoqyapmanmi, it emgan, galavam aynadi, xumpar, xudo haqqi, cho‘nchakchasiga burnimni qoqay kabi chapanilarga xos nutq ohangi va iborolari qo‘llanilgan bo‘lib, uning xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Xarakterning tashqi holat o‘zgarishlari, portret chizgilari, tashqi qiyofa detallari, ruhiy hayotning nafasi bilan qahramonning so‘zlash ohangi, personajning rangin nutqi orqali ishonarli tarzda ochib beriladi. Hajviy qahramonning kim ekanligi, qaysi tabaqaga mansubligi, qanday oilada kamol topishi, dunyoqarashi, madaniyati, ma‘naviyati, xulq-atvori uning nutqida mujassamlashadi. Qodiriy “Kalvak maxzumning xotira daftaridan” asarida maxzumni juda qoyillatib so‘zlatadi. Chunki muallif fikrini o‘ziga olgan qahramon nutqi aslida o‘z yo‘nalishini yo‘qotmaydi va o‘ziga xos ohang hamda intonatsiyalarni saqlab qoladi. Uning nutqida namoyon bo‘lgan tasvir joziba kuchi bilan qahramon xarakterini yaqqol namoyon etadi. Adib tasvirda nutqni xalq tiliga nihoyatda yaqinlashtiradi. Insonlar ongida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun, uni qandaydir boshqa tanishroq narsa-hodisaga yoxud uning belgilariga o‘xshatib, yorqinroq, aniqroq qilib ko‘rsatish orqali qahramon portretini chizib beradi.

Portret har qanday asosiy sifatni yoki personajning tashqi kiyofasini batafsil va har tomonlama tasvirlashni o‘z ichiga olishi mumkin. Yozuvchi asarlarida qahramonning tashqi qiyofasi bilan ichki dunyosini uyg‘un holda tasvirlaydi. Maxzum o‘zining tashqi qiyofasini kuldurib tasvirlashi orqali ichki dunyosining naqadar jirkanch, kirlangan, mog‘or bosgan ekanligini o‘z nutqi orqali yaqqol namoyon etadi. U qahramonlari xakteri va dunyoqarashini yorqin bo‘yoqlarda shunday aks ettiradiki, kitobxon qahramonning quvonchiga sherik bo‘ladi va uning ayanchli ahvoliga achinadi. Kalvak maxzumning nafaqat tashqi qiyofasi, balki tashqi ta‘sir orqali shakllangan qalb olami, ahvoli-ruhiyasi, ichki ruhiy psixologik evrilishlari o‘zini zohir qilgan holatlarni adib mahorat bilan tasvirlaydi. Qahramonning o‘z nutqi orqali portretini mukammal tasvirlaydi: “nazir boshim kesak qisqon qovundek qiyshiq bo‘lib, jovdirlog‘on ko‘zim qassobdan et olib, baqqol bilan muomala qilaturg‘on darajaga yetibdur. Ammo faqirning qorni kundan-kunga g‘ovlagan torvuzdek o‘sib, bul ma‘nidin padar birlan volida “bolamiz qorin sola boshladi”, deb benihoyat xushnud bo‘lar ekanlar[4].

Tashqi ko‘rinish ba‘zida personaj xarakteriga ishora qiladi.

Bu qiyofa, eng avvalo, muallifning personajga munosabatini aniq ifoda etgan. Qodiriyning kesak qisqon qovun, et, g'ovlagan torvuz kabi detal va tashbehlardan foydalanishining boisi, bu detallar kitobxonga hajviy personaj qiyofasini aniq, yorqin, jonli tasavvur qilish imkonini berish bilan birga unda kuchli kulgi hamda achinish hissini qo'zg'atadi. Maxzumning o'z nutqi orqali berilgan misollarda uning bolaligida uzoq vaqt yurmasdan bir yerda yotaverganidan, boshining kulgili qiyofaga kelib qolganligi, olti yoshgacha yurmay, bir yerda o'tirib tinimsiz ovqat iste'mol qilganidan, qorni tarvuzdek katta bo'lib ketganligi g'ovlagan tarvuzga o'xshatilishi o'ta kulgili hol bo'lib, kitobxon ko'z o'ngida polizda dumalab yotgan qiyshiq qovun va palak yozib g'ovlab ketgan tarvuz gavdalanadi. Abdulla Qodiriy qahramonlarining tashqi qiyofasidagi achinarli ko'rinishni bo'rttirib ko'rsatishda mubolag'adan o'rinli foydalanadi: "... Agarda o'zingizga ham chechak chiqqan bo'lsa sezarsiz: misoli yuzingiz g'alvirak bodom... Ammo faqirning yuzimda ba'zi chandiqlar ham zuhurga kelgani uchun go'yoki husni Yusuf bizda xotima topdi... agar siz bir hovuch tariqni yuzimizga qaratib sepsangizda, bir dona yerga tushsa, biz benavat"(367-bet).

Yuqoridagi misollarda o'ta ziyraklik va badiiy did bilan tanlangan bunday o'xshatish etalonlari tasvir obyektini yanada oydinroq yoritish imkonini beradi. Adib qahramon tashqi qiyofasi tasviri orqali jamiyatdagi qoloq, jirkanch din ulamosining bolaligidan achinarli qismatini, uning yuzidagi nuqsonlarini, boshidan kechirganlarini qahramon nutqi orqali tasvirlab bergan. Hajviyalarda qahramon tashqi qiyofasini yanada chuqurroq ochish, qirralarini bo'rttirib ko'rsatish uchun o'zlariga tanish bo'lgan narsalardan foydalanib tasvirlashga katta o'rin beradi. Bunday detallashtirilgan predmet orqali qahramonning kimligi va qandayligi kitobxonga yanada aniqroq ko'rinadi. Bunday portretlarda yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasi orqali o'zining ichki dunyosi va xarakterini ochib beradi. Shu bilan birga hayotdagi illatlar, o'lib borayotgan narsalar satiraning predmeti bo'lishi satirik obrazlar yaratishda, satirik konflikt, satirik tipiklashtirish masalalarida o'ziga xoslikni tug'diradi.

Abdulla Qodiriyning xarakter va portret yaratishdagi mahorati shundaki, uning hajviy qahramonlari ko'proq o'zlari so'zlab, hayot voqealariga, yangi kishilarga bo'lgan munosabatlarini o'z nutqi orqali bayon qilish orqali o'z xarakterini ochib beradi. Yuqoridagi asarlarida muallif o'z qahramonini to'laqonli tasvirlashga erishadi: tasvir va portret bir yo'la berib borilaveradi. Portretni bu tarzda berish xarakter tabiiyligini belgilaydi, uni jonlantirib yuboradi. Qahramon portretining o'ziga xosligi asarning qaysi adabiy janrga mansubligiga ham bog'liqdir. Qodiriy hajviyalarida u yaratgan obrazlar biri ikkinchisini takrorlamaydi, qahramonlar nutqi ham individual, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, portret tasviri qahramon xarakteriga mos tushib, personajlarning o'ziga xosligini belgilab beradi. Qodiriy o'z qahramonlarini yaratar ekan, soxtagarchilikka, yuzakichilikka, zo'rma-zo'rakilikka yo'l qo'ymaydi. Qahramonlar tug'ma, tabiiy xususiyatlarga ko'ra emin-erkin harakat qildiriladi.

Adabiyotlar

1. Qodiriy Abdulla. Adibni xotirlab. V jild. «Info Capital Group» nashriyoti. -T., 2018.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1980.
3. Gegel. Estetika. Birinchi jild. – Farg'ona. 2011.
4. Тимофеев Л.И. Проблемы теории литературы. – Москва: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1955.
5. Qodiriy Abdulla. Diyori bakir. III jild. «Info Capital Group» nashriyoti, T. 2018.

УДК: 494.3

КРУГ «ЗАПАДНО-ВОСТОЧНОЙ» ПРОБЛЕМАТИКИ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Д.Р.Кадымова

Самаркандский государственный университет

Аннотация. Проблема «Россия - Восток - Запад», столь актуальная для современного мира, волновала русскую литературно-критическую мысль как в XIX столетии, так и в XX веке. Для России такой интерес к данному вопросу не случаен. Являясь многонациональным, многоконфессиональным государством, она занимает территорию, являющуюся как частью Европы, так и частью Азии. В этом кроется сложность, многогранность российской культуры и особенность ее места в мировом историко-литературном процесс. Именно поэтому оценки русских ученых, касающиеся проблемы «Россия-Восток-Запад», создание которых относится к периоду «золотого века» русской литературы, их анализ сегодня актуален как никогда. История есть опыт, накопленный человечеством. История литературы содержит в себе варианты ответов на многие из стоящих перед нами и сегодня острых вопросов.

Ключевые слова: европоцентризм, межлитературное и межкультурное взаимодействие, панмонголизм, буддизм и туранство, «золотой век», ориентализм.

Rus adabiyotidagi "G'arb-sharq" muammolari doirasi

Annotatsiya. Zamonaviy dunyo uchun juda dolzarb bo'lgan "Rossiya - Sharq - G'arb" muammosi XIX asrda ham, XX asrda ham rus adabiy-tanqidiy dunyoqarashini tashvishga soldi. Rossiya uchun bu masalaga qiziqish tasodifiy emas. Ko'p millatli, ko'p konfessiyali davlat bo'lib, u Yevropaning ham, Osiyoning ham bir qismi bo'lgan hududni egallaydi. Bu rus madaniyatining murakkabligi, ko'p qirraliligi va uning jahon tarixiy va adabiy jarayonidagi o'rnining o'ziga xosligi bilan ham bog'liq. Aynan shuning uchun ham rus olimlarining rus adabiyotining "oltin davri" ga tegishli bo'lgan "Rossiya-Sharq-G'arb" muammosi haqidagi fikrlari, ularni tahlil qilish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbdir.

Tarix - bu insoniyat tomonidan to'plangan tajriba. Adabiyot tarixi bugungi kunda bizni qiziqtirgan ko'plab savollarga javobni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: yevrosentrizm, adabiyotlararo va madaniyatlararo o'zaro ta'sir, panmongolizm, buddizm va turizm, "oltin asr", sharqshunoslik.

Circle of "West-eastern" problems in russian literature

Abstract. The problem "Russia - East - West", which is so urgent for the modern world, worried Russian literary-critical thought both in the 19th century and in the 20th century. For Russia, this interest in this issue is not accidental. Being a multinational, multi-confessional state, it occupies a territory that is both part of Europe and part of Asia. This is the complexity, versatility of Russian culture and the peculiarity of its place in the world historical and literary process. That is why the assessments of Russian scientists concerning the problem of "Russia-East-West", the creation of which belongs to the period of the "golden age" of Russian literature, their analysis is relevant today more than ever.

History is the experience accumulated by humanity. The history of literature contains variants of answers to many of the burning questions we face today.

Keywords: Eurocentrism, interliterary and intercultural interaction, pan-mongolism, Buddhism and turizm, "golden age", orientalism.

Когда-то, на заре XX века, стала популярной фраза английского неоромантика Редьярда Киплинга: "Запад есть Запад, Восток есть Восток, - и с места они не сойдут". Поэт, хорошо знавший Индию и Англию, сравнивал две цивилизации, видя непреодолимые противоречия там, где сегодня преобладает вполне приемлемый диалог культур. И всё же, если говорить о типах мировой литературной и эстетической мысли, можно смело утверждать: есть два полюса, вокруг которых концентрируются традиции и художественные тенденции многих веков. Это полюса "восточной" и "западной" культур.

Конечно, есть и другой подход: выделяют культуру "Севера" (т.е. развитых стран) и "Юга" (т.е. стран развивающихся).

Интерес Запада к Востоку и, соответственно, как научное, так и эстетическое его «освоение» уходит корнями в глубокую древность. Начиная с греко-персидских войн (V в. до н.э.) и походов Александра Македонского (IV в. до н.э.), идёт процесс экономического, политического и культурного взаимодействия Запада и Востока. Географические открытия и военные походы, торговые связи и колонизация восточных земель - под воздействием всех этих факторов процесс взаимодействия Запада и Востока все больше активизировался, достигнув своего апогея в конце XVIII- начале XIX века, в период первых буржуазных переворотов в истории и зарождения романтизма в эстетике. Развитие капиталистической цивилизации, естественным следствием которого было расширение межнациональных связей, приводило и к расширению связей эстетических, к стремлению раздвинуть познаваемый искусством мир, постигнуть специфику жизни и культуры других народов, в частности, народов Востока.

В наше время, когда процесс взаимодействия наций и национальных культур максимально активизировался под влиянием как социальных факторов, так и самого высокого темпа исторического прогресса, задача научного осмысления этого процесса, его истоков, истории и основных закономерностей оказывается чрезвычайно важной и актуальной. В этой связи проблема «Запад и Восток» вызывает все больший интерес и рассматривается в самых различных аспектах в том числе и в литературоведении. Литературоведческий анализ русской ориентальной поэзии первой трети XIX века как особой художественной системы, несущей в себе наиболее характерные и яркие закономерности процесса межлитературного и шире – межкультурного - взаимодействия Востока и Запада.

Особое - пограничное между Востоком и Западом - географическое положение России обусловило и особое - более существенное, чем для западноевропейских стран, - место так называемой «восточной проблемы» не только в её истории и экономике, но и в философии, и в эстетике. На протяжении веков в России существовали две тенденции самоопределения, обретавшие в разные периоды под влиянием различных социальных и экономических причин разное значение. Это, с одной стороны, «Мы под Востоком не можем разуместь Россию...Россия...принадлежит к Европе»² (Белинский), а с другой стороны - знаменитое блоковское «Да, скифы мы, да, азиаты мы...»³. Постоянная острота столкновения

Пик интереса к проблеме «Россия-Запад-Восток» приходится на 90-е годы XX века, когда в печати появляются ранее недоступные широкому читателю работы философов – «евразийцев»¹. Независимо от общей аксиологии его восприятия Запад всегда казался русским мыслителям однородным, единым целым. Восток же с самого начала его освоения русской культурой включал в себя широкий спектр неоднородных понятий. Это не только родина христианства, но и легендарные, восточные деспотии (Китайская империя, Персия), древние загадочные цивилизации, символом которых стали египетские пирамиды и сфинксы.

В пушкинскую эпоху для русской аристократии, полностью ориентированной на Западную Европу, Восток (Азия) был ещё неким единым целым, которое противостояло и России, «Противоположность Востока и Запада, - отмечал П.М.Бицилли в статье «Восток и Запад в истории Старого Света», - ходячая формула со времени еще Геродота. Под Востоком подразумевается Азия, под Западом – Европа, как выражаются философы истории и деспотизма, стремления вперед (прогресса) и косности...» (Бицилли, 1993: 24-25).

Не миновал этой бинарной оппозиции и А.С. Пушкин. С.А.Франк в работе «Пушкин об отношениях между Россией и Европой» даёт характеристику восприятия поэтом Востока: «Уже в самых ранних его письмах у него есть излюбленное противопоставление «азиатского» начала – «европейскому», как низшего высшему» (Франк, 1987: 95). Понятие «Восток» рождало в сознании человека пушкинской эпохи представление о «крупных «растленных», деспотических государствах, о некоем «застывшем» единстве национального бытия, опирающегося на традиции и неохотно «впускающего» в себя все

новое, о философском смирении и сосредоточении, об изначальном представлении властного начала в жизни отдельной человеческой единицы» (Кошелев, 1994: 4). Но в России XIX –го века был и другой взгляд на Восток.

Подобно тому как в начале XIX в. в Европе Восток был открыт разочарованными в просвещении и цивилизации романтиками, в России увидеть Азию непредвзято, без отрицательной оценки могли по преимуществу люди романтического склада, свободные от преклонения перед Западом. Например, у М.Ю.Лермонтова находим такие слова, сказанные им А.А.Краевскому: «Я многому научился у азиатов, и мне бы хотелось проникнуть в таинство азиатского мирозерцания, зачатки которого и для самих азиатов, и для нас ещё мало понятны. Но поверь мне, там, на Востоке, -тайник богатых откровений» (Лермонтов, т.2, 2000: 250). Таким, образом, в уже устоявшейся оппозиции «Запад» - «Восток» происходит трансформация. В то же время вопрос о месте России между Востоком и Западом рождает дополнительную антитезу «Север - Юг», в которой своеобразие русской культуры постигается в противопоставлении ее как Западу, так и Востоку: «Россия получала наименование Севера (в сравнении с Францией, Грецией или Италией – Е.К.) и сложно соотносилась с двумя первыми культурными типами, с одной стороны противостоя им обоим, а с другой, выступая как Запад для Востока и Восток для Запада...» (Лотман, т.3, 1993:10). Широко распространено мнение о том, что славянофилы предприняли попытку «повернуть» русскую культуру в сторону Востока. Однако большинство из них – А.Хомяков, И.Киреевский, К.Аксаков и др (исключая, пожалуй, лишь Н.Данилевского и К.Леонтьева) – критикуя Запад, говорили только о самобытности России как христианского Востока, но ни китайский, ни буддийский, ни мусульманский Восток не был для них образцом. Отношение славянофилов к Азии оказалось совершенно европейским. Для них Восток не выходил дальше Урала. «Это значит: не Китай, не Ислам, не Татары, а мир Славяно-Православный, наш единоплеменный и единоверный. В отличие от него Запад значит: мир Романо-Германский или Католико -Протестантский» (Самарин, т.1, 1991: 98). Неожиданный «исход к Востоку» открывается в последнем выпуске «Дневника писателя» Ф.М.Достоевского. Мыслитель вдохновенно призывает Россию покончить с духовной зависимостью от Европы и обратить свой взор на Восток: «И чего-чего мы не делали, чтобы Европа признала нас за своих, за европейцев, а не за татар». Настало время, с точки зрения Достоевского, когда «надо прогнать лакейскую боязнь... Этот ошибочный стыд наш, этот ошибочный наш взгляд на себя единственно как на европейцев, а не азиатов (каковыми мы никогда не переставали пребывать)» (Достоевский, т.27, 1984:33).

Однако эти слова не мешают Достоевскому смотреть на Азию «глазами европейца», поскольку миссия России на Востоке мыслится им исключительно как цивилизаторская: «В Европе мы были приживальщики и рабы, а в Азию явимся господами. В Европе мы были татарами, а в Азии и мы европейцы. Миссия наша цивилизаторская в Азии поднимает наш дух и увлечет нас туда, только бы началось движение» (Достоевский, т.27, 1984:36).

Таким образом, парадокс русской интеллектуальной мысли XIX века состоит в том, что, хотя Азия была рядом, но образованная Россия «всегда скрыто или откровенно стыдилась Азии, как стесняются перед авторитетными и просвещенными гостями бедного, некультурного и непредсказуемого родственника» (Кузнецов, 1996: 164).

Рубеж XIX – XX веков дал нам целый спектр новых взглядов и подходов к проблеме «Восток – Запад». Если в XIX века доминировала «западная» тема, то XX век пристальное внимание обратил на Восток. Формула «отношение России к Востоку». Начало XX века – это эпоха кризиса европоцентризма, когда особенно проявилось ощущение исторической ограниченности модели мира, которую за долгие века выработало европейское мышление.

В силу множественности объективных и субъективных оснований, послуживших базой для формирования проблемы «Запад — Восток», философское осмысление данной темы носит многоаспектный характер. Одним из основных аспектов данной проблемы выступает интерпретация мировой истории в форме диалектического взаимодействия западных и восточных начал, приводящего к синтезу их основных качеств. Данный подход является характерным для историософии В.С. Соловьева и основывается на его

представлениях об идеальном общественном устройстве («нормальном обществе»), которое, в свою очередь выступает аппликацией идеи всеединства. Запад несет в себе начала личной человеческой свободы, Восток - единства и подчинения авторитету. Синтез приведет к формированию общности, реализующей принцип единства во множественности, то есть, по сути — богочеловеческий идеал.

Круг «восточной» проблематики в русской культуре и литературе Серебряного века определили философские труды В.С. Соловьева. Его неоднозначное отношение к Востоку, коренящееся в нерешенности проблемы исторической сущности этого понятия, привело к возникновению в русской культуре XX века концепции «двух Востоков»¹. Ее наиболее точное и афористическое определение содержится в стихотворении Вл. Соловьева

«Ex oriente lux»:

О Русь! В предвиденье высоком

Ты мыслью гордой занята;

Каким же хочешь быть Востоком:

Востоком Ксеркса или Христа?

Понятия «Восток Ксеркса» и «Восток Христа» имеют символическое значение. «Восток Христа» для Вл.Соловьева – воплощение философии деятельной любви и добра, с ними связан и определенный исторический оптимизм мыслителя, его понимание прогресса и смысла истории.

С «Востоком Ксеркса» соотносится эсхатологическое миропонимание В.Соловьева. Оно основано на его теории неотвратимого столкновения европейского Запада с объединенными силами азиатского Востока, угрожающего самому существованию западной культуры. Мистический страх Соловьева перед панмонголизмом, буддизмом и туранством находит воплощение в образе «Азии-чудовища». В статье «Враг с Востока» философ прогнозирует: «Есть основания думать, что дальняя Азия, столько раз выславшая опустошительные полчища своих кочевников на христианский мир, готовится в последний раз против него выступить с совершенно другой стороны: она собирается одолеть нас своими культурными и духовными силами, сосредоточенными в китайском государстве и буддийской религии» (Соловьёв, т.2, 1989; 432). При всей категоричности высказываний В.Соловьева не следует забывать и о том, что отношение его к «жёлтой опасности» двойственно. Особенно ярко это проявилось в поздний период творчества мыслителя (со второй половины 90-х гг.), когда его философские и исторические воззрения претерпевают определенные изменения.

С одной стороны, пробуждение сил Востока страшит и одновременно притягивает философа («ислам, который ещё будет если не развиваться, то распространяться, так как духовное молоко Корана нужно человечеству...» В.Соловьев), с другой стороны, русский мыслитель предчувствует грядущую кару как Европе, так и России за измену христианским заветам. Однако взгляды писателя на Россию все же не лишены оптимизма: «Упразднение идеи самого многовекового исторического раздора между Востоком и Западом – это значит найти для России новое нравственное положение, избавить от необходимости продолжать противохристианскую борьбу между Востоком и Западом и возложить на нее великую обязанность нравственно послужить и Востоку, и Западу, примеряя в себе обоих» (Соловьёв, 1991: 256-257).

Следует заметить, что примирение Востока с Западом и определение исторической миссии России в этом примирении стало одной из самых популярных идей, к которой обращаются мыслители, стоит им только затронуть вопрос о Востоке и Западе. Философская система В.Соловьева, в частности его концепция «двух Востоков», оказала значительное воздействие на русскую литературу Серебряного века.

Известную роль в постижении Востока сыграло серьезное знакомство Бунина с классической (в том числе и арабской) восточной поэзией. Из нее художник избирает лишь те мотивы и образы, которые не противоречат его собственной эстетической системе. В блестящем «арабском цикле» Бунин после посещения Турции, Египта, Сирии, Палестины, Алжира, Туниса создал неповторимый образ Востока. Величавая поэзия Магомета и светлая чувственность «Песни Песней», древняя индусская мудрость и грозные пророчества «Книги Мертвых», образы арабского поэта VI в. Имру-уль-Кайса и малайский

пантун, турецкая легенда и татарская поговорка, грузинская песня и сирийский апокриф, иранский миф и «Гулистан» Саади — все это питает восточную поэзию Бунина так же, как сама живая действительность Египта и Дагестана, Цейлона и Нубии.

Ему были дороги гордость и достоинство мусульман перед лицом европейских завоевателей. По мнению Бунина, среда, характер, колорит должны возникать не из домысленных, воображенных или заимствованных сюжетов или слов, но в первую очередь, из непосредственно увиденного и прочувствованного материала. Постоянное стремление положить в основу своего метода максимально приближенное к «источникам», углубленное постижение исторической и национальной сущности бытия и человека привело Бунина к своеобразию главных принципов построения характера арабского феллаха, пастуха, бедуина — к открытию «своего Востока».

Дорожные встречи с людьми иной веры, культуры, впечатления, размышления о богатейшем духовно-эстетическом наследии восточных народов, их истории становятся темой ориентальных стихотворений И.Бунина: «Стон», «Путеводные знаки», «Зайнаб», «Ра-Озирис, владыка и света...», «За измену», «Могила в скале», «У публийских черных хижин...», «Отлив», «Магомет и изгнании».

В 1903-1906 гг. И.Бунин обращается к Корану. «Готовясь к поездке, Бунин изучал и Коран, читал книги о "святой земле" А.Олесницкого и Тышендорфа, книгу Тышендорфа для него переводила Вера Николаевна, читал он также книгу о Востоке французского ученого Масперо» (2). Непосредственные апелляции к тексту и авторитету Библии и Корана — постоянное свойство Бунина-очеркиста и поэта. Из Корана взяты многочисленные версии, имена, сюжеты, герои, эпитафии. Но это лишь внешние признаки «коранических» стихотворений Бунина. По существу, же, обращаясь к Корану, русский поэт становится не просто пересказчиком текста той или иной суры, а ее поэтическим толкователем. По-видимому, эта способность воспринять Коран как бы душой магометанина, оставаясь в то же время самим собой, сделать героем своего цикла духовного двойника Магомета — пророка ислама и поэзии — также во многом определила глубину проникновения Бунина «в знойную тайну Востока».

Говоря о том или ином кораническом персонаже, арабском феллахе, пастухе, бедуине, Бунин не просто проникает в мир действий, поступков, мыслей героя, но в своем постоянном стремлении к национальному преображению начинает уже «эстетически мыслить» категориями инационального, восточного образного ряда. Так, стихотворение «Магомет в изгнании» проникнуто тоской изгнанного пророка, и тоска эта раскрыта «изнутри», в той единственно возможной форме, которую избирает Бунин: «Скорбные слова его звучали, Как источник, позабытый, богом» (1.1.260). В стихотворении "Зеленый стяг" поэт передает особенность психологии мусульманина раба пророка, неистово проповедующего идеи Корана:

Проклят тот, кто велений Корана не слышит.

Проклят тот, кто угас

Для молитвы и битв, кто для жизни не дышит,

Как бесплодный Геджас.

Мерилом человеческой жизни являются "символы веры" (1.1.259).

Реальное же воплощение диалога Запада с Востоком – философия Френсиса Фукуямы и Мераба Мамардашвили, романы Г.Гессе и Ч.Айтматов, стихи С.Есенина и Р.Гамзатова, фильмы А.Курасавы и Т.Абдуладзе, т.е. произведения разных областей культуры, в которых воплощаются плоды идеалов, каждый из которых представляют человечество лишь частично и которые поэтому необходимы друг другу для полноты его, человечества, самоосуществления живого взаимопроникновения двух ментальностей, двух опытов, двух. Мир восточных культур – это магический космос, которому всецело подчинен человек как неотъемлемая его часть. Основная причина отличия Востока от Запада заключается в принципиальной разнице менталитета и психологии представителей двух цивилизаций. Развитие Востока представляет собой сплошную линию. Научно-исследовательская, познавательная деятельность для народов Востока всегда имела

самостоятельную ценность, независимо от практического применения. Тем не менее, Восток и Запад дополняют друг друга, придавая мировому культурному процессу глубину, всеохватность, многосторонность. При всем своеобразии культурного развития Востока и Запада, в обеих культурах выявляются универсальные вопросы и проблемы, во все времена волновавшие как восточные, так и западные умы. Решением этих проблем занимались все области культуры, в том числе литература. Однако попытки разрешить их предпринимались по-разному, исходя из особенностей восточного или западного менталитета.. Дидактизм, один из методов средневековой литературы как на Западе, так и на Востоке, выполнял различные функции: на Западе – орнаментальную (особенно в период позднего Средневековья), а на Востоке – нравоучительную.

Таким образом, «Восток» воспринимался сознанием эпохи не только в его соотношении с Западом и самобытностью России, но и как явление представляется здесь особенно примечательным – замечательная книга Д. Андреева «Роза мира», содержащая утопическую, по поэтическую и, несомненно, представительную в историко-культурном отношении концепцию объединения всех конфессий в одной, в общечеловеческой, религии.

Литература

1. Алимova Д.Х. Литературные взаимосвязи. Учебно-методическое пособие в двух частях.- Самарканд, 2009 г.
2. Бицилли П. М., «Восток» и «Запад» в истории Старого Света // Избранные труды по филологии. (1996)
3. Данилевский Н.Я. В.Соловьёв Россия и Европа. СПб., 1995.
4. Ерыгин А. Н. Восток. Запад. Россия. Ростов-на-Дону, 1993.
5. Замалеев А.Ф. Лекции по истории русской философии. СПб., 1995.
6. Алексеев М. П. Пушкин. Сравнительно-исторические исследования. – М., 1967.
7. Взаимосвязи и взаимодействия литератур: Материалы дискуссии. – М., 1961
8. Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М., 1979.
9. Особые межлитературные общности. – Т., 1993.
10. Лотман Ю. М. История и типология русской культуры. СПб.: Искусство-СПБ, 2002. С. 746.
11. Чумакова Т.В. «О человеках неизвестных в восточной стране» // Философский век. Альманах. Вып. 19. Россия и Британия в эпоху Просвещения: Опыт философской и культурной компаративистики. Часть 1 / Отв. редакторы Т.В. Артемьева, М.И. Микешин. СПб.: Санкт-Петербургский Центр истории идей, 2002. С. 232-238.
12. Челышев Е.П. Пушкин и мир Востока // Пушкин и мир Востока. М.: Наука, 1999. С. 15.
13. Жирмунский В. М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад / АН СССР. Отд-ние лит. и яз. Л.: Наука, 1979. - 493 с.
14. Фокеев АЛ. Этнографическое направление в русском литературном процессе XIX века. Истоки, тип творчества, история развития: дис. ... д-ра филол. наук . М. 2004. - 516 с.
15. Восточная литература. Средневековые исторические источники Востока и Запада. Режим доступа: <http://www.vostlit.info>.
16. Художественный перевод и сравнительное изучение культур: Памяти Ю. Д. Левина. СПб.: Наука, 2010. - 678 с.

UDK: 494.3

«DEVON» YUZASIDAN AYRIM TADQIQIY QARASHLAR

M.Misliddinova

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillarni qiyoslab o'rganish asosida yangi nazariya yaratuvchisi ekani ta'kidlanadi. Bunda uning so'z yasalishi, dialektlar, etnonimlar, so'zlarning ma'nolari, onomastika, grammatik shakllar, so'zlar etimologiyasi, tovushlar tahlili, yozuv tizimi, talaffuz me'yorlari, uslubiyat haqidagi fikrlari zamonaviy tilshunosligimiz nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, onomastika, dialekt, grammatik shakllar, etimologiya, etnonim, lahja.

Некоторые исследовательские взгляды на «Девон»

Аннотация. В данной статье отмечается, что Махмуд Кашгари является создателем новой теории, основанной на сравнительном изучении языков, принадлежащих к тюркской языковой семье. В нем анализируются его представления о словообразовании, диалектах, этнонимах, значениях слов, ономастике, грамматических формах, этимологии слов, звуковом анализе, системе письма, нормах произношения, методологии с точки зрения нашей современной лингвистики.

Ключевые слова: языкознание, ономастика, диалект, грамматические формы, этимология, этноним, диалект.

Some research views on “Dewan”

Abstract. In this article it is noted that Mahmud Kashgari was the creator of a new theory based on the comparative study of languages belonging to the Turkish language family. Here his thoughts on word-building, dialects, ethnonyms, meanings of words, onomastics, grammatical forms, etymology of words, analysis of sounds, writing system, norms of pronunciation, methodologies are analyzed from the point of view of our modern linguistics.

Keywords: word formation, dialect, ethnonyms, onomastics, grammatical forms, etymology of words, pronunciation, methodology.

Mahmud Koshg'ariy qomusiy olim. Uning «Devonu lug'otit turk» asari esa o'z navbatida qomus. Turkiy tillar sohasida birinchi marta qoidalar yaratgan bu olimning barcha nazariy fikrlari «Devonu lug'otit turk»dan o'rin olgan.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillarni qiyoslab o'rganish asosida yangi nazariya yaratgan olimdir. Bu narsa uning so'z yasalishi, dialektlar, etnonimlar, so'zlarning ma'nolari, onomastika, grammatik shakllar, so'zlar etimologiyasi, tovushlar tahlili, yozuv tizimi, talaffuz me'yorlari, uslubiyat haqidagi fikrlarida o'z ifodasini topgan.

«Devon»da morfologik va sintaktik kuzatishlar bilan bir qatorda fonetik kuzatishlar ham behisob. Mahmud Koshg'ariy fonetist olim sifatida turkiy tillar tarixiy fonetikasiga doir qimmatli nazariy fikrlar, amaliy jihatdan behisob manba qoldirdi. Tarixiy fonetikaning fan sifatida shakllanishiga muhim hissa qo'shdi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»i g'oyat qimmatli asar bo'lganligi bois turkolog olimlar S.E.Malov, A.N.Kononov, K.K.Yudaxin, A.M.Shcherbak va boshqalar, shuningdek, o'zbek olimlari uni tadqiq qildi va qilmoqdalar. Albatta bu borada yetuk olim S.M.Mutallibovning xizmatlarini alohida ta'kidlamoq zarur [22]. Olim keyinchalik akademik G'.A.Abdurahmonov bilan hamkorlikda «Devon»ning indeks lug'atini tuzdi [14.542].

Professor H.G'.Nematovning Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asari yuzasidan olib borgan ilmiy kuzatishlarini alohida e'tirof etish o'rinli bo'ladi [26; 27; 28].

Shuningdek XI-XIII asr yozma yodnomalari terminlari haqida professor H.Dadaboyev [13] ilmiy izlanishlar olib bordi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari bo'yicha 1973-yilda Farg'onada butunittifoq turkologlarining ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tdi. 2002-yilda «Devon»ga bag'ishlab Samarqandda xalqaro konferensiya uyushtirildi [19]. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish lozimki, olib borilgan tadqiqotlarda, «Devon»ning leksikasi va morfologiyasiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Ushbu asarning ilmiy ahamiyati haqida ko'plab fikrlar bayon etilgan. Ammo mashhur sharqshunos olim P.K.Juze «Devon» haqida quyidagilarni yozganda tamoman haqli edi: «Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganda ham, unga shon-sharaf bo'lardi. Mahmud Koshg'ariyning «Devon»i singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli «Turkiy qomus»dir» [16].

Ana shuning uchun ham ushbu asar oradan ming yildan ziyod vaqt o'tganligiga qaramasdan bugun dunyo ilmu ma'rifat ahlining nazarida turibdi. Har bir mamlakatning ilm ahli, soha mutaxassislari uni o'z xalqi manfaatlari nuqtai nazaridan o'rgandilar va shu ishni davom ettirmoqdalar.

Ushbu asarga bo'lgan munosabatning birinchi bosqichida tadqiqotchilar uni tarjima qilish bilan mashg'ul bo'ldilar. Natijada uning o'zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, uyg'ur, shuningdek, eron, ingliz, nemis, rus, xitoy tillaridagi tarjima variantlari yuzaga keldi. Bu xayrli ishlar hamon davom etmoqda. Dunyo ilmiy jamoatchiligi bu borada ulkan xizmatlari bo'lgan turkiyalik Besim Ataliy, o'zbekistonlik Solih Mutallibov, Alibek Rustamov, ozarbayjonlik Ramiz Esker, qozog'istonlik Asg'ar Agaboyev, uyg'ur Muhammad Fayzi va Ahmat Ziyoy, eronlik Husayn Muhammadzoda Siddiq, asarning rus tiliga tarjimasi bilan shug'ullangan turkolog S.E.Malov, angliyalik Robert Denkoff va Jimz Makkali, germaniyalik Karl Brokelmann va boshqalarning nomlarini hurmat bilan tilga oladi. Fan-texnika taraqqiyoti tufayli endilikda asarning elektron nusxalari tayyorlanmoqda va internet saytlaridan joy olmoqda.

«Devonu lug'otit turk»ga bo'lgan munosabatning ikkinchi bosqichi asarni ilmiy tadqiq etish bilan bog'liq. Bu borada olib borilgan va olib borilayotgan ishlar ko'lamini dunyo miqyosida belgilash mumkin. O'zbekistonlik olim J.Xudoyberdiyev xayrli bir ishga qo'l urib, Mahmud Koshg'ariy va uning «Devon»i tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzasidan kuzatishlar olib borgan, uning natijasi o'laroq «Mahmud Koshg'ariy hayoti va «Devonu lug'otit turk» asarining o'rganilishi» (Toshkent, 2010), «Mahmud Koshg'ariy hayoti va «Devony lug'otit turk» bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi» (Toshkent: «Akademnashr», 2011) asarlarini chop qilgan. Birinchisi 48 va ikkinchisi 160 sahifani tashkil etadigan bu kitoblar keltirilgan ma'lumotlar qamrovi, ularning mukammalligi va batafsil sharhlari bilan nihoyatda qimmatli manbalar hisoblanadi.

Chunonchi, Mahmud Koshg'ariy hayoti va ilmiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar ro'yxati va ularga berilgan izohlar ulug' alloma «Devon»i yuzasidan olib boriladigan har qanday kuzatishlarda soha tadqiqotchilarining mushkulini osonlashtiradi, ularni qo'shimcha izlanishlar va qaytariqlardan qutqaradi.

Ushbu asarlar tufayli dunyo miqyosida tadqiqotlar olib borgan koshg'ariyshunos olimlar haqida, ular yaratgan ilmiy asarlar to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'linadi. Mahmud Koshg'ariy faoliyati bilan bog'liq yuzaga kelgan ishlar ro'yxati 1800 ga yaqin. Bu juda katta raqam bo'lib, «Ko'rsatkich»da keltirilgan ma'lumotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin: mavzu doirasidagi eng ko'p tadqiqotlar turk (501), rus (393), o'zbek (309), ozarbayjon (164), turkman (147), ingliz (126) tillarida nashr etilgan. 20 tadan 40 tagacha bo'lgan ishlar nemis (37), uyg'ur (26), qozoq (22), xitoy (20) tillarida; 1 tadan 9 tagacha bo'lgan tadqiqotlar qirg'iz (9), tatar (5), fransuz (3), venger (3), yapon (3), boshqird (2), italyan (2), qoraqalpoq (2), tojik (2), ukrain (2), fors (1) tillarida chiqqan.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar uchinchi o'rinni egallagan. Aslida bema'lol turk tilshunosligidan keyin ikkinchi o'rinda deyishimiz mumkin. Chunki rus tilida yozilgan ishlarning 60 ga yaqini o'zbek tilshunoslari tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbek tilshunoslarining «Devonu lug'otit turk» yoki uning muallifi haqidagi amalga oshirgan tadqiqotlari haqida mulohaza yuritishda ham J.Xudoyberdiyev bizni vaziyatdan olib chiqadi. Chunki olim «Mahmud Koshg'ariy hayoti va «Devonu lug'otit turk» asarining o'rganilishi» asarining 21-31-betlari va «Tilshunoslikning dolzarb masalalari» ilmiy to'plamida (Toshkent, 2008) nashr etilgan «Devonu lug'otit turk»ning O'zbekistonda o'rganilishi» nomli 17 sahifalik maqolasi bevosita ana shu mavzuga bag'ishlangan.

J.Xudoyberdiyev kuzatishlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek fani tarixida mavzuga oid muallifi noma'lum bo'lgan, hozirda O'zFA qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan «Devonu lug'at so'zlari uchun fihrast» deb nomlangan qo'lyozma ilk tadqiqotlardan bo'lib hisoblanadi. «Devon» bilan shug'ullangan birinchi olim esa Abdurauf Fitratdir [29. 21-22].

Olim A.Fitratning «Sarf» (Samarqand-Toshkent,1927), «Eng eski turk adabiyoti namunalari» (Samarqand, 1927), «O'zbek adabiyoti namunalari» (Samarqand, 1928) asarlarini tahlil qilib, «Uning «Devon» bo'yicha yaratgan tadqiqotlari, kuzatishlarini nafaqat o'zbek ilmida, balki turkiyshunoslikdagi eng muhim ishlardan biri deb baholash mumkin», deydi [29.22].

«Devonu lug'otit turk»ning o'zbek kitobxonlari va tadqiqotchilariga yetib kelishida Solih Mutallibov qilgan xizmatlarni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Butun ongli hayotini ana shu asar tarjimasini va tadqiqiga bag'ishlagan olim salkam o'ttiz yil davomida «Devon» ustida ish olib bordi. Dastlab uni o'zbek tiliga tarjima qilib, uchta jild holida nashr ettirdi. Har bir jild avvali va so'ngida berilgan maqolalarning o'zi «Devon» tadqiqiga oid alohida asarlar bo'lib hisoblanadi. Masalan, birgina 1-jildning boshida berilgan «XI asrning buyuk filologlari va ularning noyob asarlari» nomli 32 betlik maqolasi [24.7-39] o'zbek tilshunoslari uchun yangilik bo'ldi.

«Devon»ni ilmiy tahlil etish va jamoatchilikka tanitishda akademik G'anijon Abdurahmonovning xizmatlari katta bo'ldi. S.Mutallibov bilan hamkorlikda «Devon»ning indeks-lug'atini yaratdi [18]. Maxsus tadqiqotlar olib bordi va tilshunoslikning boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham Mahmud Koshg'ariyga takror-takror murojaat qildi [1;2;3;4;5;6;7;8;9;10;11].

Shuningdek, «Devonu lug'otit turk» asarning tadqiq etilishida akademik A.N.Kononov, V.V.Bartold, S.E.Malov, E.N.Nadjip, A.M.Shcherbak, D.M.Nasilov, E.R.Tenishev, N.A.Baskakov singari rus turkologlarining; E.Fozilov, H.Hasanov, H.Ne'matov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov, X.Doniyorov, H.Dadaboyev, E.Umarov, A.Matg'oziyev, A.Nurmonov, I.Qo'chqortoyev, Q.Sodiqov, N.Rahmonov, H.Boltaboyev, J.Xudoyberdiyev kabi o'zbek olimlarining xizmatlari alohida bo'lgan. «Devon» va tilshunoslikning dolzarb masalalari xususida ular amalga oshirgan tadqiqotlar haqida J.Xudoyberdiyevning «Ko'rsatkich»ida batafsil ma'lumotlar berilgan.

S.Mutallibov «Devonu lug'otit turk»ni tarjima qilish va tadqiq etish jarayonida Mahmud Koshg'ariyni o'z davrining yirik fonetik olimi, degan xulosaga keladi [17.21-23]. To'g'ri, asarda fonetika maxsus bo'lim sifatida izohlanmagan, ammo har bir lingvistik birlikka sharh berish jarayonida u davr tili fonetikasi keng izohlangan. «Mahmud Koshg'ariy har bir tovush ustida maxsus tekshirish olib bordi va tilda bo'lgan har bir tovushni to'la ilmiy asosda o'rgandi», deb ta'kidlaydi S.Mutallibov. Binobarin, so'zlar etimologiyasi va ma'nolari tovushlarning fiziologik, akustik jihatlari, tushish, almashinish, singish kabi kombinatsion va pozitsion o'zgarishlari, tovushlar va harflar munosabati, unlilarning keng va torligi, cho'ziq va qisqaligi, undoshlardagi jaranglanish va jarangsizlanish, geminatsion holatlar, burun tovushlari talaffuzidagi alohida xususiyatlar, asosida tahlil etilgan. «Turkiy tillarda yozuvda qo'llanuvchi harflar o'n sakkiztadir, – deb qayd etgan Mahmud Koshg'ariy. – Holbuki, tillardagi tovushlar o'n sakkizta emas, ko'pdir. Bu o'n sakkiz harf etishmaydi. Bulardan

boshqa tilda bo'lgan tovushlarni berish uchun yana etti harf kerak. Lekin u harflar yo'q. U yetti tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo'yib yoziladi» [DLT.I,7-8].

S.Mutallibov Mahmud Koshg'ariyning fonetik qarashlarini yuksak baholadi va uning tilshunoslik sohasidagi faoliyatini ibrat namunasi qilib ko'rsatdi: «So'zlarning etimologiyasini aniqlash, juda ko'p qabilalar so'zlarini qiyosiy asosda tekshirish Mahmud Koshg'ariyga fonetik hodisalarining tilda tutgan alohida mavqeyini aniqlab berdi. U bu xususiyatni sinchiklab o'rgandi va birinchi marta bu haqda o'ziga xos qoidalar yaratdi. Fonetikani birinchi marta u mustaqil ilm sifatida izohlashga asos soldi» [17.23].

«Devonu lug'otit turk» haqida muhim qarashlarni bayon etgan yirik tadqiqotchilardan yana biri professor Xudoyberdi Doniyorov bo'lib hisoblanadi. Olimning rus tilida yozilgan «Опыт изучения джекющих (кипчакских) диалектов в сравнении с узбекским литературным языком» (Tashkent, 1975) hamda «Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari» (Toshkent, 1976) asarlarida masalaga oid mulohazalar mavjud.

Ma'lumki, Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar lahjalarida bo'lgan farqlarni ko'rsatib o'tgan va shunga ko'ra ularni guruhlagan edi. X.Doniyorov ana shu farqlarning asosida fonetik xususiyatlar yotadi, deb hisoblaydi va buning dalili sifatida Mahmud Koshg'ariyning o'ziga murojaat qiladi. «Tub so'zlarda o'zgarishlar kam bo'ladi. So'zlardagi o'zgarish harflarda, ba'zan harflarning almashuvida, tushuvidadir. Masalan, ع bilan boshlangan ot va fe'llarning bosh harfini o'g'uz ham qipchoqlar ا **alif** ga yoki ج ga aylantiradilar. Chunonchi, turklar musofirni يكن *jelkin* desalar, ular (o'g'uzlar) ألكرين *elkin* deydilar; turklar بلغ سؤف *ilig' suw* desalar, ular سؤف ايلغ *ilig' suw* deydilar. Shuningdek, turklar dur, marvaridni جىنجى *jinjy* desalar, o'g'uzlar جىنجو *jinju* deydilar» [DLT. I,66-67]. Mana shu mulohazalarga tayanib, X.Doniyorov o'sha «davrdagi uch til qatlamiga xos bo'lgan so'z boshidagi fonetik o'zgarish qonuniyati, ya'ni so'z boshida ع kelishi turklarga, so'z boshida ج kelishi asosan qipchoqlarga, so'z boshida ع yoki ج ning tushib qolishi esa asosan o'g'uz tillariga xos bo'lgan fonetik xususiyat ekanligi hozirgi davrga qadar ham saqlanib kelgan», degan fikrni o'rtaga tashlaydi va quyidagilarni yozadi: «Bulardan tashqari har bir qatlamning o'ziga xos boshqa fonetik xususiyatlari bo'lgan. Masalan, birinchi qatlamga xos bo'lgan bosh fonetik xususiyat so'z boshida kelgan bir «**alif**»ni «**x**»ga almashtiradilar (shunisi taajjubliki, bu xususiyat hozir ba'zi qipchoq shevalari va qozoq tilida uchraydi), shuningdek ular boshqa tillardan farqli tarzda «**r**»ni «**l**»ga, ba'zan «**z**»ni «**s**»ga, «**s**»ni esa «**z**»ga almashtiradilar va hokazo» [15.21-22].

Eng muhimi, X.Doniyorov Mahmud Koshg'ariyning «chigillarda د bilan aytiladigan so'zlar yag'mo, tuxsi, o'g'uz va Chinga qadar cho'zilgan erlarda yashovchi ba'zi arg'ularda ع bilan almashadi. Rungacha bo'lgan qipchoq va boshqa qabilalarda bu harf ز ga aylantiriladi» [DLT. I,68], degan fikriga tayanib quyidagi fikrni o'rtaga tashlaydi: «Demak, o'sha davrda turkiy urug' va qabilalar tillarida ba'zi fonetik xususiyatlarning umumiyligi vujudga kela boshlagan. ...O'rta Osiyo (Sharqiy va G'arbiy Turkiston) hamda Qozog'iston territoriyasida chigil, yag'mo, tuxsi kabi yetakchi qabilalar boshchiligida bir til gruppasi, o'g'uz va o'g'uz turkmanlari atrofida uyushgan ikkinchi bir til gruppasi va qipchoqlar hamda ularning ayrim katta urug'lari atrofida uyushayotgan uchinchi bir til gruppasining vakillari yashaganligi, hayot kechirganligi haqidagi gipotezani ilgari sursa bo'ladi. Bularga Runga yaqin joylarda yashovchi bulg'or, suvor va boshqirdlarning tillarini bir gruppada deb qo'shib sanasak, til gruppalarining soni to'rtta bo'ladi» [15.23]. Turkiy qavmlar tilidagi fonetik farqlar olimning ana shunday xulosa chiqarishiga asos bo'lgan. Ushbu fikrning davomida X.Doniyorov gipotezani «Devon»da keltirilgan boshqa morfologik kategoriyalar ham tasdiqlashligini aytadi.

Mahmud Koshg'ariyning fonetikaga oid qarashlarini keng tahlil qilgan yana bir olim A.Nurmonovdir. Uning «O'zbek tilshunosligi tarixi» asarida «Mahmud Koshg'ariyning lingvistik qarashlari» degan bo'lim va «Fonetik qarashlari» nomli kichik bo'limi mavjud. A.Nurmonovning qayd etishicha, Mahmud Koshg'ariy hozirgi tilshunoslikda *fonema* atamasi bilan yuritiluvchi fonologik birlikni, tovush tipini juda yaxshi farqlagan. Eng kichik fonetik

Shuningdek, olim Mahmud Koshg'ariyning **alif, vov, yo** belgilari bilan ifodalangan unli tovushlarning akstik xususiyatlari haqida so'zlagan o'rinlarda *imola* terminini qo'llaganligini va bu atamaning **a:, e:, o:, o, u:, y, ы:, i:** cho'ziq unllariga nisbatan iste'mol qilinganligini ta'kidlagan [20.51]. Mana shu tarzda, Q.Mahmudov asarning deyarli barcha o'rinlarida Mahmud Koshg'ariyga murojaat qilgan va uning fonetikaga oid qarashlariga tayanib ish ko'rgan.

Q.Mahmudovning o'zaro davrdosh bo'lgan «Devonu lug'otit turk» va «Tafsir» tilida ayrim undoshlar hodisasi» maqolasida O'rta Osiyo «Tafsir»i deb nomlanadigan yozma yodgorlik bilan «Devonu lug'otit turk» fonetik jihatdan qiyosiy tahlil etilgan. «Bu yozma yodgorliklar tilida qo'llangan ayrim undoshlarning kombinator o'zgarishlarga uchrashi va pozitsion holatlarida o'zaro yaqinlik mavjud», deb yozadi olim [21.46].

Q.Mahmudov bayon etishicha, «Devonu lug'otit turk» va «Tafsir» tilida tish-tish tanglay til oldi undoshi **ذ (z)** bir xil yoziladi: **ذ شْ** *adash* - **اذيشْ** *azash* (DLT), **ايدسى** *idisi* - **ايدسى** *izisi* (Tafsir) kabi. Shuningdek, **ذ (z)** undoshi bir bo'g'inli asl turkiy so'zlarning auslaut pozitsiyasida keng yoki tor unllardan so'ng kelib, turli kombinator o'zgarishlarga uchragan. Bu fonetik hodisa ham har ikki manba uchun xarakterli: **ذ** *tod* (DLT) - **ذوزْ** *toz* kabi. «Bunday fonetik hodisaning «Devonu lug'otit turk» va «Tafsir» tilida yuz berishi tasodifiy hol emas. U XI-XIV asrlarda yozilgan barcha yozma obidalar uchun ham xarakterli bo'lib, o'sha davr til xususiyatlarini aks ettiradi» [21.47].

Masalan, **ذ (z)** undoshining sonor **y** ga o'tishi bu ikki asar bilan birga o'sha davrdagi boshqa manbalarda uchraydi: **ذ** *qazg'u* - **ذ** *qayg'u* (Hayrat ul-abror); tish-tish tanglay **ذ (z-zol)** tovushi keyinchalik jarangli **ز (z-ze)** tovushiga o'tgan: **ذ** *jaz* - **ذ** *yaz* kabi. Bu manbalar uchun xarakterli bo'lgan **ذ (z)** eski o'zbek tili davriga kelib sayoz til orqa **g** tovushiga o'tishi ham uchraydi: **ذ** *izi* (DLT), **ايزى** *izi* (Tafsir), **ايا** *eye* (Tafsir), **ايكا** *ege* (SHajarai turk) kabi.

Muallif, **d/z/y** holatlari ayrim turkiy tillarda (xakas, shor, yoqut) davom etib kelayotgan bo'lsa, o'zbek tilida bir qadar turg'unlashib, *quduq, qadaq, ezgu* kabi rudiment holatni hisobga olmaganda deyarli **y** tovushiga o'tib ketganligi ta'kidlaydi [21.49].

Abstract. Nasiriddin Muhammad Humayun, a descendant of Babur, made a great contribution to the development of the literary environment of the Baburids in India in the XVI th century. First of all, as a representative of this literary milieu, he wrote in Persian and Turkish under the pseudonym "Humoyun", created a work on Islamic teachings, the science of nujum, music and poetry "Nushai Humoyuni", founded the Baburi school of miniatures. He then came to India in the second quarter of the 16th century and supported them as a patron of writers and artists who tried to create, establishing literary ties with his native Movarounnahr. According to literary and historical sources, the development of the literary environment of India, founded by Babur, is directly related to the activities of Humayun Mirza.

Keywords: the literary environment of Baburis, the literary heritage of Humayun Mirza, bilingualism, gazelles and rubays, literary and historical sources, romantic and sufi themes, exile and strangeness.

Boburiy hukmdorlardan Nosiriddin Muhammad Humoyun (1508-1556) Hindistonda boburiylar adabiy muhitining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan davlat arbobi, shoir,

boburiylar miniatyura maktabining asoschisidir. Hindistonda XVI asr ikkinchi choragidagi adabiy muhit rivoji bevosita Humoyun Mirzoning hukmronligi va ilm-fan, san'at, adabiyotga homiyligining natijasi edi. Humoyun Mirzo ham otasi Bobur boshlab bergan an'analarga alohida e'tibor qaratdi. Natijada Hindistonga kelib ijod qilishga harakat qilayotgan adib va san'atkorlar safi borgan sari kengayib bordi. Bu haqda Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Xondamirning "Habib us-siyor", Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Faxriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin", Seydi Ali Raisning "Mir'otul mamolik" kabi asarlarida alohida urg'u berilgan [2, 6, 9, 10, 11, 14]. Uning forsiy g'azallari o'rin olgan notugal qo'lyozmasi fanga ma'lum bo'lsa-da, turkiy she'riyoti deyorli bizga etib kelmagan. Hattoki, o'z hukmronligi davrida turkiy tilga e'tibor bermaganligi va bu tilda ijod etmaganligi haqida asossiz qarashlar mavjud. Mazkur maqolada tarixiy, adabiy manbalar asosida mana shu munozarali masalaga munosabat bildirildi, Humoyun Mirzo haqidagi ma'lumotlar umumlashtirildi.

Boburiylar adabiy muhitining taraqqiyotida Humoyun Mirzoning tutgan o'rni, uning forsiy va turkiy tildagi she'riyotiga doir fikrlar adabiy-tarixiy manbalar asosida berildi. Bunda Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Xondamirning "Habib us-siyor", Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Faxriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin", Seydi Ali Raisning "Mir'otul mamolik" kabi tarixiy, tazkira asarga tayanildi. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Humoyun Mirzo fan, madaniyot, adabiyotga ixlosmand, ayniqsa, riyoziyot va nujum ilmiga g'oyot qiziquvchan, kitobga oshno, musiqani qadrdovchi inson bo'lgan. Jumladan, Sodiq Kitobdorning "Majma'ul-havos" asarida yozilishicha, Humoyun nihoyotda saxovatpesha, kutubxonaga alohida e'tibor qaratgan ma'rifatli hukmdor bo'lgan [4; 649]. Adabiyotshunos va matnshunos olim S.G'anievaning Mutribiy Samarqandiyning "Nusxai zeboyi Jahongir" nomli tazkirasiga tayanib bildirgan fikrlariga ko'ra, Humoyun Mirzo "Nusxai Humoyuniy" nomli asar yoratgan. Mazkur asarning qo'lyozmasida Humoyunning to'rt risolasi o'rin olgan: 1) islom aqidalariga haqida; 2) ilmi nujum haqida; 3) musiqiy ilm haqida; 4) she'r ilmi, aruz fani haqida [13]. Ustoz olimaning ta'kidlashicha, Mutribiy mazkur asarni ("Nusxai Humoyuniy"ni – X.G.) Abdullaxon kutubxonasida ko'rgan va asar muallifning dastxatida bitilgan, tengi yo'q, ko'ngilga yoqimli, hayratlanarli asar ekanligini yozib qoldirgan.¹

Shuningdek, u forsiy va turkiyda "Humoyun" taxallusida ijod qilgan. Uning forsiy g'azallari bizgacha etib kelgan 19 varaqdan iborat, bir notugal qo'lyozmada o'rin olgan. Bu qo'lyozma Istanbul shahridagi Sulaymoniyo kutubxonasining "Husayn Posho" fondida 569 raqamda saqlanadi [4; 649]. Abulfazlning "Akbnoma" asarida Humoyunning ruboiylaridan namunalar berilgan. Uning turkiy tildagi she'riyoti haqida munozarali fikrlar bor. Hindistonlik olim M.G'anining ma'lumotiga ko'ra, "Humoyun turkiyni nazar-pisand qilmaganligi uchun bu til tez orada hind adabiy davralarida o'z o'rnini yo'qota boshlagan" [5;70, 8;124]. Olim ushbu fikrlarni qanday ilmiy asosga tayanib bildirmoqda, bu fikrlar qay darajada haqiqatga yoqin, bu – bizga noma'lum. Holbuki, bir necha tarixiy manbalardagi ma'lumotlar olimning fikrlarini rad etadi [8;124, 12;256-258, 4;649]. Jumladan, Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarida shunday yozadi: "Va bu turkiy matla' ham podshohning oliy maqolotidandir. Matla'":

Menki bulbuldek gulidin kuymisham ohang ila,
O't solibtur jonima ruxsorai gulrang ila" [14; 57].

¹ Lekin bu asarning qo'lyozmasi hozircha topilgan emas.

Sodiq Kitobdorning “Majma’ul- havos” asarida esa uning turkiy tilda yozilgan quyidagi ikki bayti o‘z davrida nihoyotda keng tarqalgan va mashhur bo‘lganligi ta’kidlangan:

G‘ariblig‘ g‘amidin mehnatu malolim bor,
Bu g‘amdin o‘lmakka etdim g‘arib holim bor,
Visoli davlatidin ayrilibmen mahzun,
Tirikmenu bu tiriklikdin infiolim bor [7; 33].

Yona bir manba muallifi Som Mirzoning yozishicha, “Humoyun turkiyda ham juda nozik did bilan ash’or yozgan”[1; 24-25]. Shunday ekan Humoyunning turkiyda ijod etmaganligi haqidagi fikrlar asossizdir.

Biz tadqiqotga tortgan turkiy tildagi adabiy matnlarimiz ichida Humoyun Mirzoning yuqoridagi baytlaridan tashqari, 2 ta g‘azal va 6 ta ruboiysi bor. Bu she’rlar professor Suyuma G‘anievaning “Otameros baytlar” nomi ostida “Xurshid Davron kutubxonasi”ning internet saytida 2015 yil 9 aprelda berilgan [13]. Xuddi shu she’rlar “ziyouz.uz” internet sahifalarida ham chop etilgan [15]. Hozircha bu she’rlar manbasi bizga noma’lum. Bizningcha, mazkur she’rlar Humoyun Mirzoning forsiy she’rlarining turkiy tilga tarjimasi. Ushbu fikrga kelishimizga sabab she’rlar vaznidagi ayrim g‘alozliklarning uchrashi va til xususiyotlari. G‘azal va ruboiylar til xususiyotiga ko‘ra XVI asr turkiy (o‘zbek) tili xususiyotlaridan ko‘ra, o‘zbek tilining bugungi holatiga juda yoqin. Ushbu taxminiy fikrga kelishimizga yona bir sabab Faxriy Xiraviyning “Ravzat us-salotin” asaridagi ma’lumotlardir. Asarda Humoyun Mirzo haqida ma’lumot berilar ekan, uning 2 ta forsiy ruboiysi berilgan. Ulardan birining matnini keltirsak:

Har dam z-firoqi tu malolist maro,
Har ruz z-hijroni tu solist maro.
Xolist ba g‘urbatamki, natavon guftan,
Subhonullohki, g‘arib holist maro.

[Yo‘ki

Xar damda firoqingdan menga malollik etadi,
Hijroningning har kuni menga yilga teng.
G‘urbatlikdagi holim shu qadarki, aytib bo‘lmas,
Subhonullohki mening holim g‘aribdir². [10; 70]

Biz yuqorida tilga olgan internet saytlaridagi 6 ta ruboiydan birining matni ayni ana shu ruboiyning mazmuni bilan deyorli bir xil. Ruboiy:

Bir lahza firoqing menga ozoru malol,
Hajringda kunim mashaqqatu zahmu zavol.
G‘urbatda kechar bo‘ylaki holim, so‘rma,
Subhonolloh, ne kelur boshima hol. [13, 15]

Ko‘rinadiki, mazkur ikki ruboiyda ham lirik qahramonning hijron, ayriliq tufayli ahvolining g‘aribligi, g‘urbatda kechayotgan umri tasvirlangan. Shoir g‘urbat, g‘ariblik mavzusiga alohida e’tibor qaratgan. Sodiq Kitobdorning “Majma’ul- havos” asari orqali bizga ma’lum bo‘lgan turkiy tilda yozilgan “G‘ariblig‘ g‘amidin mehnatu malolim bor” misrasi bilan boshlanuvchi yuqorida keltirilgan to‘rtligi ham ayni shu mazmunda. Mazkur to‘rtlik uslub jihatdan sodda, ravon. Ma’lumki, g‘ariblik mavzusi o‘zbek adabiyotida yongilik emas. Navoiyning “G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish”, Boburning “Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiylari ham ayni g‘ariblik haqida. Lekin Humoyun Mirzo misralari har ikkala ustoz ijodkor misralaridan farqliroq. Chunki hazrat Navoiy va Bobur ruboiylarida g‘urbatdagi (musofirlikdagi) g‘arib (bechora, bewatan,

² Tarjima adabiyotshunos olim J.Jo‘rayevniki.

kimsasiz kishi)ning ahvoli tasvirlansa, Humoyun Mirzoning gʻariblik ahvoli maʼshuqaning “Visoli davlatidin” ayrilganligiga bogʻliq. Humoyun Mirzo lirik qahramoni gʻariblik (bechora va holsizlik) gʻamidan azob-uqubatga toʻlgan, hatto shu gʻamdan oʻlim ostonasiga kelib qolgan. Bunga sabab yor visolidan ayrilishi. Shunda ham oshiq tirik, lekin bu tiriklikdan u xijolatda.

Humoyun Mirzoning sheʼrlarining aksariyoti oshiqona va orifona mavzuda. Yuqorida “Menki bulbuldek gulidin kuymisham ohang ila” misrasi bilan boshlanuvchi turkiy baytining mazmuni ham ayni oshiqona. Anʼanaviy mavzu (ishq)ning anʼanaviy obrazlar (bulbul, gul) yordamida yoritilishi Humoyun Mirzoning mumtoz anʼanalarga qay darajada izdoshligini koʻrsatadi. Bu jihatdan uning “Bir boqdimu boz tashnayi diydor boʻldim”, “Bir pari ruxsoraga tushdi ishim” misralari bilan boshlanuvchi ikki gʻazali ahamiyotli. Internet sahifalaridan olingan ushbu 2 gʻazal ham oshiqona mazmunda boʻlib, XVI asr oʻzbek mumtoz sheʼriyatining Bobur nomi bilan bogʻliq uslubiy jihatlarini oʻzida qamragan.

Birinchi gʻazal:

Bir boqdimu boz tashnayi diydor boʻldim,
Ey shoʻx, yona senga giriftor boʻldim.

Osuda edim, tun-kecha uyqumda koʻrib,
Faryod chekib, lahzada bedor boʻldim.

Koʻnglimga dedimki, bas, hamon sabr ayla,
Sabr etmadi ul, xastayu bemor boʻldim.

Yoʻq erdi hushim, oʻylaki, yodimga tushib
Ul nozli nigohing, yona hushyor boʻldim.

Gul berdi Humoyunga uforing xabarin,
Gulzor demagil, gulga sazovor boʻldim

Ikkinchi gʻazal:

Bir pari ruxsoraga tushdi ishim,
Ul sabab koʻnglimda bordir otashim.
Chehrasi xonamni ravshan ayladi,
Partavi birlan yoritdi mahvashim.
Talpinur koʻnglim hamisha ul tomon,
Tortadir koʻnglimni zebo, dilkashim.
Menga boʻlgaymu muyossar, ey pari,
Kokiling boʻynimga bir dam chirmashim.
Ishqdin mastdir Humoyun, koʻp qiyin,
Ey sanamlar, oʻzni hushyor aylashim. [13, 15]

Har ikki gʻazal ham 5 baytdan iborat boʻlib, lirik qahramoni – Oshiq. Uning maʼshuqa hajrida ozor chekishi, xastalanishi, maʼshuqaga kundan kun ipsiz bogʻlanishi, yor vaslidan umidvor boʻlishi, unga intilishi kabi anʼanaviy tasvirlar ixcham hajm va sodda, ravon uslubda ifodalangan.

Humoyun Mirzoning internet sahifalarida berilgan 6 ruboiysidan 2 tasi ishqiy, 4 tasi diniy-orifona mazmunda. Jumladan, “Yo Rab, menga darvesh dilidin ehson ber”, “Men hechmanu yoʻq menda magar rutbayu nom,” misralari bilan boshlanuvchi 2 ruboiysida ijodkorning Yoratgan Haqqa murojaati, unga bandalik tazarruʼsi sezilsa, quyidagi 2 ruboiysida paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.) alayhissalom taʼrifi berilgan, tavsiflangan:

Sultoni sariru anbiyo ham sen Oʻzing,
Xurshidi sipehri avliyo ham sen Oʻzing.
Mardum hama payravi tariyqing, ne ajab,
Xalq sharriga gohi rahnamo ham sen Oʻzing.

YOna bir ruboiy:

Ey sarvari koinot, ey asli vujud,
Haqqoki, o‘zing habibu hayyu ma’bud.
Turgil-da, jamoli olamoro ko‘rsat,
Olam eliga baski o‘zingsen maqsud.[13, 15]

Bu esa Humoyun Mirzo e‘tiqodining o‘ziga xos tasviridir. Agar biz ruboiyning janriy xususiyotlaridan kelib chiqib yondashsak, unda hayotiy, falsafiy, diniy-tasavvufiy umumlashmalarning berilishi tabiiy. Bu esa Humoyun Mirzoning ijodkorlik mahorati, shoirlik iqtidori qay darajada ekanligini ko‘rsata oladi.

Ko‘rinadiki, boburiyozda hukumdor, shoir Humoyun Mirzo o‘zining hukmronlik va ijodkorlik faoliyoti davomida Bobur tomonidan Hindistonda vujudga kelgan adabiy muhitning rivojiga katta hissa qo‘shgani holda ana shu adabiy muhitning zullisonayn vakili sifatida forsiy va turkiy tilda ijod qildi, har ikki tilda bir-birini to‘ldiruvchi, ijodkorlik mahoratini ochib beruvchi g‘azal va ruboiylarni meros qilib qoldirdi. Garchi uning turkiy tildagi she‘riyoti bizga deyorli etib kelmagan bo‘lsa-da, mavjud adabiy matnlar va tarixiy manbalardagi ma’lumotlar asosida shoirning bu tilda ham xuddi forsiydagidek mahorat bilan ijod etganini dadil aytishimiz mumkin. Shuningdek, ijodkor adabiy merosi qo‘lyozmalarining mamlakatimiz va xorijiy sarhadlardan topilishi, tadqiq etilishi kelajakda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan muhim vazifalardandir.

Adabiyotlar

1. Алиев Г.Ю. Байрамхон – туркменский поэт. – Ашгабад. «Туркменистон», 1969. –Б. .
2. Гулбаданбегим Заҳириддин Бобур қизи. Хумоюннома. //Форс тилидан С.Азимжонова тарж.- Т.: “Маънавият”, 1998. – Б.104.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. “Шарқ”, -Т.: 2002. – Б.336.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. –Т.: “Sharq”, 2014. - Б.744.
5. Иномхожиев Р. XVI аср Ҳиндистон адабий ҳаётида туркий-форсий икки тиллилик. –Т.: Фан, 1993. – Б.208.
6. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: “Sharq”, 2010. – Б.720.
7. Низомиддинов И. Маданий ҳамкорлигимиз саҳифаларидан. -Т.: «Фан», 1987.- Б.54.
8. Низомиддинов Н. Буюк Бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср).–Т.:“Fan va texnologiya”, 2012, - Б.516.
9. Сейди Али Раис. Миръотул мамолик. –Т.: ЎзФА нашриёти, 1963.
10. Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин. Жавоҳир ул-ажойиб. –Т.: «Mumtoz so‘z»,2014. – Б.192.
11. Хондамир. Ҳабиб ус- сияр. Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи И.Бекжонов. - Т.: «Sharq», 2011.- Б 304.
12. Қаюмов А.Асарлар. 10-жилд. (Ҳинд адабий сарманзиллари). –Т.: “Mumtoz so‘z”, 2010. – Б.304.
13. Ғаниева С. Отамерос байтлар. Хуршид даврон кутубхонаси. Электрон кутубхона. Adib: O‘zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati 09.04.2015
14. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. Тазкира.-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.344.
15. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/humoyun-mirzo/>.

UDK: 494.3

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA SOXTA XABARLAR

S. S. Botirova Abduraxmonova

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada "soxta", "manipulyatsiya", "soxta xabarlar" tushunchalari haqida soʻz boradi. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, koronavirus pandemiyasi bilan bogʻliq vaziyat yangi virus, uning tarqalishi, oʻlimga olib kelishi va emlash oqibatlari haqida koʻplab soxta ma'lumotlar paydo boʻlishiga ta'sir koʻrsatdi. Soxta yangiliklarning mohiyati ularni manipulyatsiya vositasi sifatida ishlatish imkonini berishiga alohida e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy tarmoqlar soxta narsalarni yaratish va tarqatish platformasiga aylandi. An'anaviy va onlayn ommaviy axborot vositalari reytinglarni va ularning auditoriyasini yoʻqotmaslik uchun qayta nashr etadi va yolgʻon ma'lumotlarni taqdim etadi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklarga ishonch pasayishda davom etmoqda. Shuningdek, soxta yangiliklarning mohiyati ulardan manipulyatsiya vositasi sifatida foydalanishga imkon berishi ma'lum boʻldi, chunki ulardagi yolgʻon ma'lumotlar chalgʻituvchi boʻlishi mumkin, bu esa mohiyatan manipulyatsiya hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: soxta yangiliklar, ishonchlilik, ma'lumot, manipulyatsiya, ijtimoiy media, soxta yangiliklar, faktlarni tekshirish, yolgʻon ma'lumot, uydirma.

Фейковые новости в СМИ

Аннотация. В статье рассматриваются понятия «фейк», «манипуляция», «fake news». В ходе исследования выявлено, что ситуация пандемии коронавируса повлияла на возникновение большого количества фейков о новом вирусе, способах его распространения, летальности и последствиях вакцинации. Особое внимание уделено тому, что сущность фейковых новостей позволяет использовать их как инструмент для манипуляции. Социальные медиа стали площадкой для создания и каналом для распространения фейков. Традиционные и онлайн СМИ перепечатают и предоставляют недостоверную информацию, чтобы не потерять рейтинги и свою аудиторию. Таким образом, доверие к новостям из социальных сетей и онлайн СМИ продолжает падать. Также было выявлено, что сущность фейковых новостей позволяет использовать их как инструмент для манипуляции, поскольку недостоверные сведения в них способны вводить в заблуждение, что уже по сути является манипуляцией.

Ключевые слова: fake news, достоверность, информация, манипуляция, социальные медиа, фейковые новости, фактчекинг, недостоверная информация, фабрикация.

Fake news in the media

Abstract. In this article, the author considers the concept what means the words "fakes", "manipulation", "fake news". A classification of fakes was made and a recommendation manual was given on how to distinguish fake news from real, "truthful" news. Information verification is an important part of being in the media space. The endless stream of news sometimes makes it impossible to analyze every nuance, so you have to prioritize. However, it is important not only to learn how to correctly select and pay close attention to those parts of the materials in which there may be a potential error or deliberate distortion, but also to understand exactly how this information can be verified. At the same time, most users do not have a clear algorithm by which it would be possible to verify the information received, therefore, developments and research in this area are relevant. Social media has become a platform for creation and a channel for the spread of fakes. Traditional and online media reprint and provide inaccurate information so as not to lose ratings and audiences. Thus, confidence in news from social networks and online media continues to fall. It was also revealed that the essence of fake news allows you to use it as a tool for manipulation, since inaccurate information in them can be misleading, which is already essentially manipulation.

Keywords: authenticity, information, manipulation, social media, fake - news, factchecking, inaccurate information, fabrication.

So'nggi paytlarda soxta ma'lumotlar (yoki ularni "noto'g'ri", "noto'g'ri", "sifatsiz" xabarlar yoki ma'lumotlar deb ham ataladi) soni nisbiy emas, balki mutlaq darajada sezilarli darajada oshdi. Bu "feyk bum" muammoni o'z-o'zidan dolzarb qilib qo'yadi, biroq bugungi kunda jamiyat va media muhitida yolg'on ma'lumotlarning rolini o'zgartirish va uni "feyk yangiliklar" deb nomlangan yangi hodisa sifatida ta'kidlash haqida gapirish kerak. Hozirgi vaqtda bu uzatilayotgan ma'lumotlardagi zararsiz yagona xato emas, balki global miqyosda qasddan manipulyatsiya qilish uchun faol vositadir. Noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlardan foydalanishning maqsad va vazifalari, shuningdek ulardan foydalanishga yondashuvlar va ularni uzatish oqibatlari o'zgardi.

Lug'at mualliflari tomonidan 2017 yilda "soxta xabarlar" iborasi Collins English Dictionary yil so'zi deb topildi. Endi bu ibora kamroq qo'llaniladi. Umuman olganda, nutq yoki qidiruv so'rovlarida foydalanish chastotasi dunyodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog'liq. Koronavirus pandemiyasi virus, uning sabablari va oqibatlari haqida yangi feyklarni ishlab chiqarish uchun bahona yaratdi.

Zamonaviy tadqiqotchilar "soxta yangiliklar" tushunchasiga turli xil ta'riflar berishadi. Bundan tashqari, "post-haqiqat", "soxta", "feyk xabarlar", "mish-mishlar", "dezinformatsiya", "soxtalashtirish", "aldash" va "yolg'on" kabi ko'plab atamalar turli mualliflar o'rtasida kesishadi yoki bir-birini tavsiflaydi. .. Bu olimlar ushbu tushunchalarni turli kontekstlarda ko'rib chiqishlari bilan bog'liq. Xuddi shu inglizcha "soxta" so'zi "yangilik" ga qo'shib, "soxta" yoki "soxta" deb tarjima qilinadi, aslida biz "soxta" yoki "ishonchsiz" yangiliklarni tashkil qiladi (garchi bu ta'rif shunchaki "soxta" dan ancha kengroqdir).

"Oxirgi yillarda OAV axborot uzatish kanallaridan ham ko'ra fikr almashish vositasiga aylanib qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda borgan sari blogerlarning faoliyat ortib, jamoatchilik yetakchilarining fikrlari auditoriyani an'anaviy OAV va internet axborot resurslaridan sekin-asta tortib olmoqdalar. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, foto va video xostinglarda omma e'tiboriga havola etilayotgan materiallar foydaluvchilar orasida keng muhokama qilinyapti. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari borgan sari tekshirilmagan yoki mish-mishlarga asoslanib tarqatilayotgan axborot manbalariga aylanib qolmoqda. Yolg'on yashiriq, uydirma, soxta ma'lumotlardan iborat bunday axborotlar jurnalistikada "feyk yangiliklar" deyiladi [16].

Bugun qulog'imizga "feyk", "fake news" iboralari tez-tez chalinmoqda. Termin sifatida ular yaqin o'tmishda iste'molga kiritilgan bo'lsa ham, yolg'on axborot tarqatish ancha uzoqqa borib taqaladi. Feyklarning avj olishi bir tomondan ommaviy axborot vositalarining professionalizmiga, boshqa tomondan esa axborot iste'molchilarining mediasavodxonligiga bog'liq masaladir. O'tgan yili Stenford ta'lim maktabi biriruvchisi o'z tengdoshlari orasida bir so'rov o'tkazib, natijalarni e'lon qildi. Unga ko'ra bitiruvchilarning 80 foizi reklamani xabardan farqlay olmagan. Afsuski, kattalar orasida ham mediasavodxonlik darajasi yaxshi emas. Internet va ijtimoiy medianing rivojlanib borishi natijasida har bir axborot iste'molchisi ayni vaqtda axborot tarqatuvchi, xalq jurnalisti rolini ham bajarmoqda. Inson birgina barmoq harakati bilan kelib chiqishi shubhali xabarni minglab odamlarga yetkazishi mumkin. Savol tug'iladi: shu ishi bilan u halokatli dezinformatsiya zanjirining bir halqasiga aylanib qolmadimi? Misol uchun, 2016 yilda Pew ta'lim fondi o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, so'rovda ishtirok etgan voyaga yetgan insonlarning to'rtidan bir qismi yolg'on xabarlarini tarqatishga iqror bo'lgan. Professional tayyorgarlik ko'rgan jurnalistlar va muharrirlar jamoasidan iborat OAV yo'g'on xabarlarining fosh etuvchisi bo'lishi kerak. Afsuski, ko'p holda OAVning o'zi feyklar qaromog'iga ilinadi, internet tarmoqlarida tarqalgan xabarlarini tekshirmay qayta bosib yuborish hollari hatto obro'li nashrlarda ham kuzatilmoqda. Bugungi kunda feyklar orqali ommaviy qirg'inlar tashkillashtirilayotgani, insonlar yot g'oyalarga ergashtirilayotgani, yolg'on xabarlar bilan jamoatchilik ongi manipulyatsiya qilinib, jamiyat hayoti uchun muhim masalalarning yechimi chigallashtirilayotgani, jamiyat a'zolari orasiga nifoq solinayotgani, fuqarolar va davlat o'rtasida ishonchsizlik paydo qilinayotgani hech kimga sir emas. Yolg'on xabarlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga va maishiy hayotga salbiy ta'siri shu darajada ortib ketdiki, endilikda muammo global ahamiyat kasb etib, xalqaro miqyosda feyklarga qarshi qonuniy kurash jarayoni jadallashtirib boryapti. Endilikda feyklarga qarshi kurashda qonunchilikni takomillashtirish, OAV va boshqa axborot tarqatuvchilarning ma'suliyatini kuchaytirish va fuqarolarning mediasavodxonligini oshirish masalalari kun tartibida turibdi.

Feyklar yil sayin ko'paymoqda. Tahlillarga ko'ra, 2021 yilda e'lon qilingan feyk materiallar soni 39 foizga ortgan. OAV va Internetga ishonch inqirozi kuzatilmoqda. AQSH jamoatchilik fikrini o'rganish instituti Gallupning ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda Amerika OAVga jamoatchilik ishonchi 32 foizga tushib ketgan, bu ushbu reyting tarixidagi (1972 yildan beri) eng past ko'rsatkichdir. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bu holat rasmiy manbalarga bo'lgan ishonchga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi (ma'lumot qayta-qayta tasdiqlanganiga qaramay, jamoatchilik unga ishonmaydi). Feyk materiallarga qarshi kurashni davlat darajasida amalga oshirish payti keldi. Feyklar bilan qonunchilik orqali kurashish – keying yillar xalqaro miqyosda avj olib borayotgan tendensiyadir.

S. N. Ilchenkoning [2:25] ta'kidlashicha, “feyk – bu real faktlar va empirik voqelikka mos kelmaydigan, ishonchsiz va tekshirilmagan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan jurnalistik xabardir”. A.P. Suxodolov [5:86] ta'kidlaydiki, "soxta" tushunchasi juda keng, chunki u soxta matnlar, fotosuratlar, audio yoki video yozuvlardan tortib "burilish" holatigacha bo'lgan butun ob'ekt va hodisalarni o'z ichiga oladi. bir kishining yoki biron bir asarning shon-shuhratini oshirib yuborish. Suxodolov “soxta yangiliklar”ni oddiy yangiliklardan farq qilib, uni ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumot xabari sifatida ko'rsatib, “soxta xabarlar” haqiqiy yangilik kabi stilistik tarzda yaratilgan, ammo to'liq yoki qisman yolg'on xabardir” deb ta'kidlaydi.

S.S. Raspopova va E.N. Bogdan [4:48] soxta yangiliklarga quyidagi ta'rifni beradi - "bular uydirma xabar materiallari bo'lib, ulardagi yolg'onlari taniqli va tekshirilishi mumkin, ammo ular tomoshabinlarni chalg'itishga qodir".

Shunday qilib, soxta - bu to'liq yoki qisman buzilgan ma'lumotlar. Odatda, agar ma'lumot tasdiqlanishi, isbotlanishi yoki haqiqatga mos keladigan bo'lsa, haqiqat deb ataladi. Bunday vaziyatda faktlarni to'g'ri ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Faktlar deganda qog'oz yoki raqamli tashuvchilarda (hujjatlar yoki foto, video, audio yozuvlar) yozilgan ishonchli bilim tushuniladi.

Oxirgi uch yil davomida ommaviy axborot vositalarida yolg'on ma'lumotlarning tarqalishi muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Soxta yangiliklarning mohiyatini o'rganish zaruratining asosiy sababi – auditoriyaning nafaqat an'anaviy OAVga, balki tarmoq makonidagi axborot resurslariga ishonchsizlikning kuchayishidir. Turli ma'lumotlarga ko'ra, 2012 yildan 2017 yilgacha yangiliklarning ishonchliligini baholashda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi: jamoat va davlat ommaviy axborot vositalariga ishonch 3 foizga kamaydi, ijtimoiy tarmoqlar esa foydalanuvchilarning ishonchini 5 foizga yo'qotdi [3:332]. Shuningdek, auditoriyaning turli qatlamlari ma'lumotlariga bo'lgan ishonch darajasidagi farqlarni ham ta'kidlash kerak, ular orasida eng tanqidiylari yoshlar va oliy ma'lumotli odamlardir.

Bizning tadqiqotimizga ko'ra, soxta yangiliklarning asosiy diagnostik xususiyati - muayyan auditoriya segmentlarini idrok etishga yo'naltirilganligi. “Bular inkorning mavjudligiga e'tibor bermaydigan va xabarning ma'nosini u erda bo'lmagandek qabul qiladigan odamlardir. Ular tovush va idrokning o'xshashligidan boshqa umumiylikdan qat'i nazar, umumiy axborot blokida qadoqlangan narsalarda sabab-oqibat munosabatlarini ko'rishga moyildirlar. Tomoshabinlarning bu segmenti taqlid qiluvchi xulq-atvor va tez-tez takrorlanadigan narsaga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi: takrorlashlar isbot talab qilmaydigan mutlaq haqiqat mezonini sifatida qabul qilinadi" [1:43].

Bugungi kunda eng o'tkir muammo - bu o'z mazmuni va modalligi bo'yicha Internet-resurslarning faol foydalanuvchilari tomonidan talab qilinadigan ishonchli xabarlariga taqlid qilish bilan birga, soxta ma'lumotlarning tarqalish tezligi. S.N.Ilchenko shunday deb yozadi: “Zamonaviy media makonida soxta narsalarning umumiylik shunchalik ravshan ko'rinadiki, ommaviy axborot vositalari faoliyatida yuzaga keladigan xarajatlarni muhokama qilishni amaliyot tekisligidan yuqori nazariy darajaga ko'chirish vaqti keldi. Ushbu atamaning eng ko'p qo'llaniladigan doirasi Internet portallaridan an'anaviy media saytlarigacha bo'lgan tarmoq resurslaridir. Soxta axborot sohasidagi hodisa sifatida elektron ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, Internetda virtual haqiqatni yaratish orqali haqiqatga taqlid qiluvchi ko'rgazma tsivilizatsiyasi kabi global hodisa bilan bevosita bog'liq. Jurnalistik amaliyotda yangilik, ma'lumot, voqea-hodisalarni soxta deb aniqlash potentsial auditoriya tomonidan unga bo'lgan ishonchni yo'qotish demakdir” [2:31].

Jurnalistika tarixi shuni ko'rsatadiki, soxta yangiliklarning aksariyati qadimiy stereotiplarga (arxetiplarga) asoslangan bo'lib, ommaviy va institutsional prezumpsiyalarga OAV paydo bo'lishidan ancha oldin rasmiylashtirilgan va undan ham ko'proq Internet. Jurnalistikada yolg'on ma'lumotlarning paydo bo'lishi va tarqalishining sabablari qanday bo'lishidan qat'i nazar, soxtalik jurnalistning xatosi yoki yangiliklarni noto'g'ri taqdim etishi natijasi emas, balki jamoatchilik fikriga manipulyatsiya ta'sirining samarali vositasi ekanligini ta'kidlash mumkin.

Taqdimot shakliga ko'ra, soxta narsalar juda xilma-xildir, lekin ular doimo ommaviy ong holatiga asoslangan genetik talabga ega bo'lgan ommaviy talabga to'liq mos keladi.

Bizning fikrimizcha, soxta yangiliklar yagona emas, balki tizimli ta'sir bo'lib, media sohasining paydo bo'lish kabi xususiyati (tizimning xatti-harakatlarini uning alohida elementlarining xatti-harakatidan chiqarib tashlashning imkoni yo'qligi) tufayli. Turbulentlik tufayli tizim effektlari ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydi va shuning uchun yetarli darajada rezonanslashmasligi mumkin. Bizning tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, ushbu xususiyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Shok mazmuni.
2. Noma'lum yoki ishonchsiz manba.
3. Taqdimotning keraksiz emotsional tonalligi.
4. Qarama-qarshilik (faqat bir nuqtai nazar yoki pozitsiyadan argumentlarning mavjudligi)
5. Yangilik yoki kichik detalning xabari, unga muhim ovoz berish.
6. Tekshirib bo'lmaydigan raqamlar va miqdoriy ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish.
7. O'quvchining shaxsiy (ko'pincha salbiy) tajribasiga murojaat qilish.
8. Uyg'unlik, xavfli ogohlantirishlar, rasman qabul qilingan choralar yoki qoidalarga zid harakat qilishga chaqirish.
9. Bir tomonlama yondashish.
10. Jamiyat(mansabdor shaxslar)dan norozilik.

Yuqoridagi usullar bilan bir qatorda, soxta yangiliklarning ta'siri yaxshi tanlangan heterojen ma'lumotlarni umumiy blokga "qadoqlash" orqali hosil bo'ladi. Ma'lumki, Jorj Soros homiyligida Yaponiyada maktab o'quvchilari uchun darslik nashr etilgan bo'lib, unda o'z mamlakatlarida radiatsiya mavjudligi Xirosima va Nagasaki atom bombasi bilan emas, balki atom bombasi portlashi oqibatlarini bilan izohlangan. Chernobildagi atom elektr stantsiyasi. Natijada, Rossiyaga qarshi yangi da'volar, jumladan, hududiy da'volar paydo bo'ldi, ularning asossizligi tarixan isbotlangan.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyat tarixi olamshumul yolg'onlarga to'la. Haqiqat insonga erkinlik beradi deb ishonamiz. Ammo yolg'onni shuhrat, qasos va hokimiyatga erishish uchun urol qilibolganlar ko'p bo'lgan. Insoniyat tarixida yolg'on hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan, ta'bir joiz bo'lsa, tarix aravasini izdan chiqarib, boshqa yo'lga burib yuborgan. Xususan, Troya oti afsonasi (balki haqiqat) Gomerning "Iliada" hamda Vergiliyning "Eneide" dostonlarida hikoya qilingan. Troyaliklar 10 yillik urush natijasida yunonlarni yengdik deb ishongan kunlari raqib tomonidan tuhfa keladi: ularga tinchlik ramzi sifatida katta yo'goch ot sovg'a qilinadi. Troyaliklar bu sovg'ani tanqidiy nuqtai nazaridan o'rganib chiqmay, raqibga ishonadilar va yunonlar sovg'a ilgan Troya otini o'zlarining mustahkam qal'alari ichkarisiga kiritib qo'yadilar. Yarim tunda shahar aholisi uyquga ketgach, ulkan yog'och ot ichida yashirinib o'tirgan yunon askarlari tashqariga chiqib qal'ani egallaydi. Troyaliklar urushni boy beradilar.

Odamlarning yot yolg'on ma'lumotlarga moyilligining asosiy sababi ommaviy ongning deformatsiyasi, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va Internetdagi soxta ma'lumotlarning ketma-ketligi ta'sirida. Aytishimiz mumkinki, soxta ma'lumotlarning o'zi idrokni ushbu turdagi yangiliklarga bo'lgan talabga aylantirganda, bumerang effekti mavjud. Aynan shu ta'sir tufayli soxta narsalarni rad etish ularni tarqatishdan ko'ra ancha qiyin. Bundan tashqari, soxta narsalarni yaratuvchilar pul topish yoki ish joyini saqlab qolish uchun buyurtmalar asosida harakat qilishlari mumkin, bu siyosiy yoki iqtisodiy ishtirok sifatida baholanishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar auditoriyaning media iste'moli tarkibida tobora muhim o'rin egallaydi va soxta kontent nafaqat ommaviy axborot vositalarida, balki ijtimoiy tarmoqlar, blogosfera, messenjerlarda ham keng tarqaldi. Soxta yangiliklar ma'lum bir sayt mazmunini taqlid qiladi va yangiliklar, audio xabarlar, selfilar, videolar va boshqalar ko'rinishida nashr etilishi mumkin. Soxta xabarlarni tarqatishda takrorlash printsiplari muhim ahamiyatga ega, chunki bu yolg'on

ma'lumotlarga ishonchni oshiradi. Zamonaviy messenjerlarning asboblari to'plami soxta narsalarni keng auditoriyaga tarqatish imkonini beradi.

Feyk (ingl. Fake) – soxta, qalbaki degan ma'nolarni anglatadi. Haqiqatga juda o'xshab ketadigan yo'g'on xabarlar, maxsus dasturlar orqali o'zgartirilgan fotosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarqmoqlarda boshqa shaxslar (odatda, mashhur insonlar) nomidan ochilgan "yolg'on akkauntlar" feyklarga misol bo'la oladi. Feyk xabarlarining sariq matbuot siyosiy propaganda bilan umumlashtirib turuvchi qator xususiyatlari bor. Shunga qaramay ularni badiiy to'qimalar yoki sariq matbuotda tarqatiladigan mishmishlardan farqlash lozim. Sariq matbuotdagi mishmishlar asosan ommaning vaqtini chog' qilish, u yoki bu shaxsga e'tibor tortish uchun tarqatiladi va uning ijtimoiy zarari katta bo'lmaydi. Feyklar esa jiddiy ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni yoki moliyaviy manfaatni ko'zlab tarqatiladigan yolg'on xabarlardir. Shu sababli hozirgi kunda butun dunyoda feyklarga qarshi kurashni kuchaytirish, buning uchun, avvalo, huquqiy bazani mukammallashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Soxta axborot mualliflari ko'pincha ko'zga yaqqol tashlanadigan, "qichqiruvchi" sarlavhalardan yoki boshdan-oyoq to'qima voqealardan foydalanib o'quvchilar auditoriyasini oshirishga va o'zlariga havolalarni ko'paytirishga harakat qiladi. Bunda klikbeyting orqali foyda olish prinsipi qo'llaniladi, ya'ni qancha ko'p odam ulashsa va o'sha resursga kirsam, reklama beruvchilar soni ham shunchalik ortadi (moddiy manfaat). Bunda tarqatilyotgan axborotning rost yoki yolg'onligi ahamiyatga ega emas, ko'proq odam ko'rsa va resursga kirsam, bo'ldi. Auditoriyasi katta internet resurslari jamoatchilik fikrini boshqarish vositasi sifatida katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi (siyosiy manfaat).

Demak, soxta - bu to'liq yoki qisman buzilgan ma'lumotlar. Umuman olganda, biz «axborot» so'zini eshitganimizda, biz uni darhol haqiqat yoki yolg'on toifalari bilan bog'laymiz.

Axborot urushlarini o'tkazish usullaridan biri hisoblangan dezinformatsiya, o'z navbatida, shunchaki ma'lumotlarning yo'qligini anglatmaydi (garchi axborot bo'shlig'ini yaratish ham ushbu turdagi qarama-qarshilik usuli hisoblanadi). Dezinformatsiya axborotni buzish, bostirish yoki yolg'on (yoki ahamiyatsiz) urg'ularga e'tibor qaratishga asoslangan [4: 51].

Soxta yangiliklar - bu bir xil yangilik, lekin qisman yoki to'liq ishonchsiz (yoki to'g'ridan-to'g'ri yolg'on) ma'lumotlardan iborat. Bunday yangiliklarni qasddan ishlab chiqarish noto'g'ri yoki aldamchi bo'lib, bu manipulyatsiya belgisidir. Shuning uchun, soxta narsalar manipulyatsiya uchun vosita sifatida ishlatilishi mumkin.

Manipulyatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ob'ekt o'zini boshqarayotganini anglamaydi, balki o'zi o'ylashni yoki shunday qilishni xohlaydi deb o'ylaydi. Garchi u hech narsani tanlamagan yoki qaror qilmagan bo'lsa-da, haqiqat deb qabul qilingan kerakli bayonot unga "siljidi". Bu holat ba'zida soxta narsalarni aniqlashni juda mashaqqatli jarayonga aylantiradi va manipulyatsiyaning "qasddan" ekanligini isbotlash har doim ham mumkin emas. To'g'ri, har doim ham bu qasddan emas.

Shunday qilib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- Soxta narsalarning tarqalishi ommaviy nutq holatiga yomon ta'sir qiladi - siyosiy qarama-qarshiliklar keskinlashadi, jamiyat "manfaatlarga ko'ra" kichik qismlarga bo'linadi. Soxta yangiliklar obro'li davlat muassasalariga ishonch darajasini pasaytiradi, shuningdek, ob'ektiv ma'lumotlarning mavjudligi haqidagi g'oyani yo'q qiladi;

- Ijtimoiy tarmoqlar soxta narsalarni yaratish va tarqatish platformasiga aylandi. An'anaviy va onlayn ommaviy axborot vositalari reytinglarni va ularning auditoriyasini yo'qotmaslik uchun qayta nashr etadi va yolg'on ma'lumotlarni taqdim etadi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklarga ishonch pasayishda davom etmoqda.

- Soxta yangiliklarning mohiyati ulardan manipulyatsiya vositasi sifatida foydalanishga imkon beradi, chunki ulardagi yolg'on ma'lumotlar chalg'ituvchi bo'lishi mumkin, bu aslida manipulyatsiyadir. Soxta narsalar har doimgidek emas, ataylab yaratilishiga ham aniqlik kiritildi.

Koronavirus pandemiyasining holati (har qanday keng miqyosli hodisa yoki hodisa kabi) yangi virus, uning tarqalishi, o'limga olib kelishi va emlash oqibatlari haqida ko'plab soxta ma'lumotlar paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi.

Ko'pgina olimlar uchun bu soxta, mish-mishlar va shahar afsonalarining paydo bo'lishi va tarqalishining sabablarini aniqlash uchun yangi tadqiqotlar o'tkazishning yana bir sababi bo'ldi. Yirik media kompaniyalari chetda turmaydi va dezinformatsiyaga qarshi kurashish uchun barcha

imkoniyatlarni ishga soladi. Yangilikni tekshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar diagnostika xususiyatlari va zamonaviy media makonida soxta ma'lumotlarning tarqalishi algoritmlarini o'rganish asosida samaraliroq bo'lishi mumkin edi.

Eslatmalar. 1 Словарь Collins выбрал словом года «фейковые новости» // Meduza. 2017. Ноябрь, 2. Режим доступа: <https://meduza.io/news/2017/11/02/slovar-collins-vybral-slovom-godafeykovye-novosti> 2 Baron S., Crootof R. Fighting Fake News. Workshop Report. The Information Society Project. Yale Law School and the Floyd Abrams. 2017. March, 7.

Adabiyotlar.

1. Вакурова Н.В., Московкин Л.И. Что такое fake-news и в чем причина сукцессии данного мема? / Матер. XXXI Междунар. науч.-практ.конф. «Научные перспективы XXI века, достижения и перспективы нового столетия» (Россия, г. Новосибирск). Ежемесячный научный журнал № 1 (31) / 2018 – Международный научный институт «Educatio» // под ред. проф. Вершинина Б.М. – Новосибирск, 2018. С. 43 – 50.
2. Ильченко С.Н. Как нас обманывают СМИ: Манипуляция информацией. СПб: Питер, 2018.
3. Николайчук И.А., Янглева М.М., Якова Т.С. Крылья хаоса. Массмедиа, мировая политика и безопасность государства / И.А.Николайчук, М.М.Янглева, Т.С.Якова. – М.: Издательство ИКАР, 2018. – 352 с.
4. Распопова С.С., Богдан Е.Н. Фейковые новости: природа происхождения.// Вестник Челябинского государственного университета. 2017, №11. С.48-53.
5. Суходолов А.П. Феномен «фейковых новостей» в современном медиапространстве.//Евроазиатское сотрудничество: гуманитарные аспекты. 2017, №1. С.87-106.
6. Lunden, Ingrid . "[73% Of U.S. Adults Use Social Networks, Pinterest Passes Twitter In Popularity, Facebook Stays On Top](#)". *TechCrunch*. Retrieved October 17, 2015.
7. Wang, Zheng; Tchernev, John M.; Solloway, Tyler (September 2012). "A dynamic longitudinal examination of social media use, needs, and gratifications among college students". *Computers in Human Behavior*. **28** (5): 1829–1839
8. Zarrella D. The Social Media Marketing Book. -O'Reilly Media,2009.-240p.
9. Barabasi A. L. Linked: The new science of networks.- Cambridge, 2009.181 p.
10. Бондаренко С. В. Социальная структура виртуальных сетевых сообществ: дис... докт. социол. наук: 22.00.04. Ростов-н/Д., 2004. – 396 с.
11. Бальжирова. Т.С. Интернет как средство социальной коммуникации в условиях формирующегося в России информационного общества: дис. ... канд. социол. наук: 22.00.04. – Улан-Удэ, 2003. – 161 с.
12. I.Hadeer Ahmed, Issa Traore and Sherif Saad, "Detection of online fake news using n-gram analysis and machine learning techniques", *International Conference on Intelligent Secure and Dependable Systems in Distributed and Cloud Environments*, pp. 127-138, 2017.
13. Chih-Chung Chang and Chih-Jen Lin, *LIBSVM - A Library for Support Vector Machines*, July 2018.
14. Niall J Conroy, Victoria L Rubin and Yimin Chen, "Automatic deception detection: Methods for finding fake news", *Proceedings of the Association for Information Science and Technology*, vol. 52, no. 1, pp. 1-4, 2015..
15. Mykhailo Granik and Volodymyr Mesyura, "Fake news detection using naive bayes classifier", *2017 IEEE First Ukraine Conference on Electrical and Computer Engineering (UKRCON)*, pp. 900-903, 2017.
16. N.F.Murotova, N.K.Toshpo'latova, G.B.Alimova. Fake news: Mediada dezinformatsiya. Toshkent – "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020.

UDK: 37.1

PEDAGOGIK INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ADABIY TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIMNING AHAMIYATI**M. Tursunova***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada adabiyot darslarida muammoli ta'lim usuli va uning o'rni va ahamiyati xususida uslubiy tavsiyalar yoritilgan. Shuningdek muammoli ta'limning nazariy-amaliy bosqichlari manbalar asosida tahlil qilingan mashg'ulotlar jarayonida erishilgan ijobiy xulosalar umumlashtirilgan muammoli vaziyatni hosil qilish usullari tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: Milliy pedagogik ta'lim, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, adabiyot va muammoli ta'lim, ta'limda muammoli vaziyat, intellektual zehn, aqliy faoliyat muammoli ta'lim shartlilik, muammoli ta'lim va izchillik, muayyan shaxsiy sifatlar, o'quv va bilim muammosi.

Значение проблемного обучения в педагогических инновационных технологиях и литературном образовании

Аннотация. В статье даны методические рекомендации по проблемному обучению, его роли и значению на уроках литературы. Также анализируются теоретический и практический этапы проблемного обучения на основе источников.

Ключевые слова: Народное педагогическое образование, проблемное обучение, проблемная ситуация, литература и проблемное обучение, проблемная ситуация в обучении, интеллектуальный интеллект, мыслительная деятельность, проблемное обучение условное, проблемное обучение и системность, определенные личностные качества, проблема обучения и познания.

Significance of problem-based learning in pedagogical innovative technologies and literary education

Abstract. The article provides methodological recommendations on problem-based learning and its role and importance in literature lessons. The theoretical and practical stages of problem-based learning are also analyzed, based on the sources.

Keywords: Public pedagogical education, problem-based learning, problem situation, literature and problem-based learning, problematic situation in learning, intellectual intelligence, mental activity, conditional problem-based learning, problem-based learning and consistency, certain personal qualities, the problem of learning and cognition.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qituvchi aytganlarini bajaradigan ishtirokchidan ta'lim-tarbiya jarayonining ijrochilari darajasiga ko'tarish maqsadida o'zlashtiriladigan bilimlarni tarbiyalanuvchi oldiga muammo shaklida qo'yish masalasi jahon pedagogikasida o'tgan asrning oltmishinchi, sho'rolar pedagogikasida etmishinchi yillarida ko'tarilgandi.

Ma'lumki, har qanday inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi, bilganlarini taftish qiladi, zo'riqadi, mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat. Ta'lim jarayonida shunday vaziyatga solingan o'quvchi ham ta'limiy muammoni hal qilish orqali bilim olish yo'lida mehnat qiladi. Afsuski, milliy tarbiyashunoslikda bu mehnat zamirida bilimlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonini faollashtirish orqali samaradorlikni ta'minlash maqsadi ikkinchi planda turibdi.

Milliy pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoniga bugun butunlay yangicha talablar asosida yondashilmoqda. Zamonaviy tarbiyashunoslikda ta'lim-tarbiyaning vazifasi o'quvchini zarur bilimlar yig'indisi bilan ta'minlash doirasidan chiqib ketyapti va uning

oldiga o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish hamda boyitish, o'quvchida bilimlarni izchil ravishda to'ldirish, bilishga ichki ehtiyoj paydo qilish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlay olish ko'nikmasini shakllantirish kabi sifat jihatidan yangi talablar qo'yilyapti. Maktabdan o'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish, bilim olish yo'lida bor imkoniyatlarini qo'llagan holda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish talab qilinyapti. Ta'limga bunday yondashuv, o'z navbatida, o'quvchini taqlidchilik, ko'chirmachilik, tayyor andozalar, belgilangan qoliqlar asosida fikrlashdan uzoqlashtirmoqda. Shu ma'noda muammoli ta'lim mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish, bu yo'lida uchragan to'siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy yondashgan holda bartaraf etish garovidir. U o'quv materiali o'zlashtirilganligini ko'rsatadi, uni mustahkam qiladi, bilimlarni qat'iy lashtiradi. O'quvchida o'qishga ijobiy hissiy munosabat uyg'otadi, bilim olishga ichki ehtiyoj shakllantiradi. Bunday ta'limda bugungi tarbiyashunoslikning asosiy vazifasi – o'quvchida shaxslik sifatlar shakllanishi, rivojlanishi muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Muammoli ta'limga o'qitish jarayonidagi barcha kamchiliklarni bartaraf etadigan universal vosita deb qarash ham uncha to'g'ri emas, albatta. Muammoli ta'lim hamisha ham yuqori darajada samara beraveradigan hodisa emas. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar, ayrim hollarda kamroq kuch va vaqt sarflangani holda, an'anaviy metodlar orqali ham maksimal darajada qabul qilinishi mumkin. Bunda hamma narsani o'zlashtiriladigan materialning tabiati, o'qituvchining bilimdonligi va mahorati hal qiladi. O'qituvchining rahbarlik roli muammoli ta'limda ham saqlanib qoladi. Aynan o'qituvchi o'quvchilarning umumiy va individual taraqqiyoti, egallagan bilim, ko'nikma, malakalari darajasi, qo'yilgan muammoning umumiy maqsadga qanchalik mosligidan kelib chiqib, zarur material tanlaydi. Muammoli ta'limning asosiy xususiyati shundaki, unda o'quvchi oldiga bilim berishga yo'naltiriladigan masalalarni qo'yishda ham, uning ma'naviyatini shakllantirish yo'lida ham muammoli savollar muhim o'rinni egallaydi. Ular muammoli vaziyat hosil qilishning asosiy sharti sanaladi. Bilim berishga qaratilgan savol o'quvchi uchun ma'lum qiyinchilik tug'diradigan darajada bo'lishi, bola avval egallagan bilimlarga mos kelishi, shu bilan birga, uning imkoniyatlari doirasida shakllantirilishi lozim. Ya'ni muammoli vaziyatlar bolaning hayotiy tajribasi va nazariy bilimni hisobga olgan holda yaratilishi kerak. Bunday masalalar qiziqarli bo'lishi ham shart. Bu ham muammoli ta'limdan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida foydalanishning asosiy talablaridan biridir. Bu narsa, ayniqsa, qiyin o'zlashtiriladigan o'quvchilar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qiziqishning mavjudligi shaxs psixologik faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi, uni yuqori pog'onaga ko'taradi. Tafakkur jarayoni, xotira, diqqat, tasavvur faollashganda insonda ko'proq va chuqurroq bilim olish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan savol-topshiriqlar o'quvchining mustaqil fikrlashini talab qiladigan, ularni qiziqtiradigan, tuyg'ularini junbushga keltiradigan, ruhiyatini qo'zg'otadigan, bezovta qilib qo'yadigan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, muammoli yo'l bilan o'zlashtiriladigan ma'lumotlar yangiligi, bugungi ilm-fan, hayot va bola shaxsi uchun dolzarbligi bilan ajralib turishi, darsda fikrlar tortishuviga, u yoki bu hodisaning hayotiy hamda nazariy jihatlarini taqqoslashga, atrofdagilarning qarashlarini qiyoslashga qaratilgan bo'lishi, bolani hayratga soluvchi, aqliga sig'maydigan jihatlariga ega bo'lishi kerak. Muammoli vaziyat yaratish bilan o'qituvchi o'quvchilarni tafakkur jarayonining tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimga solish singari jihatlaridan biri yoki bir nechasidan foydalanishga yo'naltiradi. Ya'ni ular o'quv materialini shunchaki eslab qolmay, balki tushunchalar yuzasidan muayyan aqliy operatsiyalarni ham amalga oshiradi. Shunday tashkil etilgan muammoli vaziyatlardan chiqish ba'zan voqea, hodisa, tushuncha yoki qoida tahlil qilinishi talab qilsa, ikkinchi holat, asosan sintezni – dalillarni umumlashtirishni, boshqasi voqea, hodisa va tushunchalarni taqqoslashni, yana biri faktlarni tasniflashni taqozo etadi. Muammoli vaziyatda bunday shakllar muammoli savol, muammoli topshiriq tarzida yuzaga keltirilishi ham mumkin. Buning uchun o'qituvchi muammoli topshiriqlarga nafaqat dalillar bilan isbotlash, balki mantiqiy asoslash, faktlarni taqqoslash, ma'lumotlarni umumlashtirish kabi talablarni ham kiritishi mumkin. Muammoli vaziyatlarning bunday turlari mavjudligi shartli, albatta. Amalda, biror mavzuni o'rganishda muammoli vaziyatdan chiqishning bir necha turidan birvarakayiga foydalanish ham mumkin. Muammoli vaziyatdan chiqishda ham uni tashkil qilishda qo'llanilgan usullardan foydalaniladi. Taqqoslash va umumlashtirish biror muammoli masalani hal etishga

kirish sifatida qo'llaniladi va ular o'quvchilarni mavzuga qiziqtirishning dastlabki bosqichi ham sanaladi.

Ko'tarilgan masala muammo sifatida o'quvchini qiziqtirib qolsa, uni yangi fikriy faoliyatga undaydi. Muammoning qo'yilishi va uni yechish jarayoni uzilmas bir zanjirdir. Muammo ko'tarilishi bilanoq uning echimi ustida o'ylanadi va bu, o'z navbatida, yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu tariqa, uzluksiz tarzda yangi bilimlarni o'zlashtirish amalga oshadi. Ta'lim amaliyotida o'qituvchining sinfga olib kiradigan ma'lumotlari o'quvchilar tayyor bilim sifatida qabul qiladigan yoki ular o'zlari mehnat qilib o'zlashtiradigan shaklda bo'ladi. Ta'limning dastlabki bosqichlarida birinchisi ko'proq qo'llanishi tabiiydir. O'qish jarayonining ikkinchi bosqichida bilimlarni mehnat qilib o'zlashtirish shakli qo'llanilib, uni tashkil etishda quyidagi me'yorlarga amal qilinadi: a) o'quvchilar mustaqil ravishda o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlar ularning imkoniyatlariga mos murakkablikda bo'lishi; b) berilajak materialning echimi dasturda belgilangan vaqt oralig'ida amalga oshishi; v) ijodiy yo'l bilan o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamligi va darajasi reproduktiv yo'l bilan olinadigan bilimlardan baland bo'lishi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi rivojini ta'minlaydi, ruhiyatiga, aqliy rivojlanishi hamda dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning o'z fikri va dunyoqarashiga ega, qarashlarini asoslay oladigan va prinsiplarida qat'iy turadigan sog'lom ma'naviyatli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Muammoli ta'limda o'quvchi oldiga muammo qo'yish qiyin kechadi. Uni topish o'qituvchidan ko'p izlanish va mehnat talab qiladi. Muammoli ta'limdan uzluksiz ravishda foydalanish dasturdan ortda qolish hollarini ham keltirib chiqaradi. Buni muammoli ta'limning o'ziga xos kamchiligi deyish mumkin. Insonning intellektual imkoniyatlari muammoli vaziyatga tushib qolganda qilgan xatti-harakatlarida to'liq namoyon bo'ladi. Bunday holatlarda o'quvchilar o'zlarini har xil tutishlari mumkin. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda o'quvchilarning intellektual xususiyatlari, o'z xatti-harakatini qo'yilgan maqsad sari yo'naltira olish, aqliy faoliyatini ongli ravishda boshqarish bilan bog'liq individual sifatleri yuzaga chiqadi. SHaxsning intellektual xususiyatlari o'z farazini ilgari surish va uni nazorat qilishda ko'zga tashlanadi. Bunday holatlarda tafakkurning ko'pqirralilik darajasi, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta aqliy faoliyatni amalga oshira bilishi yorqin namoyon bo'ladi. Fikrning serqirraligi farazlarning har xil rejalar hamda turli nuqtai nazarlar asosida ilgari surilishida ko'rinadi. Bundan tashqari, shaxsning hayotiy tajribasi, ruhiyati va tafakkuri mustaqilligining qay darajada rivojlanganligi, tashabbuskorligi ham tafakkur serqatlamligida namoyon bo'ladi. Inson tafakkurining asosiy vazifasi odamni yangi bilim va faoliyat bilan ta'minlashdir. Odamning o'z hayoti mobaynida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari uning tafakkuri mahsuli sanaladi. Uning bilimi fikri natijasi sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga bilishning asosiy vositasi sanaladi. Inson yangi bilimlarni unga avval ma'lum bo'lgan bilimlar asosida o'zlashtirib, yuqori darajaga ko'tarila boradi. Kishining bilimlari qanchalik qat'iy bo'lsa, faoliyati shunchalik pishiq, mukammal, mehnati shunchalik samarali bo'ladi. Odamning bilimi uning xulqi va faoliyatining turli shakllarini belgilaydigan asoslardan biri sanaladi. Zarur bilimlarga ega bo'lmagan inson ma'lum bir ishni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirolmaydi, u yoki bu sharoitda qanday yo'l tutishni bilmaydi. Aynan shuning uchun ham inson tafakkurining darajasi ko'pincha uning bilimlariga qarab o'lchanadi. Insonning bilimi tafakkurining yakuniy natijasi, asosiy mahsulidir. Ta'lim jarayoni, eng avvalo, o'quvchilarning bilim va faoliyatni o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit bilan uzviy bog'liq. Ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlaydigan omillardan biri tafakkur sanaladi. To'g'ri, ta'lim mazmunini o'zlashtirish fikrlash jarayonida o'zo'zidan amalga oshib qolmaydi. U fikrlaydigan shaxs va uning xulqiga xos bo'lgan ichki omillar bo'lmish qobiliyat, qiziqish, ehtiyoj bilan bog'liq. SHaxsning ma'naviyatini tarbiyalash ta'limdan ajralgan, unga aloqasi bo'lmagan alohida jarayon emas. Polyak olimi V. Okon ta'kidlaganidek, ta'limda sust, axborot beruvchi metodlar loqayd shaxsiyatni, belgilangan yo'nalishdagina ish ko'radigan kishini shakllantiradi. O'quvchiga yangi natijalarga erishishda ko'mak beradigan metodlarni qo'llash kattagina

Ijodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bilim olishda, mavzuni o'zlashtirishda o'quvchining o'zi bevosita ishtirok qilsa, ularni o'zi uchun o'zi kashf etsa, olgan bilimlari e'tiqodga, dunyoqarashining bir qismiga aylanadi. Bu esa unda

muayyan shaxslik sifatлари qaror topganligidan dalolatdir. O'qituvchiga javob berish va baho olish uchungina o'zlashtirilgan bilim o'quvchining intellektual mulki bo'la olmaydi va uning shaxsiyati shakllanishiga xizmat etmaydi. Muammoli ta'lim tarbiyalanuvchining shaxsini shu vaziyatning yadrosi sifatida o'z ichiga qamrab oladi. Sub'ektdan, shaxsdan tashqarida muammoli vaziyat yo'q. Muammoli vaziyat o'quvchining motivlari va ehtiyojlarini o'z zaruriy qismi sifatida qamrab oladi. Aynan shuning uchun ham ta'lim jarayonida muammoli ta'lim o'quvchining tarbiyasi, bilimlarni o'zlashtirishi, dunyoqarashi shakllanishi asosi deb qaraladi. Muammoli ta'limda muammoni hal etish jarayoni alohida o'quvchi va o'qituvchi orasidagi muloqotdan iborat bo'lmay, butun sinf jamoasining faol aqliy ishiga aylanishi zarur. Bu sinfdagi har bir bola shaxsining individual xususiyatlarini maksimal darajada inobatga olinishini nazarda tutadi. Faqat shundagina sinfdagi jamoaning barcha a'zolari, butun o'quv jarayoni davomida tom ma'nodagi ijod kishisiga, fikr odamiga aylana boradilar. Muammoli ta'limdagi fikrlash jarayoni o'quv fanini qayta kashf qilish faoliyatini, ya'ni uning yangi xususiyatlari va munosabatlari kabi nazariy hamda amaliy jihatlarni qamrab oladi. Muammoli ta'limda qo'yilgan masalani hal etishda, muammoli vaziyatning asosiy unsuri bo'lmish noma'lum narsa o'quvchida etishmaydigan bilimlardan tashkil topadi. Muammoli vaziyatlarda noma'lumlik ikkita asosiy ko'rsatkich bilan xarakterlanadi: 1) yangilik darajasi (o'zlashtirilgan bilimlarga va mavjud harakat yo'llariga nisbatan); 2) o'zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirish darajasi yoki harakat yo'llari (umumlashtirishning erishilgan darajasiga nisbatan). Bu ikki ko'rsatkich muammoli masalaning qiyinlik darajasini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'limda o'quvchining bilishga bo'lgan ehtiyoji qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida ma'lum amaliy yoki nazariy bilimlar, faoliyatning shartlari va usullariga muhtojlikning his etilishidir. Bilishga bo'lgan ehtiyoj muammoli vaziyatning zaruriy qismi bo'lib, yangilikni qidirishga, o'zlashtiriladigan bilimga fikriy faollikni talab qiladi. U fikrlash jarayonida bolaning o'z-o'zini boshqarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bilishga bo'lgan ehtiyoj ta'limda o'zlashtirish jarayonini boshqarishning zaruriy shartlardan sanaladi. Muammoli ta'limda o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishlari, tabiiy. Muammoli vaziyatda qiyinchilik o'zlashtirilishi lozim bo'lgan noma'lum narsaning yangiligi va umumlashtirilishi zarurligi; o'quvchi intellektual imkoniyatlari darajasi bilan xarakterlanadi. O'quvchilarning intellektual imkoniyatlari qancha kam bo'lsa, biror masalani hal qilishda muammoli vaziyatning qiyinligi shuncha ko'p bo'ladi. O'qituvchi dars boshida muammoni qo'yish bilan birga butun dars davomida uning muammolik darajasini uzluksiz tarzda saqlab tura olsagina, biror mavzuni muammoli tarzda o'rganish mumkin bo'ladi. Butun dars davomida muammoni echish bilan shug'ullanganidagina o'quvchining bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi ta'minlanadi. Aslida bu masalalar echimining o'zi maqsad emas, o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish va o'quvchi qobiliyatlarini o'stirish vositasidir. Ma'lumki, darsda muammoli vaziyat hosil qilishda o'quv predmetining mantig'iga, tafakkurning qonunlari va shakllariga rioya qilinishi lozim. O'quv fani mantig'i uni o'zlashtirishning muammoliligi va izchilligini ta'minlaydi. Ma'lumki, fanlarning o'zi ham hayot va amaliyot ilgari surgan muammolar asosida rivojlanadi. Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchilar bilan individual ishlaydi. Bu undan kasbiy mahoratni talab qiladi. Gap shundaki, u yoki bu o'quv topshiriqlari bir bola uchun qiyin, ikkinchisi uchun oson. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun har bir o'quvchi dars jarayonida o'zining kuchi darajasidagi masalani hal qilish bilan shug'ullanishiga erishish lozim. Faqat shundagina har bir o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarning oldida hamisha qiyin didaktik masala ko'ndalang turadi. U dars mavzusida nafaqat o'quv-biluv muammosini echishi, balki qanday yo'llar bilan bu mavzu mazkur sinfdagi o'quvchilarning barchasi tomonidan o'zlashtirilishi mumkinligini oldindan ko'ra olishi kerak. O'quvchilarning har biri bilan alohida, qo'shimcha, turli metod va usullar yordamida shug'ullanish, bu yo'lda zarur bo'lgan insoniy-ruhiy xususiyatlarni inobatga olish ta'lim amaliyotida ko'ngildagidek emas.

Adabiyotlarda qadimgi grek olimi Gippokratning kishilar mizoji bilan bog'liq qarashlari va insonning aqliy faoliyatiga asoslanib odamlar quyidagi to'rt guruhga bo'lingani aytiladi: 1) kuchli (tez va kuchli qo'zg'oluvchan hamda tez o'zini qo'lga ola biladigan); engil, beqaror, tiyiqsiz, tez ta'sirlanadigan; 2) kuchli, vazmin, kam harakat; 3) kuchli, vazmin, harakatchan; 4) zaif (doim g'amgin, dilgir) odamlar. SHu kabi har xil tipdagi odamlarning o'quv materialini <http://research.samdu.uz/>

deyarli bir xilda o'zlashtirishlariga erishish uchun ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holdagi ish uslubi belgilanishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning tipologik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvni amalga oshirish zarur. O'quvchilar fikrlash faoliyatidagi individual xususiyatlarni, farqlarni bilish o'qituvchiga ularning ijodiy tafakkurini ma'lum maqsad sari yo'naltirishda qo'l keladi. Bu bugungi ta'limning muhim shartlaridan biridir. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda intellektual zo'riqishga ehtiyoj va qiziqish uyg'otishdir. Buning uchun qiyinchiliklar chamalanadi. O'quvchiga hamma muammoli masalalar ham qiziq bo'lavermaydi. Tarbiyalanuvchini masalaning shunchaki echimi emas, balki undan intellektual zo'riqish, zehn, onglilik talab qiladigan masalani hal etish jarayoni qiziqtiradi. Qiyinchiliklarni chamalaganda, o'qituvchi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini ham hisobga olishi kerak. Ayrim o'quvchilar uchun masala qancha qiyin bo'lsa shuncha qiziqarli bo'ladi. Boshqalarning esa "tarvuzi qo'ltig'idan tushadi". Shuning uchun masalaning ob'ektiv qiyinligidan tashqari, echuvchining sub'ektiv imkoniyatlari ham hisobga olinishi zarur. Gap faqat o'quvchilarning har xil tayyorgarlik darajasi haqida emas, ular aqliy faoliyatining individual xususiyatlari haqida ham ketyapti. Sekin-sekin o'quvchi mustaqil ravishda muammoni o'zi shakllantira olishiga erishish muammoli ta'limning maqsadlaridan biridir. Bu o'quvchining shunday ishlarni bajarishga bo'lgan ehtiyoji darajasi bilan asoslanadi. O'quvchidagi hayot hodisalarini hissiy tushunish uning e'tiborini yangi hodisa bilan o'zining ilgarigi bilganlari orasidagi ko'rinmas tabiiy aloqadorlikni izlashga yo'naltiradi. Bu bilim olishga va yangi bilimlarni o'zlashtirishga qo'zg'atuvchi omil sanaladi. Milliy pedagogikada o'qish-o'zlashtirish jarayonining o'quvchi mehnati bilan mutanosibligi, sust ishlangan. Didaktikada shu kungacha o'quvchi mehnatidan faqat bilimlarni mustahkamlashda foydalanish o'rganilgan, xolos. Muammoli ta'limning hayot bilan aloqadorligi o'quvchining tajribasi uning bilim olishga qiziqishini, ehtiyojini uyg'otuvchi vosita bo'lishini ta'minlaydi. Muammoli vaziyat nechog'li tabiiy chiqsa, hayotiy real hodisalar bilan qanchalik yaqinlashsa, o'quvchining diqqati va avvalgi bilimlari shu muammoga qaratilib, uni echish yo'llari tanlanadi. Ta'limning hayot bilan aloqadorligi hamisha didaktikaning asosiy talablaridan biri bo'lib kelgan. Bu talab muammoli ta'limning ham zarur xususiyatlaridan hisoblanadi. Cheksiz hayotiy muammolar va ularning hal etilishi ta'limda o'qituvchining aytib turishi emas, hayotning talabi muhim ekanini anglash imkoniyatini yaratadi. Bunga qo'shimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, muammoli ta'limda o'qitish ishlarining hayot bilan aloqadorligi sanoatdan, qishloq xo'jaligi va hk.lardan olib berilgan misollarda emas, o'quv material bilan o'quvchi shaxsi orasidagi tabiiy aloqani anglashda namoyon bo'lishi lozim. O'qituvchining pedagogik tajribasidan muammoli ta'lim o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatadigan, uni intellektual faol shaxs sifatida shakllantiradigan samarali metod tarzida o'rin olishi kerak. Muammoli ta'limda hayot bilan aloqadorlik nafaqat mavjud borliqni va uning ob'ektivligini nazariy tushunish, balki o'quvchining tajribasida, real hayotiy vaziyatlarda muammoning manbaini aniqlash va uni bartaraf etish yo'lini topishda ko'rinadi. O'quvchi shaxsiy hayotida yuz beradigan qator muammolarning nazariy asosini tayin etishni o'rganishi lozim bo'ladi. Shuning o'zi ta'limda o'quvchining mustaqilligi va faolligini talab qiladi. Shu asnoda, ularning bilimi ham ortib boradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T. 2020-y. 23-sentyabr O'RQ-637-son.
2. Dolimov U. "Milliy uyg'onish pedagogikasi" T. Nashir, 2012.
3. Matchon Safo "Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar" T. O'qituvchi, 1996.
4. Mirantsman V.G.Cherkovskaya. "Problemnie obucheniye na urokax literature" M.Prosveshenie, 1984.
5. Qozoqboy Yuldosh, Muhhyo Yuldosh. Badiy tahlil asoslari. T. Kamalak, 2016-yil.
6. Yuldoshov Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.T.Uqituvchi, 1996-yil.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish. Jasorat, marifat, fidoilik. T. manaviyat, 2004-yil.
8. Xusanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi Uquv qullanma T.Fayez media 2018-yil.
9. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedogogikasi T.Noshir 2012-yil.

UDK: 37.02

**OLIV O'QUV YURLARI AKADEMIK AVTONOMIYASINI
TA'MINLASHNING ZAMONAVIY IJTIMOY-PEDAGOGIK ZARURIYATI****I.B.Siddiqov***Farg'ona davlat universiteti**ilyosjon.siddiqov@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada dunyo mamlakatlardagi oliy ta'lim muassasalari akademik avtonomiyasini ta'minlash modellari, genezisi, rivojlanish bosqichlari, oliy o'quv yurtlari akademik mustaqilligini ta'minlash muammolarining qiyosiy tahlili, oliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim tizimi bilan bog'liqlikda takomillashtirish va ularning akademik avtonomligini ta'minlash borasidagi xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, avtonomiya, akademik avtonomiya, o'quv avtonomiyasi, kadrlarni tanlash, ma'muriy avtonomiya, genezis, oliy o'quv yurtlarini boshqarish.

**Современная социально-педагогическая потребность в обеспечении
академической автономии вузов**

Аннотация. В статье анализируются модели, генезис, этапы развития академической автономии высших учебных заведений в мире, проводится сравнительный анализ проблем академической независимости высших учебных заведений, зарубежный опыт совершенствования системы высшего образования применительно к международной системе образования.

Ключевые слова: образование, высшее образование, автономия, академическая автономия, академическая автономия, подбор персонала, административная автономия, генезис, управление высшими учебными заведениями.

**Modern social and pedagogical need to ensure academic autonomy of higher
education institutions**

Abstract. The article analyzes the models, genesis, stages of development of academic autonomy of higher education institutions in the world, a comparative analysis of the problems of academic independence of higher education institutions, foreign experience in improving the higher education system in relation to the international education system.

Keywords: education, higher education, autonomy, academic autonomy, academic autonomy, personnel selection, administrative autonomy, genesis, management of higher education institutions.

Dunyoda aksariyat oliy ta'lim muassasalari, davlat yoki xususiy ekanligidan qat'i nazar, tashkilot – yuridik shaxs (entity) sifatida professional boshqaruv asosida boshqarib kelinadi. Bu boshqaruv, ya'ni akademik mustaqillik OTMlarda uning maqsad va vazifalariga muvofiq shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu borada dunyoga mashhur tadqiqotchi Jamil Salmi oliy ta'lim jarayonidagi xalqaro raqobat muhiti va mazkur jarayonda xalqaro miqyosdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarini tashkil etishda akademik mustaqillik tamoyillarining ahamiyati haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: «...universitetlarga mustaqillik berish boshqaruv jarayonidagi muammolar va ular muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omilidir[1. s.132]. Shuning uchun akademik mustaqillik tamoyillarini joriy etilishi OTMlarning hozirgi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy voqelikka moslashishi hamda rivojlanishiga muhim sharoit yaratadi. Dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlari[2]da oliy ta'lim tizimida professional boshqaruv, akademik mustaqillik tamoyillarini joriy etish borasida turli fan sohalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Oliy ta'limda akademik

mustaqillik tamoyillarini joriy etish va uning jamiyat taraqqiyoti talablariga muvofiqligini ta'minlash zamonaviy metodlarini yaratish, uning natijasi sifatida kadrlar tayyorlashni bugungi kundagi mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojga muvofiqlashtirish masalalariga oid muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlashda boshqaruvga doir ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish[3] hamda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish, oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish[4] kabi qator vazifalar belgilangan.

Bu kabi vazifalarni bajarishda zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining eng muhim jihati bo'lgan akademik avtonomiya (mustaqillik) prinsiplarini ular faoliyatiga tatbiq etish, bu borada rivojlangan davlatlar bosib o'tgan yo'l, uning tamoyillari, turlari, bu borada to'plangan tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz quyida ayni yuqoridagi muammolarni tadqiq qilishni lozim topdik.

2007 yilgi Lissabon deklaratsiyasi («Yevropa universitetlari 2010 yildan keyin: maqsadlar birligidagi xilma-xillik» deklaratsiyasi)ga ko'ra akademik avtonomiya - universitetning tashkiliy, moliyaviy, kadrlar tanlash, shuningdek o'quv rejalar mazmuni, o'qitish va tematik, tadqiqotlarning nazariy istiqboli va metodlarini tanlashga doir akademik erkinligini nazarda tutadi.

Tadqiqotchilar akademik erkinlik, ish tartibi hamda substantiv avtonomiyani farqlaydilar.

Akademik erkinlik deganda, olimning ta'lim berish va tadqiqot olib borishdagi erkinligi nazarda tutiladi. Bu siyosiy, diniy yoki ijtimoiy omillar bo'yicha uchraydigan tazyiyalardan xavfsiramay, haqiqatni izlash va bilimlarni tarqatish erkinligidir.

Substantiv avtonomiya – oliy o'quv yurtining o'z maqsad va dasturlarini belgilashdagi mustaqilligini anglatadi.

Ish tartibi avtonomiyasi – bu universitetning maqsadga erishishda va dasturlarni bajarishda vositalarni tanlash huquqidir

Ba'zi hollarda universitet avtonomiyasi quyidagi jihatlarni o'z ichiga olishi mumkin:

o'qituvchilar shtatini shakllantirish, talabalarni o'qishga qabul qilish, shuningdek ular ishlaydigan va o'qiydigan sharoitlarni yaratish;

o'quv rejasini tuzish va sifat standartlari erkinligi;

fondlarni buromadning turli qismlariga tarqatish erkinligi[5. s.25-36].

Oliy ta'lim muassasalari akademik mustaqilligi doktrinasini Jeneva universiteti professori Beritolson shakllantirdi: "ideal mustaqil universitet: rahbar tanlash erkinligiga; boshqarish modelini tanlash erkinligiga; ilmiy tadqiqotlar obyektini tanlash erkinligiga; talabalarni qabul qilish erkinligiga; ijtimoiy buyurtmani tanlash erkinligiga; mulkka va uni boshqarish huquqiga; qo'shimcha manbalardan olingan mablag'lardan foydalanishda erkinlikka ega bo'lishi kerak" [6]. Meksikalik tadqiqotchi I.Ordorika universitet avtonomiyasini quyidagi o'lchovlarda baholaydi:

1)lavozimlarga ichki mezonlar bo'yicha tayinlashni qamrab oluvchi siyosiy avtonomiya;

2) ta'lim olish huquqiga ega bo'lish, akademik erkinliklar va so'z erkinligini qamrab oluvchi akademik avtonomiya, hududiy avtonomiya;

3) o'qish uchun to'langan, ish haqi sohasidagi siyosat va boshqa parametrlardan tushgan vositalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy avtonomiya [7. r. 361–388].

Tadqiqotchi R. Stikvex avtonomiyani akademik tuzilmalarning ma'lum sohalar va institutsional sharoitlarda berilgan vazifalar bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida; qadriyatlar tizimini va makonini tizimlashtiruvchi va olimlarning akademik harakatchanligiga yordam beruvchi intellektual kapital harakatining ma'lum shakllarini o'rnatishni; o'qituvchi va talabalar darajasida baholash mezonlari haqida qarorlar qabul qilishni; akademik tizimning strategik vazifalari va maqsadlarini aniqlashni; kelajakdagi rivojlanish uchun o'ta muhim bo'lgan boshqa ijtimoiy sohalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishni (masalan, iqtisodiyot, siyosat, fuqarolik jamiyati bilan); qabul qilingan qarorlar va jamiyatda aks etuvchi, bo'lishi mumkin bo'lgan natijalar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni ta'riflaydi [8].

Akademik avtonomiya fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u o'zaro kelishuv va tushunishga yo'naltirilgan omma oldidagi bahs-munozaralarni nazarda tutadi. Tadqiqotchi P. Kilmanseg "avtonom universitetlar demokratiyaning muhim elementini barpo qilishda ishtirok etadi, demokratiyaning tarkibiy qismi, tadqiqot va o'qitish erkinligini o'ziga xos institutsionallashtirish hisoblanadi", deb ta'kidlaydi. [9]. Avtonomiya va kollegiallik akademik faoliyatda ishtirok etish tuzilishi va siyosatini belgilaydi. Ular birgalikda oliy ta'lim institutlarida demokratik jarayonni konseptuallashtirish imkoniyatini beradi [10].

Akademik avtonomiya — umumevropa ta'lim va ilmiy makonini rivojlantirish, "bilimlar Yevropasi"ni qurishning tayanch indikatorlaridan biri [11. r. 3]. Asosiy bahs-munozaralar universitet erkinliklari va akademik avtonomiyaning oliy ta'lim tizimiga davlat tomonidan ajratiladigan moliyalashtirishni kamaytirib borayotgan sharoitlarida o'zgarib borayotgan chegaralari, universitetlarga nisbatan munosabatlarda ijtimoiy kutilgan natijalarning transformatsiyasi, akademik strukturalarni tez moslashuvchan boshqaruvida ehtiyojlarning o'sishi va o'quv rejalarini mehnat bozori talablariga moslashishi nuqtai nazaridan olib borilmoqda.

Hozirgi kunda oliy ta'limning sovuq urushdan keyingi yuksalish davrida asosiy tamoyillarini poydevori qo'yilgan jamiyat va akademik tizim o'rtasidagi tayanch munosabatlarni qayta ko'rib chiqish masalasi turibdi [11. r. 3]. Akademik avtonomiya universitetning muhim prinsipi sifatida akademik uyushmaning qadriyatlarga oid tavsifining va universitet strukturasini samarali boshqarish pozitsiyasidan kelib chiqib qayta anglanishi lozim.

Ijtimoiy siyosatni yuritish va amalga oshirish subyektlari uchun akademik avtonomiyani baholash muammosi universitet tuzilmasi kompleks tavsifining ko'plab tarkibiy qismlarini samarali boshqarishning relevant vositalarining mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Misol tariqasida individual akademik avtonomiyaning elementi sifatida o'qitish erkinligini ko'rib chiqish mumkin. Finlyandiyalik tadqiqotchi T. Vitonen bu indikatorga nisbatan o'zining quyidagi qarashini taklif qiladi: «o'qitish erkinligining haqiqiy tabiatiga baho berish qiyinchilik tug'diradi, biroq doimiy mehnat shartnomasi bo'lmagan (tenure), amalda o'qituvchi bo'lib ishlayotgan ko'pgina yosh olimlar, katta yoshdagi hamkasblarining maslahatlariga istar-istamas quloq soladilar. Tadqiqot erkinligi ham tez-tez tashqi, noakademik manbalardan olinadigan moliyalashtirish bilan bog'liq» [12. r.58–73]. Shunday ekan, universitet avtonomiyasining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

Birinchidan, akademik avtonomiya — bu tadqiqotlar va ilmiy ma'lumotlar bilan almashinish erkinligi. Ya'ni, tadqiqotlar tematikasini, akademik faoliyatni va ilmiy natijalarni tarqatish usullarini tanlash — bu ilmiy uyushmaning o'zini o'zi tashkillashni ("yashirin kollejning") vazifasi. Ushbu tezis turlicha munosabatlarga sabab bo'ladi: hayotga izchillik

bilan tadbir qilingan holda, u o'z qobig'iga o'ralib olgan olimlar jamiyatning dolzarb talablariga javob bera olmasliklariga olib keladi.

Ikkinchidan, akademik avtonomiya dastavval dunyoviy, diniy, sud hokimiyatlari yurisdiksiyasi universitet korporatsiyasining a'zolariga nisbatan cheklanganligini anglatar edi. Shubhasiz, markazlashgan milliy davlatlarning universal loyihasi ta'sirida bu holat jiddiy o'zgardi. Ko'p hollarda bu institutsional normalar akademik uyushma vakillarining harakatlarini baholashga restitutiv huquqiga ega bo'lgan universitetlarning etika bo'yicha qo'mitalarida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, akademik avtonomiya ilmiy uyushma va universitetning o'zini o'zi boshqarishning kollegiallik (bamaslahat qaror qabul qilish) tamoyillarini nazarda tutgan. Bu jarayon ham professor, dekan, rektor lavozimlariga saylov yo'li bilan tayinlash, ham ilmiy darajalarni olish uchun taqdim qilingan ishga munosabatni kollegial baholash asosida bildirishni nazarda tutadi. Bu omil hozirgi kunga qadar aksariyat yetuk akademik tizimlarda saqlanib turibdi.

To'rtinchidan, akademik avtonomiya professor-o'qituvchilar tarkibi universitetda o'qish-o'qitishning tuzilishi va mazmunini mustaqil belgilash huquqiga ega ekanligini nazarda tutadi. Avtonomiyaning bu tarkibiy qismiga ham boshqa institutsional omillar – universitet bitiruvchilariga buyurtma beruvchi davlat va ish beruvchilar ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchi J. F. Liotar “Legitimlikni yo'qotish kontekstida universitetlar va oliy ta'lim institutlari bundan buyon ideallarga emas, kompetensiyalarni shakllantirish talablariga bo'ysunadi [13. s.118]. Tadqiqotchi A. F. Filippov va D. Yu. Kurakinlar “korporatsiya” tushunchasining ko'plab ma'nolaridan universitet mustaqil akademik mohiyatga ega bo'lgan uyushma emas, samarali amaliy mehnat qiluvchi korxonaga tushunchasiga ko'proq javob beradi, deb uqtiradilar. [14. s.48-49].

XX asrning 90-yillarida Yevropa ta'lim tizimi rivojlanishi uchun sifat kafolati va nazorati borgan sari muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Samaradorlik va moslashuvchanlikka esa raqobat muhitida yashab qolish uchun zarur bo'lgan madaniy-axloqiy qadriyatlar sifatida qarala boshladi. Amerika oliy ta'lim tizimini tahlil qilgan P.Jamport uning ijtimoiy institut modelidan industriya modeli tomon siljiganini ta'kidlaydi[15]. Bunday dinamikaning belgilari orasida oliy ta'lim tizimida iste'molchi figurasining ahamiyati o'sib borayotgani, akademik stratifikatsiyaning chuqurlashayotgani, OO'Yuni boshqarishga e'tiborning ortib borayotgani, shuningdek keng jamoatchilik uchun va ba'zi bozorlarda bilimlarning ayrim turlari uchun iste'mol qiymati oshayotgani haqida fikrlar bildirilgan edi. [11. P. 13–20]. 1980-yillarning oxirlaridayoq bunga o'xshash jarayonlar oliy ta'limni xususiyashtirish degan nom olgan [16; r.1-19].

Rossiyada akademik ilm-fan va universitet tizimi o'zining shakllanish tarixi davomida davlatning siyosiy va ma'muriy bosimlariga uchragan. Shu bilan birga universitetning korporativ tuzilishga ega ekani uni davlatning boshqa strukturalariga qaraganda mustaqilroq qolishiga imkon berdi. Bunga hatto ta'lim berish makonini tashkillash orqali ham erishilgan: “XVIII asrning o'rtalarida asos solingan davrdan boshlab Moskva universiteti Yevropa universiteti g'oyasining natijasi bo'lgan va korporatsiyaning akademik erkinligi bilan kafolatlangan.

Moskvadagi universitet sobitqadamlik bilan to'laqonli akademik korporativlik tomon harakat qildi. Korporativ ong haqida so'z ketganda universitetning makonga oid ajralganini ta'kidlamasliklikning iloji yo'q: bekorga uning hududi to'siq bilan o'rab qo'yilib, darvozasini qorovul qo'riqlamaydi” [17. s. 258].

XIX asrda universitetlarning olimlari, o'qituvchilari va talabalari hokimiyat uchun xavotir manbai bo'ldilar. Siyosiy jarayonning dinamikasiga muvofiq akademik avtonomiyaning chegaralari o'zgarib bordi: siyosiy “iliqlik” davrlarida bu chegaralar kengayib borgan bo'lsa, “sovuqchilik” vaqtlarida esa u, aksincha, torayib bordi. Bu “tebranishlar”ni islohotlar davri Rossiya universtetlari nizomlaridagi o'zgarishlar misolida

kuzatish mumkin[18; 41]. Inqilob va undan keyin ta'lim tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlar akademik avtonomiya va universitet erkinliklarini keskin qisqartirdi. Oliy ta'lim tizimi "mehnat ziyolilari" — texnik mutaxassislarining tayyorlash o'chog'iga aylandi. Bunday sharoitlarda akademik erkinliklarning eng yuksak namunalari va qadriyatlarini yoddan chiqdi.

Bir vaqtning o'zida universitetlar qattiq ma'muriy bosim ostida qoldi, yoshlar ittifoqi va partiya tashkilotlari tizimi universitet uyushmasi hayotini nazorat qildi. 1930-yillarda oliy ta'lim bilan Fanlar akademiyasi tizimining bo'linishi rasman uzil-kesil yakunlandi. Aynan Fanlar akademiyasi ilmiy izlanishlarni g'oyaviy nazoratsiz olib borish uchun yetarli darajadagi akademik avtonomiyani saqlab qolishga erishdi. Albatta, qatag'onlar vaqti-vaqti bilan Akademiyani larzaga keltirib turar edi, biroq rahbariyatni saylov yo'li bilan tayinlash tamoyili va yetakchi tadqiqotlarning mudofaaga oid ahamiyati katta bo'lganligi sababli, zarur bo'lganda partiya tashkilotlarining aralashishini cheklash va "ilm-fanda partiyaviylik" tamoyiliga yetarli darajada qarshilik qilish imkoniyatini berdi.

Sho'rolar tuzumining parchalanishi va iqtisodiy kollaps ta'lim tizimi ustidan nazorat qiluvchi markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tishiga yordamlashdi va bu sharoitda ta'lim uyushmasi universitet madaniyati g'oyasiga qaytdi. Inqilobgacha tashkil etilgan universitetlar o'zlarini "klassik" deb atab, o'z tarixlariga faol murojaat qildilar. Yangi universitetlar oliy ta'lim muhitining alohidaligi haqidagi shiorni qo'llab-quvvatladilar va undan o'zlarining tashkiliy ajralgani qonuniy ekanligini e'tirof etishda foydalandilar. 1992 yilda "Rossiya oliy ta'limi" jurnali tashkil etildi, "Oliy maktab axborotnomasi" nomini eski universitet madaniyatiga havola qiluvchi lotincha «Alma Mater» nomiga o'zgartirdi. «Alma Mater» sahifalarida o'rta asrlar davri universitetlarining kundalik hayotiga va universitetning zamonaviy dunyodagi yuksak vazifasiga bag'ishlangan maqolalar chop etildi[19. s. 85–90; 20. s. 9-17]. 1992 yilning yozida Rossiya rektorlari ittifoqi tashkil qilindi, u "ta'lim tizimining tayanch tamoyillari — sifat, barchaga ochiqlik, akademik erkinlik va an'alarini saqlab qolish va rivojlantirishni" asosiy maqsadlari qatorida e'lon qildi [21]. Rektorlar ittifoqi nufuzli tashkilotga aylandi, chunki, birinchidan, u barcha OO'Yu rektorlarini birlashtirdi, ikkinchidan, rektorlarning mustaqilligi bu lavozimga saylov yo'li bilan tayinlash tizimining kiritilishi bilan mustahkamlandi, uchinchidan, oliy ta'limda davlat budjeti asosida o'qishga sho'rolar ijtimoiy siyosatining yutug'i sifatida qaralardi, u hatto bozor munosabatlariga o'tish davrida ham xavfli edi.

Shunday vaqtlar bo'ldi-ki, ta'lim vaziri kursisining taqdiri rektorlar korpusi qo'lida bo'ldi. Akademik avtonomiya va universitet erkinligi OO'Yuning xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida o'zini-o'zi boshqarishni kengaytirish bilan muvaffaqiyatli tarzda olib borildi. Bunday mustaqillikning OO'Yularini yetarli darajada moliyalashtirilmayotgani haqidagi gaplar ko'payib borayotgan vaziyatda, ba'zan oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga yo'l qo'yilishiga sababchi bo'lib qolganligi esa boshqa masala edi[22].

XXI asrning birinchi o'n yilligi oliy ta'lim tizimini markazlashtirish shiori ostida o'tdi. 1998 yil inqirozidan keyingi iqtisodiy o'sishning boshlanishi bilan federal hukumat jiddiy byudjet mablag'larini jamg'arishga va OO'Yularini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirishga erishdi. OO'Yulari tizimini boshqarish sekin-asta o'zgarib bordi: OO'Yularining katta qismi mahkamalar qaramog'idan fan va ta'lim vazirligi tasarrufiga o'tdi. "Ta'lim" milliy loyihasining borishi jarayonida yirik ta'lim klasterlari – OO'Yuni boshqarish sifatini oshirishga qaratilgan federal universitetlarning shakllanishi boshlandi. Ilk federal universitetlar barpo etilgandan so'ng, 2009 yilning oxirida RF prezidentining farmoni bilan yana beshta shunday: Shimoliy(Arktik), Volgabo'yi, Ural, Uzoq sharq va Shimoliy-sharqiy OO'Yularini tashkil qilish ko'zda tutildi. Federal universitetlar OO'Yulari va regional ilmiy markazlarni qo'shish va jalb qilish yordamida tashkil qilindi. Resurslarni bir joyga jamlash va boshqaruvning yagona tizimini joriy qilish, universitetlarda menejment sifatini oshirish imkonini berib, ilmiy va ta'lim muhitini modernizatsiyalash uchun sharoit yaratish ko'zda tutilgan edi. Shu asnoda bir qator hollarda ma'muriy iyerarxiyaning o'sishi o'qituvchilarning

individual akademik erkinligini pasayishiga olib keldi. Qolaversa, akademik avtonomiya uchun federal universitetlarni tashkil qilish oqibatlarini tahlil qilishga hali erta.

Sekin-astalik bilan rektorlik korpusining federal hukumatga tobeligi oshib bormoqda. Gubernatorlikka saylovlarning bekor qilinishidan keyin to'liq amalga oshirilmay qolgan rektorlarni saylov yo'li bilan tayinlash g'oyasi (prezident faqat MDU va SPbDU rektorlarini tayinlaydi) keng muhokama qilindi, biroq rektorlarni nazorat qilish kuchaytirildi [23; 24].

XXI asrning birinchi o'n yilligi oxirlariga kelib Rossiya universitetlarining substantiv va bajariladigan ish tartibining darajasi pasaydi, chunki ularning ko'pchiligi uchun prioritet moliyalashtirishni olish, maqsadli tadqiqot va ta'lim dasturlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha majburiyatlarni bajarish lozim edi. Shaxsiy akademik erkinlik masalasiga kelsak, uning chegaralari turli OO'Yu o'qituvchilari va xodimlari uchun turlicha bo'lib, universitet rahbariyatining siyosatiga bog'liq bo'ldi. Federal universitet va milliy tadqiqot institutlari o'zlarining hozirgi akademik faoliyatini mustaqil belgilashda kengroq imkoniyatlarga ega edi.

2010-yilning bahorida bu OO'Yulari Rossiyaning yetakchi OO'Yulari Assotsiatsiyasiga birlashdilar, SPbDU rektori N.Kropachev uning rahbari bo'ldi [25. s. 6]. Rossiyalik ta'lim bo'yicha taniqli sotsiologlar bu tendensiyalarni hozirdanoq ta'kidlamoqdalar: "aksariyat OO'Yulariga qaraganda kuchliroq moliyaviy va boshqa yordamni olayotgan OO'Yularining kichik bir guruhining paydo bo'lishi oqibatida tengsizlik holati oliy maktabda ham paydo bo'lmoqda" [26. s.87-104].

Oliy ta'lim tadqiqotchilari kelgusida akademik avtonomiya makonining qisqarishidan havotirlanmoqdalar [27. s.153–170 b.; 28. r. 87–99]. Bugungi kunda u jiddiy chaqiriqlarga duch kelmoqda: ta'limni ommaviylashtirish; universitet strukturasi menejerlashtirish; ilm-fan va ta'limni tijoratlashtirish va xususiyashtirish; ta'limda xizmat ko'rsatish bozorini globalashtirish, universitetni "milliy davlat" g'oyaviy loyihasiga integratsiyasi va h.k.

Ta'limni ommaviylashtirish oldin o'rta ta'lim tizimidagi ta'lim inqilobi natijasida ro'y bergan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin esa u oliy ta'lim tizimiga tarqaldi. Ta'lim inqilobi ta'limning barcha darajasida o'quvchilar sonining mislsiz kengayishini anglatadi. U har bir universitet o'qituvchisiga to'g'ri keladigan talabalar sonining oshishiga olib keldi va universitet ichidagi shaxslararo kommunikatsiyani jiddiy ravishda qiyinlashtirdi [29. r. 80–94].

Garchi Britaniya universitetlarida hali ham internat tizimining qoldiqlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, uni ilgari ko'rinishda saqlab turish murakkab ekanligi aniq bo'lib qoldi [30. s.247-261]. O'qituvchi ommaviy turdagi ta'lim xizmatini ko'rsatish formatiga javob berish uchun, yangi sharoitlarda o'z faoliyatini oqilona tashkil etishga majbur bo'ladi.

Universitet hayotini soxta yoki real byurokratlashtirish, akademik uyushma vakillarini ko'pincha altruistik qadriyatlarga tayanuvchi OO'Yu ichidagi munosabatni tashkillashning alternativ shakllarini izlashga majbur qiladi. Masalan, Illinoys universiteti tadqiqotchisi R.Stivers I.Illich [31]ning g'oyalariga amal qilib, shakllangan akademik tizimning ichida gumanitar fanlar sohasidagi bilimlari bilan o'rtoqlashuvchi to'garaklar hamda ta'lim berayotgan va ta'lim olayotganlarning kichik guruhlarini rivojlantirishni taklif qiladi (shadowuniversity). R. Stiversning fikricha, bunday birlashmalarning bepul, ixtiyoriy, iyerarxiyaga asoslanmagan xarakteri, akademik byurokratiya va universitetni texnologizatsiyalash ta'sirida akademik erkinliklarning buzilishiga qarshi turishga yordam beradi hamda "bunday tashabbusning erkinligi – byurokratik tartibga solishsiz o'qitish erkinligi oylik maosh va shuhrat qozonishni o'ylab o'tirmasdan, nimani o'qitmoqchi bo'lsa shuni o'qitish, pul, daraja (unvon, martaba ma'nosida) va ish haqida o'ylab o'tirmay yo'nalishni erkin tanlash – zamonaviy universitetga jonli alternativ bo'lib xizmat qiladi-ki, uning asosiy funksiyasi – tilni, qadr-qimmatni, tanqid qilish layoqatini yo'qotish evaziga bizni texnologik sivilizatsiyaga moslashtirishdir" [32].

Bitiruvchilar sonining ko'payishi universitet shtatlarini kengaytirishni talab qildi. Bunda yangi lavozimlar ko'pincha o'quv jarayoni yoki tadqiqotlar olib borish bilan bog'liq emas: xo'jalik, marketing, moliyaviy va ma'muriy xizmatlar universitet hayotining nufuzli

ishtirokchilariga aylanishadi. Byurokratiya universitetlar allaqachon davlatning ijtimoiy siyosati obyekti bo'lib qolganligida ham ifodalanadi. Keyingi yigirma yillikda universitetlar tomonidan korporativ biznesda qabul qilingan boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mimetik izomorfizm tamoyiliga rioya qilib [33. s.34-56], universitetlarning tashkiliy tuzilishi amaliy korporatsiyaning umumiy xususiyatlarini takrorlash, universitetlarni byurokratlashtirish tobora kuchayib bormoqda.

Akademik uyushmani kollegial tashkil qilishning o'rniga yangi menedjerializm tamoyillari kirib kelmoqda. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, yangi menedjerializm individga katta bosim o'tkazadi, bu ayniqsa o'qituvchi avtonomiyasining doirasi bilan boshqarma xodimining nazorat harakati doirasi kesishgan holatlarda, ya'ni individual akademik erkinlik darajasida namoyon bo'ladi[34. s. 44–56]. So'nggi o'n yilliklardagi menedjerializmning beqiyos rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimiga neoliberal tamoyillarning kirib kelishi bilan bog'liq. Bunda ikkita muammo paydo bo'ladi: birinchidan, menedjerializm nuqtai nazaridan qabul qilinayotgan qarorlar axloqan shubhali bo'lishi mumkin, ikkinchidan esa, boshqaruvning menedjerialistik metodlari ko'p jihatdan ijtimoiy sektorda odatda amal qilinuvchi qaror qabul qilishning demokratik tamoyillariga zid bo'ladi. Borgan sari universitet tizimiga chuqurroq kirib borayotgan menedjerializm ham universitetning institutsional avtonomiyaga, ham akademik uyushma vakillarining professional avtonomiyasiga jiddiy salbiy ta'sir etishi mumkin.

Universitet ilm-fani va ta'limini tijoratlashtirish bir necha jihatlarida namoyon bo'ldi. Neoliberal burilishning boshlanishi bilan universitetlar maqsadli ijtimoiy siyosat obyektlaridan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bozori agentlariga aylanishadi. Bu nafaqat, Amerikaning ta'lim tizimida o'zini juda yaxshi ko'rsatgan[35], balki universitetlar va tijoratning tizimli hamkorligini, shu bilan birga universitetlarning ta'limni ham milliy, ham global bozorda raqobatining boshlanishini anglatadi. Akademik amaliyotda qabul qilingan, konsensusga erishishga asoslangan qaror qabul qilishning kollegial usullari o'rniga, korporativ tijorat-boshqaruv amaliyoti kirib kelmoqda-ki, bunda qarorlarni tezkorlik bilan qabul qilish, bir-birining nuqtai-nazarini kelishib muvofiqlashtirishdan ko'ra muhimroqdir. Avtonomiyaning ramziy ma'nosi o'zgarimoqda: avtonomiya tamoyili – intellektual va ilmiy emas, xo'jalikka oid – universitetlar borgan sayin ilmiy korxonalar sifatida qabul qilinmoqda, bu esa o'z navbatida ularni xususiy korxonalarni boshqargandek boshqarishni bildiradi[36. s. 65-82].

Tadqiqotchilar S.Sloyter va L.Leslilar tomonidan tahlil qilingan “akademik kapitalizm” tushunchasi akademik avtonomiya oldiga yangi tahdidlar qo'yadi: xususiy korporatsiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan tadqiqotlar sonining o'sishi ilmiy ishlar mohiyatini o'zgartiradi va shuningdek, akademik erkinliklarga zarba beradi. Patentlash amaliyoti va korporativ buyurtma asosida amalga oshirilayotgan ko'plab tadqiqotlarning yopiq xarakteri akademik hayotning muhim omiliga aylanmoqda va ilmiy uyushmaning qadriyatlar tizimida fundamental o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Britaniyalik tadqiqotchi M.Xenkel biolog-olimlarning ilmga nisbatan siyosatning o'zgarishi oqibatida akademik o'xshashlikning transformatsiyasiga uchraganini tavsiflagan. Fundamental fan g'oyasi akademik manfaatlardan tashqarida bo'lgan manfaatlar bilan bog'liq strategik tadqiqotlar g'oyasi bilan almashmoqda. Britaniya oliy ta'limini isloh qilish jarayoni davomida akademik faoliyat yana-da byurokratlashdi va tashqi nazorat uchun ochiq bo'ldi[37. r.87–99].

Tijoratlashtirishning boshqa jihati talabalarining universitetga bo'lgan munosabatining o'zgarishi hisoblanadi. Universitet ilm-fan maskanidan mutaxassisliklar va o'quv fanlariga o'rab qo'yilgan, bilimlarning har xil turlarini taklif qiluvchi ulkan supermarketga aylandi. Bunday sharoitlarda o'zini ratsional tutish eng sifatli tovarni – keyinchalik muvaffaqiyatli konvertatsiya qilish mumkin bo'lgan lavozim va iqtisodiy status bilan bog'liq nufuzli universitet diplomini tanlab olishdan iborat. Oliy ta'lim tizimi endi talabani olimlarning ko'plab avlodiga qo'shiluvchi, bilim olish an'analarini vorisi sifatida qabul qilmayapti. U ko'proq ta'lim xizmatlarining iste'molchisi va bir vaqtning o'zida talab qilingan professionalni tayyorlash uchun yarim fabrikat sifatida ishtirok etadi. Talabaning intellektual modeli tubdan o'zgarimoqda. J.Ritser bu jarayonni oliy ta'limni makdonaldlashtirish deb atadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bizning maqsad bir tomondan, akademik avtonomiyaning universitet olamini muhim xususiyati sifatida ko'rsatish bo'lsa, boshqa tomondan, madaniy va <http://research.samdu.uz/>

iqtisodiy komponentlarning ta'lim siyosatining iqtisodiy, institutsional va boshqarish uchun ahamiyatini ta'kidlashdir.

Akademik avtonomiyani muhokama qilishning qiyin tomoni bu tushunchaning ko'p ma'noli ekanligidir. Birinchidan, biz alohidaligini isbotsiz ham qabul qilinaveradigan universitet makoni metaforasi bilan ish olib boramiz. Ushbu ramziy maydon ishtirokchilari universitetning inqirozi haqida fikr yuritar ekan, ko'pincha uni akademik avtonomiyaning tarixan ildiz otgan tamoyillari asosida ko'rib chiqadilar.

Ikkinchidan, akademik avtonomiya bu – professional avtonomiyaning alohida holati bo'lib, ilmiy uyushma va universitet intellektuallarining alohida nuqtayi nazariga ega bo'lish da'volarining chegaralarini belgilaydi.

Uchinchidan, akademik avtonomiya universitetning boshqa korporatsiyalar va umuman jamiyatga nisbatan solishtirganda noyob hodisa sifatidagi institutsional tavsifi hisoblanadi. Bu ma'noda bugungi kunda universitetni boshqarish – jumladan, akademik avtonomiyani tartibga solish universitet olami uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Салми Д. Создание университетов мирового класса. пер. с англ. - М.: Издательство «Весь Мир», 2009. – 132 с.
2. United States Department of Education (USDE) (AQSH), Council for Higher Education Accreditation (CHEA) (AQSH), Massachusetts Institute of Technology, Stanford University, Harvard University, California Institute of Technology, University of Cambridge, University of Oxford, University College London, Imperial College London, University of Chicago, ETH Zurich – Swiss Federal Institute of Technology, Nanyang Technological University, Singapore, Ecole Polytechnique Fédérale de Lausanne, Princeton University, Cornell University, National University of Singapore
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modd, 20-son, 354-modd, 23-son, 448-modd, 37-son, 982-modd.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
5. Шпаковская Л. Политика высшего образования в Европе и России. СПб.: Норма, 2007.
6. Волосникова Л. М. Принципы академической автономии // Совет ректоров. 2008. №9.
7. Ordorika I. (2003) The limits of university autonomy: Power and politics at the Universidad Nacional Autónoma de México // Higher Education. Vol.46.No.3.P.361–388.
8. Stichweh R. (1994) Wissenschaft, Universität, Profession — Soziologische Analysen. Frankfurt am Main: Suhrkamp.
9. Kielmansegg P. G. (1983) The university and democracy. LA: University of California Press.
10. Buchbinde rH. (1993) The market oriented university and the changing role of knowledge // Higher Education. Vol.26.No.3.P.331–347.
11. Felt U., Glanz M. (2003) University autonomy in Europe: Changing paradigms in higher education policy. Special case studies decision-making structures and human resources management in Finland, France, Greece, Hungary, Italy, The Netherlands, Spain and the United Kingdom. University of Vienna.
12. Virtanen T. (1999) Finland: Searching for performance and flexibility/ Managing Academic Staff in Changing University Systems/ ed. by D. Farnham. Buckingham: Open University Press. P. 58–73.
13. Лиотар Ж. Ф. Состояние постмодерна. М.: Алетейя, 1998.

14. Куракин Д., Филиппов А. Возможность корпорации: к социологическому описанию университета // Неприкосновенный запас. 2006. № 4–5. URL:<http://magazines.russ.ru/nz/2006/48/ku22.html>
15. Gumpert P. J. (2000) Academic restructuring: Organizational change and institutional imperatives // Higher Education. Vol.39. P.67–91.
16. Geiger R. L. (1987) Privatization of higher education: International trends & issues / Conference Report, International Council for Educational Development, Racine, Wisconsin, June 15–18.
17. Кулакова И. П. Университетское пространство и его обитатели. Московский университет в историко-культурной среде XVIII века. М.: Новый хронограф, 2006.
18. Щетинина Г.и. Университеты в России устав 1884 г. м.: Наука, 1976.
19. Эймонтова Р. Г. Русские университеты на путях реформы: шестидесятые годы XIX века. м.: Наука, 1993.
20. Мишед Л. Идея университета // Вестник высшей школы. 1991. № 9.
21. Хабермас Ю. Идея университета: Процессы обучения // AlmaMater. 1994. №4. с.9–17.
22. Устав общероссийской общественной организации «Российский союз ректоров» URL:http://sr-nso.nstu.ru/pologenie/ustav_rsr/
23. Bain O.B.(2003) University autonomy in the Russian Federation since perestroika. New York and London: Routledge Falmer.
24. Василенко К. Образование под контролем. Законодатели в строили вузы в вертикаль власти // Время новостей. 2006. 15 мая. № 81.
25. Черных А. Высшая школа хочет подняться по выше. Создана ассоциация ведущих вузов страны // Коммерсант. 2010. 3 июня. № 98. с. 6.
26. Иллич И. Освобождение от школ. Пропорциональность и современный мир. М.: МВШСЭН, 2006.
27. Михель Д. Университетская интеллигенция и бюрократия: борьба за университетские свободы в постсоветской России // Неприкосновенный запас. 2007. №1(51). с.153–170.
28. Henkel M. (2007) Can academic autonomy survive in the knowledge society? A perspective from Britain // Higher Education Research & Development. Vol.26. №1. P.87–99.
29. Schmidt E. K., Langberg K. (2008) Academic autonomy in a rapidly changing higher education framework. Academia on the Procrustean bed? // European Education. Vol.39. No.4. P.80–94.
30. Гордон Э., Гордон Э. столетия тьюторства. ижевск, 2008.
31. Иллич И. Освобождение от школ. Пропорциональность и современный мир. М.: МВШСЭН, 2006.
32. Stichweh R. (1994) Wissenschaft, Universitat, Profession — Soziologische Analysen. Frankfurt am Main: Suhrkamp.
33. Димаджиоп. Дж., Пауэлл У. в. Новый взгляд на «железную клетку»: институциональный и зооморфизм и коллективная рациональность в организационных полях // Экономическая социология. 2010. Т.11. №1. с.34–56.
34. Дим Р. «Новый менеджериализм» и высшее образование: управление качеством и продуктивностью работы в университетах Великобритании // вопросы образования. 2004. № 3. с.44–56.
35. Исследовательские университеты США: Механизм интеграции науки и образования. М.: Магистр, 2009.
36. Галь Б., сулье Ш. Реформа управления университетами и актуализация спора факультетов во Франции // Laboratorium. 2009. № 1. с. 65–82.
37. Henkel M. (2007) Can academic autonomy survive in the knowledge society? A perspective from Britain // Higher Education Research & Development. Vol.26. №1. P.87–99.

UDK: 379.83

**OLIV O'QUV YURLARIDA TALABALARNING MUSTAQIL O'QUV
FAOLIYATLARINI YANGI INNOVATSIYA TEXNIKALARI ASOSIDA TASHKIL
ETISH****O.K.Quvandiқov¹, S.X.Kurbaniyazov¹, A.S.Kurbaniyazov², M.Boltayev¹**
¹Samarqand davlat universiteti, ²TATU Samarqand filiali

Annotatsiya. Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish va talabalarning mustaqil bilim olishlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga doir tavsiyalar bayon etilgan. Shuningdek, mustaqil o'quvni tashkil qilish jarayoniga va prinsiplariga tavsif berilgan.

Kalit so'zlar: oliy talim, talim tizimi, mustaqil talim, innovatsion talim, bilimni baholash, standart, referat, ma'ruza, tezis, amaliyot, laboratoriya.

**Организация самостоятельной образовательной деятельности студентов в
высших учебных заведениях на основе новых инновационных технологий**

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы о самостоятельной работе студентов, раскрываются ее понятие, виды: фронтальная, групповая, индивидуальная самостоятельная работа, дается характеристика процессу и принципам организации самостоятельной работы студентов в вузе.

Ключевые слова: высшее образование, система образования, самостоятельная работа, инновационное образование, оценка знаний, стандарт, реферат, лекция, тезис, практика, лаборатория.

**Organization of independent education activities of students in higher education
institutions on the basis of new innovative techniques**

Abstract. The article focuses on students independent work, its concept, types: frontal, group, individual independent work, gives a description of the process and principles of organization of independent work of students in University.

Keywords: higher education, education system, independent study, innovative education, knowledge assessment, standard, synopsis, lecture, thesis, practice, laboratory.

Bugungi kunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri - bu talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish va ularda mustaqil o'qish faoliyatini shakllantirishdan iboratdir. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishda va o'zgartirishda kreativ texnikalarni qo'llab yechimni topish mumkin bo'lgan ijodiy vazifalar muhim ahamiyatga ega. Har qanday o'quv fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil o'quv faoliyati muhim hisoblanib, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Maqolada talabalarning mustaqil bilim olishlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga doir tavsiyalar bayon etilgan.

Talabalarning mustaqil o'qish faoliyatining samaradorligini oshirishda Edvard de Bononing "Fikrlashning olti shlyapasi" nomli kreativ texnikasi muhim ahamiyatga ega. Bu uslub ananaviy usullarni yangilash uchun yetarlicha sodda uslublardan hisoblanadi. Uslub fikrlashni oltita turga yoki tartibga ajratishga imkoniyat berib, ularning har biriga metafor rangli "shlyapa" javob beradi. Fikrlashni bunda ajratish har bir tartibdan anchagina samaraliroq foydalanish imkoniyatini beradi va barcha fikrlash jarayoni ancha fokuslangan va mustahkam bo'ladi. [1,5,6]

Izlanishlar, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizmining barcha pog'onalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish va amaliy tajribalarni qo'yishda texnologik muammolar yuzaga keladi. Ya'ni, aksariyat talabalarda mustaqil o'qish va mustaqil ishlash

ko'nikmalari yetarli darajada emas. Shuning uchun o'qituvchilar ko'p hollarda talabalarga mustaqil ishlash uchun har doim bir xil shakldagi vazifalarni (taqdimot tayyorlash, seminarlarda ma'ruza qilish, konspekt qilish, referat tayyorlash va hokaz) beradi. Bu esa talabaning ijodiy ishlash faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqil o'qishning asosiy maqsadi, talabaning o'qituvchining yordamisiz shug'ullanishi bilan emas, balki uning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Talabalarning mustaqil o'qish faoliyatining samaradorligi quyidagi faktorlar bilan aniqlanadi) talabalarning mustaqil o'qish faoliyatiga tayyorligi; b) mustaqil o'qish faoliyatini sifatli pedogogik ko'nikmalar bilan ta'minlanganligi.

Talabalarning mustaqil o'qish faoliyatiga tayyorligi, quyidagi komponentalar orqali aniqlanadi:

- o'zida tasavvur etishni shakllantiruvchi qiymatli-motivatsion komponenta va kasbiy motivatsiya;

- umumlashgan bilimlarni egallagan, kognitiv komponentalar (birinchi navbatda dunyoqarash g'oyalari va ilmiy tushunchalar) hamda umumta'lim ko'nikmalari va o'z-o'zini tashkil qilish;

- shaxsning erkinlik sifatlari bilan aniqlanuvchi erkinlik komponentalari, bunda birinchi o'rinda tartib-intizom, trishqoqlik, mustaqillik, talabchanlik va javobgarlikni his qilish turadi. Talabalarning mustaqil ishini pedogogik kuzatish-bu o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil o'qish jarayonini ilmiy-pedogogik jihatlarini ta'minlash va o'quv vazifalarini bajarishda talabalarga amaliy yordam berishdan iboratdir.

Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida talabalarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mas'uli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir.

Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilishda o'ziga xos texnologik jihatlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Talabalar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishning texnologik jihatleri

Talabalar mustaqil o'quvini tashkil etishda va kreativ texnikani qo'llashda pedogogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mustaqil o'qishni tashkil etishda qator ustunliklarga ega bo'lgan texnik jarayonlarni qarab chiqamiz.

Metodologik texnologiya. Talabalar mustaqil o'quvini tashkil etishda metodologik texnologiyani qo'llashda birinchi navbatda shaxsning imkoniyati va faoliyati e'tiborga olinadi. Talabalar mustaqil o'quvi shaxsning shakllanishida va rivojlanishida muhim omil bo'ladi. Bunda talabalarda uzliksiz o'qish ko'nikmalari shakllanadi. Talabalarning faol mustaqil o'quv faoliyati, shaxs rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Faol mustaqil o'quv faoliyatida talabaning tasavvur qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Umuman jarayonlarni tasavvur qila bilish, o'qish va o'rganishda jua ham muhimdir.

Texnologiya vositalari. Ilmiy matnlar, o'quv topshiriqlari, "Fikrlashning olti shlyapasi", har xil holatlarni tahlil qilish uchun matinning ajratilgan bir qismi va boshqa topshiriqlar texnologiya vositalariga kiradi.

Tanlangan matn juda ham sodda bo'lmasligi, talabada qiziqish uyg'ota oladigan bo'lishi eng muhimi, fanni o'zlashtirish uchun qulay bo'lishi lozim. Shu bilan fikrlar qarama-qarshiligidan foydolanib, yangi g'oyalarni shakllantirish uchun sharoit yaratilishi kerak. Bu texnologiyani amalga oshirishda "Olti shlyapa" uslubi samarali bo'ladi. Fikrlashning oltita shlyapasi baholash va tahliliy fikrlashni to'ldiradigan ijodiy va konstruktiv fikrlash uchun mo'ljallangan.

O'quv topshiriqlari. Talabalar mustaqil o'quvini tashkil qilishda, ularga faqatgina ozlari bajarishlari kerak bo'lgan topshiriqlar berish bilan chegaralanmasdan, ularga shaxsiy faoliyatlarini tashkil qilishga ham ko'maklashish va ularning faoliyatini baholash zarur bo'ladi. Shuning uchun o'quv topshiriqlari qatoriga topshiriqning shakli, ish usulini o'quv

jarayoniga qo'llash, ishning bajarilish ketma-ketligi va oxirgi natijaning baholash mezonini to'g'risida ma'lumotlar berilsa mustaqil o'qishning samaradorligi yaxshi bo'ladi.

Topshiriqlarni tahlil qilishda "Fikrlashning olti shlyapasi" kreativ texnikasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. [2,7-11]

"Fikrlashning olti shlyapasi" kreativ texnikasi kreativlik, fikrlash ko'nikmalarini o'rganish, adabiy fikrlash konsepsiyalarining muallifi va sohosi bo'yicha butun dunyoga mashhur ekspert Edvard de Bono tomonidan ishlab chiqilgan.

Kreativlik (ijodiylik) – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmuyi bo'lib, u o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Agar kreativlikni o'rganish bo'yicha pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklari va yondashuvlari inobatga olinsa, pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko'rib chiqish lozim.

Kreativlik (ijodiylik) mezonlariga originallik, onglilik, o'zgaruvchanlik va birlashuvchanlik mansubdir. Pedagogik faoliyatda kreativlikning paydo bo'lish ko'lamini yetarlicha keng va buni pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatida, pedagogik xulq-atvorda, fanni o'qitish metodikasida, talabalarga beriladigan materialni tanlashda, auditoriyadan tashqari o'qish va tarbiyaviy ishlarda ko'rish mumkin.

Kreativ o'qitishni o'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi ijodiy munosabat, o'zaro tinglovchi yoki ma'lum bir vosita va tinglovchi ortasidagi ijodiy jarayon shaxs ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladigan usul deb ta'riflanishi bo'ladi. Innovatsion pedagogik faoliyatning yuksalishi ta'lim va tarbiyaning yangi qirralarini ochishga, noan'anaviylik va originallikka asoslangan innovatsion texnologiyalarni, eng asosiysi, fikrlash, tarbiyalash, anglab olish qobiliyatining muhimligini optimalroq shaklini yaratishdek dalillarga asoslanadi. Kreativ o'qitishni tashkil etish innovatsion jamiyatda tinglovchilarning faol hayotga qiziqishi va xohishini uyg'otadi, fikrlarni tahlil qilishga undaydi, his-tuyg'ulari va bilimlarini mustahkamlaydi. Tinglovchining kreativligini rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo'naltirish, muammoli faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflash-kreativ o'qitishning maqsadi hisoblanadi va aynan kreativ o'qitishga bo'lgan ehtiyojni talab qiladi.

Kreativ o'qitishning maqsadi-tinglovchilarning kreativ kompetentligini va pedagogik mahoratini rivojlantirish, shuningdek, ularning ijodiy fikrlashini kreativ o'qitish metodlari va dizayn fikrlash texnologiyasi yordamida takomillashtirishdir. Kreativlik – ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ o'qitish jarayonini shakllantirish, kreativ o'qitish metodlari va dizayn fikrlash texnologiyalari orqali kreativlikni oshirish, turli uslublardan bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishda foydalanish, tinglovchilarning ta'lim dasturlarini shakllantirishda faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Kreativ o'qitishni samarali tashkil etish uchun tashkiliy-pedagogik shartlar, muayyan metodikani qo'llash samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan zarur va yetarli darajada muhim shartlar majmuyi zarurdir.[3,12] Kreativlik (ijodiylik) metodikasi–ijodiy yo'l bilan original g'oyalarni paydo qilish, muammolar va masalalar yechimini topishda yangicha yondashish uslublari va texnikasi. Kreativlik metodlari masalani aniq belgilashga, g'oyalarni topishni tezlashtirishga, g'oyalar sonini ko'paytirishga, muammoga bo'lgan nazarni kengaytirishga va mental to'siqlarni yo'q qilishga yordam beradi. Kreativlik metodlari algoritm sifatida qaralmaydi, ammo ular yaxshi g'oyalar olish imkoniyatini oshiradi. Ijodiy fikrlashni stimulyatsiyalash original g'oyalarni talab qiluvchi ko'p sohalarida qo'llaniladi. Kreativlikning turli metodikalari bitta insonga yoki ikki va undan ko'p guruhlar uchun mo'ljallangan. Kreativlik metodikasining masalalari: muammoni aniq belgilab olish; dastlabki ma'lumotlarni to'plash; dastlabki materiallarni strukturalashtirish uchun mezonlar ishlab chiqish; dastlabki

materiallarni strukturalashtirish; dastlabki materiallarni har tomonlama o'rganib chiqish; muammo sohasini kengaytirish; muammoga nisbatan bo'lgan bir nechta nuqtayi-nazarlarni shakllantirish; maksimal yechimlar sonini shakllantirish; istiqbolli g'oya va yechimlarni tanlab olish mezonlarini ishlab chiqish; mental to'siqlarni olib tashlash; g'oyalar generatsiyasi jarayonini tezlashtirish; muammoning yechimini topishda eng original va foydali variantlarini topish.

1-bosqich: o'z tajribasidan kelib chiqqan holda o'z faoliyatida paydo bo'lgan uslubiy muammolarni ilmiy-metodik tarafdin tushunish.

2-bosqich: ilmiy-metodik muammolarni va undan kelib chiqadigan ehtiyojlarni har tomonlama tahlil qilish.

3-bosqich: yangi bilimlar, yechim va tanqidiy tahlillarni qidirish.

4-bosqich: yangi pedagogik tajribani yaratish va o'zlashtirish.

5-bosqich: yangi pedagogik tajribani sinovdan o'tkazish va joriy qilish.

Kreativ o'qitishni tashkil etish uchun o'quv-uslubiy ta'minot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kreativ o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlarini olib borish uchun metodik ko'rsatma va tavsiyalar;

- kreativ o'qitishni tashkillashtirish uchun muammoli topshiriqlar;

- tinglovchilar kreativligini baholash uchun nazorat-o'lchov materiallari.

Shuni etirof etish kerakki ananaviy fikrlashda ma'lumotlar, mantiq, pozitiv va negativ baholar hamda ijodning bir-biriga aralashib ketganligidadir. Kreativ fikrlash odamga aniq vaqtda aynan bir ish to'g'risida fikrlarni jamlash imkonini beradi. "Fikrlashning olti shlyapasi" konsepsiyasi fikrlash jarayonini "shlyapada" ko'rsatilgan ranglar asosida oltita har xil turlarga bo'lishni taklif qiladi.

"Olti shlyapa" uslubi – bu fikrlashning turli aspektlariga bir martada bittadan diqqat ajratishga o'rganish kabi tamoyilni qo'llashdir. Ushbu turli aspektlarning birlashmasi natijasida to'la hajmdagi fikrlashni beradi. Turli rangdagi oltita metafor shlyapalar fikrlashning har bir asosiy turini ifodalaydi. Shlyapalarning bundan ko'proq soni ko'plik qiladi va odamni chalg'itishi mumkin.

Oltita shlyapa uslubi bizning fikrlashimizni boyitadi va uni ko'p tomonli qiladi. Agar biz boshqalardan nima haqidadir o'ylab ko'rishni so'rasak, ko'pincha ular esankirab qoladilar, lekin ular oltita shlyapa sxemasidan foydalanib predmetni tekshirishga taklif qilinsalar, ularning idrok qilish kengligi tezgina kattalashadi.

"Fikrlashning olti shlyapasi" kreativ texnikasi muammoli o'quv va ilmiy matnlarni har xil nuqtayi nazardan tahlil qilishda va baholashda juda foydalidir. Bu usul talabalarning kasbiy mahoratlari va ilmiy dunyoqarashlari shakllanishda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu uslub ananaviy usullarni yengish uchun yetarlicha sodda uslublardan hisoblanadi. Uslub fikrlashni oltita turga yoki tartibga ajratishga imkoniyat berib, ularning har biriga metafor rangli "shlyap" javob beradi. Fikrlashni bunda ajratish har bir tartibdan anchagina samaraliroq foydalanish imkoniyatini beradi, va barcha fikrlash jarayoni ancha fokuslangan va mustahkam bo'ladi.

Shlyapani kiya turib, biz o'zimizga bu shlyapa ko'rsatadigan rolni olamiz.

* Aniq rangli shlyapani yecha turib, biz fikrlashning bu turidan ketamiz.

*Bir shlyapani boshqasiga almashtirganda fikrlashning bir ondagi o'zgarishi amalga oshadi. Bunday uslub odamni xafa qilmagan holda, fikrlashning borishini almashtirishga chaqirish imkoniyatini beradi. Biz aytilayotgan fikrga hujum qilmaymiz, balki uni o'zgartirishni so'ramiz.

* O‘zining fikrini belgilash uchun oddiygina shlyapani aytish mumkin va bu bilan fikrlashning qanday turidan foydalanish ko‘zda tutilayotganligini ko‘rsatish mumkin. Masalan, sodda qilib, qora shlyapani kiyib, siz tinglovchiga xush muomulalik bilan, uning taklif etgan g‘oyasini muhokama qilishi imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

Ushbu uslub bilan ishlash uchun yuqorida tavsiflangan tamoyillarni o‘rganish mumkin. Shunday qilib siz va sizning hamkasblaringiz qoidalarni eslab qolishlari mumkin va ularni ish mobaynida qo‘llaydilar. Keyin esa fikrlashning olti turiga o‘tish mumkin. Fikrlash shlyapasini yechib, kiyib, o‘zgartirib yoki o‘z fikringizni oddiygina belgilash uchun faqat “shlyapani” aytib, biz o‘zimizga bu shlyapa ko‘rsatadigan aniq rol ni olamiz. Rangli chop etish orqali asosiy ranglar qog‘ozga alohida-alohida tushiriladi. Lekin, oxiri, ularning hammasi aralashib ketadi va rangli chop etish imkonini beradi.

“Fikrlashning olti shlyapasi” kreativ texnikasini qo‘llashning ketma-ketligi:

*Birinci navbatda “Fikrlashning olti shlyapasi” texnikasini to‘g‘risida ma‘lumotlarni atroflicha o‘rganish kerak.

*O‘rganilayotgan matinda keltirilgan misollar bilan tanishib chiqing.

* “Shlyapalarning ketma-ketligini” tanlang.

*Navbatdagi shlyapaga e‘tiborni qaratib, barcha “shlyapa” larning ketma-ket qo‘llanishiga erishing.

Qizil shlyapa. Qizil rang olov haqidagi fikrga yo‘llaydi. Qizil shlyapa his-tuyg‘u, intuitsiya, sezish va ko‘ngildan o‘tish bilan bog‘liq. Bu yerda xech narsani asoslashni hojati yo‘q. Sizning sezishingiz mavjud va qizil shlyapa ularni bayon qilish imkoniyatini beradi.

Sariq shlyapa. Sariq rang odamning fikrini quyosh va optimizmga yo‘llaydi. Sariq shlyapada biz takliflarning fazilatini va ustunligini, istiqbolini va yutuq imkoniyatlarini topishga, berk ashyolarini aniqlashga harakat qilamiz.

Qora shlyapa. Qora rang hakamning mantiyasini eslatadi va ehtiyotkorlakni ifodalaydi. Qora shlyapa - bu tanqid va baholash tartibidir, u kamchilik va tavakkailchilikni ifodalaydi va nega nimadir bo‘lmasligini aytadi.

Yashil shlyapa. Yashil rang o‘simliklar, o‘shish, energiya, hayotni eslatadi. Yashil shlyapa – ijod, g‘oyalar generatsiyasi, nostandart yondashuv v alternativ nuqtayi nazar tartibidir.

Oq shlyapa. Oq rang qog‘oz haqidagi fikrga yo‘llaydi. Bu tartibda biz diqqatimizni o‘zimizda mavjud axborot yoki qaror qabul qilish uchun kerak bo‘lgan axborotga: faqat dalil va raqamlarga qaratamiz.

Ko‘k shlyapa. Ko‘k shlyapa, fikrlash masalasini qo‘yish va natijada biz nimaga erishishimiz kerak bo‘lganlarni yechish uchun muhokama boshida foydalaniladi. Bu tartib fikrlash jarayonining o‘zini kuzatish va uni boshqarishgadir (maqsadni ifodalash, yakun yasash va hokazo).

Oltita shlyapa uslubi bizning fikrlashimizni boyitadi va uni ko‘ptomonli qiladi. Agar biz boshqalardan nima haqidadir o‘ylab ko‘rishni so‘rasak, ko‘pincha ular esankirab qoladilar, lekin ular oltita shlyapa sxemasidan foydalanib predmetni tekshirishga taklif qilinsalar, ularning idrok qilish kengligi tezgina kattalashadi.

Talabalar mustaqil o‘quv faoliyatini pedogogik kuzatish texnologiyasi quyidagilardan iborat: tayyorlov, tashxis-motivatsiya, o‘rganuvchi, mustaqil o‘quv faoliyati davri, baholash va boshqalar. Keyinchalik o‘qituvchining va talabaning har bir etapdagi faoliyati tavsiflanadi.[4] Tayyorgarlik ko‘rish davri. Bunda o‘qituvchi talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda fanning asosiy jihatlarini e‘tiborga olishi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Buning uchun oldindan aynyn qo‘yilayotgan topshiriqni bajarish uchun mos keladigan texnik vositalar ishlab chiqilishi zarur.

Tashxis-motivatsiya davri. Bunda o'qituvchi talabani mustaqil o'quv faoliyatiga hamda topshiriqni bajarishga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi va talabaga namuna sifatida ishni bajarib ko'rish uchun ruxsat beradi.

O'rganish davri. O'qituvchi bu davrda talabalarga "Fikrlashning olti shlyapa" kreativ texnikasining mazmuni va mohiyatini tushuntiradi va mustaqil ishlash uchun topshiriqlar va vazifalar beradi. Mustaqil ishni baholash kriteriyalarini tushuntiradi va auditoriyada mustaqil bajariladigan mashq va topshiriqlarni tashkil etadi. Bunda talaba kreativ texnikaning mohitini va vazifani bajarish uchun qo'yilgan talabni hamda baholash mezonini tasavvur qilishi kerak.

Mustaqil ishlash davri. O'qituvchi berilgan topshiriqlarning bajarilishini nazorat qiladi, zarur bo'lgan hollarda topshiriq yuzasidan talabalarga maslahatlar beradi. Talaba mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqni mustaqil faoliyat yuritib bajaradi, bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlaydi va o'z xatolari ustida ishlaydi.

Baholash davri. O'qituvchi baholash mezonlari asosida bajarilgan ishlarni tekshirib, guruhdagi hammaga xos bo'lgan xatolarni aniqlaydi va baholaydi. Xatolarni har bir talabaga individual tushuntiradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalar dunyoqarashini shakillantirishda va o'zgartirishda "Fikrlashning olti shlyapa" kreativ texnikalarni qo'llab, yechimni topish mumkin bo'lgan ijodiy vazifalar muhim ahamiyatga ega. Har qanday o'quv fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil o'quv faoliyati muhim hisoblanib, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda.

Adabiyotlar

1. Эдвард де Боно. Латеральное мышление: Учебник. – Минск: Попурри, 2012. 384с.
2. Бабакова Т.А. Готовность обучающихся к самостоятельной учебной деятельности в высшей школе /Т.А.Бабаков // Вестник высшей школы (Альма-матер). -2019.-С.47-54.
3. Бас Эвелин. Как развивать креативность.- Ростов-на-Дону: Феникс, 2008.-189 с.
4. Шесть шляп мышления. – Минск: Попурри, 2006. 208 с.
5. Доклад «Двенадцать решений для нового образования», М., 2018.
6. Усачев А.С. «Информационные навигаторы» и организация самостоятельной работы студентов//Высшее образование в России. 2012. № 2. С.110-115.
7. Стрекалова Н.Б. Самостоятельная работа студентов в современных информационно-образовательных средах//Информатика и образование. 2014. № 9. С. 45- 48.
8. Змеева Т.Е. Формирование самостоятельной творческой деятельности при обучении иностранному языку//Высшее образование в России. 2015. № 11. С. 154-158.
9. Леушин И.О., Леушина И.В. Некоторые проблемы организации СРС в техническом вузе//Высшее образование в России. 2017. № 6. С. 51-56.
10. Абасов З. Проектирование и организация самостоятельной работы студентов// Высшее образование в России. - 2007. № 10. С.81-84.
11. Шарф И.В. Реализация самостоятельной работы студентов в компетентностной модели//Высшее образование в России. 2011. № 6. – С.98-103.
12. Ибрагимов Г.И., Ибрагимова Е.М. Особенности процесса обучения в современной высшей школе // Инновации в образовании. – 2014. № 12. – С. 46-61.
13. Ибрагимов Г.И. О роли и месте проблемного обучения в современном высшем образовании//Альма-матер. 2016. № 12. – С.21-26.

УДК: 379.83.84:831

ОСНОВНЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКОВ

Ш. Б. Турсунова

Самаркандский государственный архитектурно – строительный институт

Аннотация. В настоящей статье исследуется история развития методических направлений в обучении языкам и методы, как способы обучения аспектам языка и видам речевой деятельности в настоящее время при обучении русского языка. Для того, чтобы провести анализ современных методов обучения языкам, нужно вернуться в историю обучения языкам и попытаться вскрыть связи между методами обучения в прошлом и настоящем. Это даст нам возможность воспользоваться опытом прошлого и поможет разобраться во множестве современных методов обучения, следовательно выбрать из этого множества наиболее эффективные методы обучения русскому языку.

Ключевые слова: метод, аспект, классификация, совокупность принципов, признак, подход, термин, язык, модель обучения.

Tillarni o'qitishda asosiy metodologik yo'nalishlar

Annotasiya. Ushbu maqolada rus tilini o'qitishda hozirgi vaqtda til va nutq faoliyati turlarini o'qitish usullari sifatida til o'qitishdagi uslubiy yo'nalishlarning rivojlanish tarixi ko'rib chiqilgan. Til o'qitishning zamonaviy metodlarini tahlil qilish uchun til o'qitish tarixiga nazar solish, o'qitish metodlari o'rtasidagi o'tmishda va hozirgi davrda bog'lanishlarni ochishga harakat qilish, bu esa o'tmish tajribasidan foydalanish imkoniyatini yaratadi va turli xil zamonaviy o'qitish usullarini tushunishga yordam beradi, hamda rus tilini o'qitishning eng samarali usullaridan to'g'ri foydalana olishhaqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: metod, aspekt, tasnif, tamoyillar to'plami, xususiyat, yondashuv, termin, til, o'rganish modeli.

The main methodological directions in language teaching

Abstract. This article examines the history of the development of methodological directions in language teaching and methods as ways of teaching aspects of language and types of speech activity at the present time when teaching the Russian language. In order to analyze modern methods of language teaching, it is necessary to go back to the history of language teaching and try to uncover the connections between teaching methods in the past and the present. This will give us the opportunity to use the experience of the past and help us understand a variety of modern teaching methods, therefore, choose from this set the most effective methods of teaching the Russian language.

Keywords: method, aspect, classification, set of principles, feature, approach, term, language, learning model.

В литературе по истории преподавания языков термин метод - употреблялся и употребляется обычно в двояком смысле: как название способа, пути обучения языкам, предложенного каким-либо лицом или коллективом (тогда пишут о «методе Коменского», «методе Берлица» и т.д.), и, как название более или менее значительной совокупности принципов обучения, лежащей в основе множества частных способов обучения (тогда говорят о «прямом», «грамматико-переводном», «коммуникативном» методах). Необходимо различать эти два значения термина «метод». В последнем случае можем говорить о наличии определенных школ в методике или, если прибегнуть к более широкому понятию, о наличии определенных методических направлений.

Итак, если метод – путь или способ обучения языку, общее направление к цели, то под методическим направлением следует понимать группу методов, имеющих общие принципы. Метод обучения языкам является обобщённой моделью реализации основных компонентов учебного процесса по языку, в основе которой лежит определенная доминирующая идея решения главной методической задачи. Если в обучении устной

монологической речи регулярно использовать одни и те же формы описания визуально воспринимаемых сюжетов, то в таком случае этот обобщенный способ презентации материала станет методом, определенной моделью обучения.

Метод сложилось двойственное определение метода как частно методического понятия: а) метод – направление в обучении; б) метод – способ обучения аспектам языка или видам речевой деятельности;»Из этого следует, что к одному методическому направлению можем отнести несколько методов обучения языков.«В методике преподавания иностранного языка исторически сложилось двойственное определение метода как частно методического понятия: а) метод – направление в обучении; б) метод – способ обучения аспектам языка или видам речевой деятельности;»[3]Из этого следует, что к одному методическому направлению можем отнести несколько методов обучения языков.

Классификация методов обучения языкам представляет собой сложный вопрос, так как в основу их наименования были положены самые разные признаки. В зависимости от того, какой аспект превалирует в преподавании, методы могут быть лексическими или грамматическими. Какие логические категории являются основными – синтетическим или аналитическим. В соответствии с тем, развитие какого умения является целью обучения, различают устный метод и метод чтения. По способу семантизации материала – переводной и прямой методы. Название метода определяется приемом, положенным в основу работы над языком, например, аудиовизуальный, наглядный. Известны также методы получившие свое название по имени их авторов – методы Берлица, Гуэна, Пзлмера, Узста, Фриза, Ладо, Лозанова и т. д.

На протяжении ряда веков возникали разные методы или методические направления в обучении языкам. Все эти методические направления относятся к определенной цели и содержанию обучения. Но, с другой стороны, методы обучения создают предпосылки для того, чтобы содержание обучения языкам становилось шире. История методики преподавания языков знает многочисленные и многообразные попытки найти наиболее рациональный метод обучения.

Своими корнями методы обучения уходят в системы Ратихия (1571-1635) и Коменского (1592 – 1670). Уже Ян Амос Коменский и Вольфганг Ратихий исследовали проблему обучения языкам. В их педагогическом наследии видное место занимают мысли, касающиеся обучению языкам. Язык служит средством общения и образования. По их мнению в процессе обучения языку следует опираться прежде всего на текст, словарь и грамматику. Много времени надо уделять практическим упражнениям, тесно связанных с правилом. Ян Амос Коменский выдвинул принцип активности, систематичности, доступности и последовательности. Он рекомендовал идти в обучении от простого к сложному, от конкретного к абстрактному, от легкого к трудному. Выступал против заучивания слов без достаточного понимания называемых этими словами явлений, подчеркивал необходимость сознательного усвоения языка и соблюдения параллелизма вещей и слов. Уже он советовал употреблять сопоставительный подход к языковым фактам и учитывать родной язык учащихся, использовать принцип наглядности как «золотое правило обучения».

Самым древним методом обучения языкам является метод натуральный, который ничем не отличался от того метода, которым ребенка обучают родному языку. Язык осваивался путем подражания готовым образцам, путем многократного повторения и воспроизведения нового материала по аналогии с изученным. Естественный метод, преследовавший чисто практические цели – обучение прежде всего умению говорить и читать легкий текст, долго удовлетворял потребности общества, в котором продуктивное владение языком было привилегией его высших слоев. С возникновением школ и введением в них языки как общеобразовательного предмета первое время также пытались обучать языку естественным методом, однако он вскоре был заменен переводным методом.

На рубеже XVIII и XIX вв. возникают „языки — как школьный предмет с чисто практическими задачами. Поскольку вначале единственной задачей их изучения было чтение книг на этих языках и поскольку в преподавании латинского языка чтение авторов

занимало видное место, постольку методика обучения латинскому языку была применена и в преподавании, языков. Пока смысл их изучения лежал лишь в умении читать специальную литературу, „грамматико - переводной метод был совершенно достаточен. Поэтому традиционный метод изучения латинского языка в наше время известен под названием „грамматико - переводного. Этот метод называют также „синтетическим—, т. е. идущим от элементов к целому, а в применении к языку – от слов и форм – к фразам. Грамматико -переводной метод направлен на обучение языку как системе. До конца XIX в.в качестве основного объекта при обучении языкам выступала сама языковая система. «Цель преподавания языка — это сообщение знаний о его общей структуре». Система языка изучалась посредством переводного метода четырьмя основными языковым навыкам – не только говорению и аудированию, но чтению и письму. Поэтому большое внимание уделяется разбору текстов, написанию изложений и сочинений. Кроме того, учащийся должен усвоить структуру и логику языка, уметь соотносить его с родным, понимать, в чем их сходство и различия. Это невозможно без серьезного изучения грамматики и без практики двухстороннего перевода. В основе грамматико-переводного метода лежит заучиваниеграмматических правил, форм и словаря для того, чтобы уметь переводить тексты.Перевод был главной целью данного метода. В центре изучения языков была форма, ноне живая речь. Поэтому в учебниках встречались и бессмысленные упражнения изадания

Потребность в эффективном обучении языков на уровне, пригодном для коммуникации, остро поставила проблему адекватных методов обучения. Грамматико-переводной метод не соответствовал чисто практическим целям усвоения живых языков. «До сих пор лингвисты занимались почти исключительно письменным языком и даже вопросы фонетики трактовали в аспекте букв. Во второй половине XIX в. лингвисты почти в буквальном смысле “открыли” — живой язык с его своеобразным произношением, не укладывающимся в традиционные буквенные формулы. Дружными усилиями лингвистов, методистов и педагогов-практиков была разработана новая методика преподавания иностранных языков, которая в идеале стремилась привить учащимся изучаемый язык в качестве второго “родного языка” —, а в связи с этим обращала главное внимание на устную речь. Все это большое методическое движение известно под названием “реформы” —, манифестом которого явилась брошюра Физтора “Der Sprachunterricht muss umkehren”. В этом движении имеется много разных течений и нюансов, все они объединяются, прежде всего, отрицательным отношением к переводно-грамматической методике, в преподавании латинского языка. Впрочем, нетрудно собрать воедино и основные положительные черты всего движения».[4]

Главные методические направления в обучении языкам отличались друг от друга прежде всего по основному подходу к решению концептуальных проблем, которые касались соотношению практических и общеобразовательных направлений обучения, языковой теории и речевой практики, сознательности и бессознательности, устной и письменной речи, учёта родного языка, роли грамматики. Данные проблемы решались односторонне. «В процессе развития теории и практики обучения языкам осуществлялись многочисленные попытки, направленные на создание наиболее рациональных способов овладения иностранными языками. Наряду с развитием основных методических направлений обучения языкам развивались и их модификации. Модификациями одного методического направления считаются методы, которые характеризуются общими или близкими чертами основного методического направления».

Широкое распространение в обучении языков роль учили варианты смешанного метода. На дальнейшее развитие обучения иностранных языков сказал существенное влияние лингвистический структурализм. основоположник – Ф. де Соссюр и его последователи «четко разделили в речевой деятельности "язык" и "речь" как абстрактное и конкретное, как социальное и индивидуальное, как однородное (гомогенное) и разнородное (гетерогенное)". Для преподавания языка большое значение имели из направления структурализма идеи Пражской школы и американской дескриптивной лингвистики. Понимание общего принципа выполнения действия и выбор правильной мотивировки

являются гораздо более важными факторами в процессе выработки навыка, чем частота повторения. Соответственно, в методике обучения иностранного языка акцент перемещается на внутренние факторы, определяющие обучение. Появляются методы, основанные на активной работе мышления, на развитии смысловой догадки. И хотя в центре внимания психологии обучения языкам продолжает оставаться формирование речевых действий, требование их осмысления находит все больше сторонников.

Историю развития методов обучения языкам можно охарактеризовать как постоянную борьбу и поочередную смену методов, ставящих своей целью то обучение чтению письму, то устной речи. Каждый метод при определенных условиях обладает объективной ценностью. Каждый из известных сегодня основных методов обучения языкам в свое время считался новаторским, а когда время его проходило, зачислялся в число не оправдавших себя, устаревших. Однако, по справедливому замечанию педагога А. В. Коньшевой, не следует забывать, что от каждого из этих методов тянутся в сегодняшний день ниточки открытий и заблуждений, успехов и неудач. Прямые методы целесообразнее всего использовать в небольших по численности группах, в разноязычной или в одноязычной аудитории, если обучающий не владеет языком учащихся, а цель его работы – обучить устному владению языком в пределах ограниченной тематики. Сопоставительными методами можно пользоваться только в одноязычной аудитории, когда обучающий владеет родным языком учащихся и когда ставятся общеобразовательные и практические цели – особенно в плане рецептивного овладения языком. Смешанные методы также применяются в зависимости от целей и конкретных условий обучения языку.

Новые методы обучения языков возникали в ответ на потребности общества в изучении языков. С появлением каждого нового метода часто говорилось о создании оптимального и универсального метода обучения. Однако опыт работы и исследования в области методики свидетельствуют о том, что создание универсального метода – задача вряд ли осуществимая, ибо оптимальность метода определяется конкретными целями, задачами и условиями обучения. В качестве исходного признака метода используется подход к обучению, который характеризуется как система суждений о природе языка и его усвоении. В современной методике получили обоснования разные подходы к обучению.

Подход к изучению языка как к лингвистическому феномену обеспечивает знание системы языка, но не раскрывает механизмы ее использования. Отказ от комплексного изучения аспектов языка (фонетики, лексики, грамматики) не приводит к овладению правилами и лексикой при решении коммуникативных задач. Обучение готовым клише и фразам, соотнесенным с конкретными ситуациями, также не приводит к овладению языком, поскольку это не способствует осознанному формированию системы языка. Только последовательное целенаправленное обучение системе языка через речь в процессе речевой деятельности позволяет сформировать механизмы речи. Из числа способов овладения иностранным языком предпочтение стали отдавать тем, которые обладают развивающим потенциалом: будят мысль, оттачивают средства ее выражения, обогащают чувства, образные представления, совершенствуют общую культуру общения и социального поведения в целом. «В настоящее время широкое распространение получили активные методы обучения. Применение этих методов требует тщательной подготовки как со стороны обучающего, так и со стороны обучаемых. Среди ведущих методических установок этих методов можно назвать: самостоятельную и активную речевую деятельность с преобладанием устных форм общения, опора на зрительно-слуховые образы как источники семантизации языкового материала и др.»

Успешное обучение русскому языку зависит не только от того, каким языковым материалом обладают учащиеся, но и от того, как они учатся. Следование коммуникативной ориентации заставляет предъявлять и группировать словесный материал не по формально-грамматическим, а по функционально-речевым и тематико-ситуативным характеристикам. Предложение является основной единицей обучения.

Преподаватель стремится формировать у учащихся представление о языке как отражении социокультурной реальности, национальной и общечеловеческой. При этом можем

использовать два способа интерпретации фактов культуры в учебных целях, которые могут быть разведены и хронологически. Согласно первой тенденции, преподаватель идет от фактов языка к фактам культуры. Такой тип знакомства с фактами культуры разрабатывается в рамках лингвострановедения. Основными объектами рассмотрения при этом являются: безэквивалентная лексика, фоновые знания, присущие носителям языка и отсутствующие либо иначе трактуемые в иноязычной культуре, невербальные средства общения, отражающие особенности национальной ментальности носителей языка, тактики речевого поведения в различных ситуациях межкультурного общения, отражение культурных традиций в художественной литературе. При этом культуроведческая информация извлекается из самих единиц языка, а объектом рассмотрения на занятиях становятся особенности отражения в языке культуры его носителей. Такой подход к изучению языка в контексте культуры впервые был обоснован в книге В. Г. Костомарова и Е.М. Верещагина «Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного» (М., 1973) и продолжен во многих публикациях.

Вторая тенденция в изучении языка и культуры на занятиях по практике языка рекомендует идти от фактов культуры к явлениям в языке. Эта тенденция отразила произошедшее в 90-е гг. смещение научных интересов в сторону изучения на занятиях прежде всего культуры. Взаимодействие языка и культуры в рамках этого направления изучается в новой области языкознания – лингвокультурологии, которая стремится исследовать взаимосвязь и взаимодействие культуры и языка в процессе их функционирования. Итак мастерство преподавателя, работающего по традиционной методике, коммуникативной или прямой, определяется умением "увязать" все аспекты и компоненты в единый эффективно работающий комплекс, где реализуется принцип, когда видимый конечный результат оказывается больше простой суммы исходных элементов. Или, проще говоря, когда количество переходит в качество. Дальнейшее изучение, наблюдение и применение новейших методов обучения языку различных возрастных групп и анализ результативности представляет собой важную и интересную тему для дальнейшего исследования.

Литература

1. Маňак, J. Praha: 2003, С. 23.
2. Бим И. Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. М: Просвещение, 1988.
3. Под редакцией А. Н. Щукина. Методика преподавания русского языка как иностранного. Москва: Русский язык, стр. 37.
4. Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общая методика. 2-изд. М: 1974.стр.14-29.
5. Бим И. Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. М:Просвещение, 1988.
6. Гальперин П. Я.: Заметки о психологических основах обучения речи на иностранном языке. Функциональный подход к обучению речи на иностранном языке. Москва, 1980.
7. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М.: Прогресс,1985. стр. 451.
8. Зимняя И. А.: Индивидуально-психологические факторы в успешность на учения речи на иностранном языке.// Иностранные языки в школе. № 1, 1970, стр. 37-46.
9. Соссюр де Ф., Труды по языкознанию. Москва: 1977, стр. 6-7.
10. Скаткин М. Н.: Проблемы современной дидактики. Москва: Педагогика, 1984.
11. Пассов Е. И., Кузнецова Е. С.: Цели обучения иностранному языку. Воронеж, Интерлингва, 2002.
12. Сухобская Г. С.: Об автоматизации умственных действий.// Вопросы психологии. № 3, 1959, стр. 74-86.
13. Щерба Л. В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. Москва: «Русский язык», 1958, Шубин Э. П.: Языковая коммуникация и обучение иностранным языкам. Москва: стр. 89.
14. Щерба Л. В.: Языковая система п речевая деятельность. Л., 1974.
15. Щерба Л. В.: Общие вопросы методики. // Преподавание иностранных языков в средней школе. Москва: Высшая школа, 1974.

UDK: 379.83.84:831

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI IJODKORLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK BOSQICHLARI****M.B.Jumazoda***Samarqand davlat universiteti**E-mail: malika.jumazoda.94@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodkorlikka yo'naltirishning pedagogik bosqichlari haqida ma'lumotlar, pedagog va buyuk olimlarning mazmunli fikrlari keltirilgan bo'lib, maqola maktab o'qituvchilari va oliy ta'limda bolalar adabiyotidan dars beradigan o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, ujudkorlik, xayol, tasavvur, vosita, his-tuyg'ular, vizual faoliyat.

Педагогические этапы развития детского творчества

Аннотация. В статье приведены сведения о педагогических этапах творческой направленности дошкольников, содержательные мнения педагогов и великих ученых, статья предназначена для воспитателей детских садов и учителей детской литературы в вузе.

Ключевые слова: дошкольники, творчество, воображение, воображение, медиа, эмоции, зрительная деятельность.

Pedagogical stages of development of children's creativity

Abstract. This article provides information on the pedagogical stages of creative orientation of primary school students, meaningful opinions of educators and great scholars. 'lchallangan.

Keywords: preschoolers, creativity, imagination, imagination, media, emotions, visual activity.

Yoshlar va ularga davlat hamda jamiyatning munosabati to'g'risida Prezidentimiz tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz»(2). Darhaqiqat, hozirgi kunda respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarning yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani, jahon standartiga javob beradigan o'quv xonalari, axborot-kommunikatsiya, zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Soha mutaxassislarining navbatdagi vazifasi yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo'llash orqali o'quvchilarda katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, mustaqil fikrlash, ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, aqliy intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlovchi samarali ta'lim jarayonini tashkil etishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiya, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi. Bu

davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g‘oyasiga mos keladi. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish ta‘lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Boshlang‘ich ta‘limning faol va yetakchi sub‘ektlari bo‘lgan o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, shuningdek, tasviriy san‘at, mehnat, musiqa va jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari o‘qituvchidan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Maktab va o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga ta‘lim berishgina emas, balki ularning qobiliyatlarini ham o‘stirishdan iborat. Qobiliyatlarni o‘stirishda o‘quv ishining ahamiyati nihoyatda kattadir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarida qanday qobiliyatlarning borligi, ularning o‘qishga bo‘lgan intilishlari, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajalari, eslab qolishlari va o‘z bilimlarini o‘quv topshiriqlarni bajarishda qo‘llay olishlari, masalalarni yechishda puxta fikr yuritishlari, yozma va og‘zaki nutqni qanchalik egallaganliklariga qarab bilib olishi mumkin. Shuningdek, quyidagi sifatlari: ziyraklik, tez va puxta eslab qolish, o‘ylay olish, topqirlik, rivojlangan xayol, ishda tashabbuskorlik, mustaqillik va uning mahsuldorligi bolalar qobiliyatlarining ba‘zi bir ko‘rsatkichlari bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi bolalar bilan har bir ishda tashabbus va ijodkorlik ko‘rsatkichlarida ularni har jihatdan rag‘batlantirib turishi kerak. O‘quvchi qiynalib qolganda unga yordam berishga shoshilish yaramaydi. Qiyinchiliklarni esa asta-sekin oshirib borish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta‘lim oluvchilar orasida ijodiy qobiliyati yuqori bo‘lgan o‘quvchini tavakkal qilishi; boy tasavvuri; ichki sezgining rivojlanganligi; falsafiy fikrlashi; fikr yuritish va harakatni tashkil etishdagi tezkorligi; tafakkur tezligiga egaligi; turli vaziyatlarni birdek qabul qilishi va ularga javob berishi; yuksak badiiy qadriyatlar, yangilik yaratish layoqatiga egaligi; o‘ziga xos original g‘oyalarni ilgari sura olish kabi sifatlarga qarab aniqlashi va bu sifatlarni o‘quv jarayonida rivojlantirishga e‘tibor qaratishi muhim. Shuningdek, ijodiy faollik quyidagi ichki komponentlardan tashkil topadi:

- o‘quv topshiriqlarini bajarishga tayyorlik;
- mustaqil faoliyatga intilish;
- topshiriqlarni ongli bajarish;
- o‘qishning tizimlili;
- o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini oshirishga harakat qilish va boshqalar.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirishda qator tamoyillarga amal qilishi talab etiladi:

1. Ta‘limni individuallashtirish.
2. Ta‘limni rivojlantirish.
3. Faoliyat turlariga qulay sharoitlarni yaratish.
4. O‘quvchilar qobiliyatlarining faoliyatda namoyon bo‘lishiga imkoniyatlar yaratish.
5. Darsdan tashqi faoliyatlar (ishlar) imkoniyatlaridan unumli foydalanish.
6. Ta‘limning rivojlantiruvchilik tamoyilini qo‘llash.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bir nechta fandan dars berishini inobatga oladigan bo‘lsak, u o‘z o‘quvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishda quyidagilarni ham inobatga olishi lozim:

– o‘quvchilarning o‘quv predmetlari ichida qay biriga ko‘proq qiziqishi va iqtidorini aniqlash;

– o‘quv fanlari buyicha tayyorlangan o‘quv materiallar, masala, topshiriqlarning murakkabligi, ijodiyliigi, ilmiy-tadqiqot darajalarini o‘z ichiga olgan holda ijodiy faollikni bolalar bilan ishlash buyicha tematik reja va dasturlarini tuzish;

– o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish yuzasidan individual ish rejalarini ishlab chiqish.

O‘qituvchi dars loyihasi tuzishda o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishda samarali natija beradigan quyidagi faollashtirish vaziyatlarini inobatga olishi muhim:

- o‘z fikrida turish;
- bahs-munozaralarda ishtirok etish;

- o‘z o‘rtoqlari va o‘qituvchi oldiga savollar qo‘yish;
- o‘rtoqlarining javoblarini izohlash;
- o‘rtoqlarining javobi va yozma ishlarini baholash;
- orqada qolganlarga ko‘maklashish;
- bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga tushunmaganlarini tushuntirish;
- kuchi etadigan topshiriqni mustaqil tanlash;
- biluv topshiriqlarining bir necha variantdagi echimini topish;
- o‘z-o‘zini tekshirish, o‘zining biluv va amaliy xatti-harakatlarini tahlil qilish vaziyatlarini yaratish;
- biluv topshiriqlarini o‘ziga ma‘lum bo‘lgan amallarni kompleks qo‘llagan holda bajarish.

Biz quyida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish yuzasidan o‘quv vaziyatlarini yaratish va o‘tkazish texnologiyasini ishlab chiqish yuzasidan yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqishga

harakat qildik va uni keltirib o‘tamiz:

borada “xorijiy davlatlar olimlarining adabiyotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda “masofaviy o‘qitish”, “elektron o‘qitish”, “e-learning”, “kompyuter texnologiyalarini qo‘llab o‘qitish”, “masofaviy ta‘lim texnologiyalari”, “tarmoq ichida o‘qitish” (ta‘lim dasturlarini amalga oshirishning tarmoqli shakli), “virtual o‘qitish” va boshqa tushunchalar mavjud ekanligini ta‘kidlab o‘tadi [2, 12]. Shuningdek, olim bu tushunchalarning farqlarini quyidagicha izohlaydi: “mazkur tajribalarda “masofaviy o‘qitish” — inglizcha “distance learning” atamasidan, “distance education” ya‘ni “masofaviy ta‘lim” atamasi esa kengroq tushuncha ekanligi ta‘kidlangan [2, 13]. Bu atamani kengroq tushuncha deb ifodalashning sababi inglizcha “learning” so‘zi o‘zining asosiy ma‘nosida “o‘rganish” yoki “o‘rgatish” ma‘nosini bildirib, ushbu ingliz mualliflari uchun “distance learning” ifodasi masofaviy o‘qitishning mustaqil o‘qishdan farq qiladigan faqat bir jihati bo‘lgan “learning”, ya‘ni tyutor bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan o‘qishni bildiradi. “Distance education” — “masofaviy ta‘lim” atamasi esa, ta‘lim jarayonining barcha jihatlarini o‘z ichiga qamrab oladi”.

A. Abduqodirov, A. Pardaevar o‘zlarining “Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiyasida masofali ta‘limga quyidagicha izoh beradi: “Masofali o‘qitish – o‘qituvchi bilan o‘quvchining ma‘lum bir masofada joylashgan holda ta‘lim berish va ta‘lim olish tizimidir. Bunda dars jarayonini kompyuterlar, sun‘iy yo‘ldosh aloqasi, kabel televideniya kabi vositalar asosida tashkil etish talab qilinadi [1, 3]. Masofaviy ta‘limda turli ta‘lim modellari qo‘llaniladi, biroq ularning barchasiga xos bir xususiyat mavjud, bu ham bo‘lsa, unda barcha o‘quvchi va o‘qituvchilar masofa jihatidan ajratilishidir [3, 8]. Masofaviy ta‘limni boshqa ta‘lim shakllaridan ajratib turadigan xususiyati shundaki, mazkur ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va talabalar bir-birlari bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkoniyati mavjud bo‘lmaydi, balki virtual olamda ular muloqotga kirishadi.

A. V. Zubovning ta‘rificha, “Masofaviy o‘qitish - bu bilimni mustaqil ravishda egallash tamoyiliga asoslangan, o‘quv materialini talabaga ko‘proq telekommunikatsion tamoyil asosida yetkazish hamda o‘zaro ta‘sir o‘tkazish tamoyilini nazarda tutgan holda o‘qitishning an‘anaviy va yangi axborot texnologiyalarini birlashtirgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakli bo‘lib, bunda tinglovchilar o‘quv jarayonida olgan bilim va ko‘nikmalarini baholash ham shu shaklda amalga oshiriladi [5, 142]. Masofadan o‘qitishning mohiyatini aks ettiradigan yana bir olim A. A. Andreyevning ta‘rifiga murojaat qilaydigan bo‘lsak, u: «Masofadan o‘qitish maqsadga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayoni bo‘lib, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘zaro hamda o‘quv vositalari bilan interaktiv aloqasi hisoblanadi. Ular ma‘lum bir didaktik tizimda amalga oshiriladigan makon va vaqtdagi o‘zgarish joylashuv hisoblanadi va virtual olamda muloqot qiladi» deb hisoblagan [4, 33].

Germaniya masofaviy ta‘lim institutining sobiq direktori G. Doxmenning ta‘kidlashicha, “Masofaviy ta‘lim bu o‘z-o‘zini o‘rganishning tizimli ravishda tashkil etilgan shakli bo‘lib, unda talabalarga maslahat berish, o‘quv materialini taqdim etish va talabalar muvaffaqiyatini ta‘minlash va nazorat qilish o‘qituvchilar jamoasi tomonidan amalga oshiriladi, ularning har biri alohida vazifalarga ega bo‘ladi. Ushbu ta‘lim shakli uzoq masofadan turib ommaviy axborot vositalari yordamida masofadan turib amalga oshiriladi. “Masofaviy ta‘lim”ning aks shakli bo‘lmish, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim” yoki “yuzma-yuz ta‘lim” o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida bevosita aloqada bo‘lgan ta‘lim turi hisoblanadi [7, 29].

Garrison va Sheil ta‘kidlaganidek, “Masofaviy ta‘lim shuni nazarda tutadiki, ta‘limda ko‘pchilik o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi muloqot to‘xtovsiz sodir bo‘ladi. Ta‘lim-tarbiya jarayonini osonlashtirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ikki tomonlama muloqotni tashkillashtira olishi kerak. Bunda ikki tomonlama muloqot vositachilik uchun texnologiyadan foydalanish zarur hisoblanadi [8, 11].

Masofaviy ta‘limda o‘qitish nazariyalari va falsafasi bo‘yicha ko‘plab mutaxassislar o‘zlarining yondashuvlarini bildirib o‘tishgan. Masofaviy ta‘limda o‘qitish modellari orasida Iova va Norvegiya modellari yetakchilik qiladi. Iova modeli Desmond Keganning masofaviy ta‘lim nazariyasi asosida Shlosser va Anderson tomonidan takomillashtirilgan. Ushbu

modelning asosiy yutuqlari sifatida o'qitish va o'rganishning o'zaro ta'sirini sun'iy ravishda qayta tiklash va uni o'quv jarayoniga tadbiq qilish hisoblanib, mazkur ta'lim shakli an'anaviy, yuzma-yuz ta'lim shakllari singari sinflarni tashkil etish, jonli muloqotni yaratish va audio-vizual ta'sir o'tkazishni o'z ichiga qamrab oladi. D. Keganning ta'biricha, masofaviy ta'lim nazariyalari uch guruhga: mustaqil nazariyalar, sanoatlashgan nazariyalar hamda o'zaro ta'sir va muloqot nazariyalariga bo'linadi [9, 5].

Norvegiya modeli o'z an'alariga tayangan holda uzoq masofali vositalarni masofadan turib o'qitishni mahalliy yuzma-yuz o'qitish shakli bilan birlashtirishni nazarda tutadi.

Masofaviy ta'lim muammosini juda keng muhokama qilinishiga qaramay, ko'p ma'lumotlar hali aniq emas, ayrim atamalarini talqin qilish ham muammolarni keltirib chiqaradi. E.S.Polat va uning hamkasblari tadqiqotlariga ko'ra masofaviy ta'lim va masofadan o'qitish tushunchalarini ajratish zarur. Masofaviy o'qitish, E.S.Polatning fikriga ko'ra, o'qituvchi va talabalarning bir-biri bilan o'zaro aloqasini masofadan turib amalga oshiradigan va ta'lim jarayoniga xos bo'lgan barcha tarkibiy qismlar (maqsadlar, mazmun, uslublar, tashkiliy shakllar, o'quv qo'llanmalar)ni aks ettiradigan yangi ta'lim shakli hisoblanadi [6, 67]. Internet texnologiya yoki internet texnologiya vositalari va interaktivlikni ta'minlovchi boshqa ko'makchilar yordamida ushbu ta'lim turi o'tilishi kuzda tutilgan.

Masofaviy o'qitish kurslarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha mavjud nazariy tadqiqotlar va tajribalar masofadan o'qitish texnologiyalariga qo'yiladigan asosiy didaktik talablarni shakllantirishga imkon beradi. Ular:

a) har bir talabaga uning bilim qobiliyati, motivlari, moyilliklarini to'liq hisobga olgan holda optimal individual dastur asosida o'qish imkoniyatini berish;

b) o'quv intizomining mazmunini, nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalar nisbatini optimallashtirish;

v) o'quv jarayonini faollashtirish;

d) o'quv mashg'ulotlarini har tomonlama axborot bilan ta'minlash, o'rnatilgan ma'lumotnomalarga, lug'atlarga ega bo'lish.

Masofaviy kurslarning muhim xususiyati - bu interaktivlik.

Ta'lim ma'lumotlarini foydalanuvchi bilan o'zaro ta'sir qilish usullarini tahlil qilish asosida masofaviy kurslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1) interaktiv bo'lmagan - o'quvchidan hech qanday teskari aloqa yo'qligi bilan tavsiflanadi (kompyuter entsiklopediyalari, ma'ruzalar, maqolalar);

2) shartli ravishda interaktiv - xususan, o'z-o'zini boshqarish uchun testlarni va boshqa vositalarni (masalan, multimedia) o'z ichiga oladi, bu esa qayta aloqani keltirib chiqaradi;

3) interaktiv - o'qituvchi, o'quv markazi, sinfdoshlar bilan doimiy aloqa kanallari (onlayn kurslar, internet-konferensiyalar)dan foydalangan holda haqiqiy o'quv jarayoniga yaqinlashadigan interaktiv ta'lim texnologiyalari.

Masofaviy texnologiyalar bir necha turda bo'lishi mumkin.

Keys texnologiya - bu o'qituvchilar bilan an'anaviy yoki masofaviy usulda muntazam konsultatsiyalarni tashkil etishda matn, audiovizual va multimedia o'quv materiallari to'plamlaridan (holatlaridan) foydalanish va ularni talabalar tomonidan o'z-o'zini o'rganish uchun tarqatish.

Televizion texnologiya - o'quvchilarga o'quv-uslubiy materiallarni yetkazib berish va repetitorlar bilan doimiy maslahatlarni tashkil qilish uchun televizion tizimlardan foydalanishga asoslangan masofaviy o'qitish texnologiyasi.

Tarmoq texnologiya - bu o'quvchilarni o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash va o'qituvchi, ma'mur va o'quvchi o'rtasida o'zaro aloqada bo'lish uchun telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanishga asoslangan masofaviy o'qitish texnologiyasi.

Masofadan o'qitishni tashkil qilish uchun o'quv materiallari to'plami, ularni ishlab chiqish, saqlash, uzatish va ularga kirish vositalari sifatida tushuniladigan o'quv qo'llanmalari

tizimi va axborot-ta'lim muhiti zarur. Masofaviy o'qitishdagi ta'lim jarayoni virtual sinf deb ataladi, bu bir-biridan uzoqda joylashgan, ma'lumotlar uzatish kanallari bilan birlashtirilgan va talabalar tomonidan bir-birlari va o'qituvchi bilan o'zaro ta'sir o'tkazish imkoniyati bilan bir xil o'quv jarayonini bajarish uchun foydalaniladigan ish joylari (kompyuterlar) to'plami sifatida tushuniladi.

Masofadan o'qitish uchta tarkibiy qismga asoslangan: texnologik, mazmunli va tashkiliy.

Texnologik komponent moddiy-texnik baza va dasturiy ta'minot (kompyuterlar, tarmoqlar, dasturiy ta'minot)ga asoslangan. Tarkibiy qism masofaviy o'qitish kurslari, ixtisoslashgan saytlar va portallar shaklida axborot resurslarini yaratishni o'z ichiga oladi. Tashkiliy qism o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, o'quv jarayonini tashkil etishni ta'minlaydi.

Masofadan o'qitish kurslari quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi :

- 1) kursning maqsadi, ya'ni, kurs kimga yo'naltirilgan (o'quvchilar, talabalar, o'qituvchilar);
- 2) tarkib jihati, ya'ni, kurs mazmuni;
- 3) kurs foydalanuvchilariga ma'lumot uzatishning mohiyati va usullari (elektron pochta, adabiyotlarni, internetdagi manbalarni tarqatish);
- 4) teskari aloqa xususiyati va usullari;
- 5) ushbu kursni ishlab chiqish va amalga oshirish darajasi (mustaqil kurs, mavjud kursga qo'shimcha).

Masofaviy o'qitish tarkibida tashkiliy funksiyalarni bajaradigan o'quv markazi (o'quv muassasasi, laboratoriya) ajralib turishi kerak; axborot resurslari - o'quv kurslari, ma'lumotnoma, uslubiy va boshqa materiallar; masofaviy o'qitishni ta'minlash vositalari (kompyuterlar, aloqa liniyalari); o'qituvchilar, o'qituvchilar, talabalar.

Masofaviy ta'lim kursining elementlari:

- 1) axborot resurslari (ma'ruzalar, ma'ruza matnlari, dasturlar, qo'llanmalar va ishlanmalar), qo'shimcha ma'lumot materiallari, (o'qituvchining izohlari, tez-tez beriladigan savollarga javoblar, forumlar), resurs kutubxonalari, elektron lug'atlar, internetdagi qo'shimcha materiallar;
- 2) aloqa vositalari (elektron pochta, messenjerlar, konferentsiyalar, forumlar, seminarlar, so'rovnomalar, suhbatlar);
- 3) test tizimi (nazorat topshiriqlari, testlar, insholar);
- 4) ma'muriy tizim (tinglovchilarning ma'lumotlar bazalarini tashkil qilish, anketalar, e'lonlar taxtasi, dastur va darslarni rejalashtirish, baholash tizimi va boshqalar)

Masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish va samarali ishlash uchun quyidagilar ta'minlanishi kerak [10, 128]:

- onlayn o'quv kurslarini qo'llab-quvvatlash;
- talabalar bilan ishonchli aloqa, o'quv materiallarini talabalarga yetkazish;
- o'quv jarayonini ma'lumotnomalar (bosma va elektron), maslahatlar va uslubiy tavsiyalar bilan qo'llab-quvvatlash;
- bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va baholash;
- talabalar va o'qituvchilar va o'zaro aloqalarni tashkil etish (konferentsiyalar, suhbatlar).

Masofaviy kurslarni yaratish texnologiyasiga kelsak, tayyor tizimlardan yoki dasturiy ta'minotdan (dasturlash tillari, multimedia dasturlari) yoki masofaviy kurslarni rivojlantirish uchun yaratilgan vositalardan foydalanish mumkin.

Masofaviy ta'lim yondashuvlari ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Ta'lim olamida uchta keng ta'lim yondashuvi mavjud, ya'ni pedagogika, andragogika va heutagogika. Mazkur yondashuvlar masofaviy ta'limni tashkil etishda bevosita ahamiyat beriladigan sohalar hisoblanadi. Bular pedagogika, andragogika va xeutagogika.

Pedagogika keng ma'noda inson tarbiyasi haqidagi fandır. U katta avlodning ijtimoiy tajribasini yoshlarga muvaffaqiyatli o'tkazish qonuniyatlarini o'rganadi. U amalda pedagogik maqsad va vazifalarga erishishning eng oson yo'llarini, ta'lim qonuniyatlarini amalga oshirish yo'llarini va o'qitish usullarini ko'rsatish maqsadida mavjud bo'lgan. Bu qonuniyatlarni pedagogika ochib beradi va o'rganadi. Zamonaviy pedagogikaning amaliy yo'nalishlaridan biri norasmiy ta'limdir, yani ma'sofaviy ta'lim.

Andragogika - pedagogika fanining kattalarni tarbiyalash va tarbiyalashning nazariy va amaliy muammolarini qamrab oluvchi soha nomlaridan biri. Maxsus adabiyotlarda andragogika atamasi bilan bir qatorda «kattalar pedagogikasi», «kattalar ta'limi nazariyasi» va boshqa atamalar qo'llaniladi.

Xeutagogika (ingliz tilidan heutagogy) o'z-o'zini tarbiyalashning zamonaviy ta'riflaridan biridir. Bu atama tom ma'noda "ixtirolar, kashfiyotlar, topilmalar, xulosalar" degan ma'noni anglatadi. Bu ijodiy yondashish bilan o'z-o'zini boshqarish bo'lib, unda o'quvchi nimani, qachon va qanday shaklda o'rganishini o'zi belgilaydi. Rossiyada bu usul ko'proq evtagogika sifatida tanilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi fan va texnologiyalar rivojlangan davrda ta'limning yangidan-yangi turli ko'rinishlari paydo bo'lmoqdaki, bular ta'lim sifatini yanada oshirishga va samarali tashkil etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masofaviy ta'lim bu vaqt, masofa va boshqa ta'lim jarayoniga aloqador jihatlardan holi ta'lim shakli bo'lib, bu ta'lim ko'rinishi bugungi kunda yurtimizda ham keng amaliyotga tadbiiq etilmoqda va bu borada hukumatimiz tomonidan ko'plab qonun, qarorlar, farmoyishlar, shuningdek islohatlar amalga oshirilib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining sifatli bo'lishiga o'z hissasini qo'shadi. Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda tillarni o'qitish maqsadli til madaniyati, urf-odatlar va siyosatini targ'ib qilishning eng samarali usullaridan biridir. Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda chet tillarni o'rganish, o'qitish tizimini yaratish va rivojlantirish, O'zbekistonda ta'lim sifatini oshishiga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Paradaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - Toshkent: Fan, 2009. - 146 b.
2. Ibraymov A. Masofaviy didaktik tizimi. – Toshkent: "Lesson press", 2020.
3. Parpiev A., Maraximov A., Hamdamov R., Begimkulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari.- O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T., 2008. – 196 b.
4. Андреев А. А., Солдаткин В. И. Дистанционное обучение: сущность, технология, организация. - М.: Изд-во МЭСИ, 1999. – 121 с.
5. Зубов А. В., Зубова И. И. Информационные технологии в лингвистике: учеб. пособие для студ. лингв. факультетов высш. учеб. заведений. -М.: Издательский центр «Академия», 2004. –208 с.
6. Полат Е. С. Интернет на уроках иностранного языка//Иностранные языки в школе.2001, №2. 67
7. Dohmen G. Das Fernstudium, Ein neues padagogisches Forschungsund Arbeitsfeld. - Tubingen, 1967.-137
8. Garrison D. & Shale D. Mapping the boundaries of distance education: Problems in defining Germany.-DIFF, 1987.-60 p.
9. Keegan D. The foundations of distance education.- London: Croom Helm, 1986.-248 p.
10. Tim Shortist The language of ICT: Information Communication Technology.- Publisher: Routledge: 1 edition, 2000.-128 p.

UDK: 373.83.84:831

MAKTAB TA'LIM SIFATI TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA UMUMIY O'RTA TA'LIMDAGI MOHIYATI**N.J.Jo'rayeva***Qarshi davlat universiteti*

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlar ta'limi va tarbiyasi masalasi ta'lim soxasining ustuvor yo'nalishi bo'lib, ta'lim sifatini ta'rifi bo'yicha doimiy muhokamalar kuzatilmoqda, bunda asosiy urg'u ta'lim oluvchilarni o'qishdagi erishgan yutuqlari, tegishli muassasalarning faoliyati, hamda ta'lim xizmatlarini yetkazib berish sifati kabi masalalarga qaratilmoqda. Sifat tamoyili nafaqat umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish, balki ilmiy bilimlarga asoslangan farovon jamiyat qurish sharoitida tegishli yutuqlarga asoslangan oliy ta'limni takomillashtirishda ham yetakchi hisoblanadi. Ushbu maqolada maktab ta'limida sifat tushunchasining mazmuni, mohiyati va bu tushuncha borasida ilmiy tadqiqotchilarning qarashlariga tahliliy yondashilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv mexanizmlari, ta'lim sifati, xususiy xarajatlar, ta'lim xizmatlari, iste'molchi, ta'lim dasturlari.

Содержание и значение концепции качества школьного образования и общего среднего образования

Аннотация. В процессе современной глобализации вопрос образования и воспитания молодого поколения является приоритетом системы образования и в постоянном обсуждении повышения качества образования основное внимание уделяется достижениям учеников, деятельности соответствующих систем, а также равенству обучения. Не только повышение уровня среднего образования, но и построение передовой системы высшего образования одна из сознательных задач процветающего общества. В этой статье рассматривается научная интерпретация качества в среднем образовании, а также анализируются ее научный подход.

Ключевые слова: механизмы социализации, качество образование, частные расходы, образовательные услуги, потребитель, образовательные программы

Content and significance of the concept of school education quality and general secondary education

Abstract. In the modern globalization process the issue of education and upbringing of young generation is the priority of education system and in the constant discussion of improving the quality of education the main attention is paid to the learners' achievements, activities of relevant systems as well as to the equality of teaching. Not only improving the level of the secondary education but constructing advanced higher education system is one of the conscious issues of the prosperous society. This article deals with the scientific interpretation of quality, meaning in the secondary education and analysis to scientists approaches as well.

Keywords: socialization mechanisms, quality of education, private spending, educational services, consumer, educational programs.

Bugungi kundagi ilmiy-pedagogik tadqiqotlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatining nazariy-metodologik asosini tashkil etuvchi asosiy tushunchalarga e'tiborni kuchaytirish dolzarb va muhim hisoblanadi. Xususan, o'rganilayotgan muammo bo'yicha uslubiyotchi va nazariyachilarning asosiy yondashuvlarini umumlashtirib, ta'lim, ta'lim sifati tushunchalarining ma'nolarini, jumladan maktab ta'limini aniqlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Albatta, ta'lim tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Ushbu atamani ishlatishning barqarorligi va davomiyligi uchun hanuzgacha uning ma'nosi jiddiy ilmiy tahlil,

asos va tushunishni talab qiladi. Ushbu nuqtayi nazardan, U.Sh.Begimqulov, Y.U.Ismadiyarov, U.I.Inoyatov, M.M.Potashnik, N.S.Lansova va boshqalarning fikrlariga ko'ra, ta'lim – bu insoniyat taraqqiyotining asosi, mamlakat ichki siyosatining ustuvor tarmog'i hisoblanadi. Ta'lim va kelajak – bu ikkita asosiy va o'zaro bog'liq nuqtai-nazar bo'lib, maktab ta'limi sohasida mavjud holatni, shu jumladan uni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha qonun xujjatlariga rioya qilgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, mualliflar ta'lim deganda odatda quyidagilar tushunilishini ta'kidlashmoqda:

- ijtimoiy yetuklikka va individual o'sishda o'quvchi shaxsining xulq-atvori, qobiliyatlarini takomillashtirish natijasi va jarayoni;
 - jamiyatda ijtimoiylashuv mexanizmlarini, hayotiy va kasbiy mahorat hamda ko'nikmalarni qo'lga kiritish, bilimlarni tizimlashtirish va o'zlashtirish jarayoni;
- insonni hayot va mehnatga tayyorlashda jamiyat va davlatning muhim ijtimoiy vazifasi.[1]

Bu soha o'ziga yetarlicha ko'p harajatlarni talab qilishi sababli, ehtimol shuning uchun ham ta'lim xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladi. Boshqa tomondan, fuqarolarni ta'limga bo'lgan talabi qoidaga ko'ra, ta'lim tizimini imkoniyatlarini sezilarli darajada ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ta'lim xizmatlarining sifati bo'yicha davlat talabnomasi asosida amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi taklif har doim ham talab bilan mos kelmaydi. Shu sababli ham ushbu yo'nalishda ta'limning xususiy sektori rivojlanib boradi, hozirgi kunda bu kabi tizim ko'p sonli mamlakatlarda ommalashgan bo'lib, uning umumiy miqdori sezilarli darajada farq qiladi. Aholini ushbu ijtimoiy ne'mat bilan davlat tomonidan ta'minlanishi bir qator muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Birinchidan, uni ishlab chiqarish xajmini aniqlash;

Ikkinchidan, ta'lim faoliyatini tashkil qilish samaradorligiga erishish.

Miqdoriy ko'rsatkichlar borasida to'xtalganda, u davlat tomonidan moliyalashtirish iste'mol uchun yaratiladigan shart-sharoitlarni cheklanmaganligini anglatmaydi. Ta'lim darajasi nuqtai nazaridan qaralganda, uni cheklanmagan va majburiy tarzda yetib borishi boshlang'ich, o'rta va yuqori maktablarda ta'minlanadi. Bundan tashqari, ta'kidlash joizki, sifat dunyoning aksariyat mamlakatlari ta'lim tizimining markaziy muammolaridan biriga aylangan. Ta'lim siyosatini ishlab chiqishdagi muzokaralarda sifat konsepsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu tendensiya bir qator sabablar bilan bog'liqdir. Bunda eng asosiylaridan biri aholini ta'lim uchun sarf bo'ladigan umumiy xarajatlarni ortishidan bezovta bo'lishidir. Sifatga bo'lgan qiziqishning ortib borishiga bo'lgan ikkinchi sabab, ta'lim tiziminin kengayib borishi bilan bog'liqdir. Ta'lim oluvchilar sonini keskin ko'payishi, bilimlar sohasini kengayib borishi, muassasalar tarmog'ining ortishi - bularni barchasi ta'limga sarf qilinadigan umumiy va xususiy xarajatlarni samaradorligi yuzasidan munozaralarni kuchaytirmoqda.[2]

R.G.Mullaxmetova, A.N.Djurinskiylarning fikrlariga ko'ra, zamonaviy davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlanishida ta'lim ustuvor soha sifatida nomoyon bo'ladi. Ta'lim tizimida eng muhim rol muallimga tegishlidir. Aynan ushbu toifadagi mutaxassislar faoliyati orqali yosh avlodni intellektual va ma'naviy salohiyatini mustahkamlashga, ilm-fan va texnikani rivojlantirishga, madaniy merosni saqlash va oshirishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshiriladi. Bunda, eng muhimi bilim ko'lami emas, balki oxirgilarni shaxsiy sifatleri simbiozi, o'z bilimlarini mustaqil bajarish qobiliyati, o'zi-o'zini ta'minlay olishi, yetuklikka intilishda doimiy faollik ko'rsatib borishidir. O'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim kelajakka xizmat qilib, jamiyatning kelgusi o'zgarishlariga poydevor hisoblanadi va istiqbolni progressivligi yoki aksincha, regressiv yo'nalishda rivojlanishini belgilab beradi. Ta'lim tizimini asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta'lim faoliyatini yo'nalishlari va mohiyatini belgilab beruvchi me'yoriy xujjatlar jamlanmasi (*ta'lim faoliyatini tashkiliy-huquqiy shakllari, o'quv muassasalarining toifa va turlari, ta'lim dasturlari va davlat o'quv standartlari bo'yicha qonun xujjatlari*);

- ushbu me'yoriy xujjatlar asosida ta'lim faoliyatini amalga oshiruvchi va o'quv jarayonini takomillashtiruvchi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy izlanish zahiralari amalga oshiruvchi muassasalar tarmog'i;

- qaramog'idagi tashkilot va muassasalarni ishlab turishini ta'minlovchi ta'limning boshqaruv organlari.[3]

S.V.Levkina, V.A.Bolotovlarning fikriga ko'ra, sifat atamasini talqin qilishning murakkabligi uni mutlaq va nisbiy tushuncha sifatida ko'rib chiqish mumkinligi bilan bog'liqdir. Atov (nominativ) yondashuvi nuqtai nazaridan qaralganda, ushbu savolda sifatni ma'lum bir maqsad uchun yaroqli deb qaralib, tavsiflar jamlanmasiga mos keluvchi va tovarning xususiyatlari darajasi yoki ehtiyojlarni va xaridorga sotib olishga tayyor yoki to'lashga qodir bo'lgan qiymatdagi xizmatlar majmui hisoblanadi. Bunda, tasarruv qiluvchining o'zi unga taalluqli shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasi va foydaliligi bo'yicha qaror qabul qiluvchi, sub'ekt bo'lib hisoblanadi. Ta'lim nuqtayi nazaridan qaralganda, sifat unchalik qiyin bo'lmagan kategoriya deb qaraladi.[4]

K.S.Fishenkoning ta'kidlashicha, bugungi kunda ta'lim sifati har bir davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur sharoitlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda, xalqaro hamjamiyatni yoshlarning hayotiy ko'nikmalarini egallashi, zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli kirishi va gender tengligiga erishishni aks ettiruvchi sifatli ta'lim masalalari tashvishlantirmoqda. Ta'lim sifati pedagogik kategoriya doirasida maorifga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish darajasini tavsiflaydi. U o'quvchilar vakolatlarini rivojlanishini ta'minlovchi o'quv muassasa ta'lim faoliyatidagi turli jihatlarni tavsiflovchi tegishli ko'rsatkichlar jamlanmasi orqali aniqlanadi:

- ta'lim mohiyati;
- o'qitishning shakllari va usullari;
- moddiy-texnik baza;
- kadrlar tarkibi, salohiyati va boshqalar.[5]

N.Fominning fikriga ko'ra, o'quv jarayonining sifati ta'lim muvaffaqiyati tushunchasi bilan uzliksiz aloqadordir va u o'quvchining har doim ham mos kelmaydigan o'qish maqsadlarini ifodalovchi shaxsiy sifat va xususiyatlari o'zgarishlari bilan tavsiflanadi. Bunda, amaliyotda har qanday ta'lim o'quvchi shaxsini shakllanishida doimo u yoki bu o'zgarishlarni amalga oshiradi.

Ta'limdagi muvaffaqiyat tushunchasi ostida, muallif o'quvchilar tomonidan «moslashtirilgan ijtimoiy tajriba»ni o'zlashtirilishini aks ettiruvchi o'quv jarayoni natijasi tushunilishini taklif qiladi. Bunda u o'zining nuqtai nazarini tushuntirgan holda, ta'limning 3 ta asosiy tarkibiy qismiga ishora qiladi:

- bilim olish faoliyatidagi tajribasi;
- hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi;
- ijodiy faoliyat tajribasi.

Muallif, odamlarning aynan ushbu tajriba komponentlari orqali o'quvchilarni ta'lim muvaffaqiyatlarini aniqlashni taklif qiladi.[6]

Statistik reja bo'yicha qaralganda, K.A.Mixalchenkoning fikriga ko'ra, ta'lim sifati bu jamoat va davlat so'rovlarini inobatga olgan holda tuzilgan, ta'lim tizimi faoliyatini ideal modeli natijalariga mos keluvchi aniq bir o'quv natijalariga erishish bo'yicha me'yor hisoblanadi.

Bundan tashqari, ushbu tushunchani o'quv muassasa tomonidan berilgan o'qish xizmatlari yoki ta'limdagi belgilangan maqsad va vazifalarga erishish me'yorini belgilab beruvchi o'quv jarayoni ishtirokchilarini qondirish darajasi deb talqin qilish mumkin. Ta'lim sifati tushunchasi o'z ichiga kadrlar tayyorlash sifati, moliyaviy sharoitlar sifati, texnologiyalar sifati va konseptual boshqaruv yo'nalishni sifatini, ya'ni maktab «mahsuloti»ning sifatiga ta'sir qiluvchi barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Maktabning «mahsuloti» uni yaxshi yoki yomon sifatli ma'lumotga ega bo'lgan bitiruvchi hisoblanadi [7].

G.I.Skvorsov ta'lim sifatini rivojlanish darajasidan kelib chiquvchi o'quv maqsadga erishishning ma'lum bir koeffitsienti deb baholaydi:

- o'quvchining shaxsiy javobgarliklari;
- ta'lim oluvchining shaxsiy mustaqil bilim olish qobiliyati;
- ta'lim oluvchining shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyati;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tanqidiy fikrlash qobiliyati;
- o'quvchining shaxsiy turli xil ma'lumotlarni qayta ishlash mahorati;
- ta'lim oluvchining shaxsiy olgan bilimlarini muammolarni ijodiy hal qilishda qo'llash mahorati.

Hozirgi kunda, o'quv jarayonining sifatini tizimli nazorat qilish butun o'quv jarayonini boshqarishdagi muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Yagona uslub bo'yicha maxsus kuzatuvlarsiz pedagoglarning boshqa hamkasblariga nisbatan harakatlarini, hamda har bir o'quvchining tegishli bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirganliklarini aniq istiqbolini belgilash yetarlicha murakkab hisoblanadi [8].

Shunday qilib, yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, zamonaviy sharoitda O'zbekiston Respublikasida maktab ta'lim tizimini takomillashtirishda sifat kategoriya hisoblanadi, bunda qo'yilgan vazifalar istiqbolini oldindan belgilash va ularni bajarish samaradorligini aniqlashni shakllantirish maqsadga muvofiqdir degan xulosaga kelish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ta'lim sifati, qoida ko'ra, olimlar tomonidan ikkita tekislikda - nazariy-metologogik va funksional-amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi, bu nafaqat ijtimoiy-pedagogik, balki boshqaruv muammosi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, avvalgi tadqiqotchilarning tajribalariga asoslanib, ta'lim sifati deganda davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondiruvchi ma'lum bir muassasaning ta'lim faoliyatidagi o'quvchilarning tegishli vakolat berilganlik darajasini shakllantirish qobiliyati tushuniladi. Shu bilan birga, maktab ta'lim sifati atamasining mazmuni umumiy o'rta ta'limning (*natija, jarayon va ta'lim tizimi sifatida*) ko'p sonli ehtiyojlar, maqsadlar, sharoitlar va standartlar bilan ma'lum muvozanatli muvofiqiligi sifatida qaraladi.

Adabiyotlar

1. Begimqulov U.Sh. va boshqalar. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. - Toshkent: Fan, 2011. - 232 b.
2. Bolotov V.A. Оценка качества образования. Ретроспективы и перспективы. // Maktab boshqarmasi - 2012. - №5. 9-11 b.
3. Djurinskiy A.N. Развитие образования в современном мире: OTM talabalari uchun o'quv qo'llanma. - 2- nashr, o'zg. va qo'shim. - M.Tumanit. VLADOS nashriyot markazi, 2003. - 240 b.
4. Inoyatov U.I. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Pedagogika fanlari doktorlik dissertatsiyasi. - Tashkent: «ISSPO», 2003. - 330 b.
5. Ismadiyarov Ya.U. Совершенствование механизмов формирования инновационного менеджмента в системе высшего педагогического образования: Pedagogika fanlari doktorlik dissertatsiyasi. - Tashkent: «TDPU», 2018. - 234 b.
6. Levkina S.V. Понятие «качество» в контексте проблем подготовки специалистов. // Повышение качества подготовки специалистов: проблемы и решения: Mintaqaviy ilmiy metodik konferensiya Tyumen: TGNU. - 2001. 121-123 b.
7. Mixalchenko K.A. Проблемы и пути решения качества образования. // Теория и практика образования в современном мире: - СПб.: Renome, 2014. - 106-108 b.
8. Mullaxmetov R.G. Научно-методические основы индивидуальной учебно-воспитательной работы учителя профессионального образования: Педагогика fanlari doktorlik dissertatsiyasi: 13.00.08 / MV i SSO Uzb.Res., Nizamiy nomidagi TDPU. -Tashkent, 2008. - 156 b.
9. Potashnik M.M. va boshqalar. Качество образования в разных образовательных практиках. // Xalq ta'limi -2001.. - №7. 123-129 b.
10. Skvorsova G.I. Оценка качества образования: рекомендации экспертам. // Qishloq maktabi. - 2014. - №3. 48-56 b.
11. Usmanova M.N., Vafaev M.M. Внедрение современных технологий в образовании как фактор повышения качества образовательного процесса. Elektron manzil: <http://bulletinpp.esrae.ru/pdf/2012/4/881.pdf>.
12. Fishenko K.S. Современные подходы к определению качества образования в различных системах оценки эффективности. // Iqtisod va menejment axborot texnologiyalari - 2016. - №1. 96-103 b.
13. Fomina N. Особенности оценки результатов обученности школьника. // Maktablarda ta'lim sifati - 2009. - №3. 33-40 b.

UDK:373.2:785

“MUSIQA MADANIYATI” DASTURINING 5-7-SINF O’QUVCHILARINI AXLOQIY SHAKLLANTIRISHGA DOIR TARBIVAVIY IMKONIYATLARI**Z.A.Narziyeva***Samarqand davlat universiteti**E-mail: narziyevazarrina.80@mail.ru*

Annotatsiya. Yangi barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik eng ustuvor masala bo‘lib qolmoqda. Maqolada “Musiqqa madaniyati” dasturining 5-7-sinf o‘quvchilarini axloqiy shakllantirishga doir tarbiyaviy imkoniyatlari oid taklif, fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: axloq, axloqiy tarbiya, o‘smir, musiqa, musiqa madaniyati, shaxs kamoloti, barkamol inson.

Образовательные возможности для нравственного формирования учащихся 5-7 классов программы «Музыкальная культура».

Аннотация. Воспитание нового, гармонично развитого человека, здорового поколения остается сегодня приоритетной задачей государства. В статье представлены предложения и отзывы об образовательных возможностях учащихся 5-7 классов программы «Музыкальная культура» в формировании нравственности.

Ключевые слова: нравственность, нравственное воспитание, юность, музыка, музыкальная культура, развитие личности, гармонично развитая личность.

Educational opportunities for the moral formation of grade 5-7 students of the program “Music culture”.

Abstract. The upbringing of a new, harmoniously developed person, a healthy generation remains a priority task of the state today. The article presents suggestions and feedback on the educational opportunities of students in grades 5-7 of the program "Musical culture" in the formation of morality.

Keywords: morality, moral education, youth, music, musical culture, personality development, harmoniously developed personality.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, o‘sib kelayotgan yosh yigit-qizlarni XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan choratadbirlarni amalga oshirish maqsadida davlat dasturlari[1] qabul qilinmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgach yuz berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarning ko‘lami kun sayin keng quloqchilik yozayotgan bir davrda yurtimizning kelajagi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk madaniyatli inson qilib tarbiyalash o‘z dolzarbligi bilan alohida o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafaqat tarbiyaning asosiy va murakkab qurollaridan biri bo‘lib, atroflicha go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma‘naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa bilan inson hissiyotiga kuchli e‘tibor ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g‘oyaviy tarbiyasining muhim vositasidir.

«Musiqa odam ruhining yo‘ldoshidir», musiqa insonga tez ta‘sir etuvchi emotsional hissiyotini aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Shu bois o‘quvchilarda inson ma‘naviyatining tarkibiy qismi musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi.

Bugungi kunda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi. Bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchillik va qat'iyatlilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. O'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu vazifani hal qilishning asosiy omili ko'p qirrali tarbiya tuzimidir. Mazkur tizimda yosh avlodni musiqa ta'limi orqali axloqiy-estetik ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limi yosh avlodning milliy ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zero musiqa ta'limi barkamol avlodning ma'naviy, badiiy, axloqiy sifatlarini shakllantirishga ular ongida milliy g'urur va vatanparvarlik tushunchalarini tarkib toptirishga ularni axloqiy-estetik ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi.

Forobiy musiqa ilmini keltirib chiqargan asarlar xususida yozar ekan, musiqa axloqiy tarbiyaviy jihatlariga diqqatni jalb etadi. "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, - deb yozadi u "Ixso al-ulum" asarida – u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhani sog'aytirish yodamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga solinishi va substansiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi.[5]

Umumiy o'rta ta'lim maktabining har bir bosqichi o'qituvchi oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. O'qituvchi o'z imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda, umumdidaktik metodlardan foydalanishi, bosqichlararo uzluksizlikni ta'minlashi, turli xil metodlardan unumli foydalanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi kerak. Uzluksiz ta'limning ayrim bosqichlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish muhimdir. Chunki o'rganadigan mavzulari, bolalarning yosh xususiyatlari, o'zlashtirish qobiliyatlari bu sinflarda deyarli bir xil bo'ladi. Shuning uchun ham 5-6-sinflarni uzviy holda o'rganish mumkin. 4-sinfda boshlang'ich maktabning tugaganligini hisobga oladigan bo'lsak, 5-sinfda bolalar bevosita yangi bosqichga, ya'ni o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichiga o'tadilar. Bu sinfda barcha fanlar bo'yicha o'qituvchilarning o'zgarishi, sinf rahbarining o'zgarishi o'quvchilarning yangi sharoitlarga ko'nikishini talab qiladi. Bu jarayon ayrim o'quvchilarga qiyinchiliklar tug'diradi. 5-6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga umumiy xarakteristika Pedagogik-psixologik adabiyotlardan ma'lumki, bu yosh o'smirlik davriga to'g'ri keladi. O'smirlik davri chegaralari taxminan 5-8-sinfga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, lekin o'smirlik yoshiga o'tish 5-sinfga o'tish bilan mos tushmasligi va bir yil oldin yoki keyin sodir bo'lishi ham mumkin. O'smirlik davri «o'tish», «keskin o'zgaruvchan», «mushkul», «qiyin» davr deb ham nomlanadi. O'quvchilarda bu yoshda sodir bo'ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etish joiz. Bu hayotning bir davridan boshqasiga o'tish bilan bog'liq. Inson rivojlanishining barcha yo'nalishlari bo'yicha (jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va miqdoriy o'zgarishlar ro'y beradi. O'smir shaxsi rivojlanishning muhim omili - uning shaxsiy faolligi -shaxsiyat omilidir. 7-sinf o'quvchilarining ichki dunyosi ancha shakllangan va rivojlangan bo'ladi. Ularning dunyoqarashi kengaygan bo'lib, o'z fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladilar. Musiqiy didlari ham yaxshi shakllangan bo'lib, o'qituvchi repertuar tanlashda ularning qiziqishlarini hisobga olmog'i kerak. 7-sinf o'quvchilari ixtiyoriy diqqatga ega bo'ladilar va qiyinchiliklarsiz yirik musiqa shakllarini idrok eta oladilar (uvertyura, simfoniya, sonata, maqom va hokazo). O'quvchilar asarga nisbatan paydo bo'lgan his-tuyg'ulari, tasavvurlarini hikoya tarzida aytib bera oladilar. Shuningdek, 7-sinf o'quvchilari kompozitor yoki bastakor haqida referatlar, bukletlar va nutqlar tayyorlay oladilar. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning mana shunday ijodiy hislatlaridan unumli foydalangan holda, ularni musiqiy to'garaklar, xor jamoalariga jalb qilishi, qolaversa, o'quvchilar orasida o'tkaziladigan tanlov, musobaqa va olimpiadalarga jalb

etishi muhim. Bu o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini orttirib qolmay, balki yetti yil davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim-o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma-o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka-o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya-mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Musiqqa madaniyati o'quv fanining mazmuniga bo'lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi. Boshlang'ich musiqqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblarini bilish, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralari, musiqqa janrlari, musiqada zamonaviylik va zamonaviy musiqqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi:

1. Musiqqa tinglash.

2. Jamoa bo'lib kuylash.

3. Musiqqa savodi.

4. Musiqqa ijodkorligi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan barcha fanlar qatorida o'quvchilar musiqqa madaniyati fanidan ma'lum darajada bilim va ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

Musiqqa madaniyati fanidan 5-sinf o'quvchilari quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

- Orkestr, ansambl va xor tuzilishini bilish;
- xor turlari - bolalar xori, xotin-qizlar xori, erkaklar xori, aralash xor;
- ovoz turlari - bolalar ovozi (alt, soprano, diskant), ayollar ovozi (alt, soprano), erkaklar ovozi (tenor, bariton, bas)ni bilish;
- simfonik orkestr; - vokal simfonik asarlar - syuita, kantata; raqs san'ati (xoreografiya), balet;
- sahnaviy musiqqa asarlari; xalq qo'g'irchoq teatri, musiqali drama va komediya;
- opera san'ati, o'zbek musiqasida opera janri;
- opera ijodkorlari - J. Verdi, V. A. Mosart, N. Rimskiy-Korsakov, A.Xachaturyan, P.I.Chaykovskiy va boshqalar;
- o'zbek musiqasida opera va drama ijodkorlari - M.Ashrafiy, R. Glier, S.Vasilenko, T.Jalilov, Yu.Rajabiy, S.Yudakov, S.Jalil, S.Boboev, M.Leviev;
- vokal-cholg'u syuita va kantata ijodkorlari - S.Yudakov, M.Nasimov;
- drama musiqasi ijodkorlari - T.Jalilov, Yu.Rajabiy, S.Jalil; - atoqli o'zbek dirijorlari - M.Ashrafiy, D.Zokirov, M.Bafoev, N.Xalilov, B.Umidjonov, A.Sultonov, A.Hamidov;
- bolalar xor jamoasi dirijori - Sh.Yormatov;
- musiqaning san'at turlari bilan o'zaro bog'liqligi (kino, tasviriy san'at, adabiyot va boshq).

Musiqqa madaniyati fanidan o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

Tinglash madaniyati:

- ✓ Cholg'u ansambli va xalq cholg'u orkestrini audiokasseta, radio va televidenie orqali tinglab, ularni tembr va cholg'u tovushlari tarkibidan ajrata bilish;
- ✓ simfonik orkestr, estrada simfonik orkestri va duxovoy orkestrlari cholg'ular tembrini

tovushlaridan ajrata bilish;

- ✓ xor va orkestr ijrosidagi asarlarni idrok etib, ulardagi obrazlarni anglab olish;
- ✓ xor turlari (bolalar xori, xotin-qizlar xori, erkaklar xori, aralash xor)ni audio yozuvdan tinglab ajrata olish;

Ijro madaniyati:

- ✓ Bilgan cholg‘u asbobida chalib o‘qituvchi ijrosiga jo‘r bo‘lish;
- ✓ mashq va ayrim qo‘shiq parchalarini ikki ovozda mustaqil kuylay olish;
- ✓ berilgan qo‘shiqlarni mahorat bilan ijro eta olish.

Musiqqa madaniyati fanidan 6-sinf o‘quvchilari quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari

kerak:

- Xalq musiqqa janrlarida mumtoz musiqani;
- Sharq xalqlari mumtoz musiqasi bilan tanishish;
- buyuk rus kompozitorlari M.Glinka, P.Chaykovskiy, Yevropa klassik musiqasi, simfoniya janri I.S.Bax, L.Betxoven, V.Mosart, F. Shubert, Y.Gaydn asarlarining klassikligi;
- ushbu kompozitorlar ijodi bilan qisqacha tanishuv;
- o‘zbek zamonaviy musiqasida bastakor va kompozitor ijodini bilish;
- o‘zbek xalq musiqasining Markaziy Osiyo va yaqin Sharq xalqlari musiqasi bilan o‘xshashligi va farqini bilish;
- jiddiy va yengil musiqaning ifoda vositalari, mazmuni va kuyining ohangini ajratishni;
- bastakorlik ijodida an‘anaviylik va zamonaviy ijod uslublarining mujassamligini bilish;
- estrada qo‘shiqlarida milliylik va baynalminallik xususiyatlari tushunchasiga ega bo‘lish;
- milliy estrada qo‘shiqlarini badiiy idrok etish va uning ijro mahoratini farqlay bilish;
- rok, janri, uning asl vatani;
- o‘zbek musiqasida estrada janri, kino musiqasi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- mumtoz musiqani, ustozona (kasbiy) musiqani, xalq musiqqa janrlarini ongli ravishda o‘zlashtirib farqlashni bilish.

Musiqqa madaniyati fanidan o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

Tinglash madaniyati:

- ✓ Xalq va ustozona mumtoz musiqani shakl, mazmun va ijro mahoratiga qarab ajrata olish;
- ✓ Zamonaviy milliy musiqada mumtozlikka xos badiiy yuksaklikni ajrata olish;
- ✓ Sharq xalqlari milliy usulini ohanglaridan ajrata bilish;
- ✓ Sharq xalqlari uchun mushtarak bo‘lgan cholg‘u asboblarida ijro yetilgan asarlarni tinglab, ular qaysi millatga xosligini aniqlay olish.

Ijro madaniyati:

- ✓ Qo‘shiqlarning so‘z ma‘nolarini jarangdor va ifodali kuylay olish;
- ✓ Ayrim qo‘shiqlarni doira usullari boshqaruvida kuylay olish;

Musiqqa madaniyati fanidan 7- sinf o‘quvchilari quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari

kerak:

- ✓ milliy musiqqa amaliyotida mahalliy uslublar haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- ✓ har bir vohaga mansub mahalliy musiqiy uslubga xos mashhur musiqqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik va b.)ni bilish;
- ✓ har bir mahalliy uslubning o‘ziga xos ijrochilik uslublari va yetakchi cholg‘u asboblarini bilish;
- ✓ Farg‘ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm mahalliy uslublaridagi xususiyatlarini;
- ✓ ularning mashhur ijrochilari (ashulachilar, yallachilar, xalfalar va b.)ni bilish;
- ✓ Shashmaqom, uning cholg‘u va ashula yo‘llarini bilish;

- ✓ Farg‘ona-Toshkent-Xorazm maqomlarining cholg‘u va ashula yo‘llari haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- ✓ mahalliy musiqiy an‘analarining zamonaviy musiqa ijodiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik sohasida namoyon bo‘lishini;
- ✓ estrada va milliy estrada haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- ✓ hozirgi badiiy jamoalar, ta‘sis etilgan ko‘rik-tanlovlari haqida bilish;
- ✓ O‘zbekiston Markaziy Osiyo, jahon musiqasi va hozirgi zamon musiqa san‘atining o‘ziga xos jihatlarini bilish, bu san‘atning ayrim namoyondalarini hamda ularning mashhur asarlarini tinglab umumiy tasavvurga ega bo‘lish.

Tinglash madaniyati:

- ✓ Shashmaqom, Xorazm hamda Farg‘ona-Toshkent maqomlarining ohang xususiyatlarini usul va uslublariga ko‘ra ajrata bilish;
- ✓ to‘rt lokal mintaqada mavjud musiqiy mahalliy uslublarni ijro uslublariga ko‘ra farqlay bilish;
- ✓ Farg‘ona - Toshkent, Samarqand - Buxoro, Surxondaryo - Qashqadaryo va Xorazm vohalaridagi baxshilar ijrolarini cholg‘u jo‘rlari (dombra, dutor, tanbur, tor) va ovoz ishlatish (bo‘g‘iq va ochiq) uslublariga ko‘ra ajrata bilish;
- ✓ Sharq, mumtoz, estrada va jahon musiqalarini tinglab farqlay bilish;
- ✓ Festivallar va ko‘rik-tanlovlarni farqini aniqlay bilish.

Ijro madaniyati:

- ✓ Turli tuzilishdagi ikki ovozli qo‘shiqlarni ansamblda kuylash;
- ✓ major va minor ladlarini ifodali kuylash;
- ✓ kuylashda forte va piano dinamik tuslarini bajarish;
- ✓ o‘zi va o‘rtoqlari ijro etgan qo‘shiqlarni ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay bilish;
- ✓ bilgan cholg‘u asboblari chalish, sinf xoriga jo‘rnavozlik qilish.[7]

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti o‘quvchilarning ma‘naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga ijobiy maxorat va badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati darslarida musiqiy psixologiyani rivojlantirish samarasi boshqa fanlardan ko‘ra tezroq, teran va shiddatli tarzda o‘rganilsa bo‘ladigan faoliyatdir. Barcha o‘quv fanlari qatori musiqiy ta‘limda ham davlat ta‘lim standartlarining joriy etilishi milliy musiqiy merosimizdan to‘laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida, maqom, shashmaqom, doston va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o‘z aksini topadi.[4]

“*Musiqa mashg‘uloti*” – ta‘lim-tarbiyaning amalga oshirishning eng qulay va samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabhalarida bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘rifiy o‘zgarishlar bo‘yicha barcha fanlar qatori musiqa mashg‘ulotlarida mazmuni va metodikasiga ham yangi zamonaviy talablar qo‘yiladi.

1. Musiqa mashg‘ulotida- didaktik, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarni bilish va ularni amalga oshirish.
2. Musiqa mashg‘ulotida ta‘limning faol uslublaridan foydalanish.
3. Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida xalq pedagogikasi an‘analari, jahon pedagogikasi, psixologiyasi, san‘atimiz buyuk ajdodlaridan, rivoyatlaridan hikmat to‘la hadislaridan unumli foydalanib olib borish maqsadga muvofiq.

Ma‘lumki keyingi yillarda tajribali metodlar, olimlar va adabiyotchi o‘qituvchilarning o‘quv jarayonini tahlil qilish, sohasida o‘tkazilgan tadqiqotlari dars samaradorligini oshirish, pedagogik va didaktik shart-sharoitlar quyidagilardan iborat.

1. Darsliklar, qo'llanmalar, dastur tavsiyanomalar, didaktik va metodik ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish.
2. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ijobiy psixologik muhit bo'lishi.
3. O'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lishdir.

Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularni barkamol bo'lib o'sishida o'ziga xos takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limidan, davlat ta'lim standarti asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak, yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati katta. Musiqa darslari, sinfdan va maktabdan tashqari musiqa mashg'ulotlari o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ulardagi ezgulikka bo'lgan his tuyg'ularini o'stiradi, musiqa san'ati mehr-muhabbat qiziqish uyg'otadi, ona vatanni sevishga, bir-birini kattalarni hurmat qilish, mehnatni tabiatni sevishga, qadrlashga o'rgatadi. Hayotda o'z o'rnini topishga madad beradi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, musiqani idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash va raqsga tushish ijodkorlik malakalarini shakllantirish, musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish uchuun zaruriy shart-sharoit yaratib berish va ularni badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim tarbiyasining vazifasini tashkil etadi. Hozirgi musiqiy ta'lim tarbiyasi, shuni ko'rsatadiki, milliy musiqa merosimizni o'rganishda, musiqa darslari tarbiya tizimini ahamiyati katta.

Musiqa ta'limi jarayonoda ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlari o'quvchi ongiga o'zaro birlik va aloqadorlikka singdiriladi. Sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlari orqali ma'naviy-axloqiy shakllantirish, bunda ularning yosh xususiyatlari, individualligini hisobga olish, musiqani idrok qilish, uni tahlil qilish va sintez qila olishga o'rgatish pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning mavjudligiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham musiqa ta'limi mazmunida musiqa mashg'ulotiga keng o'rin ajratish ularni o'quvchilar ongiga singdirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammodir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son farmoni.
2. Bekmatov S. 6-sinf «Musiqa» darsligi. 2017.
3. Ibrohimov O. 7-sinf «Musiqa» darsligi. 2016.
4. Olimov A. A. «Yoshlarni tarbiyalash va yangi insonni kamol toptirishda musiqa san'atining o'rnini» mavzusidagi Bitiruv malakaviy ish. Namangan – 2014.
5. Sayfuddinov J. «Musiqa san'ati orqali o'quvchi shaxsini axloqiy-estetik xislatlarini shakllantirish» mavzusidagi Kurs ishi. Samarqand – 2016.
6. Ualiyeva G.I., Siddiqova G.Sh. Musiqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi. O'UM. T., 2018.
7. Ualiyeva G.I., Siddiqova G.Sh. Musiqa madaniyati fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. O'UM. T., 2018.
8. Mansurov A va D.Karimova 5-sinf «Musiqa» darsligi. 2015.
9. Panjiyev Q.B., Karimova D. A., Ualiyeva G.I., - «Musiqa madaniyati» fani o'qituvchilari uchun O'UM. T., 2017.
10. Sharipova G.M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. T.: Turon-Istiqlol nashriyoti. 2006.

UDK: 373.31(575.1)

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHISHNING
EMPIRIK TAHLILI****S.X.Nasimov***Samarqand davlat universiteti*sadriddin.nasimov1981@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabga moslashishining psixologik-pedagogik jihatlari yoritib berilgan va nazariy-amaliy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kognitiv, emotsional, kommunikativ, intellektual, axloqiy, estetik, ontogenez, motivatsion, hissiy-emotsional, motiv.

Эмпирический анализ подходов учащихся начальной классов адаптация к школе

Аннотация. В статье рассмотрены психолого-педагогические аспекты адаптации младших классов к школе, дан теоретический и практический анализ.

Ключевые слова: когнитивный, эмоциональный, коммуникативный, интеллектуальный, моральный, эстетический, онтогенетический, мотивационный, эмоциональный.

Empirical analysis of approaches of students in elementary classes adaptation to school

Abstract. The article describes the psychological and pedagogical aspects of the adaptation of primary school students to school and provides a theoretical and practical analysis.

Keywords: cognitive, emotional, communicative, intellectual, moral, aesthetic, ontogenetic, motivational, emotional.

Jahonning turli mamlakatlarida so'nggi yillarda ontogenezda bolaning maktabga ruhiy tayyorgarligi, uning kognitiv, hissiy-emotsional hamda bevosita kommunikativ sohalarining rivojlanishi va namoyon bo'lishiga oid zamonaviy texnologiyalar amaliyotga tatbiq etilgan. Psixik taraqqiyot qonuniyatlariga ko'ra, kichik maktab yosh davri o'ziga xos yosh bosqichi bo'lib, bolada kognitiv, hissiy-emotsional, kommunikativ sohalar intensiv ravishda rivojlana boshlaydi, ayniqsa, bola o'yin faoliyati davomida, tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro aloqa o'rnatish orqali ijtimoiy tajriba hamda ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zlashtiradi. Bu esa o'z-o'zidan ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlaydi va bolalarning maktabga tayyorligi bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Jahon boshlang'ich ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bolalarning maktabga tayyorligini shakllantirishning lokal-modulli texnologiyalari, diagnostik tizimini takomillashtirish, o'quvchining maktabga tayyorligini shakllantirishning elektron monitoring tizimini yaratish, maktabga adaptatsiyasining psixologik, didaktik ta'minotini ishlab chiqish, hissiy kechinmalar, shaxslararo munosabatlar, sub'ektning shaxslararo shakllanishiga sharoit yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning maktabga moslashishning psixologik omillarni belgilash, psixologik treninglar va rolli o'yinlar vositasida bolalarning maktabga moslashishning psixologik omillarni aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarda intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy va muloqot madaniyatini rivojlantirish kabi sharoitlarni yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomil-lashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. [1].

Maktabga kelish har bir bolaning hayotida katta o'zgarishlar olib keladi. Ota-onalar va sinf rahbarlari bolaning maktabga, yangi muhitga moslashish davri bilan bog'liq ko'plab muammolarga duch keladilar. Maktab birinchi kunlardan bola oldiga bajarish, e'tiborlilik, diqqatni talab qiluvchi vazifalarni qo'yadi. Albatta, bola bularning barchasiga qiyinchilik bilan bardosh beradi. Uning etakchi faoliyati o'yin bilan birgalikda o'qitish sanaladi.

Maktabga kelib bola o'zida yangi ijtimoiy vazifalarni ko'radi: o'quvchi, sinfdosh. Bu eng avvalo istagidan qat'iy nazar bajarishi shart bo'lgan majburiyatlar borligi bilan kuzatiladi.

Yangi narsalarga qiziqish, yangiliklarni bilish va shaxsni shakllantirish bolaning maktabga borishi uchun harakatlantiruvchi omil sanaladi. Bir qator mualliflar (Aleksandrovskaya E.M., Antropova M.V., Vayner E.N., Kazin E.M., Kachan L.G., Muxina V.S., Ovcharova R.V., Pozdnyakov S.V. va boshqalarning) ma'lumotlariga ko'ra har yili har bir maktabda 15 dan 40% gacha bolalar maktabga kelganda o'qishga ruhan tayyor bo'lmaydilar, qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar va moslasha olmasliklari mumkin.[2]

Maktabga moslasha olmaslik deganda maktab ta'limi holati talablariga bolaning ijtimoiy-psixologik va psixofizik maqomi mos kelmasligi to'g'risidagi belgilar yig'indisi tushunilib, ularni o'zlashtirish bir qator sabablarga ko'ra qiyin yoki ayrim holatlarda imkonsiz bo'ladi»[3]. Bundan kelib chiqib maktabga tayyorlik tushunchasida ikkita komponentni ajratish mumkin: o'quv faoliyatiga tayyorlik (o'qishga moslasha olmaslik profilaktikasi) va maktabga ijtimoiy-ruhiy tayyorlik (maktabga ijtimoiy-ruhiy moslasha olmaslik profilaktikasi sifatida).

Maktabga tayyorlik ko'plab omillarga bog'liq hamda psixologik-pedagogik o'rganishni talab qiladigan turli komponentlarni o'z ichiga oladi.

Bolaning maktabga moslashishini o'rganish uchun maktabga tayyorgarlikning turli jihatlari to'g'risidagi bilimlar zarur, ular orasida motivatsion, intellektual va ijtimoiy jihatlar ajratiladi. 6-7 yoshdagi bolalarda maktabga tayyorlikning turli tuzilishlarini taqqoslab o'rganish zaruriyati ko'plab psixologlar tomonidan keltirilgan.

Mazkur muammoni tadqiq qilib ota-onalar va o'qituvchilar uchun tavsiyalar majmuasini aniqlash mumkin, ular bolaga qadar qiyinchiliksiz maktabga moslashish davridan o'tish yoki umuman bu qiyinchiliklarga duch kelmaslikka yordam beradi.

Bolaning maktabga ruhiy tayyorgarligi va moslashish masalalari pedagog, defektolog, psixologlar: L.I. Bojovich, A.L. Venger, L.S. Vigotskiy, A.V. Zaporjets, A.N. Leontev, V.S. Muxina, E.O. Smirnova, M.R. Bityanova, O.V. Xuxlaeva va boshqalar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Natijada tadqiqotning dolzarb qarama-qarshiliklari quyidagilar bo'ladi:

- Birinchi sinfga yaxshi moslashmagan bolalar soni to'g'risidagi har yillik statistika ma'lumotlari va ilmiy adabiyotlarda mazkur masalaning nazariy ishlab chiqilganligi;
- Bir tomondan, kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi sodir bo'ladi, boshqa tomondan esa ota-onalar ham bolaning maktabga moslashish darajasi uchun mas'ul sanaladilar.

Mazkur tadqiqotlarda ta'lim sifatini oshirish va uning natijalarini boshqarish bilan bog'liq tizimli funksional baholash texnologiyalari va pedagogik tashxislashning ilmiy asoslangan ob'ektiv tizimini yaratish dolzarbligicha qolmoqda.

Bu muammoning echimi sifatida oilalarda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish lozim. Shularni nazardat tutgan holda tadqiqot doirasida o'quvchilarni maktab ta'limiga moslashtirishda nimalarga e'tibor berish lozimligi, bolaning maktabga moslashtirishda yozuv va o'qish ko'nikmalarini shakillantirishga qaratilgan o'yin mashqlar hamda bolaga berilgan uyga vazifalarni birgalikda bajarishning ahamiyati haqida amaliy mashg'ulotlar olib borildi.

O'qituvchilar umumta'lim maktabi bolalarga uch bosqichda ta'lim beradi: boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar), asosiy umumiy ta'lim (5-9-sinflar), o'rta umumiy ta'lim (10-11-sinflar). Tajribali professor-o'qituvchilarga yosh mutaxassislar birlashtirilgan. [4]

Biroq boshlang'ich sinflarning boshqa sinflar bilan bir binoda joylashganligi birinchi sinf o'quvchilarining moslashish sharoitlarini murakkablashtiradi. O'quvchilarning maktab jamoasiga qo'shilish jarayoni, yangi sharoitga moslashish ancha jadal kechadi va muammo tug'dirishi mumkin. Birinchi sinf o'quvchilari birinchi navbatda sinf o'qituvchisi bilan bir-birlari bilan

qanday munosabatda bo'lishni o'rganishlari, maktab hayoti qoidalarini o'rganishlari, keyin ikkinchi va uchinchi sinf o'quvchilari bilan munosabatlarni o'rnatishlari kerak. SHundagina boshlang'ich maktabdan asosiy maktabga o'tish davrida katta yoshdagi o'quvchilar bilan tanishish kerak.

Moslashuv jarayoni og'riqsiz bo'lishi uchun maktabda birinchi sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayoni muayyan tarzda quriladi. Ular bolalarni minimal darajada yuklashga va bolalar bog'chasidan maktabga iloji boricha silliq o'tishga harakat qilishadi.

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich maktabga o'tish davri 7 yillik yosh inqirozining boshlanishi bilan bog'liq. Vigotski: "bu inqiroz maktab yoshi bilan ochiladi. "Inqiroz davrida bolaning psixologik ko'rinishi sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. Uning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini tubdan qayta qurish mavjud deb ta'kidlaydi.[5]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabga adaptatsiyasini o'rganish maqsadida biz tadqiqotimizni Ishtixon tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 50 nafar (2 ta) birinchi sinf o'quvchilari guruhida tajriba-sinov ishlarini o'tkazdik. Tadqiqot davomida turli vaziyatlarning yuzaga kelishi (bolaning kasalligi yoki asosiy mashg'ulotlardan so'ng) tufayli namuna sezilarli darajada o'zgarmadi, ammo sub'ektlarning umumiy soni saqlanib qolindi.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirishning psixologik-pedagogik muammolarini tashxislash uchun to'rt xil usuldan foydalandik.

Tadqiqotimiz uchun tanlagan birinchi usul M. R. Ginzburgning "Maktab o'quvchilarining o'quv motivatsiyasini o'rganish" usulidir. Bu o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasi darajasini aniqlashga qaratilgan.

Ikkinchi usul N. I. Gutkina tomonidan "O'quvchining ichki pozitsiyasini o'rganish"dir. Bu o'quvchining ichki pozitsiyasini aniqlashtirishga qaratilgan bo'lib, u kognitiv va ta'lim motivatsiyasi va bolaning o'sib borayotgan muhitining madaniy darajasini nazarda tutadi.

Tadqiqotimiz uchun tanlagan uchinchi usul-bu Lyusher usuli bilan moslashishni o'rganishdir. Ushbu uslub bolaning maktab hayotiga hissiy munosabatini aniqlashga qaratilgan.

Birinchi sinf bolalarning moslashish davrini o'rganishimiz kerak bo'lgan to'rtinchi uslub-bu "Maktab tashvishlarini o'rganish" usuli. Uslubiyot A. M. Parishioners tomonidan E. Amen, N. Renison metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Ginzburg metodikasi natijalariga ko'ra beshta shkalaga mos keladigan 5 guruhga sinovdan o'tkazilayotganlarni tasnifladik. Motivatsiya darajasiga ko'ra 1 «A» sinf tajribaviy guruhi:

- 25 ta boladan 2 tasida motivatsiyaning juda yuqori darajasi ;
- 25 ta boladan 6 tasida motivatsiyaning yuqori darajasi;
- 25 ta boladan 13 tasida motivatsiyaning o'rta darajasi;
- 25 ta boladan 3 tasida motivatsiyaning pasaygan darajasi;
- 25 ta boladan 1 tasida motivatsiyaning past darajasi.

1 «B» sinf tajribaviy guruhi motivatsiya darajasiga ko'ra:

- 25 ta boladan 2 tasida motivatsiyaning juda yuqori darajasi ;
- 25 ta boladan 5 tasida motivatsiyaning yuqori darajasi;
- 25 ta boladan 14 tasida motivatsiyaning o'rta darajasi;
- 25 ta boladan 2 tasida motivatsiyaning pasaygan darajasi;
- 25 ta boladan 2 tasida motivatsiyaning past darajasi

Shunday qilib, 1 «A» sinf tajribaviy guruhdan barcha bolalar 75 tanlovni amalga oshirdilar, undan 22 marta ijtimoiy motiv tanlandi; 18 marta – pozitsion; 9 marta – baholash; 11 marta - o'quv; 9 marta – o'yin va 6 marta tashqi motiv tanlandi.

1 «B» tajribaviy guruh bolalaridan umuman 75 ta tanlov qilindi, undan 22 martasi ijtimoiy motiv tanlandi; 19 – pozitsion; 10 marta – baholash; 11 – o'quv; 9 marta – o'yin va 4 marta– tashqi motiv.

1 «B» sinf tajribaviy guruhida barcha motivlar orasida ijtimoiy motiv ustunlik qilib, umumiy miqdorning 29% ini tashkil qiladi, keyingi eng muhimlari sifatida pozitsion motiv – 24 %, eng kam esa o'quv motivi egallab 14 % ni tashkil qiladi, deyarli shuncha miqdorni baholash motivi ko'rsatdi: 13%. O'yin motiviga umumiy tanlov miqdorining 12% va tashqi motivga 8% to'g'ri keladi.

Olingan natijalarni tahlil qilib, ko'rishimiz mumkinki, ikkala tajribaviy guruhdan ko'plab bolalar bir xil darajada, ijtimoiy va pozitsion motivlarga tayanadi. Ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinni o'quv va baholash motivlari egallaydi. Ushbu motivlarga tayanadigan bolalar maktabga bilim olish uchun boradilar va ularga o'qish yoqadi yoki baho olish va o'qituvchi hamda ota-onadan maqtov eshitish uchun boradilar. Ayrim bolalar o'z tanlovlarini o'yin motivi foydasiga belgiladilar, ularga maktabga borish yoqadi. Chunki yangi tanishuvlar, muloqot qilish, o'ynash va tengdoshlari bilan vaqtni quvnoq o'tkazish ularga yoqadi. Va nihoyat qayd qilindiki, 1-A guruhdan 4 ta va 1-B guruhdan 4 ta bola savollarga javob berib tashqi motivni tanladilar. Bu bolalar o'zlarini kam faol, tashabbussiz, yopiq sifatida ko'rsatdilar. Maktabga ko'pincha ota-onalarning majburlovi ostida keladilar.

N.I. Gutkinaning o'quvchining ichki pozitsiyasini tadqiq qilishning ikkinchi uslubiyotiga ko'ra quyidagi ma'lumotlarni oldik.

1-jadval

O'quvchilarning ichki o'rni	1 «A» sinf	1 «B» sinf
To'liq shakllangan	10	9
O'rtacha shakllangan	10	12
shakllanmagan	5	4

Maktabda bolaning hissiy holati, uning o'qituvchi, sinfdoshlariga bo'lgan munosabatini aniqlashga qaratilgan Lyusherning usuli bilan moslashuvni tadqiq qilishning uchinchi uslubiyoti natijalari bo'yicha quyidagilar aniqlandi. Metodika ertalabki soatlarda bolalar endigina maktabga kelganda o'tkazildi, bu vaqtda ular ruhiy va aqliy etuk bo'lib, o'z tanlovlarini oqilona tushuntira oladilar. Olingan natijalarni tahlil qilib, biz muallif tomonidan taklif qilingan uchta shkala bo'yicha bolalarni bo'ldik va ularning maktabdagi hissiy holatini aniqladik.

1-«A» sinf tajribaviy guruhida:

- 10 ta bolada ijobiy hissiyotlar ustunligi kuzatildi. Bola optimistik kayfiyatda, quvnoq, baxtli, eyforiya holatida bo'ladi.
- 10 ta bolada hissiy holat me'yorida, moslashish me'yorida kechadi, xavotir yo'q.
- 5 ta bolada salbiy hissiyotlar ustunlik qiladi. Bolada xavotir mavjud, yomon kayfiyat ustunlik qiladi, bola maktabga moslashida qiyinchilikka duch kelayotganini aytish mumkin, unga e'tibor qaratish kerak va u psixologik yordamga muhtoj bo'lishi mumkin.

1-«B» sinf nazorat guruhida:

- 10 ta bolada ijobiy tuyg'ular ustuvor;
- 10 bolada hissiy tuyg'ular me'yorda;
- 5 bolada salbiy tuyg'ular ustuvor.

A.M.Prixojanning maktab vahimasini o'rganish uslubiyoti bizga to'laqonli ravishda nafaqat bolalardagi maktab vahimasi mavjudligini belgilash balki kelgusida bolaga psixologik yordam ko'rsatish uchun maktabga moslasha olmaslik belgilarini ham aniqlashga yordam berdi. Maktab vahimasi darajasi bolaning salbiy tanlovlari soniga bog'liq. Sifat tahlilini o'tkazib, biz maktab vahimasi mavjudligi va darajasiga ko'ra sinovdan o'tayotganlarni uch guruhga bo'ldik, bu 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-Jadval

	Vahimaning past darajasi (%)	Vahimaning o'rta darajasi (%)	Vahimaning yuqori darajasi (%)
1 «A» sinf	12	68	20
1 «B» sinf	16	60	24

Tajriba yakunida aniqladikki, 1-«A» sinfdan moslasha olmagan bolalar soni-5 nafar, 20% ni tashkil qilib, 1-«B» sinfdan - 25 tadan 4 ta bo'lib, 16% ni tashkil qiladi. Moslasha olmagan bolalar o'qituvchi va ota-onalarning yuqori e'tibori, shuningdek psixolog yordamiga muhtoj bo'ladilar. Deyarli barcha holatlarda qiyinchilikka duch kelayotgan bolalar 6 % ni tashkil qiladi.

Bizning tadqiqot ishimizning keyingi bosqichi kichik maktab yoshidagi bolalarda maktabga moslashish jarayonini yaxshilash va tezlashtirish bo'yicha tadbirlar o'tkazishdan iboratdir.

Yuqorida qayd qilinganidek, ushbu bosqichda tajribaviy guruhning uchta toifasi (1 «A») va nazorat guruhining bitta toifasi (1 «B») bo'yicha ish bajarildi.

Shunday qilib, tajribaviy guruh sinf rahbari bilan suhbat yakunlari bo'yicha biz tomondan asoslangan bir qator muammolarga e'tibor qaratish hamda bizning tavsiyalarga quloq solishga to'g'ri keldi. Sinf rahbarini kiritish sababli bolalar hamda ularning ota-onalari bilan keyingi ishlar yanada muvaffaqiyatli va samarali bo'ldi. O'qituvchi biz tomondan taklif qilingan tadbirlarda faol ishtirok etdi, bolalarni samarali uyushtirdi hamda o'quvchining ota-onalari bilan aloqani doimiy ravishda saqladi. Bu vaqtda nazorat guruhi sinf rahbari bizning mashg'ulotlarda ishtirok etmadi.

M.R. Bityanovanning ota-onalar uchun anketa natijalarini tahlil qilib, biz tomondan ilgari olingan ma'lumotlar bilan uni taqqoslab, quyidagilarni aniqladik:

- 25 tadan 16 bolada maktabga moslashish bilan qiyinchiliklar tug'ilmaydi;
- 25 boladan 4 tasida yangi muhitda qiyinchilik bo'ladi (moslasha olmaslik mumkin)
- 25 boladan 5 tasi moslasha olmadi va ota-ona, o'qituvchi, maktab psixologi, ijtimoiy pedagog ko'magiga muhtoj.

M.R. Bityanova tomonidan taklif qilingan ota-onalar uchun anketaning olingan natijalaridan kelib chiqib, biz tomondan aniqlangan bolalar tashxisi natijalari tasdiqlandi va sinf holatini yanada aniq ko'rish imkonini berdi. Risk guruhi deb nomlanadigan bolalarning aniq soni ajratildi, ular umumiy miqdorning 16% ini tashkil qildi hamda mos ravishda alohida e'tibor va yordamni talab qiladi. Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqadiki, ota-onalar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega va bolalar hamda ularning maktabga moslashish jarayoni to'g'risida qo'shimcha foydali axborot olish mumkin.

Tadqiqot davomida ikkala guruh bolalari bilan ishlab chiqilgan moslashi mashqlari o'tkazildi, bunda o'yin va mashqda bolalarning qiziqishi va qo'shilishida muhim farqlar kuzatilmadi. Ammo, mashg'ulot so'nggiga kelib biz tajribaviy guruh bolalarida ijobiy dinamika va faollikni aniqladik: ba'zan mashg'ulotlarda bolalarning ota-onalari ishtirok etdilar, ular mavzuga oid yig'ilishdan keyin moslashish muammosiga qiziqdilar va maktab qiyinchiliklarini bartaraf qilishda bolalarga faol yordam berdilar.

Nazorat tajriba yakunlariga ko'ra, biz tomondan olib borilgan ish samaradorligini qayd qilamiz-ikkala sinfda bolalarning moslasha olmaslik darajasi pasaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, I-«A» sinfda moslasha olmagan bolalar 20 % ga kamaydi, bu maksimal mumkin bo'lgan natija sanaladi hamda maktabga tajriba guruhi o'quvchilarining to'liq moslashganidan dalolat beradi.

Nazorat guruhida bolalarning moslasha olmaslik darajasi 8% gacha kamaydi, bu dastlabki natijaning yarmini tashkil etdi.

Xulosa kilib shuni aytish mumkinki boshlang'ich sinf yoshdagi o'quvchilarni maktabga adaptatsiyasining rivojlanishida shaxslilik xususiyatlarining o'sishi, boshqalar bilan aloqalar o'rnatilishi va kattalar bilan munosabatlarda individual imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishi hamda oilaviy jarayonlarda yaqinlariga o'z mulohazalarini bemalol ayta olishi kabi faolligi, belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga va maktabga moslashish jarayonini shakllantiruvchi sifatning o'sishi o'ziga xos asos sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. – 6 (766)-son. – B.140.
2. Aleksandrovskaya E.M. Maktabga moslashishning ijtimoiy-psixologik mezonlari / S.M. Grombax tahriri ostida. - M., 1988.
3. Выготский Л.С. Инсон rivojlanishi psixologiyasi. - M.: nashriyot Smysl; Eksmo, 2005 - 1136 s.
4. Ovcharova R.V. Boshlang'ich sinflarda amaliy psixologiya. – M.: TTs «Sfera», 2002. – 240 S.
5. Majidov N.M. Nasimov S.X. Milliy o'yinlarning ijtimoiy va etnopsixologik o'ziga xos xususiyatlari. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyotini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari. Xalqaro ilmiy anjuman. CHirchiq. 2019 yil 24-25 may.
6. Majidov N.M. Nasimov S.X. Psychological Approach to the educational Process. Test engineering Manegment. March - April 2020 ISSN: 0193-4120 Page No. 1790 – 1793.

УДК:796.81

**JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENTLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI****F.J.Qosimov***Samarqand davlat universitetini**E-mail:fah-qosimov@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada kompetentlilik tushunchasiga turli yondashuvlar, kasbiy pedogogik kompententlikning turlari, uning tuzilishi tahliliy yoritilgan bo'lib, jismoniy madaniyat mutaxassislarni malaka oshirish jarayonida kasbiy shakllantirish yo'llari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlilik , kasbiy kompetentlilik , kasbiy kompetentlilik sifatлари, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi boshqarish.

**Технология повышения профессиональной компетентности преподавателей
физической культуры**

Аннотация. В статье анализируются различные подходы к понятию компетентности, виды профессионально-педагогической компетентности, ее структура и способы профессионального становления специалистов физической культуры в образовательном процессе.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, качества профессиональной компетентности, учитель физкультуры, саморазвитие, самоуправление.

**The technology of increasing the professional competence of physical education
teachers**

Abstract. The article analyzes various approaches to the concept of competence, types of professional and pedagogical competence, its structure, and methods of professional development of physical culture specialists in the educational process.

Keywords: competence, professional competence, quality of professional competence, physical education teacher, self-development, self-government.

O'zbekistan Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar sharoitida sifatli ta'lim berish orqali kadrlarning kasbiy kompetensiyasini yuksaltirish ustuvor vazifaga aylandi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo'lajak har bir kadrni yuksak pedogogik bilimlar bilan bir qatorda etnik bilim va texniq ko'nikmalar bilan qurollangan, yuqori saviyali kasbiy kompetentlilik ka ega bo'lgan madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash zarurligini yana bir bor ta'kidlamoqda. Zero, Prezidentimiz va huqumatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor qaratilayotgani hamda pedagog-mutaxassislarda kasbiy kompententlikni shakllantirishning optimal yo'l va usullarini izlab topish, ularni amaliyotga va o'qitish jarayoniga dadil joriy etish taqozo etilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 3 noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4877-son qarorida jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o'qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsad qilib quydi.

Ta'lim muassasalari mutaxassislari kasbiy kompetentliligini o'rganishdan asosiy maqsad mutaxassislar kasbiy kompetentliligining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni hamda

kompetentlilik, kasbiy kompetentlilik sifatlari, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi boshqarish haqidagi bilimlarni chuqurroq shakllantirish, yuksak milliy muloqot texnikasi va madaniyatini egallashga yordam berish va kasbiy kompetentlilik bo'yicha yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir. Chunqi, hozirgi zamon kadrlari hayotimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib, u har tomonlama yetuq, chuqur bilimga ega, Vatani va xalqiga sodiq mutaxassis mahorati va layoqatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi hamda kasb vazifalarini yaxshi bilgan shaxs bo'lishi zarur.

Shu sabab mazkur ilmiy maqolada pedagogik kompetentlilik mohiyatining yanada yuksalganligi, talabning yanada oshishi, raqobatbardosh jismoniy madaniyat mutaxassislar tayyorlash uchun uning zaruriyatini asoslashga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida mutaxassislar tomonidan keltirilgan turli ta'riflar negizida mutaxassislarda aynan ushbu pedagogik sifatni shakllantirishning optimal yo'llarini izlashdan iboratdir.

Muammoning o'rganilgan darajasi. Ta'lim muassasalari mutaxassislari kasbiy kompetentligi muammosi bo'yicha V.I.Baydenko, Ye.V.Bondarevskaya, I.A.Zimnyaya, V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lerner, G.R.Lomakina, V.A.Slasyonin, V.Ya.Sinenko, A.V.Xutorskoy, T.S.Zeleneskaya, D.Ermakov, M.A.Choshanov, Ye.A.Tarxanova, A.K.Markova, L.M.Mitina, B.Nazarova va boshqa qator tadqiqotchilar o'z tadqiqot maqsadlariga asoslanib ta'lim muassasalari mutaxassislarini tadqiqot ob'ektiga aylantirganlar va nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. Ularning tadqiqotlarida kompetentlilik tushunchasi pedagog va psixologlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Albatta, ta'limda mutaxassislar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, «kompetentlik» tushunchasining mazmun-mohiyatini aniq tasvirlash, buning uchun esa mazkur atamaga berilgan ta'riflarni atroflicha taqqoslash va tasniflash talab etiladi.

Kasbiy pedagogik kompetentlikning shakllanishi va rivojlantirilishi avvalo kasbiy bilim, malakalar va qiziqishning mavjudligi negizida, malaka oshirish jarayonidagi tinglovchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutgan holda pedagogik muloqotni samarali tashkil etish orqali vujudga kelishi aniqlandi:

tadqiqotda ta'lim muassasalari mutaxassislari kasbiy kompetentligi maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganilganligi;

tadqiqot ob'ekti sifatidagi ta'lim muassasalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda kasbiy kompetentlilik sifatlari samaradorligini belgilovchi o'ziga xos ijtimoiy-psixologik mezonlarning ishlab chiqilganligi;

ta'lim muassasalari mutaxassislari kasbiy kompetentligi ga oid ilmiy- nazariy manbalarning muayyan mezonlar asosida tahlil etilganligi va umumlashtirilganligi hamda ularning kasbiy kompetentligini yanada rivojlantirish orqali kompetentlikning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni hamda uning sifatlari, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi boshqarishni aniqlash bilan bog'liq o'rtacha umumiy va qiyosiy tipik ko'rsatkichlar ko'lamining tadqiq etilganligi va shu asosda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilganligida.

Tadqiqot ob'ekti O'zbekiston Respublikasi Turizm va Sport vazirligi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali tinglovchilaridir.

Tadqiqotda «Kasbiy faoliyat motivatsiyasi» (K.Zamfir metodikasining A.A.Rean modifikatsiyasi) metodikalaridan foydalanildi.

Jumladan, yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan erishilgan ilmiy natijalarning mohiyati, istiqbolda pedagogik amaliyotda qo'llanishiga doir tajribalar va o'z tajribalarimizni umumlashtirgan holda ma'lum ilmiy-psixologik xulosalarga erishdiq.

Aytish lozimki, manbalarda kompetentlilik tushunchasi turli talqinlar negizida tahlil qilingan. Jumladan, T.S.Zeleneskaya fikriga ko'ra, kompetentlilik shaxsning o'qitish jarayoni va ijtimoiylashuvida vujudga keladigan hamda uning faoliyatga mustaqil, samarali ishtirokiga haratiladigan bilim, tajribaga asoslangan umumiy qobiliyatlari, faoliyatni samarali tashkil etishida namoyon bo'ladigan integral xususiyatlaridir [1].

Tadqiqotchi D.Ermaqov kompetentlikni quyidagi qator belgilar bilan xarakterlanadigan yaxlit shaxsiy ta'lim berish imkoniyati sifatida baholaydi:

- bilimlar operativligi va mobilligi, har bir aniq vaziyatni uning turli jihatlarini hisobga olgan holda qo'llash va birlashtirish qobiliyati;
- qaror qabul qilishga tayyorliq, ayni vaziyatda qulay usulni tanlay olish qobiliyati;
- kommunikativlik qobiliyati, faoliyat doirasida boshqa shaxslar bilan mustahqam aloqani yo'lga qo'ya olish;
- o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish qobiliyati, muayyan faoliyatga oid bo'lgan yangi qirralarni o'zlashtirishga intilish [2].

Keltirilgan qobiliyat, sifat va fazilatlarining mavjudligi shaxsning pedagog sifatida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olishi mezonini darajasida ta'qidlanadi.

Qator tadqiqotchilar kompetentlikning asosini ta'lim jarayonining turli bosqichlarida o'zlashtirilgan, hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda tezkorlik bilan qo'llaniladigan bilim tashkil etishini ta'kidlaydilar.

Jumladan M.A.Choshanov «Kompetentlik - bu nafaqat bilimlarga ega bo'lish, balki ushbu bilimlarni muntazam rivojlantirib, yangilab borishga, aniq vaziyatlarda qo'llay olishga intilish, ya'ni, operativ va mobil bilimlarga ega bo'lish, tanqidiy fikrlash, qulay, samarali qaror qabul qilish hamda yolg'onni rad etish qobiliyatiga ega bo'lishdir», deb ta'kidlaydi [3].

Yuqorida keltirilgan fikrlar bir-birini inkor etmaydi, balki pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishini turli nuqtai nazardan o'zida aks ettirgan holda bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Kasbiy kompetentlik esa mutaxassisning muhim fazilatlarini sifatida ta'lim olish va istiqboldagi kasbiy tajriba natijasida tobora chuqurroq egallab boriladi.

Zamonaviy ta'lim metodikalari va tadqiqotchilarning keltirilgan ilmiy pedagogik xulosalaridan aytish mumkinki, ta'lim jarayoni hozirgi kunda «pedagogik ta'sir» emas, balki «o'zaro hamkorlik» negizida tashkil etilishi maqsadga muvofiq va bunda o'qituvchining pedagogik kompetentligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jismoniy madaniyat o'qituvchi esa har bir dars oldidan o'zini darsga «tayyorlab olishi» kerak. Buning uchun dars oldidan iroda kuchi vositasida barcha keraksiz ko'ztatuvchilar (xayol va fikrlar) dan qutulishi lozim. Ya'ni, o'z atrofida «ishchan, pedagogik-ma'naviy vakuum» hosil qilishi, asablarini tartibga keltirishi, ijobiy kayfiyatni yaratishi maqsadga muvofiq.

Darsni yuqori saviyada tashkil etish uchun ijobiy psixologik sifatlar: diqqatning taqsimlanishi, ya'ni ikki va undan ortiq ob'ektlarda bir vaqtning o'zida faoliyatni amalga oshirishi yoki ularni nazorat qilishi va diqqatning ko'chishi, ya'ni yangi vazifa qo'yilishi natijasida diqqatning bir ob'ektdan boshqasiga yoki bir faoliyat turidan boshqasiga o'tishi muhimdir.

O'quvchilarni diqqat bilan kuzatib, ularning idroki darajalarini aniqlash, ma'lum ish uslubi va o'qish faoliyati natijasi borasida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Buni o'quvchilarga nigoh tashlab ham aniqlash mumkin. Darsda mimika va pantomimika elementlaridan foydalanish ijobiy natijalarga olib qeladi. Bunda o'quvchilarga qarash, boshni orqaga, oldinga yoki yon tomonga irg'ash ma'lum vazifalarni bajarishi mumkin. Ushbu elementlar nimani anglatishini o'quvchilarga o'rgatib borish maqsadga muvofiq.

Masalan, Ye.A.Tarxanova pedagogning kasbiy kompetentligini tahlil qilar ekan, uning bilimi, kasbiy va hayotiy tajribasi, qiziqishlaridan foydalangan holda kasbiy pedagogik faoliyatda uchraydigan real vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qila olish qobiliyatini ochib beradi [4].

Ushbu tahlil jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi kompetentligi o'rtasidagi farqni ma'lum darajada belgilab bera olmaydi. Bizningcha, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi kompetentligi birinchi navbatda kasbiy bilimlar negizida pedagogik tajribaga tayanadi va shu orqali uning darajalari haqida fikr yuritish lozim.


Darsga tayyorlanib, o'qituvchi o'zining imkoniyatlarini chamalashi va yangi

mavzuning qaysi nuqtalariga alohida urg'u berish lozimligini hisobga olib, shu asosda ishni tashkil etishi maqsadga muvofiq. Bu tarzda imkoniyatlarni o'lchash o'qituvchining professional tayyorgarligi darajasi, jismoniy holati, pedagogik iqtidori darajasini belgilaydi. Shaxsiy va kasbiy sifatning yaxlitlik miqdori esa o'qituvchining imkoniyatlari chegarasi va diapazonini ko'rsatadi. O'qituvchining professional tayyorgarligi darajasi ta'limda o'z mohiyati bilan ulkan faollashtiruvchi (yoki tormozlovchi) omilga aylanadi.

Bundan tashqari, o'qituvchi o'z xatti-harakatlarining tahlilini amalga oshirishi muhimdir, ya'ni vaqt-vaqti bilan ma'lum bir dars mashg'ulotini videoyozuvga olish va olingan materialni boshidan oxirigacha tahliliy o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi.

Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda mutaxassislik kasbini tezkorlik bilan egallash yo'lini tanlash muhim rol o'ynaydi. Zero, pedagogik kompetentlik maqsadning aniqligi, sub'ekt va ob'ekt aloqasining uzviyligini ta'minlovchi pedagogik hosiladir. Shu o'rinda, e'tirof etish joizki, uning shakllanishi va takomillashuvi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchi-tarbiyachidan pedagogik-psixologik, nazariy va metodik tayyorgarlikni chuqur egallash bilan birga, pedagogik axborotlarni qunt bilan muntazam o'qib borish, o'z faoliyatida mavjud nazariy va amaliy pedagogik yutuqlardan o'rinni foydalanishga o'rganishni talab etadi.

Kasbiy bilimlar va kasbiy tayyorgarlik malaka oshirish ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayonida shakllanadi, kasbiy malaka va professionalizm esa mutaxassisning amaliy faoliyati jarayonida orttiriladi (1-rasm).



1-rasm. Faoliyat sub'ekti kasbiy kompetentligining asosiy darajalari.

Kasbiy kompetentlikning shakllanishi ta'limning mazmuni, shuningdek, kasbiy malaka va mahorat orqali vujudga keladi. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini tahlil qilar ekanmiz, ularni qo'yidagicha tasavvur qilamiz:

- kasbiy ta'limning har qanday bosqichida tayyorgarlikning sifati va rejalashtirilgan natijani taqqoslash imkonini beradigan oraliq natija;
- tinglovchilarni kasbiy tayyorgarligi va ta'limning maqsadi malaka oshirish ta'lim muassasasi o'quv dasturi modelida ifodalanadi.

Hozirgi davrda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida yetakchi o'rinda turadigan ta'lim sifati ko'pgina mutaxassislar tomonidan kasbiy kompetentlik - mutaxassis shaxsining tarkibiy qismi (komponent) sifatida qaraladi.

Ta'lim sifati kasbiy kompetentlikning shakllanishiga bog'liq va shu bilan birga uning tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

A.K.Markova o'zining tadqiqotlarida kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi [3]. Bularga:

- maxsus yoki kasbiy kompetentlik faoliyat bilan yuqori darajada shug'ullana olish va shu bilan birga nafaqat maxsus bilimlarga egalik, balki ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish;
- ijtimoiy kasbiy kompetentlik jamoada qabul qilingan muloqot usullarini qo'llash, birligidagi kasbiy faoliyat va hamkorliqni yo'lga qo'ya olish;

- shaxsiy kasbiy kompetentlilik kasbiy muammolarga nisbatan qarshi tura olish, o'zini-o'zi rivojlantirish, shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lish;

- individual kasbiy kompetentlilik kasbiy taraqqiyotga tayyorliq, kasbiy rivojlanish, yangiliklar yaratish va muvaqqat kasbiy motivatsiyaga egalik bilan xarakterlanadi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligi darajasini belgilovchi muhim sifatlardan biri jamoani boshqarish uslubidir. O'quvchilar jamoasini boshqarishda demokratik uslub ijobiy uslub bo'lib hisoblanadi. Erishilgan bilimlar nisbati kamroq bo'lsa-da, uning sifati va ta'lim oluvchilarning birgalikda ishlash ehtiyoji ancha yuqori bo'ladi, bu zamonaviy interaktiv uslubdir. Avtoritar pedagogik uslub jamoada o'quv faoliyatining ancha yuqori natijalarga erishilishiga olib keladi, biroq nisbatan noqulay psixologik vaziyat kuchning ustuvorligini ta'qidlab, jamoada nevroziklarning ko'payishiga olib kelishi mumkin[6].

Bulardan tashqari, o'qituvchining yana uchta munosabat uslubi ajratib ko'rsatiladi. O'qituvchining barqaror-ijobiy uslubi o'quvchilarga nisbatan barqaror emotsional-ijobiy munosabatda, ularga g'amxo'rliq qilishda, qiyinchilik paytida yordam berishda, o'quv ishi va xulq-atvorda namoyon bo'ladigan kamchiliklarga nisbatan ishchan reaksiyada, bolalar bilan muloqotda o'zini xotirjam tutishda namoyon bo'ladi. Bu guruhga mansub o'qituvchi yorqin pedagogik iqtidor, bolalarni ardoqlash xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi va yuqori ta'limiy natijalarga erishishi mumkin.

Passiv-ijobiy pedagogik uslubga mansub o'qituvchi bolalarga nisbatan munosabatda noaniq ifodalangan emotsional-ijobiy ustanovka bilan namoyon bo'ladi. Bunday o'qituvchi har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirish sifatini tahlil etmaydi, kamchiliklarni tuzatishga, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarni rag'batlantirishga harakat qilmaydi.

O'qituvchida bolalarga nisbatan munosabatdagi beqaror uslub vaziyatga bog'liqligi bilan hamda umumiy emotsional ustanovka bilan namoyon bo'ladi.

Bu guruhga mansub o'qituvchilar ba'zan o'zlarining kayfiyat va kechinmalariga bog'lanib qoladilar, ya'ni o'quvchilar shaxsi va uning o'quv faoliyatini baholash ushbu damda shakllangan vaziyatga bog'liq bo'ladi. Demak, boshqaruvdagi munosabat uslublari borasida bilimlarga ega bo'lish pedagoglarda kasbiy kompetentlilik ning shakllanib borishida muhim omil bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchi L.M.Mitina pedagogik kompetentlilikni qo'yidagicha tasvirlaydi:

- faoliyatli (bilim, malaka, kasbiy mahorat hamda pedagogik faoliyatni mas'uliyatli va mustaqil amalga oshirishning individual usullari);
- kommunikativ (pedagogik muloqotni amalga oshirishning ijodiy yo'llari);
- shaxsiy (o'z ustida ishlash, o'zini-o'zi rivojlantirish ko'nikmasi).

Mamlakatimizda pedagogga xos kasbiy kompetentlilik, uning o'ziga xos jihatlari borasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, pedagogga xos kasbiy kompetentlilik negizida quyidagi tarkibiy asoslar turadi:

- maxsus yoki kasbiy kompetentlilik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);
- ijtimoiy kompetentlilik (kasbiy kompetentlilikni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas'ullik);
- autokompetentlilik (o'zini ijtimoiy- kasbiy rivojlantira olish);
- ekstremal kasbiy kompetentlilik, ya'ni kutilmagan vaziyatlarda to'g'ri yo'l tuta olish [6].

Pedagogning kasbiy kompetentligi, birinchi navbatda, aniq ta'lim muassasasi mutaxassisini o'qitish va tayyorlash orqali shakllantiriladi. Bunday mutaxassislarni tayyorlash kasbga nisbatan yaxlit konseptual yondashuvni (qanday va nimani o'qitishni aniq tasavvur qilish), mehnatni qadrlay olish (o'qitish motivatsiyasi), ta'lim jarayonini optimallashtirish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'z ustida ishlash kabi xususiyatlarni tarbiyalashni taqozo etadi.

O'qituvchi o'zining pedagogik mahorati, intellekti va madaniyatiga doimo jiddiy e'tibor berishi va pedagogik mahorati, kasbiy vazifalarini bajarish qanchaliq qo'ldan kelishi

darajasini doimo tekshirib borishi, ta'lim oluvchilar ongi hamda qalbiga kirib borishning maqbul yo'llarini muntazam izlashi zarur.

Tadqiqotda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun biz bosqichlarga birlashtirilgan eksperimental tadqiqot metodlaridan foydalandik.

Ta'lim muassasalari mutaxassislari kasbiy kompetentligi ni aniqlash muhim psixodiagnostik tadbir bo'lib, bunda pedagogning o'quvchilar bilan ishlashdagi psixologik tayyorgarligini o'rganish amalga oshiriladi. Shu maqsadda biz K.Zamfirning A.A.Rean tomonidan modifikatsiyalangan «Kasbiy faoliyat motivatsiyasi» metodikasidan foydalandik.

Mazkur metodika kasbiy faoliyatga nisbatan motivatsiya darajasini diagnostika qilish uchun qo'llanib, unda ichki va tashqi motivatsiyalar borasidagi konsepsiya asos qilib olingan. Ichki motivatsiya borasida gapirganda, shaxs uchun faoliyat o'zicha muhim kasb etishi tushuniladi. Agar kasbiy faoliyat motivatsiyasi asosida boshqa ehtiyojlarni qondirish tursa (ijtimoiy nufuz motivlari, oylik maosh va x.q.), bu holatda tashqi motivatsiya tushuniladi. Tashqi motivlarning o'zi tashqi ijobiy va tashqi salbiy motivlarga bo'linadi. Tashqi ijobiy motivlar shubhasiz samaraliroq bo'lib hisoblanadi.

Mazkur metodika javoblar varaqasidan iborat bo'lib, unda 7 ta savol va har bir savolga besh balli sistema bo'yicha javoblar berish ko'zda tutilgan bo'lib, har bir balga xos mazkur savolga nisbatan beriladigan javobda uning ahamiyatlilik darajasi hisobga olinadi. Tadqiqot yakunida olinadigan natijalar asosida shaxsning motivatsion kompleksi: ichki motivatsiya (IM), tashqi ijobiy motivatsiya (TIM) va tashqi salbiy motivatsiya (TSM)ning o'zaro nisbati, ya'ni uch ko'rinishdagi motivatsiyalarning o'zaro nisbati ahamiyatga ega.

Mazkur metodika asosida jismoniy tarbiya fani tinglovchilari, ya'ni 46 nafar respondent bilan o'tkazilgan eksperimentimiz natijasida ularning tanlagan pedagog kasbiga nisbatan motivatsiyasi namoyon etilishi darajasini o'rgandik. Erishilgan ko'rsatkichlarni qayta ishlash natijasida qo'yidagilar aniqlandi.

Respondentlarning 12 nafari (26%) $ISM > TIM > IM$ ni namoyon etishdi, bu ularda kasbiy motivatsiyaning nisbatan past darajada shakllanayotganligidan dalolat beradi. 20 nafar respondent (43%) $IM > TIM > TSM$ ni namoyon etdi, bu ularda kasbiy motivatsiya «yaxshi» darajada shakllanayotganligini ko'rsatdi.

Respondentlarning 14 nafari (31%) yuqori motivatsiya darajasi $IM = TIM > TSM$ ni aks ettirdi. Aytish lozimki, keyingi har ikkala ko'rsatkich bir-biriga ancha yaqin, ammo shunday bo'lsa-da, oxirgi motivatsiya darajasi kombinatsiyasi eng optimal xisoblanadi.

Eksperimental natijalar tahlili asosida shunday xulosaga keldik:

- ta'lim muassasalari mutaxassislari kasbiy faoliyati samaradorligi ularning kasbiy va shaxslilik nuqtai nazardan o'zini- o'zi baholashi, kasbiy motivatsiyasi xususiyatlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq;

- pedagog kasbiy kompetentligi ning majburiy sharti, bizning nazarimizda, o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlashga bo'lgan psixologik tayyorgarligidir. Mazkur bosqichda qo'yilgan muammolarni tadqiq etish pedagoglarga psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha zaruriy choralarni qo'llash imkonini beradi;

- o'qituvchi psixologik kompetentligi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga adekvat baho bera olish malakalarining shakllanganligi bilan bevosita bog'liqdir.

O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilarini faqat bilimlar bilan qurollantirish orqali kifoyalanmasdan, ularga o'zining xatti-harakati bilan ham ta'sir etadi. Uning intellekti va madaniyati, haqqo'yligi va insoniyligi, ma'naviy sifatleri o'quvchilar tomonidan etalon sifatida qabul qilinishi lozim. O'qituvchi faqat o'z guruhini hamda ayrim o'quvchilarni

o'rganish va ularning tug'ri tavsifnomasini tuzishgagina emas, balki o'quvchilar jamoasi va uning har bir a'zosining rivojlanish istiqbollarini ham belgilash imkoniga ega bo'lishi darkor.

Shunga binoan, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish uchun asosiy yunalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- umumiy tayyorgarlik
- umumiykasbiy tayyorgarlik
- mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik
- tayanch tayyorgarlik (umumkasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar);
- metodologik madaniyat;
- pedagogik kreativlik.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarni aytib o'tilgan usullar orqali qurollantirib borish ularning shaxsiy va kasbiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz yakunida qo'lga kiritilgan natijalardan **xulosa** qilib aytish mumkinki:

- pedagogning kasbiy kompetensiyasi yuqoriligi o'quv jarayonining samarali va muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetentlikka ega bo'lish uchun pedagog o'zini-o'zi izchil ravishda rivojlantirib borishi maqsadga muvofiq;
- pedagog kasbiy kompetentligi amaliy faoliyat jarayonida yoki malaka oshirish jarayoni davridan izchil va samarali shakllantirib borilishi lozim;
- jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligi maxsus sharoit va muhit yaratilishi lozim bo'lgan, turli ish usullarini qo'llashni talab etadigan, samarali ta'lim berishning vositalari va omillari alohida inobatga olingan, uzluksizlik va izchillikni qo'llagan holda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarining har bir turida, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan tarzda shakllantirib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Taklif sifatida quyidagilarni keltirishni lozim topdik. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ularning malaka oshirishi kursi muhim o'rin tutadi. Shuning uchun tinglovchilarning malaka oshirish jarayonini sifatli va samarali tashkil etishga e'tiborni yanada kuchaytirish zarur, deb uylaymiz.

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi malakasini oshirish kursining o'quv dasturi va o'quv rejalarida mutaxassislik fanlari o'quv soatlarini ko'paytirish, shuningdek, mutaxassislik fanlarini o'qitishda nazariy soatlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlarga keng o'rin berish, ularni, asosan, interaktiv shaklda, modellashtiriladigan pedagogik vaziyatlar tarzida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Зеленецкая Т.С. О формировании компетентности. // Высшее образование в России, №6, 2005.
2. Ермаков Д. Компетентност в решении проблем. // Народное образование, №9, 2005.
3. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. -С. 312.
4. Тарханова Е.А. Компетентностный подход к обучению студентов в высшей школе. // Компетентностный подход к развитию личности: Материалы Всероссийской науч. - практ. заочной конференции. Нижневартовск, 2007.
5. Дружилов С.А. Профессиональная компетентност и профессионализм педагога: психологический подход. // Сибир. Философия. Образование. Научно-публицистический альманах: Со РАО, ИПQ, Новокузнецк, 2005.
6. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тураев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. - Т.: Сано стандарт, 2015.

UDK: 379.83.84:831

HOZIRGI SHAROITDA TALABA – YOSHLARNING BO'SH VAQTIDAN FOYDALANISHLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI**A.Hayitov***O'zbekiston Respublikasi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi yetakchi mutaxassisi*

Annotatsiya. Bugungi kunda bo'sh vaqtni tashkil etishning sport bilan shug'ullanish, muzeylar, teatrlar, kinoteatrlarga borish, teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, kitob o'qish singari an'anaviy shakllaridan tashqari axborot texnologiyalarining turli shakllaridan ham keng foydalanilmoqda. Mazkur maqolada hozirgi sharoitda talaba – yoshlarning bo'sh vaqtlaridan foydalanishlarning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bo'sh vaqt, bo'sh vaqt madaniyati, ijtimoiy fikr, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy faollik, mustaqil ta'lim, ijod, mutolaa madaniyati.

Основные направления использования досуга студентов и молодежи в современных условиях

Аннотация. Сегодня, помимо традиционных форм досуга, таких как спорт, музеи, театры, кинотеатры, просмотр телевизора, чтение книг, широко используются различные формы информационных технологий. В статье описаны основные направления использования досуга студентов в современной ситуации.

Ключевые слова: свободное время, культура свободного времени, общественное мнение, общественная деятельность, общественная активность, самостоятельное образование, творчество, культура чтение.

Main directions of using leisure of students`and young people's in current conditions

Abstract. Today, in addition to the traditional forms of leisure, such as sports, museums, theaters, cinemas, watching TV, reading books, various forms of information technology are widely used. This article describes the main directions of the use of leisure time of students in the current situation.

Keywords: leisure, leisure culture, social thought, social activity, social activism, independent learning, creativity, reading culture.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini tashkil etish samaradorligini oshirishga oid chora-tadbirlarning ko'chaytirilishi natijasida talaba – yoshlarning bo'sh vaqtdan foydalanish va o'z – o'zini takomillashtirish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda.

Respublika "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi olib borgan tadqiqotlarning 2011 yildagi natijalariga ko'ra mamlakatimizda yoshlarning 46,1 foizi bo'sh vaqtining asosiy qismini kitob o'qish, 33,3 foizi sport bilan shug'ullanish, 17,2 foizi turli yumushlar bilan bandlik, 15,3 foizi turli to'garaklarda qatnashish, 9,6 foizi kutubxonalarga borish, 16 foizi kinoteatr va teatrlarga borish, 6,9 foizi televektor ko'rish va gazeta o'qish, 5,5 foizi do'stlar bilan hordiq chiqarish, 4,0 foizi kafe va diskotekalarga borishga sarflashlarini bildirganlar [6, 57-58].

Oradan o'tgan o'n yil ichida esa ushbu foizlar yangi mashg'ulotlar to'rlarining paydo bo'lishi natijasida turli o'zgarishlarga uchraganligini kuzatish mumkin.

Jumladan "kitob mutolaasi", "muzeylar, teatrlar, kinoteatrlarga qatnashish", "Madaniyat muassasalaridagi tadbirlarga qatnashish", "To'garaklarga qatnashish", "ijtimoiy faoliyat", "Mustaqil ta'lim" kabi yo'nalishlarda foizlar kamayib, "Internet tarmog'iga

kirishning turli zamonaviy vositalaridan foydalanish” shakllaridagi yo’nalishlar foizi ortib bormoqda.

Kitob mutolaasi bilan birga axborot web – saytlariga kirish, do’stlar bilan muloqot va ijtimoiy tarmoqlarga kirish, teleko’rsatuvlar, kino tomosha qilishi va kompyuterdagi video ko’rsatuvlar tomoshasi nisbatida ham zamonaviy texnologiyalar foizi o’sib bormoqda.

2000 yillargacha bo’lgan tadqiqotlarda [5, 36-42] “kompyuter”, “internet” bo’sh vaqtdan foydalanish shakllari sifatida ajratib ko’rsatilmagan bo’lsa, bugungi kunda talaba – yoshlar bo’sh vaqti tizimida ular qo’yidagi turli muhim tarkibiy qismlar sifatidagi shakllarda foydalanilmoqda:

- kompyuterda ishlash, yangiliklardan internet orqali xabardor bo’lish, videolarni ko’rish, musiqa eshitish, elektron kitoblar o’qish;
- kompyuter o’yinlari (jumladan onlayn);
- forumlar, bloglar, boshqa hujjatlar orqali muloqot;
- fotografiyalar ko’rish, yuklab olish va almashuv;
- ijtimoiy tarmoqlar;
- kompyuterda ijod (dizaynning turli xillari, web – dizayn, musiqa yaratish, badiiy ijod).

Bo’sh vaqtdan foydalanishdagi yo’nalishlardan yana biri talaba – yoshlarning ijtimoiy faoliyatga nisbatan munosabatlarining o’zgarayotganligidir. Bugungi kunda talaba – yoshlarning ijtimoiy faoliyatda qatnashuvi amaliy jihatdan ko’rib chiqilganda minimum darajaga tushib ketganligini kuzatish mumkin. Oliy o’quv yurtlarida o’tkaziladigan turli sport – sog’lomlashtirish tadbirlari, olimpiadalarning tashkilotchilari ham odatda ma’naviy – ma’rifiy ishlar bilan shug’llanuvchi mas’ullar, faol talabalar bo’lganligi uchun bunday tadbirlar ko’pchilik talabalarining bo’sh vaqt byudjetiga sezilarli ta’sir ko’rsatmaydi.

Bugungi kunda talaba – yoshlar muayyan hudud va shahar miqyosida maktablarga, maktab kutubxonalariga, bolalar uylariga yordam ko’rsatish harakatlarida ishtirok etmoqdalar.

Bular talaba – yoshlarni bo’sh vaqtda ijtimoiy faoliyatga jalb qilishning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi. Shuning uchun ham ma’naviyat va yoshlar masalalari bilan shug’llanuvchi turli darajadagi bo’g’imlarning faoliyati qo’yidagilarga jalb etilishi lozim:

- talaba – yoshlar orasida olib boriladigan ijtimoiy ishlarning ahamiyatini oshirishga oid tadbirlarni muntazam amalga oshirish;
- talaba – yoshlarning jamiyat ijtimoiy hayotidagi ishtirokini yanada kengaytirish uchun yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish;
- talaba – yoshlarning ijtimoiy amaliyotda keng ishtirok etishlarini ta’minlash uchun ixtiyoriy harakatlarni yanada rivojlantirish;
- talaba yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini qo’llab quvvatlash;
- talaba – yoshlar bo’sh vaqtini oqilona tashkil etish uchun madaniy – ma’rifiy muassasalar faoliyatini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish, ular faoliyatiga talaba – yoshlarni kengroq jalb etish.

Muammoga oid ko’pgina tadqiqotlar tahlili, shuningdek, kuzatishlarimiz ko’rsatadiki talaba – yoshlarning bo’sh vaqt tizimida faol (muloqot, kitob mutolaasi, ijod, sport) va nafaol (madaniyat muassasalariga borish ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, internet tarmog’iga kirish) foydalanish shakllari mavjuddir.

Shu bilan birgalikda nosog’lom turmush tarziga oid bo’lgan alkogolli ichimliklarni iste’mol qilish, kashandalik, giyohvandlik, kartabozlik singari o’yinlar bilan shug’llanish holatlari ham mavjud bo’lganligi uchun ham yoshlar masalalari bilan shug’llanuvchi turli darajadagi uyushmalar va harakatlarga qo’yidagi tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya qilinadi:

- talaba – yoshlarning g’ayri ijtimoiy harakatlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni muntazam tashkil etish:

- sog'lom turmush tarzini bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishni targ'ib qiluvchi tadbirlar o'tkazish.

Bugungi kunda internet axborot olishning zamonaviy manbaiga to'liq aylanib ulgurangligi natijasida bo'sh vaqtda teleko'rsatuvlarni tomosha qilish kamayib bormoqda. 2000-2005 yillarda talaba – yoshlarning 55-84 foizi o'z vaqtini televektor qarshisida o'tkazgan bo'lsa 2018-2020 yillarda bu ko'rsatgich 18-20 foizga tushib qoldi. Internet televedenie auditoriyasini deyarli to'liq o'ziga og'irib olganligi umumjahon miqyosiga chiqdi [4, 37].

Internet tarmog'ining kengayishi va shaxsiy kompyuterlarning ko'payishi talaba – yoshlar bo'sh vaqti tizimining ham o'zgarishiga olib keldi. Internetdan axborot olishning eng zamonaviy manbai sifatida foydalanish, zaruriy ma'lumotni olishning yengilligi va osonligi barcha yoshlarning jumladan talaba – yoshlarning ham faqat televideniaga nisbatan emas, bo'sh vaqtdan foydalanishning boshqa shakllariga nisbatan ham qiziqishlarining sustlashishiga sabab bo'lmoqda.

Talaba – yoshlarning bo'sh vaqtlarida teleko'rsatuvlarni tomosha qilishga nisbatan qiziqishlarining kamayib borishi ularning shaxs sifatida rivojlanishi va sog'liqlarini asrashlariga nisbatan ijobiy xodisa hisoblansada, uzoq o'tirish ham ularning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina tadqiqotlar natijalariga ko'ra kompyuterdan muntazam foydalanish ko'zning xiralashishiga, semizlik, o'mirtqa pog'onasi bilan bog'liq kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ushbu vaziyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun ma'naviyat va yoshlar masalalari bilan shug'ullanuvchi barcha uyushmalar quyidagilarni muntazam amalga oshirib borishlari kerak;

- internet va ommaviy axborot vositalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib etib borish;

- madaniyat muassasalarida tashkil etiladigan ommaviy tadbirlarda talaba – yoshlarning faol qatnashishlarini tashkil etish.

Bugungi kunda bo'sh vaqtni tashkil etishning sport bilan shug'ullanish, muzeylar, teatrlar, kinoteatrlarga borish, teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, kitob o'qish singari an'anaviy shakllardan tashqari axborot texnologiyalarining turli shakllardan ham keng foydalanilmoqda.

Shaxsiy kompyuterlar, noutbuklardan foydalanishdan tashqari talaba – yoshlarda mobil telefonlar, smartfonlar, planshetlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotganligi, yirik shaharlarda Wi-Fi tarmog'ining mavjudligi internetga kirishning muammosiz hal qilinishini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talabalari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra biz asosiy e'tiborimizni ularning internetdan foydalanishlaridagi asosiy xususiyatni aniqlashga qaratdik.

“Siz tez-tez internet tarmog'iga kirib turasizmi?” degan savolimizga ularning 40,8 foizi har kuni, 38,8 foizi kun davomida bir necha marta, 12,2 foizi hafta davomida 2-3 marta, 4,0 foizi hafta davomida 1 marta, 2,0 foizi bir oy davomida 2-3 marta kirishlarini, 2 foizi esa internet tarmog'idan umuman foydalanmasliklarini bildirganlar. Sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra talaba – yoshlarning 80 foizga yaqin qismi har kuni internet tarmog'iga kiradilar.

Talaba –yoshlarning ko'pchiligi Butunjahon to'riga shaxsiy kompyuter yoki noutbuk vositasida, taxminan yarmi mobil telefonlar orqali, 17,5 foizi ish joyi yoki oliy o'quv yurti kompyuter sinfi orqali kiradilar. Ularning taxminan 2,0 foizi internet klublardan foydalanadilar.

“Internet tizimiga kirishdan maqsadingiz nimalardan iborat?” degan savolga talaba – yoshlarning 57,1 foizi darslarga tayyorgarlik ko'rish uchun, 51 foizi yangiliklardan xabardor

bo'lish uchun, 43,9 foizi elektron pochtasini tekshirish uchun, 41,8 foizi ijtimoiy tarmoqlarda va forumlarda muloqotda bo'lish uchun kirishlarini bildirganlar.

Bundan tashqari so'rovnomaga o'tkazilgan talaba – yoshlarning uchdan bir qismi internetdan o'z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida foydalanishlarini bildirgan bo'lsalar, 12 foizi kompyuter o'yinlari bilan shug'ullanadilar. Ko'rinib turibdiki bugungi kunda talaba – yoshlarning bo'sh vaqtlaridan foydalanishlarida internet asosiy o'rinni egallaydi.

Bo'sh vaqt tuzilmasining o'zgarib borayotganligi natijasida uning an'anaviy shakllaridan foydalanish umumiy bo'sh vaqt byudjetiga nisbatan kam foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham bo'sh vaqtdan foydalanishning an'anaviy shakllarini qayta tiklash maqsadida teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar, ko'rgazmalarga borishni muntazam yo'lga qo'yish zarurdir. Mutolaa madaniyatini shakllantirish samaradorligini yanada oshirishning yangi usul va shakllarini qo'llash, bo'sh vaqt byudjetida kitob mutolaasiga muntazam vaqt ajratish alohida ahamiyatga egadir. Chunki insoniyat jamiyati yashash uchun moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan doimiy va uzluksiz shug'ullanar ekan, tafakkur ehtiyoji ham hech qachon yo'qolmaydi. Tafakkur ehtiyojini qondirish va rivojlanishini ta'minlash uchun esa insonlar doimiy mutolaa bilan shug'ullanishlari kerak. Jamiyat taraqqiyotning har qanday yuqori bosqichiga yetgan paytida ham uning mavjudligini ta'minlab kelayotgan ma'naviy – axloqiy tamoyillar saqlanib qoladi.

Internetning imkoniyatlari bundan keyin ham yanada kengayib, rivojlanib borishini hech kim inkor etmaydi. Lekin ushbu tizim jurnal, kitoblarni (ilmiy jurnal, ilmiy kitob) mutolaa qilish orqali bilim ortirgan kishilar tomonidan yaratilgan. Internet ushbu bilimlarni ortirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va axborotlarni tezkorlik bilan qidirib topish, o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash va xulosalar chiqarishga yordam beruvchi vositadir.

Talaba – yoshlarning bo'sh vaqtlarida mutolaa bilan shug'ullanishlari mustaqil ta'lim bilan shug'ullanishlari bilan chambarchas bog'liq jarayon bo'lib, mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini ilmiy jihatdan o'rgangan holda ta'lim jarayoniga tatbiq etish zarurligini ko'rsatmoqda. Zero bu ham pedagogik, ham psixologik jihatdan qaralganda talaba shaxsini jarayonga tayyorlaydi va o'z – o'zidan mustaqil ta'lim olish salohiyatini rivojlantirib boradi. Bu esa talaba – yoshlar mustaqil ta'lim olish salohiyatini rivojlantirishning nazariy – amaliy asoslariga tayangan holda mazkur jarayonni ilmiy tashkil etish lozimligini ko'rsatmoqda.

Bu esa bo'sh vaqtda talaba – yoshlarning mustaqil ta'lim olishini tashkil etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim ekanligini ko'rsatadi:

Birinchi, bo'sh vaqtda talabaning mustaqil izlanishi manbalarni erkin tanlay bilishi, tahliliy asosda to'g'ri xulosa chiqara bilishi, o'z xulosasi bilan tengdoshlarini tanishtirish ko'nikmasini o'zlashtirishga yordam beradi.

Ikkinchi, bo'sh vaqtda mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida talaba – yoshlarning qiziqishlari asosida turli yo'nalishdagi tadbirlarni tashkil eta olish orqali talabaning o'z ongida mavjud bilimlarni rivojlantirish, o'z qobiliyatlarini namoyish etish, imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhitini yaratadi.

Uchinchi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'sh vaqtda mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida turli fanlarga oid maktablardan kechroq foydalanishga yordam beradi.

Talabalar axborotlarni olish, uzatish, qayta ishlash kabi jarayonlarni sanab ko'rishi natijasida ularning kompyuter savodxonligi ham oshib boradi. Bu esa talabalarni izlanuvchanlikka, mantiqan fikrlash qobiliyatini oshirib borishga undaydi va muammolarini hal etishda yaxshi samara beradi.

To'rtinchidan, tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish orqali talabalarda bo'sh vaqtlarida mustaqil ta'lim olishlari jarayonidagi yo'nalishlar orqali mustaqil ijod qilish ko'nikmasi ham shakllantiriladi. Har bir talaba qobiliyati asosida, o'z xohishiga ko'ra ma'lum bir mavzuda tadqiqotlar olib borishi natijasida uning mustaqil ta'lim olishdagi muntazamlikka ko'nikma hosil qilishga imkoniyat yaratiladi.

Beshinchidan, bo'sh vaqtda mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish ko'nikmasini hosil qilish orqali talaba o'z tajribasiga tayangan holda manbalarni o'rganadi va ularga o'z munosabatini bildiradi.

Auditoriyalardagi darslarga qo'shimcha ravushda talabalarda bo'sh vaqtda mustaqil ta'limni tashkil etish, ularda yangi dalillar va ma'lumotlarga tayangan holda mustaqil fikr bildiradi olish ko'nikmasining shakllanishiga yordam beradi. Fikr yuritish mustaqilligi intellektual tashabbuskorlik – talaba – yoshlarning o'z oldilariga yangi muammo, aniq maqsad, vazifalar qo'yishi, ularni amalga oshirishga harakat qilishi, nihoyasiga yetkazishi jarayonida qo'llaniladigan usul vositalarni o'zi izlab topishida namoyon bo'lishini nazarda tutadi.

Intellektual tashabbuskorlik, shuningdek, vazifalarni tezkor bajarishda hamda yangi usul va vositalardan eng maqbullarini saralash, o'z o'rnida aniq qo'llay bilishda ham ifodalanadi.

Bugungi kunda muntazam tarzda turli bilimlarni o'qib o'rganish asosida o'z – o'zini takomillashtirib bormaydigan bo'lajak mutaxassis mehnat bozorida raqobatbardosh bo'la olmaydi.

Talaba – yoshlar Bo'sh vaqtini tashkil etishni takomillashtirish uchun asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish lozim:

- talaba – yoshlar o'rtasida bo'sh vaqtni tashkil etishda uning faol shakllari targ'ibotini kuchaytirish;

- sport sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining doimiy faoliyat ko'rsatishlari uchun moddiy – tashkiliy asoslarining doimiy mustahkamlanib borishini ta'minlash.

Talaba – yoshlar o'rtasida o'z – o'zini jismoniy takomillashtirish maqsadida sport bilan shug'llanishdan tashqari ijodiy faoliyat bilan shug'llanishga intilish ham sezilarli darajada oshib bormoqda.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Bekzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talabalarining 48,4 foizi ijod bilan shug'llanish istagini bildirganlar. Chunki ijod talaba – yoshlarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishishi, ularning o'z – o'zini ruyobga chiqarishga, qobiliyati va yaratuvchanlik salohiyatini rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashadi. Ijod falsafiy nuqtai – nazardan eng unumli ijtimoiy ahamiyatga va qimmatga ega bo'lgan faoliyat usuli hisoblanadi.

Borliqning sirini bilishga intilishda insonning mahorati, topqirligi, tahlil qila bilishi va umumlashtira olish bilshi jarayonidagi ijodning ko'rinishlarini tavsiflaydi.

Insonlar ob'ektlarning u yoki bu jihatlari, xossalari haqida yangi bilim olib, bilish jarayonidan va uning natijalaridan behad lazzatlanadilar, ularda bilish jarayonining natijalarini ijodiy tahlildan o'tkazib, tushunib yetib va o'z amaliy faoliyatlarida foydalanib, olg'a intilish istagi yanada oshib boraveradi. Sub'ektning bilish qobiliyatining ijodiy salohiyati cheksiz, ijodiy bilish jarayonining o'zi esa talaba – yoshlar uchun behad qiziqarlidir. Bilish jarayonidagi ijodda talaba – yoshlarning qobiliyati, iste'dodi yorqin namoyon bo'ladi, yangi bilim olish jarayonining o'zi ham, bilish faoliyatining natijalarini mushohada qilish, teran va aniq tushunib yetish ham ijodiy jarayondir.

Talaba – yoshlarning bugungi avlodi faoliyatida ijodning alohida o‘rin tutishi ularni yanada qo‘llab – quvvatlashni talab qiladi. Chunki bu davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini ta‘minlash uchun sarmoya bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu ijobiy yo‘nalishni har tomonlama qo‘llab – quvvatlash, iste‘dodli talaba – yoshlarni aniqlash, ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, rag‘batlantirib borish oliy o‘quv yurtlari ma‘naviyat va yoshlar bilan ishlash bo‘g‘imlarining alohida faoliyat yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Talaba – yoshlar har qanday faoliyatning pirovard natijasi ularning o‘z bo‘sh vaqtlarini qanchalik darajada to‘g‘ri taqsimlay bilishiga bog‘liqdir. Bo‘sh vaqtni tashkil etish va tartibga solishdan qoniqmaslikning asosiy sabablaridan biri talaba – yoshlarning o‘z faoliyatini tashkil eta bilmasligidir.

“Sizning o‘z bo‘sh vaqtingizni shaxsiy qiziqishingizga mos tarzda samarali tashkil etishingizga nimalar to‘sqinlik qiladi?” degan savolimizga ularning 53,0 foizi o‘quv jarayonining ko‘p vaqtni olishi, 38,8 foizi bo‘sh vaqtning juda ozligi, 37,8 foizi shaxsiy vositalarga ega emasligi, 22,4 foizi o‘z bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etishni bilmasligi, 20,4 foizi zaruriy sharoitlarning mavjud emasligi, Madaniy – ma‘rifiy muassasalarning yetarli darajada xizmat ko‘rsata olmasligi, 4,0 foizi esa bo‘sh vaqtda nima bilan shug‘llanishni bilmasligini bildirganlar.

Bo‘sh vaqtni tashkil etishga oqilona yondasha bilmaslik talaba -yoshlarda ham ichkilikbozlik, kashandalik, alkogolum, giyohvandlik singari illatlarga uchrab qolishi uchun sharoit va muhitning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham oliy o‘quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarning quyidagi yo‘nalishlarini tashkil etishlari tavsiya qilinadi:

- bo‘sh vaqtdan foydalanishga oqilona yondasha bilmaslik holatlarini bartaraf qilishga yordam beruvchi maxsus psixologik treninglarni tashkil etish;

- talaba – yoshlarni vaqtni tartibga solishni boshqarishga (taym – menejment) o‘rgatuvchi simenarlar tashkil etish.

Talaba – yoshlarning bo‘sh vaqtdan foydalanishlaridagi asosiy yo‘nalishlarni o‘rganish ziddiyatli bo‘lgan ikki yo‘nalishni – bir tomondan bo‘sh vaqtni tashkil etishning yangi shakllarining paydo bo‘layotganligi, ikkinchi tomondan talaba – yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishda bo‘sh vaqtni tashkil etishning an‘anaviy shakllaridan kengroq foydalanish zaruriyatini ko‘rsatib bormoqda. Shuning uchun ham bo‘sh vaqtni tashkil etishdagi salbiy yo‘nalishlarni bartaraf etish uchun talaba – yoshlar ma‘naviy yuksalishida ahamiyatli bo‘lgan shakllardan foydalanishni yanada takomillashtirib borish asosiy masala bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yoshlar bebeho xazinamiz, kuch – qudratimiz va buyuk kelajagimiz timsoli – O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston yoshlar forumida so‘zlagan nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020 yil 26 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. – “Yangi O‘zbekiston”, 2020 yil, 30 dekabr.
3. G‘oziev E. Ontogeniz psixologiyasi. Toshkent, Noshir, 2006 yil. 255-289 betlar.
4. Akbarov H. Mutolaa sirlari. Toshkent, “Yozuvchi” 2020 yil. 187 b.
5. Фрямова Т.В. Динамика досуговых предпочтений молодёжи на рубеже веков. // Вестник ТИУ и Е.- 2012. № 2, С.36-42.
6. Qayumov O‘. “Fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiylashuv jarayonlari. Toshkent, “Ijtimoiy fikr”, 2014 yil 57-58 betlar.

UDK: 37.8

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA TABIATGA OID BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**Z.P.Raxmonova***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarda tabiatga oid bilimlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining oʻrni hamda ularning bolalar bilish qobiliyatlariga taʼsiri toʻgʻrisida fikr yuritilgan.

Kalit soʻz: “ommaviy axborot”, “tabiat”, “sezgi”, “bilish”, “qobiliyat”, “rivojlanish”, “oʻsimlik”, “hayvon”

Важность использования СМИ в формировании природных знаний у детей дошкольного возраста

Аннотация: В статье обсуждается роль СМИ в формировании познания природы у детей дошкольного возраста и их влияние на познавательные способности детей

Ключевые слова: «медиа», «природа», «интуиция», «знание», «способности», «развитие», «растение», «животное».

The importance of using the media in building natural knowledge in preschool children

Abstract. The article discusses the role of the media in the formation of knowledge of nature in preschool children and their influence on the cognitive abilities of children.

Key words: “media”, “nature”, “intuition”, “knowledge”, “abilities”, “development”, “plant”, “animal”.

Biz oʻz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulugʻ maqsadni qoʻygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulugʻbeklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak.

Bunda, avvalo, taʼlim va tarbiyani rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovasiyalarni taraqqiy ettirish milliy gʻoyamizning asosiy ustunlari boʻlib, xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yoʻlida yoshlarimiz oʻz oldiga katta marralarni qoʻyib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama koʻmak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa boʻlishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini roʻyobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda, “Yangi Oʻzbekiston – maktab ostonasidan, taʼlim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan gʻoya asosida keng koʻlamli islohotlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, yosh avlodga bogʻcha, maktab va oliygohda sifatli taʼlim-tarbiya berishni yoʻlga qoʻyamiz, ular jismoniy va maʼnaviy sogʻlom, vatanparvar insonlar boʻlib ulgʻayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi boʻlgan insonlar etib voyaga yetkazamiz. Uchinchidan, oʻgʻil-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan zamonaviy kasb-hunarlariga oʻrgatish, ularda tadbirkorlik koʻnikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda

tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarini asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiya yutuqlari asosida kadrlar tayyorlash, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'la xolos bo'lishni nazarda tutadi. Shu boisdan ham O'zbekistonda rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi kadrlar tayyorlash, soha xodimlarining mehnatini munosib taqdirlash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilgan faoliyatga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonlariga milliy ma'naviy omillar ta'sirini tizimli tatqiq etish, milliy ta'lim modeli samaradorligini ta'minlaydi, uning yangi-yangi ilmiy yo'nalishlarini tatqiq etish imkoniyatlarini oshiradi.

Dunyoda yuzaga kelgan qator tendensiyalar ta'lim-tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o'zgacha tus olishiga sabab bo'lmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha yoshidagi bolalarni tabiatga oid bilimni ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Shu bois maktabgacha yoshidagi bolalarni shaxs sifatida rivojlantirish va uning tabiatga oid bilimi va dunyoqarashini innavatsion axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalari hamda ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda axborot sohasida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Axborotlashtirishning milliy tizimi yaratildi, zamonaviy axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni kuchaytirildi, fuqarolarning axborotlarga bo'lgan ehtiyojlari to'laroq qondirila boshlandi, jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Ayni payt ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan maktabgacha yoshidagi bolalarda tabiatga oid bilimlarini shakllantirishda foydalanishni taqazo qilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash pedagog va mutaxassislarining malaka darajalarini yuksaltirish masalalari O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. O'zbekistonda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jamiyat axborot muhitining keskin sifat va miqdor jihatidan o'zgarishiga sabab bo'ldi. Ommaviy axborot vositalari sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, tadbirlar, qator, farmon, farmoyishlar, qonunlarning qabul qilinishi ushbu sohaga bo'lgan e'tibordan dalolat beradi.

Aynan, 2007-yil 15-yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'RQ-78-sonli Qonunining 1-moddasida "gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir" – deb ko'rsatilgan. Ommaviy axborot vositalari shaxs, bolalar dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ular orqali bolaning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviyaxloqiy, estetik-ekologik va ijtimoiy ongi rivojlanadi. OAVlar yosh avlod

dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Yurtimizda bolalar uchun alohida gazeta va jurnallar, televideniye va radio ko'rsatuvlari faoliyat yuritmoqda.

Jumladan, 2013-yildan boshlab O'zbekiston televideniyesida bolalar uchun "Bolajon" telekanali o'z faoliyat boshladi. Telekanalda bolalarni nafaqat aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, jismoniy, vatanparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga va ularning tabiiy-ilmiiy bilimni, dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bolalar organizmining rivojlanishi tug'ilgandan boshlab amalga oshadi. Bu sezgi a'zolari va idrokning intensiv, juda tez rivojlanishi demakdir. Ana shu sezgi a'zolari va idroki tufayli tevarak-atrofdagi narsalarni, hidni, shaklni, uning katta-kichikligini, musiqani, tovushni, rangni ko'radi, sezadi. Ular haqida fikr yuritadi. Sezgi a'zolariga ko'z, quloq, burun, teri kirib, ular ko'rish, eshitish, hid, ta'm, teri va harakatni, idroklari esa hayotni bilish vositasi hisoblanadi. Bolalarning psixik taraqqiyoti, ana shu sezgi a'zolari va idroklarining qanchalik taraqqiy etganiga bog'liq. Sezgi va idrok qanchalik boy, yaxshi taraqqiy etgan bo'lsa, insonning tevarak-atrofdagi, tabiatdagi voqea-hodisalarni shunchalik tez tushunadigan va ular haqidagi ma'lumoti keng va ko'p qirrali bo'ladi. Bolalar o'simlik va hayvonot olamining tipik vakillari (olma, o'rik, chinor, tol, akatsiya, terak, yong'oq yoki gullar bilan, hayvonlardan: qo'y, sigir, it, mushuk, ot, eshak, echki kabilari) bilan tanishtirganda ularning tashqi qiyofasini, gavda tuzilishini, terisini, ularning xatti-harakati, yugurishi, yurishi, tovush chiqarishlari bilan sezgi va idrokning rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Buni esa ommaviy axborot vositalari orqali ko'rib, eshitib yanada rivojlantirish mumkin. Bolalardagi sezgi va idrokni rivojlantirishda biror maqsadni ko'zlab, mazmunli faoliyat jarayonida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday samarali faoliyatga televizor va radiodan yozib olingan materiallar orqali qushlarning sayrashi turlicha ekanligi aytib, chumchuq, zag'cha, bulbul, qarg'a, olashaqshaq, kaklik, kanareyka kabilarning tovushini bir-biridan ajrata olish, bir qushning ovozi qo'yib "bolalar bu qaysi qush?", ikkinchi qushning ovozi eshittirib, "bu qaysi qushning tovushi?" – deb bolalarni eshitish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Tarbiyachilar bolalarning psixologik rivojlanishini yaxshi bilib, ularning sezgi va idroklarini rivojlantirishda tabiat elementlarining roli katta ekanligini esdan chiqarmasliklari lozim. Yasli yoshidagi bolalarda ranglarni sezish, ko'rish, eshitish, hid, ta'm va teri sezgilari juda erta boshlanadi. Shu sababli ularning sezgi va idroklarini tarbiyalashga qanchalik erta kirishilsa, shunchalik katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Boladagi sezgi a'zolarining rivojlanishi uning katta bo'lganda aqliy jihatdan takomillashuvini ta'minlaydi. Bu esa insonning hayotda zehni, sezgir, hozirjavob, tevarak-atrofdagi, tabiatdagi voqea-hodisalarni tez fahmlaydigan, analiz qiladigan kishilar bo'lib yetishishida katta ahamiyatga egadir. Mashhur chex pedagogi Y.A.Komenskiy bilish jarayonida sezgi a'zolarining rolini juda katta ekanligini ta'riflab: "Sezgi a'zolarimiz ongimizdan tashqi olamga qarata ochilgan darchalardir. Biz ongimizda aks ettirayotgan hamma narsa va hodisalar faqat mana darchalar orqali ongimizga kiradi. Bordi-yu, birorta darcha yopilib qolgan bo'lsa (ya'ni birorta sezgi a'zolarimiz ishdan chiqqan bo'lsa), u paytda biz shu sezgi a'zolarimiz bilan bog'liq bo'lgan narsalarni to'la aks ettira olmaymiz", - degan edi. Darhaqiqat, bu o'xshatma bola ongini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning birortasini "yopilib" qolishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Bolalar bog'chasi bolalarni sezgi a'zolarini rivojlantirish uchun eng qulay joydir. Chunki bog'chalarda buning uchun ko'pgina ko'rgazmalar, texnika va texnologiyalar, sharoitlar mavjud. Tabiat yordamida bolalar tafakkurining rivojlanishi. Globallashuv davrida yashayotgan yosh avlodimiz tushunchasi tafakkuri ancha o'tkir. Ikki yoshli bolalar tabiatda ko'rgan ko'zga tashlanib turadigan o'simlik, hayvonlarni ko'rib, idrok qilib ular haqida tafakkur qiladilar. Tafakkur bolaning bog'cha davrida juda tez rivojlanadi. Buning sababi bola bu davrda tabiatning turli

elementlari bilan: yer, osmon, yulduz, quyosh, qor, yomg'ir haqida kattalardan eshitib, televizorda ko'rgan ertalaridan xulosa chiqarish orqali idrok etib, ularni tafakkur qiladi. Hayotda, turmushda balalarni juda qiziquvchan, har narsani bilgisi keladigan, uni o'rganishga, bilishga, o'zini qilib olishga intilayotganini bilamiz. Ular Yer kattami, Quyosh kattami?, Ot kattami, Fil kattami?, Daraxtlar nega katta?, Osmondagi samoliyot tez uchadimi, qush tez uchadimi?, Qorni kim yog'diradi?, Qushlar qishda qayerda qishlaydi?, Shamolni kim puflayapti?, Bulutlar qayoqqa ketyapti? Kabi savollar bilan murojaat qiladilar. Bolalarda bunday savollarning tug'ilishi tabiiy hol bo'lib, ular tabiat haqida, unda bo'ladigan voqealar, ertaklardagi ajdaho, dev, yalmog'iz kampir, sehrGAR chol kabilar haqida bilgisi keladi. Tarbiyachilar esa bolalarning bu savollariga to'g'ri, aldamasdan, mohiyatini ilmiy asosda, tabiat qonunlari nuqtai nazaridan tushuntirib berishi kerak. Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining konkret obrazli bo'lishidir. Ular o'z tushunchalarida, mulohazalarida abstrakt tushunchani emas, konkret bola yashaydigan muhitdagi o'simlik hayvonlar haqida, tabiat elementlari haqida tushuncha berish kerak. Tabiat yordamida bilish qobiliyatini rivojlantirish. Bilish – voqelikni inson ongida aks ettirishdir. Bilishning maqsadi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarni insonga bo'ysundirish va unga xizmat qildirishdan iboratdir. Bilish, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur hamda nutqni rivojlantirishdan iborat. Bu esa aqliy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi. Tevarak-atrofni, tabiatni, olamni bilish sezgi va idrokdan boshlanadi. Bu jarayonlarni qanchalik yaxshi bilsa, borliqni, tabiatni bilish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham biz bog'cha bolalarini ko'proq bilishga, ongini rivojlantirishga o'rgatishimiz lozim. Bilish jarayonini rivojlantirishda tabiatning roli kattadir. Tabiat – biz yashab turgan olam. Unda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni ilmiy asosda bilish bog'cha bolalarini to'g'ri tarbiyalanishi va shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya muassasalarida tabiat vositasida bilish xususiyatlarini tarkib toptirish o'rta va katta guruh bolalarida amalga oshirish samarali natija beradi. Lekin bu bilan, boshqa guruhlarda bilish nazariyasini singdirish, o'rgatish kerak emas, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Tarbiyachilar esa bolalarning aktiv bilish faoliyatini, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishimiz zarur. Buni amalga oshirishda tabiatda bo'ladigan oddiy hodisalarning sodir bo'lish sabablarini o'rgatishdan boshlashimiz kerak. Bu yoshlarni tabiat sirlarini o'rganishga, ular haqida fikr yuritishga, bilimni shakllantirishga va bolaning bilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston Xalqiga Murojaatnomasi – T.: 29.12.2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. B.38.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'RQ-78-sonli Qonuni // T., 2007. 15-yanvar.
4. Haydarov Q.H., Nishonova S.A. Tabiatshunoslik asoslari va bolarni tabiat bilan tanishtirish. T.: "O'qituvchi", 1992.

UDK:378

IJTIMOIY PEDAGOGIKA FANIDA INNOVATSIYANING MAZMUN MOHIYATI

N.E.Berdikulova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy pedagogika fanida innovatsiyaning mazmun, mohiyati, xususiyatlari va innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari yoritib berilgan. Shuningdek innovatsion texnologiyalarning foydali jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagogika, innovatsion texnologiyalar, ta'limdagi innovatsiyalar, ijtimoiy masalalar, pedagogik innovatika, ijtimoiy pedagogik innovatsiyalar.

Содержание инновации в науке социальной педагогики

Аннотация. В данной статье описаны содержание, сущность, особенности инноваций в социальной педагогике и способы использования инновационных технологий. Он также предоставляет информацию о преимуществах инновационных технологий.

Ключевые слова: социальная педагогика, инновационные технологии, инновации в образовании, социальные проблемы, педагогические инновации, социально-педагогические инновации.

The essence of innovation in the science of social pedagogy

Abstract. This article describes the content, essence, features of innovation in social pedagogy, and ways to use innovative technologies. It also provides information on the benefits of innovative technologies.

Keywords: social pedagogy, innovative technologies, innovations in education, social issues, pedagogical innovations, social pedagogical innovations.

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar amaliyotda ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish bilan uzviy bog'liq. Hozirgi zamon pedagogika fanida etakchi o'rin tutgan o'quv-tarbiya jarayoni ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga, shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Ta'limdagi innovatsiyalar ta'limni muvofiqlashtirishga, uni kerakli uzanga yo'naltirishga imkon beradi. Kishilar oqibatini oldindan bilib bo'lmaydigan o'zgarishlar, yangiliklarga doimo xavotir bilan qarab, salbiy munosabat bildirishgan. Ommaviy ongda shakllangan stereotiplar hayot tarzi bilan bog'liq bo'lib, muammolarni keltirib chiqaradi va o'qitish turlarini yangilashga xalaqit beradi.

Innovatsiyaning asosiy xususiyatlari:

- 1) ilmiy -texnik yangilik, yangi bilimlar to'plami;
- 2) amaliy maqsadga muvofiqlik, ya'ni yangi mahsulot, texnologiya, ijtimoiy muhit va boshqalarda yangi bilimlarning mujassamlanishi;
- 3) iste'molchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish qobiliyati, ya'ni yangilik bozor tomonidan "qabul qilinadi", ya'ni bozorda amalga oshiriladi;
- 4) innovatsion jarayonni takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ta'sir (iqtisodiy, texnik, ijtimoiy). Bu shuni anglatadiki, o'z -o'zidan yangi fikr u qanchalik batafsil tasvirlangan, rasmiylashtirilgan va diagramma va chizmalarda taqdim etilgan bo'lishidan qat'i nazar, agar bu g'oya amalda qo'llaniladigan mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarda o'z aksini topmagan bo'lsa, bu hali yangilik (yangilik) emas. Faqat yangi mahsulotlar yoki jarayonlarga tatbiq etilgan yangi g'oyalar yangilikdir. Faqat real ob'ektlar yoki jarayonlarda mujassam bo'lgan yangi g'oya odamlarning amaliy ehtiyojlarini qondira oladi.

Ijtimoiy pedagogikada innovatsiyalar bu – yangi ta'limiy dasturlar, metodlar, texnologiyalar va kurslar demakdir. Innovatsiyalar o'qitishning faol shakllarini rivojlantiradi.

Masalan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari jadal rivojlanmoqda va ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib bormoqda. Ijtimoiy pedagogikada innovatsion texnologiyalarni qo'llashdan asosiy maqsad – o'qituvchilar va talabalar jamoasi faoliyati izchilligini ta'minlash hamda uni maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish. Bu ishda ham pedagogik, ham ijtimoiy masalalar hal etiladi. Ijtimoiy pedagogika fani jarayonida o'qitishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash mutaxassislar tayyorlash sifatini oshiradi. Ijtimoiy pedagogikadagi innovatsiya — o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni, metod va shakllariga, o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustasi, talabalarning hamkorlikdagi faoliyatiga yangilik kiritish, fikrlash tarzini o'zgartirishdir.

Innovatsion texnologiyalarning rivojlanish muammosini o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, pedagogik innovatika yangi ta'lim amaliyotini yaratish bilan bog'liq texnologiyalarni tadqiq etadi. Bunda hozirgi vaqtda shakllangan an'anaviy ta'lim amaliyoti natijalari qiyosiy o'rganiladi. Albatta, innovatsiyalarni qo'llash va amalga oshirish texnologiyasi ancha murakkab hisoblanadi. Agar innovatsiyalarni qo'llash natijasida ta'lim sifati oshsa, demak, uni samarali deb hisoblash mumkin. Innovatsiyalar – ta'lim rivojlanishining muhim elementi. Ular muhim ahamiyatga ega tizimli yangiliklardan iboratdir[1].

Innovatsiyalar turli tashabbus va yangilanish asosida yuzaga keladi hamda ta'limning tadrijiy takomili uchun istiqbolli hisoblanadi, shuningdek ta'lim muhitining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida ta'lim, uning mazmuni va sifatida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Tashabbuslar pedagogik faoliyatning yanada istiqbolli shakllari va vositalarini izlashda, ya'ni metod va usullarni amalda sinab ko'rishda, umuman, ta'lim sohasidagi tabiiy tadrijiy takomil jarayonida yuzaga keladi. Tashabbuslar pedagogik tajriba almashish hamda uni keng yoyish jarayonida, pedagoglarning ijtimoiy faoliyati hamda ommaviy tashabbuslarni shakllantirishda yanada mustahkamlanadi. Bularning natijasida yangi ijtimoiy-pedagogik, psixologik, proektiv va ijtimoiy-madaniy g'oyalarni ilgari suruvchi tashabbuskor va novator pedagoglar guruhi shakllanadi. Hozirgi vaqtda pedagogik innovatika mustaqil ilmiy soha sifatida vujudga kelmoqda. Pedagogik innovatika, ijtimoiy pedagogik innovatsiyalar tabiatini, uning vujudga kelishi va rivojlanish qonuniyatlarini, ta'lim sub'ektlari faoliyatini innovatsion nuqtai nazardan o'rganadi. Ijtimoiy pedagogikada innovatsiyalar ta'lim mazmunidagi yangiliklar, uni tashkil etishning yangi metodlari, shakllari yoki o'qitishning takomillashtirilgan texnik vositalari, ta'lim sohasidagi ijtimoiy mavzularga yangicha yondashuvlardan iborat[2]. Har qanday innovatsion jarayon kabi pedagogik innovatsion jarayon ham bir necha bosqichda rivojlanadi. Birinchi bosqichda empirik tarzda ishlar tahlil etiladi va innovatsiya elementlarining yangiligi darajasi aniqlanadi va o'rganilgan har qaysi innovatsiya elementi umumiy yangilikka qanchalik ijobiy hamda salbiy ta'sir etishi tavsiflanadi. Ikkinchi bosqichda bevosita pedagogik innovatsion jarayon o'rganiladi. Uchinchi bosqichda novator pedagog turli innovatsiyalarni amalda qo'llash haqida bosh qotiradi. Innovatsiyalarga ta'lim rivojining muhim elementi sifatida qaraladi. Ular ta'limda muayyan global o'zgarishga olib keladigan ta'lim makonidagi tashabbus va yangiliklar, o'zgarishlar tendensiyasida ifodalanadi. Umuman, innovatsiyalarni global xarakterga ega bo'lmagan va ko'p vaqtni talab etmaydigan amaliy va xususiy innovatsiyalarga ajratish mumkin. Amaliy innovatsiyalar hamma vaqt fundamental. Ular butun davlat miqyosida, hudud va lokal tarmoq darajasida amalga oshiriladi. Xususiy innovatsiyalar deyilganda o'qituvchi tomonidan yakka tartibda bajariladigan metodik, didaktik, tashkiliy, tarbiyaviy xarakterdagi ijodiy yangiliklar nazarda tutiladi[3].

Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin. a) Standart dars – dars ichidagi struktura o'zgarmaydi. b) Nostandart dars – dars ichidagi struktura o'zgaradi. v) Vertual dars – yani masofadan o'qitish. Pedagogik innovatsiyada "Yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Innovatsiyalarni tatbiq etishning natijaviyligini tekshirish ularning samaradorligini baholash masalalarini hal etishni talab etadi. Bunga quyidagilar misol bo'ladi: pedagoglar kasbiy mahoratining oshishi; jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning mustahkamligi va ijodiy xususiyatlari; ta'lim va tarbiya jarayonini yangilashga o'qituvchilarning tayyorligi; pedagogik jamoaning ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga moyilligi; pedagoglar orasida axborot almashinuvi sifatining oshishi; o'quvchilarni ta'lim tizimining turli bosqichlarida o'qishni davom ettirishlari uchun tayyorlash sifati. Jamoadagi munosabatlarni ham tahlil qilish muhim hisoblanadi. Chunki bu ta'lim muassasasidagi psixologik muhit to'g'risida ma'lumot olish imkonini yaratadi. Jamoadagi o'zaro munosabatlar quyidagi belgilar orqali tavsiflanadi: o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash, ishonch va birbiriga nisbatan yuqori darajadagi talabchanlik, jamoaga tegishli bo'lgan masalalar muhokamasi jarayonida o'z fikrini erkin ifodalash va boshqalar. Ta'kidlash joizki, innovatsion jarayon aniq faoliyatni bajarish evaziga sodir bo'ladi. Kasbiy ta'limdagi innovatsion texnologiyalar – o'quvchilarning tizimli ijodiy texnik fikrlashini va ijodiy ishlab chiqarish masalalarini yechishda nostandart texnik g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalardir. Kasbiy ta'limda innovatsion texnologiyalar deyilganda turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o'zlashtirish va amalda tatbiq etish tushuniladi. Bunda pedagogik yangiliklarga bir butun deb qaraladi. Innovatsion dars — nostandart, noan'anaviy, variativ, o'zgaruvchan tuzilishga ega bo'lgan va o'quv faoliyatini tashkil etishning yangi vositasi yordamida o'quvchilarning ta'lim olishga qiziqishini oshirishga qaratilgan mashg'ulotdir. O'tkazilish shakliga ko'ra darslarni musobaqa va o'yinlar (tanlovlar, turnirlar, ishbilarmonlik o'yinlari), muloqotga kirishning ommaviy turlari (matbuot konferensiyalari, auksionlar, benefislar) tarzidagi darslar, shuningdek muassasa faoliyatiga taqlid qilish darslari (sud, ilmiy kengash, tahririyat kengashi)ga ajratish mumkin.

Kasbiy innovatsion faoliyat — bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoki amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yoring mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuaviy muammolarni echishga qaratilgan faoliyatdir[5]. Kasbiy innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. SHu sababli, ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi: 1) muammoni tahlil asosida aniqlash; 2) mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini rejalashtirish; 3) o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish; 4) o'zgarishlarni amalga oshirish. Innovatsion faoliyat bo'lajak mutaxassisdan nafaqat kasbiy bilim va malakalarni egallashni, balki o'zlashtirilgan bilimlarni ishlab chiqarish sohasida amaliy qo'llash, ilmiy sohalardagi yutuqlardan foydalanish ko'nikmasini hamda boshqa qator shaxsiy sifatlarni ham talab etadi. Ta'lim rivojlanishining innovatsion mexanizmlari quyidagilarni qamrab oladi: turli ta'lim muassasalari va tuzilmalarda ijodiy muhitni yaratish, ilmiy va pedagogik jamiyatlarda tashabbus va yangiliklarga qiziqishni shakllantirish; yangiliklarni qo'llab-quvvatlash va ularni amalda joriy etish uchun ijtimoiy-madaniy va moddiy shart-sharoitlarni yaratish; yangiliklarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmini loyihalash; eng istiqbolli yangiliklarni va samarali loyihalarni amaldagi ta'lim tizimiga integratsiyalash va to'plangan innovatsiyalarni doimiy faoliyat ko'rsatuvchi va eksperimental ta'lim tizimlari rejimiga o'tkazish.

Ta'limdagi innovatsiya – ta'lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, metod va shakllaridagi yangiliklar, o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishdagi yangiliklar, fikrlash tarzidagi o'zgarishlardir. Innovatsion texnologiyalar — pedagogik yangiliklarni amalga tatbiq etish faoliyati, ya'ni o'qituvchining pedagogik yangiliklarni yaratishi, o'zlashtirishi va ulardan o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash amaliyotida foydalanish faoliyatidir. Boshqacha aytganda, bunda o'qituvchi ta'lim muassasasida ma'lum innovatsion muhit yaratadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijodiy faoliyatga yangilik, o'zgartishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Shunday qilib,

pedagogik innovatsion faoliyat o'qitish tizimini bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazishga olib keluvchi yangilikni tarqatish texnologiyasidan iborat. Yangilik o'zgarishlar uchun vosita yaratadi. Pedagogik faoliyat esa amaliyot jarayonida uni qayta o'zgartirishni taqozo etadi. Kasbiy ta'limda «innovatsiya» tushunchasi bir qiymatli emas va mazmun-mohiyatiga ko'ra ancha murakkab hisoblanadi. Bu kasbiy ta'limning turli daraja va bosqichlarida ishtirok etuvchilar faoliyatini tashkil etishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu bois, innovatsiyani rejalashtirish va joriy etishda izchillik zarur. Joriy etiladigan innovatsion siyosatning birligi masalasi ham juda muhimdir. Kasbiy ta'limda bunday yagona siyosatni ishlab chiqishning asosi pedagogik jihatdan qo'llash mumkin bo'lgan innovatsiyalarni tanlash va joriy etishga tizimli yondashuv hisoblanadi[5]. Ta'limdagi innovatsiyalarni yangilik-islohotlar va yangiliko'zgarishlarga ajratish mumkin. Ta'limdagi yangilik-islohotlar – bu ta'limga innovatsion yondashuvlarning asosiy turlaridan biri. Bunda o'quv texnologiyasini an'anaviy reproduktiv yo'nalish doirasida isloh qilish kafolatlangan yutuqlarga olib keladi. Ular asosida yotgan ta'limga texnologik yondashuv, eng avvalo, o'quvchilarga bilim berishga va namuna bo'yicha faoliyat usullarini shakllantirish hamda samaradorligi yuqori bo'lgan mahsuldor ta'limni ta'minlashga yo'naltiriladi. Ta'limdagi yangilik-o'zgarish – bu an'anaviy o'quv texnologiyasini o'zgartiradigan, uning tadqiqot xarakterini ta'minlashga, izlanish asosidagi o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan innovatsiya. Ta'limga izlanish nuqtai nazaridan yondashish, eng avvalo, o'quvchilarda yangi bilimlarni mustaqil izlash tajribasini shakllantirish va ularni yangi sharoitlarda qo'llash, ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida turli pedagogik innovatsiyalar qo'llaniladi. Bu, eng avvalo, ta'lim muassasasining an'analari va maqomiga bog'liq. SHunday bo'lishiga qaramasdan quyidagi eng xarakterli innovatsiyalarni sanab o'tish mumkin: o'quv predmetlarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; masofaviy ta'lim, loyihalash metodlari (psixologik-pedagogik, ijtimoiy-pedagogik, pedagogik loyihalash); o'quvchilar shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim: o'quvchilarni o'qitish jarayoni va ta'limi sifatini boshqarishning axborot-tahlilini ta'minlash; intellektual rivojlanish monitoringi, tarbiyalash texnologiyalari, didaktik texnologiyalar, portfolio texnologiyasi. Innovatsion tushunchalarni shakllantirish ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning tashkiliy-pedagogik shartsharoitlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Chunki ular kasbiy ta'limni tizimli isloh qilishning zarur metodologik vositasi hisoblanadi. Shunday qilib, innovatsion faoliyat o'quv-tarbiya texnologiyasini tizimli isloh qilishdan iborat. Innovatsiyalarning samaradorligi to'g'risida ularning o'zlashtirilishi natijalariga qarab fikr yuritiladi. Bunday natijalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: yangi pedagogik vosita, metod, o'qitish texnologiyasi, shaxsiy tajriba, yangicha fikrlash. O'qitish texnologiyasi o'quv faoliyati jarayonida qo'llaniladi. Bunday faoliyatni kasb-hunar kollejlarda amalga oshirish zarur. Zero, bo'lajak mutaxassisni o'z o'quv faoliyati mazmunini mustaqil belgilashga hamda egallangan bilim va malakalarini kelgusida ishlab chiqarish faoliyatida amaliy qo'llashga o'rgatish muhim masala hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Волон В.Т. Инновационные принципы системы образования // Педагогика, 2007. – № 7. – С.108-114.
2. Полонский В.М. Инновации в образовании (методологический анализ // Инновации в образовании. – 2007. – №2. – С. 4-14.
3. Рашидов Х. Ф. Особенности развития среднего специального профессионального образования в Узбекистане. – Тошкент: Фан, 2004. – 207 с.
4. Saidahmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. –Toshkent: RTM, 2000. – 46 b.
5. Слободчикова М.И. Проблемы становления и развития инновационного образования // Инновации в образовании. – 2003. – №2, – С. 4-28.

UDK: 51:37-3

AMALIY MASHG‘ULOTLAR – BAKALAVR MATEMATIKLARNI KASBIY TAYYORGARLIGINI TA’MINLOVCHI OMIL**A.Abdiraxmanov***Qarshi davlat universiteti
aabdirahmonov@inbox.ru*

Annotatsiya. Bakalavr yo‘nalishidagi matematiklarning kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati juda kattadir. Matematikadan amaliy olib borish jarayonida har bir bakalavr yo‘nalishidagi talaba o‘quv materialini bilan muloqotda bo‘lishi, o‘zining matematik kasbga bo‘lgan mehri, munosabati shu kasbning kelgusida to‘laqonli egasi bo‘lish kabi xislatlarni his etishi kerak bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Kasbiy ko‘nikma, malaka, amaliy mashg‘ulot, matematik ta‘lim, tengsizlik, muammoli usul, o‘zgaruvchini almashtirish.

Практические занятия - фактор профессионального развития математиков-бакалавров

Аннотация. Практические занятия играют важную роль в развитии профессиональных навыков и компетенций студентов-математиков. В процессе практического применения математики каждый бакалавр должен уметь общаться с учебным материалом, прочувствовать свою любовь к математической профессии, свое отношение к тому, чтобы в будущем стать полноправным обладателем этой профессии.

Ключевые слова: Профессиональные навыки, компетенции, практическая подготовка, математическое образование, неравенство, решение проблем, замена переменных.

Practical training is a factor in the professional development of undergraduate mathematicians

Abstract. Practical training plays an important role in the development of professional skills and competencies of mathematics students. In the process of practical application of mathematics, each bachelor should be able to communicate with educational material, feel his love for the mathematical profession, his attitude towards becoming a full-fledged owner of this profession in the future.

Keywords: Skills, competencies, practical training, math education, inequality, problem solving, variable substitution.

Bakalavr yo‘nalishidagi matematiklarning kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati juda kattadir. Ma‘lumki, amaliy mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida har bir bakalavr yo‘nalishidagi talaba o‘quv materialini bilan muloqotda bo‘lishi, avvalambor, o‘zining matematik kasbga bo‘lgan mehri, munosabati shu kasbning kelgusida to‘laqonli egasi bo‘lish kabi xislatlarni his etishi bilan birgalikda uni akademik litsey, kasb-hunar kolleji yoki umumta‘lim maktab o‘quvchilariga matematik ta‘lim va tarbiyani berishni qanday amalga oshirish ustida fikrlashi, ayni damda biror masala yoki misolni yecha olmay qolishidan kelib chiqadigan salbiy holatlar ustida ham o‘ylab ko‘rish lozim. Shu bois ham, har bir talaba o‘tiladigan ma‘ruzalar yoki amaliy mashg‘ulotlar jarayoniga mas‘uliyat bilan qarashi, har bir mavzuni o‘tkazishga va undan o‘zining kelgusidagi ish faoliyatida foydalanishga harakat qiladi. Shuning uchun ham har bir amaliy mashg‘ulot yoki ma‘ruzani yuqori ilmiy-uslubiy saviyada tashkil etish va uni talabalar ongiga yetkazishda mavjud faol usullar va pedagogik texnologiyalardan foydalanishga kasbiy

ko'nikma va malakalarini shakllantirish garovi sifatida qarashli maqsadga muvofiqdir. Har bir ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotlarning strukturaviy tuzilishi zamon talabi yoki ayniqsa, talabalarning mustaqil bilim olishiga, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, jadvallar bilan ishlashga o'rgatish bilan birgalikda matematik tasdiqlar, qonunlar va qoidalar, formulalardan foydalanish ko'nikma va malakalarining tarkibiy qismi sifatida qaralishi diqqatga sazovordir.

Bakalavr yo'nalishi bo'yicha matematiklarni tayyorlashda "Matematik tahlil", "Algebra va sonlar nazariyasi", "Geometriya" fanlari bilan birgalikda "Elementar matematikadan amaliy mashg'ulotlar" muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bu fanlarni o'rganish o'zining strukturaviy tuzilishi jihatdan bir-biri bilan uzviy aloqadorligi va bu aloqadorlikning oqibat natijasi talabalarda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni taqozo etadi. Masalan, "Elementar matematikadan amaliy mashg'ulotlar"dagi "Tengsizliklarni isbotlash" mavzusida amaliy mashg'ulot olib borayotgan o'qituvchi quyidagilarni e'tiborga olish kerak.

1. Mavzuning maqsadi: talabalarni sonli va o'zgaruvchili ifodalar qatnashgan tengsizliklarni isbotlashning qonun-qoidalari, uslublari bilan tanishtirishdan iboratdir.

2. Mavzuni o'rganish uchun kerak bo'ladigan usullar: taqqoslash, analogiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstraksiya dialogik usul, o'qitishning muammoli usuli.

3. Yangi mavzuni oldingi mavzular bilan bog'liqligi: bunda mavzuni o'tishdan avval ratsional va irratsional ifodalar ustida ayniy shakl almashtirishda foydalanilgan ma'lumotlardan, hamda $(a > b) \Leftrightarrow (a = b + k)$ munosabatlar orasidagi bog'lanish shartlari haqidagi fikrlarni bilish bilan bir qatorda $(a > b) \Leftrightarrow (a + c > b + c)$, $(a > b) \Rightarrow (a - b > 0)$, $(a > b)^n (n > 0) \Rightarrow (a^n > b^n)$ ($a : n > b : n$) va boshqa shu kabi maktab matematikasidan ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishtirish va yangi mavzuga o'tish sharoitlarini yaratishga harakat qilish.

4. Yangi mavzuning bayoni: yangi mavzuni bayon qilishda soddadan murakkabga borish asosida bayon qilishga harakat qilish bilan birga har bir misol yoki masalani shartida qatnashayotgan talablarni bajarish uchun shu qonuniyatlarni talabalarga yana ham yaxshiroq tushuntirishga diqqat qaratiladi.

1-masala. Agar $ab = 1$ va $a > b > 0$ bo'lsa, u holda $a^2 + b^2 \geq 2\sqrt{2}(a - b)$ tengsizlikni to'g'ri ekanligini isbotlang.

Yechish. Tengsizlik tarkibiga kiruvchi a va b miqdorlar orasida

$$ab = 1 \quad (1)$$

munosabat berilgan, ya'ni ularning ko'paytmasi har doim 1 ga teng va shu bilan birga ular faqat musbat qiymatlarnigina qabul qiladilar hamda a son b sonidan har doim katta, ya'ni

$$a > b > 0 \quad (2).$$

Dastlab, masala shartlarini muhokama qilaylik. (1) dan ma'lum bo'ladiki, agar a va b lardan biri 1 dan katta bo'lsa, u holda ikkinchisi 1 dan kichik bo'ladi, ammo (2) ni e'tiborga olsak, $a > 1$ va $0 < b < 1$ bo'lish ravshan bo'ladi.

1-usul. $a - b = x$ deb belgilaylik va bu yerda

$$x > 0 \quad (3)$$

bo'ladi.

U holda $a^2 + b^2 = (a - b)^2 + 2ab$ ekanligidan hamda (1) va (3) larni e'tiborga olsak, $a^2 + b^2 = x^2 + 2$ ga ega bo'lamiz. Demak, berilgan tengsizlik $x^2 + 2 \geq 2\sqrt{2}x$, yoki $x^2 - 2\sqrt{2}x + 2 \geq 0$, yoki $(x - \sqrt{2})^2 \geq 0$ ko'rinishiga kelib, bu munosabat x ning har qanday qiymati uchun to'g'ridir. Bunda tenglik munosabati $x = \sqrt{2}$, ya'ni $a - b = \sqrt{2}$ bo'lganda o'rinli bo'ladi.

Barcha shakl almashtirishlarda teng kuchli amallar bajarilganligi sababli, berilgan tengsizlikni to'g'ri deb xulosa chiqaramiz.

II-usul. $a^2 + b^2 \geq 2\sqrt{2}(a-b)$ tengsizlikning o'ng qismidagi hadini uning chap qismiga o'tkazib uni $a^2 + b^2 - 2\sqrt{2}(a-b) \geq 0$ ko'rinishga keltiraylik. Bu tengsizning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun uning chap qismida turgan ifoda yoki to'la kvadrat yoki musbat ifodalar yig'indisidan iborat ekanligiga olib kelish kerak.

Buning uchun $2\sqrt{2}(a-b)$ hadni $\sqrt{2}$ va $a-b$ larning ikkilangan ko'paytmasi deb qarash, to'la kvadrat hosil qilish uchun yana $(a-b)^2$ va $(\sqrt{2})^2$ lar kerak. $(a-b)^2$ ni $a^2 + b^2$ ga $-2ab$ ni qo'shib hosil qilish mumkin. Ifodaning qiymati o'zgarmasligi uchun $2ab$ ni ham qo'shamiz. U holda $a^2 + b^2 - 2ab + 2ab - 2\sqrt{2}(a-b) \geq 0$ bo'lib, dastlabki uchta had bizga to'la kvadratni beradi, ya'ni $(a-b)^2$, $2ab$ ni esa (1) ga asosan 2 bilan almashtiramiz. Natijada $(a-b)^2 + (\sqrt{2})^2 - 2\sqrt{2}(a-b) \geq 0$ yoki $((a-b) - \sqrt{2})^2 \geq 0$. Bu tengsizlik har doim to'g'ri.

Demak, berilgan tengsizlik isbot bo'ldi.

Bu masalani yechish jarayonida qilingan tahlil natijasiga ko'ra quyidagilarga e'tibor berildi:

1. O'zgaruvchini almashtirish orqali ikki o'zgaruvchili tengsizlikni bir o'zgaruvchili tengsizlikka olib kelindi;

2. Berilgan tengsizlikning barcha hadlarini uning bir qismiga o'tkazib, uni nol bilan taqqoslash.

Har ikki yo'lning ham yaxshi samara berishini ko'rdik.

Tengsizlikni isbotlashning yana boshqa usullari bilan talabalarni tanishtirish uchun quyidagi masalalarni qarab chiqaylik:

2-masala. Agar $a_1 \cdot a_2 \dots a_n = 1$, $a_i > R^+(i=1, n)$ bo'lsa, u holda $(1+a_1)(1+a_2) \dots (1+a_n) \geq 2^n$ tengsizlik to'g'ri ekanligini isbotlang.

Yechish. 1-usul. Tengsizlik tarkibiga kiruvchi a_i miqdorlar orasida $a_1 \cdot a_2 \dots a_n = 1$ munosabat o'rinli bo'lib, ularning ko'paytmasi har doim 1 ga teng va shu bilan birga ular faqat musbat qiymatlarnigina qabul qiladilar. Shularni va $a+b \geq 2\sqrt{ab}$ o'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar orasidagi bog'lanishni e'tiborga olsak, u holda, $1+a_1 \geq 2\sqrt{a_1}$, $1+a_2 \geq 2\sqrt{a_2}$, ..., $1+a_n \geq 2\sqrt{a_n}$ bo'lib, bu tengsizliklarni hadma-had ko'paytirib $(1+a_1)(1+a_2) \dots (1+a_n) \geq 2^n \sqrt{a_1 a_2 \dots a_n}$ tengsizlikni hosil qilamiz. Bunda $\sqrt{a_1 a_2 \dots a_n} = 1$ ekanligini e'tiborga olsak, u holda berilgan tengsizlikning to'g'ri ekanligi kelib chiqadi.

2-usul. $a_1 \cdot a_2 \dots a_n = 1$ va $\frac{a}{b} + \frac{b}{a} \geq 2$, ya'ni o'zaro teskari musbat miqdorlarning yig'indisi 2 dan kichik emasligidan foydalanib,

$$(1+a_1)(1+a_2) \dots (1+a_n) = \left(1 + \frac{1}{a_1}\right) \left(1 + \frac{1}{a_2}\right) \dots \left(1 + \frac{1}{a_n}\right)$$

ekanini e'tiborga olsak, u holda:

$$\begin{aligned} & ((1+a_1)(1+a_2)\dots(1+a_n))^2 = (1+a_1) \\ & \left(1+\frac{1}{a_1}\right)(1+a_2)\left(1+\frac{1}{a_2}\right)\dots(1+a_n)\left(1+\frac{1}{a_n}\right) = \\ & = \left(2+a_1+\frac{1}{a_1}\right)\left(2+a_2+\frac{1}{a_2}\right)\dots\left(2+a_n+\frac{1}{a_n}\right) \geq \\ & \geq 4^n = 2^{2n} > 2^n \end{aligned}$$

bo‘ladi. Bu esa berilgan tengsizlikning to‘g‘ri ekanligini bildiradi.

3-masala. Agar $a_1, a_2, a_3, \dots, a_n, \dots$ ketma-ketliklar uchun $a_1 = 1, a_2 = a_1 + \frac{1}{a_1}$,
 $a_3 = a_2 + \frac{1}{a_2}, \dots$ munosabatlar o‘rinli bo‘lsa, u holda $a_{100} > 198$ ekanligini isbotlang.

Yechish. Agar $n > 1$ natural son uchun $a_n = a_{n-1} + \frac{1}{a_{n-1}}$ ekanini e‘tiborga olsak, u holda
 $a_n^2 = a_{n-1}^2 + 2 + \frac{1}{a_{n-1}^2} \geq a_{n-1}^2 + 2$, ya‘ni $a_n^2 \geq a_{n-1}^2 + 2$ munosabat o‘rinli bo‘ladi. Bundan
 $a_2^2 > a_1^2 + 2 = 3 = 2 \cdot 2 - 1$, $a_3^2 \geq a_2^2 + 2 = 3 + 2 = 5 = 2 \cdot 3 - 1$ va hakoza n uchun $a_n^2 \geq 2n - 1$
bo‘lib, $n = 100$ bo‘lganda $a_{100}^2 \geq 2 \cdot 100 - 1 = 199$ bo‘ladi. Bundan $a_{100} > 198$ ekani kelib
chiqadi.

Yuqorida keltirilgan masalalardan ko‘rinib turibdiki, elementar matematikadan masalalar yechish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda har bir amaliy mashg‘ulotni shunday mazmun bilan boyitib olib borsak, talabalarimizning bilim saviyasi yana ham yuqori ko‘tariladi, matematik intuitsiya, ong, tafakkur, tasavvurlarning mantiqiy tarzda rivojlanishi, har bir keyingi berilayotgan talab va axborotlar o‘zining strukturaviy tuzilishi jihatdan murakkablasha borishi natijasida talabalarda asta-sekinlik bilan ma‘suliyatsizlik xususiyatlari yo‘qolib borib, ulardan matematik ko‘nikma va malaka kasbiy malaka va ko‘nikma bilan boyib borishini ko‘rish mumkin. Bu berilayotgan masalalar sistemasida qatnashayotgan matematik qonuniyat va qoidalar o‘zining strukturaviy tuzilishi jihatdan ancha murakkab qonuniyatlardan iborat ekanligini, talabalar uni ilgari matematikaning biror bo‘limida chuqurroq tahlil qilib ko‘rmaganligini sezib tursa ham, bunday ko‘rsatkich matematikaga yana ham mas‘uliyatliroq yondashish zarur ekanligidan dalolat berib turadi.

Bir sohada hisoblash uchun yaxshi algoritim topish muhimroq bo‘lsa, ikkinchi sohalar uchun mantiqiy fikrlay bilish muhimroqdir.

Mantiqiy fikrlash qobiliyati o‘z ichiga analiz, sintez, umumlashtirish, abstrasiyalash kabi komponentlarni oladi. V.A. Kruteskiy matematik qobiliyatlar tuzilishida quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatgan:

1. Aniq berilgan masalada uning matematik shaklini tezda sezib ola bilish;
2. Matematik obyektlar, munosabatlar va amallarni tez va keng ravishda umumlashtirish;
3. Matematik mulohaza jarayonini va tegishli amallar sistemasini “ixchamlash”, ya‘ni mulohazaning ba‘zi oraliq bosqichlarini o‘z-o‘zidan ma‘lum deb faraz qilib, tashlab ketish;
4. Matematik masalalarni yechishda fikrlash jarayonining turg‘unligi;
5. To‘g‘ri fikrlashdan teskari fikrlashga tez o‘ta bilish;
6. Matematik masalalarni aniq, rasional ravishda yechishga intilish;
7. Matematik xotiraga ega bo‘lish.

Talabalarning matematik tafakkurlarini rivojlantirish uchun ularni ko‘proq mustaqil o‘ylashga undash kerak. O‘quv jarayonining intensivligini oshirish talabalarning aqliy faoliyatini tezlashtirish uchun asosiy shartlardan biridir. O‘quv jarayonini intensivlashtirish vaqtida talabalarni tahlil qilishga, taqqoslashga, umumlashtirishga o‘rgatadigan faol bilish metodlarini keng qo‘llash taqozo etiladi.

Talabalarni masalalar yechimlarini analiz yoki sintez qilishga o‘rgatishda quyidagi yo‘llardan foydalanish talab qiladi:

- berilgan masalaning shartidan bir necha teskari masala tuzish;
- berilgan masalani yechish usulini umumlashtirish maqsadida uning son ma’lumotlarini o‘zgartirish;
- ortiqcha ma’lumotlari bo‘lgan (ba’zan bir-biriga zid ma’lumotlari bo‘lgan) masalalarni qarash;
- son ma’lumotlari yetishmaydigan masalalar yechish va ularni “tuzatish”;
- berilgan masalaga o‘xshash, yechilishi boshqacha bo‘lgan masala hosil qilish maqsadida masala shartidagi bir necha so‘zlarni o‘zgartirish.

Talabalarning matematik tafakkurlarini rivojlantirish va kasbiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagilarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz:

1. O‘qitish psixologiyasining eng muhim tamoyili – assotsiasiyalash tamoyiliga amal qilish.
2. Talabalarning o‘qitishga ongli munosabatda bo‘lishlarini ta’minlash.
3. Tushuncha va munosabatlarni o‘rganishda taqqoslash mantiqiy amalidan unumli foydalanish.
4. Darsda oraliq nazoratlar bilan bir qatorda qisqa muddatli nazorat ishlarni sistemali o‘tkazib borish va shunga o‘xshash boshqa ishlarni bajarish.

Amaliy mashg‘ulotlarni taklif etilayotgan usul bilan olib borish bakalavr yo‘nalishdagi matematiklarning kasbiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Колягин Й.М., Луканкин Г.Л., Лмакрушин Б. и др. Методика / преподавания математики в средней школе: Частные методики: Учебное пособие для физ-мат. фак.пед. институтов. -М.: Просвещение. – 1977. – 479 с.
2. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. -Toshkent: O‘qituvchi. -1992. -200 bet
3. Tolaganov T., Normatov A. Matematikadan masalalar yechish bo‘yicha praktikum. - Toshkent: O‘qituvchi. - 1989. -256 bet
4. Метелский Н.В. Дидактика математики. Общая методика и её проблемы. - Минск: БГУ. -1982. -256 с.
5. Крутеский В.А. Основы педагогической психологии. -М.: Просвещение. - 1972. - 255 с.
6. Совершенствовать подготовку учителей. Обзор статей “математика в школе” –м №15 с.19-24.

UDK: 159.9

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA PEDAGOGNING ROLI**X.A.Bobanov***Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti*zoom_zoom66@bk.ru

Annotatsiya. Maqola maktab o'quvchilarining internet olamida axborot va psixologik xavfsizligini ta'minlash muammosiga bag'ishlangan. Zamonaviy maktabning o'quv muhitida internetdan foydalanish uchun tavsiyalar keltirilgan. Shu bilan birga, maktab o'quvchilarining internet tarmoqlaridan nazoratsiz foydalanishi natijasida yuzaga keladigan psixologik tahdidlar haqidagi fikrlarga to'xtaladi. Ushbu yondashuvda o'quvchining psixologik xavfsizligini ta'minlashning kognitiv, xulq-atvor va hissiy omillari ajratiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, ijtimoiy tarmoq, internet olami, axborot va psixologik xavfsizlik, maktab o'quvchilari, ota-onalar, tanqidiy fikr, tahdidlar, himoya.

Роль учителя в обеспечении информационной и психологической безопасности школьников в процессе глобализации

Аннотация. Статья посвящена проблеме информационной и психологической безопасности школьников в мире Интернета. Даны рекомендации по использованию Интернета в современной школьной учебной среде. В то же время он фокусируется на психологических угрозах, связанных с бесконтрольным использованием Интернета учащимися. Этот подход фокусируется на когнитивных, поведенческих и эмоциональных факторах, участвующих в обеспечении психологической безопасности учащегося.

Ключевые слова: педагогика, социальные сети, интернет, информационно-психологическая безопасность, школьники, родители, критическое мышление, угрозы, защита.

Role of the teacher in providing the information and psychological security of schools in the process of globalization

Abstract. The article is devoted to the problem of information and psychological security of schoolchildren in the world of the Internet. Recommendations are given on the use of the Internet in the modern school educational environment. At the same time, he focuses on the psychological threats associated with the uncontrolled use of the Internet by students. This approach focuses on the cognitive, behavioral and emotional factors involved in the psychological safety of the student.

Key words: pedagogy, social network, Internet, information and psychological security, schoolchildren, parents, critical thinking, threats, protection.

Globallashuvda Ijtimoiy sub'ektlarning (individual va umumiy) manfaatlari, masalan, nashriyot tashkilotlari, tijorat axborot vositalari va boshqalar, ularning sub'ektivligi va xolisligi, balog'atga etmagan bolalarning manfaatlari va huquqlarini e'tiborsiz qoldirilishi bolalarda salbiy ma'lumotlarning ta'sirini kuchaytiruvchi omil

hisoblanadi. Yana bir omil-maktab o'quvchilari uchun o'qituvchilar va psixologlar, shuningdek, ota-onalar tomonidan psixologik, ijtimoiy-huquqiy yordamning yo'qligi.

Ayniqsa, bolaning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy ta'lim muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimi - inson ishlab chiqarish sohasi ekanligini hisobga olmasdan, keying faoliyat bosqichiga o'tish qiyin hisoblanadi. Bu shaxsning mavjudligi va shaxs sifatida rivojlanishining kafolati bo'lishi kerak. Bolaga o'z-o'zini himoya qilish vositasi sifatida bilim berish orqali o'qituvchilar ta'limning yakuniy va ta'lim - insonning cheksiz tajribasi ekanligini yodda tutishlari kerak. So'nggi yillarda zamonaviy ta'lim, asosan, o'quvchilarning martaba intilishlariga va bolaning tashqi xatti - harakatiga qaratilgan. Farzandlarimiz o'z-o'zini anglash ilmini o'rganishi tobora qiyinlashib bormoqda.

Bolalarning axborot va psixologik xavfsizligi - bu bolalarning sog'lig'iga, ularning ma'naviy, axloqiy, jismoniy va aqliy rivojlanishiga axborot va psixologik zarar etkazish xavfi minimallashtirilgan bolalarni himoya qilish holati. Axborot va psixologik xavfsizlik ta'lim muhitining umumiy psixologik xavfsizligining bir qismidir. Shuningdek, "psixologik xavfsizlikning maqsadi ta'lim muhitining barcha sub'ektlarining sog'lig'ini, aqliy va jismoniy holatini ta'minlashdir"[1]. Globallashtirish jarayonining hozirgi bosqichida axborot texnologiyalari o'quvchi uchun "o'rtoq", "yordamchi" va "ustoz"ga aylandi. Biroq, psixik jihatdan beqaror maktab o'quvchilari uchun internet jismoniy, axloqiy va bolalarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lib qolmoqda. Shu sababli, barcha sa'y-harakatlarni ta'limga, maktab o'quvchilari va ularning ota-onalariga internetda xavfsiz va mas'uliyatli xatti-harakatlarni o'rgatish, ma'lumotlardan foydalanish, o'zlarini kiberbulling (virtual muhitda bolalarga shafqatsizlik), bezorilikdan, psixologik zo'rvonlik orqali o'z joniga qasd qilish va boshqalardan himoya qilishga yo'naltirish kerak. Zamonaviy o'rta ta'lim tizimi maktab o'quvchilariga axborot bilan ishlash, uni qayta ishlash usullari va vositalari bo'yicha umumiy ta'lim va umumiy madaniy ko'nikmalarni o'rgatishga qaratilgan. O'quvchilarning aborot vositalaridan foydalangan holda egallagan bilimlari o'zini ijodiy ifodalashi, tanqidiy fikrlashni shakllantirishi, axboriy immunitetni hosil qilishi hamda axborot madaniyatini shakllantirishi lozim. Zamonaviy o'quvchilar doimo ijtimoiy muhit bilan axborot aloqasiga muhtoj, atrofidagi dunyo haqidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda to'ldirishi va yangilashi bola normal hayotining eng muhim shartidir.

Maktablarda axborot-psixologik xavfsizligi - bu o'quvchining axborot oqimidagi salbiy yoki foydasiz kiruvchi ma'lumotlarning miqdori, hajmi, mazmuni va tuzilishidan himoya qilishi zarur. Zamonaviy ta'limda internet tarmoqlarining salbiy ta'siridan o'quvchini himoya qilishning eng oddiy usuli - internetdan butunlay voz kechish endi mumkin emas! Internet ko'plab mamlakatlarda zamonaviy ta'lim tizimining bir qismiga aylangan, internet yordamida o'quvchi kerakli ma'lumotlarni, boshqa joydan topish qiyin bo'lgan hujjatlarni, turli xil video va fotomateriallarni va hokazolarni tezda olish imkoniyatiga ega. Masalan, o'quvchilar dars jadvalini, uy vazifalarini ko'rishlari, o'qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqot qilishlari mumkin.

Internetdan foydalanib, o'quvchi quyidagi ijobiy imkoniyatlarga ega bo'ladi: turli elektron kutubxonalariga kirish, ma'lumotnomalar (geografik, maxsus, manzil va boshqalar), lug'atlar; xabarlar, hujjatlar, matnlar, audio, foto va video materiallar yuborish va qabul qilish, so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish; ko'pgina fanlarni masofadan turib o'rganish; o'quv viktorinalarida, olimpiadalarda, tanlovlarda, televizion tadbirlarda, ilmiy konferensiyalarda qatnashish; elektron pochtdan foydalanish; kompyuterga kerakli ma'lumotlarni, o'quv dasturlarini va hokazolarni yuklab olish. Internetning axborot ta'lim

muhiti talabani o'z bilimni kengaytirish va chuqurlashtirishga, ta'lim muammolarini hal qilishda mustaqil va ijodiy mehnat qilishga undaydi. O'quvchi o'zini dunyo fuqarosi sifatida his qilishi, boshqa shahar va mamlakatlardagi tengdoshlari, qiziqarli odamlar bilan muloqot qila olishi muhimdir. O'qituvchilarning internet resurslari bilan doimiy ishlashi o'quvchi va talabani tadqiqotchi sifatida faol ishtirokini talab qiladi. Biroq, internet bolalar "cheksiz" kibermakonda duch kelishi mumkin bo'lgan ko'plab tahdidlarga to'la, shuning uchun o'qituvchilar va ota-onalar o'quvchi kirish huquqiga ega bo'lgan ma'lumotlarni nazorat qilishlari kerak.

Maktab o'quvchilari uchun internetning psixologik tomondan o'quvchilarning ta'lim salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi roli katta bo'lishiga qaramay, internet tahdidlari deb ataladigan bir qator salbiy jihatlarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. O'quvchi bilim va hayot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni nafaqat tengdoshlari, qarindoshlari bilan muloqot qilish tajribasidan, balki ommaviy axborot vositalaridan (kitoblar, radio, televidenie, internet va boshqalar) ham oladi. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining beqarorligi, madaniy inqirozlar, ommaviy axborot vositalarida talonchilik, qotilliklar, zo'rlashlar, jinoiy o'zaro to'qnashuvlar ta'lim oluvchilar auditoriyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Televidenie endi bolalarni tarbiyalamaydi, axloqiy va estetik ongni shakllantirmaydi.

Haqiqiy hayotda muloqot etishmasligini boshdan kechirayotgan o'quvchi ongsiz ravishda internetdagi muloqot tajribasini kundalik hayotdagi muloqotga o'tkazadi. Minimal hayotiy tajribaga ega bo'lgan bolalar global internet tarmog'idagi tahdidlarni ko'rmaydilar. Hamma ota-onalar ham farzandlariga yordam bera olmaydi, ko'pchilik kompyuter o'yinlari, maktab o'quvchilari uchun mo'ljallanmagan internet saytlarini yaxshi bilishmaydi [2]. Internetdagi ta'lim muhitiga asosiy tahdidlar: jinoyat, dezinformatsiya, kibr jinoyatlari, spam; ruxsatsiz kirish, ma'lumotni o'g'irlash; o'g'irlik, shantaj, qo'rqitish, odamlarni manipulyatsiya qilish va hokazo. O'qituvchilar maktab o'quvchilarining mobil telefon va planshetlarga katta qiziqishidan xavotirda. Maktablarda mobil telefondan internetga kirish mumkin, maktab o'quvchilari orasida porno saytlarga ishtiyoqi baland. Tarmoq filtrlari yo'qligi maktab o'quvchilari ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga bevosita salbiy ta'sir etish kuchiga egaligi eng kata muammo hisoblanadi. Internetdagi virtual aloqa o'quvchi kim bilan muloqot qilayotgani haqida aniq tasavvurga ega emas, shuningdek, bu holatning uzoq vaqt davomiyligi natijasida shaxslararo aloqaning yo'qligi o'smirning og'zaki nutqi, imo-ishoralari, yuz ifodalari, pantomimikasining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Aloqalar doirasi katta bo'lganligi sababli, o'smir kommunikativ dialogni to'liq o'tkaza olmaydi: "kontaktlar" paydo bo'ladi, lekin do'stlar qo'shilmaydi. Bu hol o'quvchi fiziologiyasida ham o'z aksini topadi, axborot texnologiyalaridan uzoq muddat foydalanish umurtqa o'sishini, immun tizimini, tomirlarning ishini, holatini va qo'llarning bo'g'imlarini yomonlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab zararli havolalar va tasdiqlanmagan ilovalar mavjud, shuning uchun o'quvchi kiberbulling (o'smirlar virtual terrori) qurboniga aylanishi mumkin. Internetdagi barcha ma'lumotlarni nazorat qila olmaslik, bolalar qaysi saytlarga kirishini, unga nima qilishni maslahat berishlarini (giyohvand moddalar, portlovchi moddalar) oldindan aytib bera olmaslik maktab jamoasini profilaktika choralarini ko'rishga majbur qilmoqda. Internetga kirish imkoninng borligi va undan uzoq vaqt foydalanish o'smirlarda depressiv va agressiv holatlarni keltirib chiqaradi. Tanishlar va do'stlarning go'zal hayotiga qarab, o'smirlar o'zlarini ular bilan taqqoslaydilar va ularning tanishlari yaxshilanib borayotganini ko'radilar: fotosuratlar, zamonaviy gadjetlar, avtomobillar va shunga o'xshash moddiy predmetlar. Shu bilan birga onlayn o'yinlarda, qimor o'yinlarida faol ishtirok etish va virtual dunyoga

qaramlikka, ruhiy buzuqlikka va natijada ruhiy tushkunlik va jismoniy charchashga va hatto jinoyat sodir etishga olib keladi. Kiberxondriya [3] kasalliklar haqida o'qish natijasida yuzaga keladi, ularning batafsil tavsifi internetda juda ko'p. Sog'lom maktab o'quvchisi, oddiy shamollash, o'zida jiddiy kasallik va bir nechtasini topishi mumkin. Bunga o'zini ishontirgandan so'ng, u haqiqatan ham kasal bo'lib qolishi mumkin. Kolumbiya universiteti olimlari "Google Effect" tadqiqoti natijalarini e'lon qildi. Ma'lum bo'lishicha, gadjetlarga juda tez-tez kirish axborotni saqlash jarayonlariga ta'sir qiladi. "Agar odam kerak bo'lsa, uni qaerdan topishni bilsa, uni eslab qolish qiyinroq", deydi psixolog Betsi Sperrou. Bunday saqlash turi tranzaksion saqlash deb ataladi. Biz ma'lumotni o'zi eslay olmaymiz, lekin uni qaerdan olishni eslaymiz"[4]. BMT Bolalar jamg'armasi va UNICEF tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, tarmoqdan foydalanish jarayonida talabalarning 82-85% i kunduzi statik holatda (o'tirish) o'tkazadi. Hatto kichik maktab o'quvchilarining ixtiyoriy motor harakati (yurish, o'yinlar) kunning atigi 16-19% ni tashkil qiladi, shundan jismoniy harakatning uyushgan shakllari faqat 1-3% ni tashkil qiladi. Bolalarning umumiy jismoniy faolligi maktabga qabul qilingandan boshlab 50% ga qisqaradi [5]. Bu esa yoshlarning uzoq vaqt tarmoqda bo'lishi rivojlanayotgan fiziologiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uni noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi vaqtda jamiyat ta'limning o'ta muhim o'zgarishlari ostonasida - axborotdan cheksiz foydalanish sharoitida turibdi. Shu munosabat bilan, zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri axborot bilan ishlashni o'rganishdir. Salbiy ma'lumotlarning bolalarga ta'sirini butunlay to'xtatish yoki cheklash mumkin emasligi sababli, maktab o'quvchilarini yaxshini yomondan ajratishni o'rgatish kerak. Zamonaviy ta'lim maktablari muammosi ham ochiq axborot ma'lumotlarni tanlashni o'rgatish vazifasi bajarilishini e'tibordan chetda qoldirishmoqda. Ushbu masala horijda ta'riflangan muammolarni hal qilish yo'llari uzoq vaqt davomida ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'lgan. Misol uchun, XX asrning 2-yarmidan boshlab Evropada shartli ravishda "baholash" deb nomlangan kontseptsiya mavjud edi. Bu birinchi navbatda ommaviy axborot vositalarining manipulyatsiyasiga qarshi o'quvchi psixikasining "immunitet" fazilatlarini rivojlantirish muammolarini ilgari surgan. Mualliflarning asosiy maqsadi "axborot muhofazasi" rolini o'ynaydigan tanqidiy fikrlashni shakllantirishdan iborat bo'lgan.

Zamonaviy ta'lim muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanish salbiy axborotning zararli ta'sirini oldini oladi. Tanqidiy fikrlash ijodiy, analitik va konstruktiv fikrlashdir. Bunday fikrlash o'quvchiga, keyinchalik mehnat faoliyatida insonga shaxsiy va professional hayotda o'z ustuvorliklarini aniqlashga yordam beradi, tanlov uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, axborot madaniyati darajasini oshiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning hissiy va axloqiy jihati ota-ona tarbiyasiga, ya'ni oilada tarbiyalashga asoslangan. Bu bolaning yoshiga mos keladigan ijtimoiy jihatdan tasdiqlangan xatti-harakatlarni rag'batlantirish va jamoat axloqi va axloq me'yorlariga mos kelmaydigan xatti-harakatlarni qoralashni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda o'smirlarning ijtimoiylashuvi jamiyatning bunday normalarni buzishga nisbatan befarq munosabati sharoitida yuzaga keladi. Ko'pincha, o'smirlarning deviant, va axloqsiz xatti-harakatlari jamoatchilik tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi va bunday xatti-harakatlarni (masalan, siyosiy oqimlar, mazhablar va boshqalar) rag'batlantirish hollari kam uchraydi. Ta'lim tizimi va oila nafaqat bunday xatti-harakatni, balki barcha ijtimoiy tuzilmalarni, davlat va xususiy madaniyat muassasalarini, shuningdek, ma'naviy salomatlik va bolalik

davridagi axborot xavfsizligi uchun tarixiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan ommaviy axborot vositalarini ham qoralashi kerak.

Psixologik omillar, maktab o'quvchilarining axborot va psixologik xavfsizligini ta'minlash. Zamonaviy maktabda psixologik-pedagogik yordamning asosiy maqsadi internetning barcha ijobiy funksiyalarini saqlab qolgan holda, o'quvchining paydo bo'lgan shaxsini zararli axborot ta'siridan himoya qilishdir. Aytish joizki, jamiyatda axborot xavfsizligi muammosi internetdan ham qadimiy. Ma'lumki, ba'zi olimlar 20-asrning boshlarida jamiyatning axborot va psixologik xavfsizligi haqida gapira boshladilar, ular bosma ommaviy axborot vositalaridan (gazetalar, jurnallar) tahdidlar haqida gapirdilar, keyinchalik ular televidenie orqali kelayotgan ma'lumotlarga nisbatan xavfsizlik haqida gapira boshladilar. Aynan shuning uchun ham zamonaviy psixologiya u yoki bu kanal orqali kelayotgan ma'lumotlarning xavfini baholash va undan himoyalani sh imkonini beruvchi kuchli vositalar to'plamini ishlab chiqishga majbur bo'lmoqda. Biroq, kiruvchi ma'lumotni insonning kognitiv qayta ishlash imkoniyatlarining chegaralari mavjud, qanchalik ko'p ma'lumot kirsam, uni tushunish shunchalik qiyin bo'ladi va ishlarning haqiqiy holatini ko'rsatadigan ma'lumotni manipulyatsiyadan ajratish qiyin kechadi.

Bolalar uchun axborot muhitining qoniqarli darajadagi xavfsizligi ta'minlanishini quyidagicha izohlash o'rinli:

- bolaning hissiy qulayligi: bolaning yoshi ehtiyojlarini hisobga olgan holda aks ettiradigan hamda uni shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyat yaratadigan axborot muhiti bola uchun qulay bo'lishi;

- bolaning axborot ehtiyojlarini qondirish: axborot ehtiyojlari-muayyan masala bo'yicha axborotga shaxsning sub'ektiv ehtiyoji, mavzuning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan masalalar va uning bilimiga tayyorligi bilan ifodalanishi;

O'quvchi kognitiv qobiliyatlar asosida tashkil qilinadigan o'z-o'zini axborot va psixologik xavfsizlik bilan qay darajada ta'minlay oladi. Zero, zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "individual ong sohasida axborot va psixologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy ob'ekti - bu insonning atrofdagi voqelikni, uning tashqi dunyodagi o'rnini adekvat idrok etish, o'z hayotiga mos ravishda ma'lum e'tiqodlarni shakllantirish qobiliyatidir". Axborot va psixologik xavfsizlik nuqtai nazaridan tavsiyalarni kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilishda o'quvchilarni salbiy ma'lumotlardan, shu jumladan texnik jihatdan to'liq himoya qilish mumkin emas.

Adabiyotlar

1. Березина Т.Н. Об эмоциональной безопасности образовательной среды. // Психология и психотехника. 2013. № 9. С. 897-902.
2. Маликс Т.А., Информационная безопасность школьников. // Спутник Классного руководителя, 2010, № 3.
3. Погуглите о своем здоровье: почему некоторые испытывают больше беспокойства // [Электронный ресурс] -URL: <http://www.livescience.com/40361-un-surety-fuels-cyberchondria.html>.
4. Всемирная организация здравоохранения «Глобальные рекомендации по физической активности для здоровья», 2010. URL: <https://www.who.int/dietphysicalactivity/publications/9789241599979/ru/>.
5. «Эффект Google»: информацию не запоминаем, а ставим. // [Электронный ресурс] -URL: <http://www.akavita.com/content/effekt-google-mi-zapominaem-ne-informatsiyu-put-k-ney>.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; orientatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.
- research.samdu.uz platformasiga maqolalar yuboriladi

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **A. I. Inatov**

Muharrirlar:

I. Sulaymonov - fil.f.n., dotsent
E. U. Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O. Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
X. S. Haydarov - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga
12.02.2022 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 516. Adadi 30 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.